ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
O. Ganiyev	4	Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish: jamoatchilik fikri asosida empirik tahlil
M. Pardayeva	13	Yangi o'quv yilining dastlabki 30 kunida maktab boshqaruvi: strategik ustuvorliklar va boshqaruv amaliyotining diagnostik tahlili
A. Xolmurodov	22	Pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish: muammolar, huquqiy asoslar va istiqboldagi yo'nalishlar (Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi misolida)
X. Nurmetov	26	Ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari
U. Xasanov	30	Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
U. Toxirov	33	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda "PBL" va "Sun'iy intellekt" vositalarini birgalikda qo'llashning pedagogik muammolari va ularning yechimlari
D. Kamoljonova	38	Mutolaa sotsiometrik munosabatlarni shakllantiruvchi madaniy vosita sifatida
B. A'zamov	42	Multimedia texnologiyalari orqali talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish
R. Quziyev	46	O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati
D. Mo'ydinova	50	Talabalarda shaxsiy e'tiqodini shakllantirish texnologiyasi
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
Z. Taxirov	53	Uslubiyatning fonetik vositalari
D. Il'yasova	58	Bolalar adabiyoti vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
N. Kamolova	61	Kimyo ta'limida o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
M. Kenjayeva	70	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari
D. Sadikov	74	Organik kimyo darslarida laboratoriya mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Sayidova	79	Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologik ta'lim mazmunida ilg'or texnologiyalarning aks etishi
J. Buriyev	83	Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish
U. Toxirov	86	Oliy ta'lim jarayonida muammoli ta'lim (pbl) texnologiyasi bilan sun'iy intellekt vositalarini integratsiyalashning pedagogik salohiyati

N. Temirov, X. Sirojiddinova	91	O‘quv jarayonini rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanish
		TA’LIMDA MENEJMET
Q. Almardanov	94	Maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish jarayonlarini optimallashtirish
		TA’LIMDA IQTISODIOT VA MOLIYALASHTIRISH
N. Boymuradov	103	Maktabgacha ta’lim tashkilotida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy boshqaruv modeli
A. Boltaev	109	Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va ularni samarali boshqarish
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
N. Dushayeva	115	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik etikani shakillantirish vositalari va shartlari
		PSIXOLOGIYA
X. Toshturdieva	119	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini deontologik qobiliyatlarini shakllantirishning hozirgi holati
M. Muzaffarova	127	Raqamli jamiyat sharoitida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining raqamli sotsializatsiyasi va ota-onalik kompetentligining psixologik-pedagogik determinantlari
D. Adilova	131	Jamoadagi konfliktlarni boshqarish va ularni konstruktiv murosaga olib kelishning zamonaviy mexanizmlari
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
D. Zayniddinova	135	Markaziy osiyoda suv resurslari muammosi va barqaror boshqaruv strategiyalari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
D. Xoliqulova	138	Mehrli maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi

Otabek GANIYEV,
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat bo'limi boshlig'i o'rinbosari

TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH: JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish masalasi jamoatchilik fikri asosida tahlil qilingan. Tadqiqot 14 ta hududdan 113 188 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga asoslangan. Korrupsiyaga qarshi immunitetning axloqiy-qadriyatli, huquqiy-xabardorlik, xulq-atvor, institutsional va ijtimoiy-jamoaviy komponentlari tahlil qilinib, ularni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari korrupsiyaga qarshi immunitetni faqat shaxsiy munosabat emas, balki halollik, huquqiy xabardorlik, korrupsiyaga murosasiz xulq-atvor, shaffof boshqaruv va jamoatchilik ishtiroki uyg'unligi asosida shakllantirish zarurligini ko'rsatdi.

Tayanch so'zlar. Korrupsiya, korrupsiyaga qarshi immunitet, ta'lim tizimi, maktab, maktabgacha ta'lim, jamoatchilik fikri, halollik, shaffoflik, hisobdorlik, meritokratiya, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiya xavfi.

В статье анализируется вопрос формирования антикоррупционного иммунитета в системе образования на основе общественного мнения. Исследование основано на результатах опроса, в котором приняли участие 113 188 респондентов из 14 регионов. Проанализированы морально-ценностный, право просветительский, поведенческий, институциональный и социально-общественный компоненты антикоррупционного иммунитета, а также определены приоритетные направления их формирования. Результаты исследования показывают, что антикоррупционный иммунитет следует рассматривать не только как личное отношение к коррупции, но и как интеграцию честности, правовой осведомлённости, нетерпимости к коррупции, прозрачного управления и общественного участия.

Ключевые слова. Коррупция, антикоррупционный иммунитет, система образования, школа, дошкольное образование, общественное мнение, честность, прозрачность, подотчётность, меритократия, конфликт интересов, коррупционные риски.

This article analyzes the formation of anti-corruption immunity in the education system based on public opinion. The study is based on the results of a survey involving 113,188 respondents from 14 regions. The moral-value, legal-awareness, behavioral, institutional, and social-community components of anti-corruption immunity were analyzed, and priority areas for their development were identified. The findings indicate that anti-corruption immunity should not be viewed merely as an individual attitude, but rather as an integrated combination of integrity, legal awareness, intolerance toward corruption, transparent governance, and public participation.

Key words. Corruption, anti-corruption immunity, education system, school, preschool education, public opinion, integrity, transparency, accountability, meritocracy, conflict of interest, corruption risk.

Korrupsiya jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab institutsional hodisa bo'lib, uning ta'lim tizimida namoyon bo'lishi alohida xavfli hisoblanadi. Chunki ta'lim sohasida korrupsiya nafaqat moliyaviy resurslarning samarasiz yoki noqonuniy taqsimlanishiga, balki inson

kapitali sifati, ta’lim olish imkoniyatlarining tengligi, pedagogik kasbning nufuzi va ta’lim muassasalariga bo‘lgan ishonchning pasayishiga ham olib kelishi mumkin.

Hallak va Poisson ta’lim sohasida korrupsiya tenderlarni soxtalashtirish, mablag‘larni o‘zlashtirish, noqonuniy to‘lovlar, pedagoglarni ishga qabul qilish va lavozimga ko‘tarishda pora, akademik firibgarlik kabi turli shakllarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Mualliflar ta’limda korrupsiya muammolarini aniqlashda perception surveys – jamoatchilikning korrupsiyani idrok etishi va unga munosabatini o‘rganuvchi so‘rovnomalardan foydalanishni ham muhim instrument sifatida ko‘rsatgan [1].

Ta’limda korrupsiyaning oldini olish masalasi, shuningdek, shaffoflik va hisobdorlik bilan bevosita bog‘liq. UNESCOning Ta’limni rejalashtirish xalqaro instituti ta’lim sohasida korrupsiya moliyalashtirish, xodimlarni ishga qabul qilish va lavozimga ko‘tarish, o‘quv materiallarini yetkazib berish hamda o‘quvchilarni qabul qilish kabi jarayonlarning turli bosqichlarida yuzaga kelishi mumkinligini qayd etadi. Shuning uchun ta’limda yaxshi boshqaruv, shaffoflik va hisobdorlik korrupsiyaning oldini olishning muhim shartlari sifatida qaraladi [5, 7].

Korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional jihatini tushunishda Kaufmann, Kraay va Mastruzzi tomonidan ishlab chiqilgan Worldwide Governance Indicators yondashuvi ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mualliflar boshqaruv sifatini Voice and Accountability, Political Stability and Absence of Violence, Government Effectiveness, Regulatory Quality, Rule of Law va Control of Corruption kabi olti o‘lchov orqali baholagan. 2003-yilgi tadqiqotda 199 mamlakat va hudud bo‘yicha 1996, 1998, 2000- va 2002-yillar uchun ko‘rsatkichlar shakllantirilgan bo‘lib, ular yuzlab perception variables va 25 ta ma’lumot manbasiga asoslangan [2, 3].

Mazkur yondashuvdan ta’lim tizimi darajasida foydalanilganda korrupsiyaga qarshi immunitetni ham jamoatchilikning xabardorligi, hisobdorlikka munosabati, qonun ustuvorligi, korrupsiya haqida xabar berishga tayyorligi va institutsional shaffoflik bilan bog‘lash mumkin.

Shu nuqtayi nazardan tadqiqotning asosiy maqsadi – ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish holatini jamoatchilik fikri asosida empirik tahlil qilish hamda uning asosiy komponentlarini aniqlashdan iborat.

“Immunitet” tushunchasi dastlab biologik fanlar doirasida organizmning tashqi zararli ta’sirlarga qarshi turish qobiliyatini ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik mazkur tushuncha psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik va pedagogikada ham qo‘llanila boshladi. Ushbu tadqiqotda korrupsiyaga qarshi immunitetni insonning korrupsiyaviy ta’sirni anglashi, uni rad etishi, korrupsiyaga moyil vaziyatlarda barqaror axloqiy-huquqiy pozitsiyani saqlashi va zarur hollarda belgilangan mexanizmlar orqali unga qarshi harakat qilishi bilan bog‘liq integrativ sifat sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv OECDning public integrity bo‘yicha ta’lim konsepsiyasi bilan ham uyg‘un. OECD maktab ta’limi orqali korrupsiyaga qarshi bilim, qadriyat, ko‘nikma va qonun ustuvorligiga hurmatni shakllantirishni jamoat halolligi madaniyatini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida ko‘radi [4].

Bizningcha, ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni faqat “korrupsiyani yomon deb bilish” bilan belgilash metodologik jihatdan yetarli emas. U kamida beshta o‘zaro bog‘liq komponentdan tashkil topishi lozim:

Axloqiy-qadriyatli komponent – halollik, adolat va korrupsiyaga murosasizlik.

Huquqiy-xabardorlik komponenti – qonunchilik, huquq va majburiyatlar, xabar berish mexanizmlarini bilish.

Xulq-atvor komponenti – korrupsiyaviy taklifni rad etish va korrupsiya holati haqida xabar berishga tayyorlik.

Institutsional komponent – shaffoflik, meritokratiya, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, ichki nazorat.

Ijtimoiy-jamoaviy komponent – ota-onalar, aholi, pedagoglar va boshqa manfaatdor tomonlarning korrupsiyaga qarshi jarayonlarda ishtiroki.

Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi immunitetni shaxsiy fazilat va institutsional muhitning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi integrativ tizim sifatida qarash mumkin.

Tadqiqotda maktabgacha va maktab ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan turli darajadagi xodimlar, aholi hamda ota-onalar o‘rtasida o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma natijalaridan foydalanildi. So‘rovnoma O‘zbekiston Respublikasining 14 ta hududini qamrab olgan va unda jami 113 188 nafar respondent ishtirok etgan. Hududlar kesimida eng ko‘p ishtirokchilar Farg‘ona viloyati - 20 176 nafar, Toshkent viloyati - 17 672 nafar, Surxondaryo viloyati - 15 466 nafar, Andijon viloyati - 11 876 nafar va Namangan viloyati - 10 378 nafarni tashkil etgan [9].



Respondentlarning asosiy qismi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlari - 76 962 nafar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari - 29 651 nafardan iborat bo‘lgan. Qolgan ishtirokchilar boshqa tizim tashkilotlari, tuman/shahar bo‘limlari, oliy ta’lim muassasalari, maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari va hududiy boshqarmalar vakillarini qamrab olgan [9].

Tadqiqotda deskriptiv statistik tahlil, qiyosiy tahlil, mazmuniy guruhlash va konseptual interpretatsiya usullaridan foydalanildi. So‘rovnoma natijalari korrupsiyaga qarshi immunitetning yuqorida ko‘rsatilgan besh komponenti asosida guruhlandi.

So‘rovnoma natijalari va ularning tahlili. Axloqiy-qadriyatli komponent: halollik va korrupsiyaga murosasizlik. So‘rovnomaning ikkinchi savolida korrupsiyaning oldini olishda qaysi omil eng muhim ahamiyatga ega ekanligi so‘ralgan. Natijalarda halollik 65 097 nafar, ya’ni qayta hisoblangan holda 57,51% respondent tomonidan birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Samarali nazorat tizimi 15,19%, kasbiy bilim va malaka 10,68%, ta’lim va tarbiya 10,39%, mas’uliyat esa 6,22 % ulushga ega bo‘lgan [9].



Bu natija korrupsiyaning oldini olishda respondentlar ongida shaxsiy axloqiy pozitsiya institutsional nazoratdan oldingi omil sifatida qabul qilinayotganini ko‘rsatadi. Biroq halollikning yuqori baholanishi avtomatik ravishda korrupsiyaga qarshi xulq-atvor shakllanganini anglatmaydi. Buni keyingi savollar natijalari bilan qiyoslash muhim.

Xususan, “tashkilotingizda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllangan deb hisoblaysizmi?” degan savolga 51 051 nafar, ya’ni 45,10% respondent “ha”, 62 137 nafar (54,90%) esa “yo‘q” deb javob bergan. Bu ikki natija o‘rtasida juda muhim tafovut mavjud: respondentlar korrupsiyaning oldini olishda halollikni eng muhim omil, deb baholagan bo‘lsalar-da, tashkilot muhitida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat yetarlicha shakllangan, degan fikrni bildirganlar ulushi 45,10%dagina qolgan [9].

Demak, individual qadriyatni e’tirof etish bilan institutsional muhitda mazkur qadriyatning amalda namoyon bo‘lishi o‘rtasida tafovut mavjud.

Bu natija asosida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishda halollik g‘oyasini targ‘ib qilishning o‘zi yetarli emas balki uni tashkilotning kundalik boshqaruv amaliyoti, rahbarlik uslubi va qaror qabul qilish mexanizmlariga integratsiya qilish zarur.

Huquqiy-xabardorlik komponenti: xabar berish mexanizmlari. So‘rovnomaning 4-savolida korrupsion holatlar to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallaridan xabardorlik o‘rganilgan. 77 776 nafar (68,71%) respondent bunday kanallardan xabardorligini, 35 412 nafar (31,29%) esa xabardor emasligini bildirgan [9].

Bu natija ta’lim tizimi ishtirokchilarining aksariyat qismi korrupsiya haqida xabar berishning mavjud mexanizmlari to‘g‘risida ma’lumotga ega ekanini ko‘rsatadi. Biroq har uch respondentdan qariyb biri bunday kanallardan xabardor emasligi ushbu yo‘nalishda axborot-kommunikatsiya ishlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

5-savolda korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarning huquqlari yetarli himoya qilinadimi, degan savolga 87 832 nafar (77,60%) “ha”, 25 356 nafar (22,40%) “yo‘q” deb javob bergan [9].

6-savolda esa respondentlarning 80 799 nafari (71,38%) korrupsiya haqida xabar beruvchi shaxslarni himoya qilish, ularni rag‘batlantirish va kafolatlar bo‘yicha cheklovlar haqida xabardorligini bildirgan. Bu ko‘rsatkichlar huquqiy-xabardorlik komponenti nisbatan yaxshi shakllanganini ko‘rsatadi. Lekin huquqiy bilimning mavjudligi bilan amaliy harakat o‘rtasida farq bor-yo‘qligini 8-savol natijalari ko‘rsatadi.

Xulq-atvor komponenti: korrupsiya haqida xabar berishga tayyorlik. “Korrupsiya haqida xabar berishga shaxsan sizga qaysi omil to‘sqinlik qilishi mumkin?” degan savolga respondentlarning 59,35%i hech qanday to‘siq yo‘q deb javob bergan. Biroq 10,15% murojaat qaerga va qanday tartibda qilinishi bo‘yicha ma’lumotga ega

emasligini, 9,33% tazyiq yoki salbiy oqibatlardan qo‘rqishini, 9,26% murojaat natijasiga ishonchsizlikni, 6,08% anonimlik ta’minlanmasligini va 5,83% befarqlikni qayd etgan [9].

Bu yerda muhim ilmiy xulosa paydo bo‘ladi. Respondentlarning katta qismi xabar berishga to‘siq yo‘qligini aytsa-da, jami qariyb 40% atrofidagi javoblar turli institutsional, axborotiy va psixologik to‘siqlarni ko‘rsatadi.

Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi immunitetning xulq-atvor komponenti faqat “korrupsiyaga qarshiman” degan pozitsiya bilan emas, balki: xabar berishni bilish → himoyaga ishonish → salbiy oqibatdan qo‘rqmaslik → amalda xabar berish zanjiri orqali shakllanadi.

Institutsional immunitet: korrupsiya xavflari va boshqaruv jarayonlari. So‘rovnomaning 7-savolida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar o‘rganilgan. 90 165 nafar (79,66%) respondent bunday holatlar mavjud emasligini, 23 023 nafar (20,34%) esa mavjudligini bildirgan [9]. 20 foizdan ortiq respondentning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlarni qayd etishi institutsional profilaktika uchun jiddiy signal sifatida baholanishi lozim. Chunki manfaatlar to‘qnashuvi korrupsiyaning o‘zi bo‘lmasligi mumkin, ammo u nazoratsiz qolgan taqdirda korrupsiyaviy qarorlar uchun sharoit yaratishi mumkin.

So‘rovnomaning 12-savoli korrupsiya xavflari nisbatan ko‘proq uchraydigan faoliyat sohalarini aniqlashga qaratilgan. Eng yuqori ko‘rsatkich ishga joylashish bilan bog‘liq bo‘lib, 57 158 nafar respondent mazkur sohani tanlagan. Keyingi o‘rinlarda lavozim pog‘onasini oshirish – 12 926 nafar, davlat va boshqa mukofotlarga tavsiya qilish – 10 367 nafar, o‘qituvchilarga dars soatini taqsimlash – 6 912 nafar, o‘quvchini ko‘chirish – 6 493 nafar, davlat xaridlarini amalga oshirish – 6 223 nafar, maktabgacha ta’lim muassasalariga tarbiyalanuvchilarni qabul qilish – 5 387 nafar, o‘quvchilarni 1-sinfga qabul qilish – 4 322 nafar hamda malaka oshirish – 3 400 nafarni tashkil etgan [9].

Mazkur natijalar juda muhim. Chunki ular korrupsiya xavflari asosan inson resursi va boshqaruv qarorlari bilan bog‘liq jarayonlarda ko‘proq idrok etilayotganini ko‘rsatadi.

Bu Hallak va Poissonning ta’limda korrupsiya xavflari xodimlarni ishga qabul qilish, lavozimga ko‘tarish, moliyaviy resurslar va boshqa boshqaruv jarayonlarida yuzaga kelishi mumkinligi haqidagi yondashuvi bilan uyg‘un [1, 5]. Demak, ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishda rahbarlarning kadrlar bilan ishlash, resurslarni taqsimlash va qaror qabul qilish kompetensiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Meritokratiya va korrupsiyaga qarshi institutsional immunitet. So‘rovnomaning 13-savolida maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga ishga kirishda meritokratiya tamoyilining amal qilishi baholangan. 42 675 nafar (37,70%) respondent “ha, to‘liq”, 59 574 nafar (52,63%) “qisman”, 10 939 nafar (9,66%) esa “yo‘q” deb javob bergan [9]. Bu natijaga ko‘ra, respondentlarning yarmidan ko‘pi meritokratiya tamoyili qisman amalga oshirilayotganini ta’kidlagan. Demak, ta’lim tizimida kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonlarida ob’ektivlik va shaffoflikni kuchaytirish uchun hali imkoniyat mavjud.

Mazkur natija 12-savol bilan ham mantiqan bog‘liq: korrupsiya xavfi eng yuqori deb baholangan jarayon – ishga joylashish. Shu bilan birga, meritokratiyaning to‘liq amal qilishiga ishonch bildirganlar ulushi 37,70%ni tashkil etmoqda.

Bu ikki natija birgalikda kadrlar siyosati ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetning eng muhim institutsional nuqtalaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Korrupsiya xavflarining tizim darajasidagi taqsimoti. 14-savolda korrupsiya holatlari tizimning qaysi darajasida ko‘proq uchrashi mumkinligi o‘rganilgan. Respondentlar orasida ta’lim muassasalari va tashkilotlarida korrupsiya holatlari nisbatan ko‘proq uchraydi, degan javobni 31 756 nafar (28,06%) tanlagan. Vazirlik tizimidagi boshqa tashkilotlar – 23 877 nafar (21,09%), viloyat darajasi – 20 335 nafar (17,97%), tuman darajasi – 19 125 nafar (16,90%), vazirlik markaziy apparati – 16 582 nafar (14,65%), maktab va bog‘chalar darajasi esa 1 513 nafar (1,34%) tomonidan tanlangan [9].

Bu natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak. So‘rovnoma real korrupsiya holatlarining statistik sonini emas, respondentlarning idrokini aks ettiradi. Shuning uchun ushbu ma’lumotlar “korrupsiya aynan shu darajada ko‘proq sodir bo‘ladi” degan qat’iy xulosa uchun emas, balki korrupsiya xavfi qaysi boshqaruv nuqtalarida yuqori deb qabul qilinayotganini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Bu jihat Hallak va Poissonning perception survey yondashuvi bilan ham uyg‘un: idrok so‘rovnomalari korrupsiyaning mavjudligi haqida bevosita jinoiy statistika o‘rnini bosmaydi, ammo korrupsiya xavflarini aniqlash va profilaktik siyosatni yo‘naltirish uchun muhim axborot beradi [1, 5].

Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligi. 11-savolda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligi baholangan. Absolyut sonlar asosida qayta hisoblanganda, 54 983 nafar (48,58%) respondent ularni “yaxshi”, 45 503 nafar (40,20%) “qoniqarli”, 12 702 nafar (11,22%) esa “qoniqarsiz” deb baholagan [9].

Bu natija, bir tomondan, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarga ijobiy baho berilayotganini ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, “yaxshi” va “qoniqarli” baholar o‘rtasidagi katta ulush korrupsiyaga qarshi siyosatni yanada institutsionallashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

15-savolda korrupsiya holatlarini aniqlash darajasi baholanganda 50 895 nafar (44,97%) “qoniqarli”, 46 597 nafar (41,17%) “yaxshi”, 15 696 nafar (13,87%) “qoniqarsiz” degan javobni bergan [9].

Demak, profilaktika va aniqlash mexanizmlariga nisbatan ijobiy munosabat mavjud bo‘lsa-da, respondentlarning salmoqli qismi ularni faqat “qoniqarli” darajada baholamoqda. Bu korrupsiyaga qarshi tizimni mukammal ishlayotgan tizim emas, balki takomillashtirish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan tizim sifatida baholashga asos beradi.

Noqonuniy yig‘imlar va ta’limda kundalik korrupsiya xavfi. 16-savol natijalari ham alohida ahamiyatga ega. Xizmat vazifalarini bajarish jarayonida noqonuniy yig‘imlar, shaxsiy xarajatlarni qoplash, majburiy obuna yoki boshqa noqonuniy moliyaviy talablarga duch kelmaganlar 75 457 nafar (66,67%), duch kelganlar esa 37 731 nafar (33,33%)ni tashkil etgan [9].

Bu natija ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetning institutsional komponenti uchun jiddiy ahamiyatga ega. Chunki respondentlarning uchdan bir qismiga yaqini bunday holatlarga duch kelganini bildirgan.

Bu yerda korrupsiyaga qarshi immunitetning profilaktik funksiyasi namoyon bo‘ladi. Ya’ni tizimda korrupsiyaga qarshi immunitet shakllangan bo‘lsa, noqonuniy talablar nafaqat sodir etilmasligi, balki ularga nisbatan murosasiz munosabat ham shakllanishi kerak.

Pedagogik muhit va inson qadr-qimmati. 17-savolda pedagoglar va o‘quvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish holatlariga guvoh bo‘lish holati o‘rganilgan. 74 837 nafar (66,12%) respondent bunday holatga guvoh bo‘lmaganini, 38 351 nafar (33,88%) esa guvoh bo‘lganini bildirgan. Bu savol to‘g‘ridan-to‘g‘ri korrupsiya haqida bo‘lmasa-da, korrupsiyaga qarshi immunitetning axloqiy-pedagogik muhitini tushunish

uchun muhimdir. Chunki inson qadr-qimmatini hurmat qilish, adolatli munosabat, bosim va kamsitishga murosasizlik ta’lim muassasasida halollik madaniyatining muhim qismlaridir. Shu sababli korrupsiyaga qarshi immunitetni faqat moliyaviy va huquqiy xavflar bilan cheklash emas, balki pedagogik etika va inson qadrini himoya qilish muhiti bilan bog‘lash zarur.

Nodavlat ta’lim va davlat-xususiy sheriklikda korrupsiya xavfi. 18-savolda nodavlat ta’lim muassasalari va davlat-xususiy sheriklik loyihalariga oid ruxsat berish jarayonlarida korrupsiya xavfi mavjudligi o‘rganilgan. 69 458 nafar (61,37%) respondent bunday xavf mavjud emasligini, 43 730 nafar (38,63%) esa mavjudligini bildirgan.

38,63 foizlik ko‘rsatkichni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Bu jamoatchilikning qariyb uchdan biridan ko‘prog‘iga yaqini ruxsat berish va tartibga solish jarayonlarida korrupsiya xavfini ko‘rayotganini anglatadi.

Bu natija Kaufmann, Kraay va Mastruzzining Regulatory Quality tushunchasi bilan bog‘lanishi mumkin. Ular mazkur indikator orqali davlatning samarali siyosat va tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatini baholaydilar [2,3].

Demak, ta’limda korrupsiyaga qarshi immunitetning institutsional komponenti nafaqat ichki nazorat, balki tartibga solish jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ham qamrab olishi lozim.

Attestatsiya va malaka toifalarini berishda shaffoflik. Maqoladagi eng ijobiy natijalardan biri 19-savolda kuzatildi. Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish hamda malaka toifalari berish jarayonlari xolis va shaffof o‘tkaziladimi, degan savolga 91 825 nafar (81,13%) respondent “ha, shaffof”, 21 363 nafar (18,87 foiz) esa “yo‘q, shaffof emas” deb javob bergan [9].

Bu ko‘rsatkich ta’lim tizimida ayrim boshqaruv jarayonlarida shaffoflikka nisbatan jamoatchilik ishonchi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, 18,87 foizlik ulush ham ahamiyatli. Chunki har besh respondentdan qariyb biri attestatsiya va malaka toifasi berish jarayonlarini shaffof deb hisoblamagan. Demak, ijobiy natijani qayd etish bilan birga, shaffoflikka ishonchni yanada mustahkamlash zarur.

Korrupsiyaga qarshi immunitetning empirik-konseptual modeli. Yuqoridagi natijalarni umumlashtirish korrupsiyaga qarshi immunitetni quyidagi zanjir asosida tushunish imkonini beradi:

Ushbu jarayonni besh komponentli model sifatida ifodalash mumkin:

Komponent	Empirik ko‘rsatkichlar	So‘rovnoma natijalari
Axloqiy-qadriyatli	Halollik, murosasizlik	Halollik - 57,51%; murosasiz muhit shakllangan - 45,10%
Huquqiy-xabardorlik	Xabar berish kanallari, himoya mexanizmlari	68,71%; 77,60%; 71,38%
Xulq-atvor	Xabar berishga tayyorlik, to‘siqlar	59,35% - to‘siq yo‘q
Institutsional	Manfaatlar to‘qnashuvi, meritokratiya, korrupsiya xavflari, shaffoflik	20,34% - manfaatlar to‘qnashuvi bor; 52,63% - meritokratiya qisman
Ijtimoiy-jamoaviy	Ogohlik, xabar berish, jamoatchilik ishtiroki	Xabar berish mexanizmlaridan 68,71% xabardor

Bu modelda muhim jihat shundaki, komponentlar bir-biridan mustaqil emas. Masalan, huquqiy mexanizm mavjud bo‘lsa-yu, shaxs undan xabardor bo‘lmasa, uning profilaktik samarasi pasayadi. Aksincha, shaxs korrupsiyaga murosasiz bo‘lsa-yu, xabar berish mexanizmiga ishonmasa, uning axloqiy pozitsiyasi amaliy harakatga aylanmasligi mumkin.

Shu sababli korrupsiyaga qarshi immunitetni “bilish – ishonish – rad etish – xabar berish – jamoaviy nazorat” zanjiri sifatida talqin qilish mumkin.

Olingan natijalar Hallak va Poissonning ta’limda korrupsiyani o‘rganishda perception surveysdan foydalanish zarurligi haqidagi yondashuvini empirik jihatdan rivojlantirish imkonini beradi. Ular ta’limda korrupsiya xavflarini aniqlash bilan bir qatorda shaffof tartibga solish, hisobdorlikni kuchaytirish va boshqaruv salohiyatini oshirish korrupsiyasiz ta’lim tizimini shakllantirishda muhimligini ta’kidlaydi [1].

Tadqiqot natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitet faqat shaxsning axloqiy pozitsiyasiga bog‘liq emas. Masalan, respondentlarning 57,51 foizi korrupsiyaning oldini olishda halollikni eng muhim omil deb baholagan bir paytda, tashkilotda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat to‘liq shakllangan, deb hisoblovchilar 45,10 foizni tashkil etgan. Bu shaxsiy qadriyatlar va institutsional muhit o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi.

Kaufmann, Kraay va Mastruzzining governance yondashuvida ham boshqaruv sifati faqat korrupsiyani nazorat qilish bilan cheklanmay, hisobdorlik, tartibga solish sifati va qonun ustuvorligi kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali tushuntiriladi [3].

Bu yondashuvni ta’lim muassasasi darajasiga moslashtirganda maktab rahbarining korrupsiyaga qarshi immuniteti ham uchta asosiy darajaga ajratilishi mumkin:

1. Shaxsiy daraja – halollik, adolat, mas’uliyat va korrupsiyaga murosasizlik;

2. Kasbiy-boshqaruv darajasi – meritokratiya, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, shaffof qaror qabul qilish, resurslarni adolatli taqsimlash;

3. Institutsional-ijtimoiy daraja – hisobdorlik, jamoatchilik nazorati, xabar berish kanallari va ochiq ma’lumotlar.

OECD ta’lim tizimida halollikni kuchaytirish uchun korrupsiyaga qarshi bilimlar bilan birga qadriyatlar va qonun ustuvorligini o‘qitishni ham muhim deb hisoblaydi [4]. UNESCO va UNODCning 2024 yilgi yondashuvida ham ta’lim yoshlarda halollik, bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirish orqali korrupsiyaga qarshi faol pozitsiyani rivojlantirishi mumkinligi ta’kidlangan [7].

Shuning uchun maktabgacha va maktab ta’limi tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish korrupsiyaga qarshi targ‘ibot tadbirlari bilan cheklanmasligi kerak. U rahbarlarni tayyorlash, pedagoglarning kasbiy etikasi, kadrlar siyosati, davlat xaridlari, manfaatlar to‘qnashuvi, xabar berish mexanizmlari va jamoatchilik nazoratini yagona tizimga birlashtirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan 113 188 nafar respondentni qamrab olgan keng ko‘lamli so‘rovnoma natijalari ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish uchun muayyan ijobiy asoslar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, respondentlarning 57,51 foizi korrupsiyaning oldini olishda halollikni eng muhim omil sifatida baholagan; 68,71 foizi korrupsiya haqida xabar berish kanallaridan xabardor; 77,60 foizi xabar beruvchilarning huquqlari yetarlicha himoya qilinadi, deb hisoblagan; 71,38 foizi xabar beruvchilarni himoya qilish va rag‘batlantirish mexanizmlari haqida ma’lumotga ega.

Biroq mazkur ijobiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda institutsional xavflar ham saqlanib qolayotgani aniqlandi. Jumladan, 54,90 foiz respondent tashkilotida korrupsiya-

ga nisbatan murosasiz munosabat shakllanmaganini bildirgan; 20,34% manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini qayd etgan; 52,63% meritokratiya tamoyili ishga qabul qilishda faqat qisman amalga oshiriladi, deb hisoblagan; 33,33% noqonuniy yig‘imlar yoki boshqa noqonuniy moliyaviy talablarga duch kelganini bildirgan.

Shu asosda quyidagi xulosaga kelish mumkin: Ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitet – korrupsiyani rad etishga qaratilgan individual axloqiy pozitsiyaning o‘zi emas, balki halollik va adolat qadriyatlari, huquqiy xabardorlik, korrupsiyaga qarshi xulq-atvor, shaffof va hisobdor boshqaruv hamda jamoatchilik ishtirokining integratsiyasi asosida shakllanuvchi shaxsiy-ijtimoiy va institutsional tizimdir.

Shundan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

– ta’lim muassasalari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish;

– ishga qabul qilish, lavozimga ko‘tarish va rag‘batlantirishda meritokratiya mexanizmlarini kuchaytirish;

– manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va boshqarishning ichki mexanizmlarini takomillashtirish;

– korrupsiya haqida xabar berish kanallarini sodda, xavfsiz va omma uchun tushunarli qilish;

– xabar beruvchilarni himoya qilish mexanizmlari haqida tizimli axborot berish;

– maktab byudjeti, davlat xaridlari va boshqa boshqaruv qarorlari bo‘yicha ochiqlikni kuchaytirish;

– ota-onalar va jamoatchilikning ta’lim muassasasi boshqaruvidagi ishtirokini oshirish;

– pedagogik ta’lim va rahbarlar malakasini oshirish dasturlariga korrupsiyaga qarshi immunitetni rivojlantirish modullarini kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hallak J., Poisson M. Corrupt Schools, Corrupt Universities: What Can Be Done? Paris: UNESCO International Institute for Educational Planning, 2007. - 318 p.

2. Kaufmann D., Kraay A., Mastruzzi M. Governance Matters III: Governance Indicators for 1996-2002. World Bank Policy Research Working Paper No. 3106. Washington, D.C.: World Bank, 2003. - 116 p.

3. Kaufmann D., Kraay A., Mastruzzi M. Governance Matters III: Governance Indicators for 1996, 1998, 2000 and 2002 // The World Bank Economic Review. - 2004. - Vol. 18, No. 2. - P. 253–287. URL: https://www.researchgate.net/publication.

4. OECD. Education for Public Integrity: Teaching on Anti-Corruption, Values and the Rule of Law. Paris: OECD Publishing, 2018. - 94 p.

5. Hallak J., Poisson M. Governance in Education: Transparency and Accountability. Paris: UNESCO-IIEP, 2006. - 427 p.

6. Huss O., Keudel O. Open Government in Education: Clarifying Concepts and Mapping Initiatives. Paris: UNESCO-IIEP, 2020. - 180 p.

7. UNESCO; UNODC. Empowering Students for Just Societies: A Handbook to Teach Integrity in Secondary Schools. 2024.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-419-son, 2017-yil 3-yanvar.

Mexriniso PARDAYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, boshqarma boshlig‘i, p.f.f.d. (PhD), dotsent

YANGI O‘QUV YILINING DASTLABKI 30 KUNIDA MAKTAB BOSHQARUVI: STRATEGIK USTUVORLIKLAR VA BOSHQARUV AMALIYOTINING DIAGNOSTIK TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada yangi o‘quv yilining dastlabki 30 kunida umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktorining strategik boshqaruv faoliyati empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda 77 nafar maktab direktori ishtirok etgan. Direktorlarning vaqt taqsimoti, strategik ustuvorliklarni belgilash, dastlabki diagnostikadan foydalanish, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, monitoring va tezkor tuzatish amaliyoti o‘rganilgan. Natijalar rahbarlarda strategik maqsadlarni belgilash amaliyoti nisbatan yuqori shakllangan bo‘lsa-da, diagnostika natijalarini boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish, erta monitoringni tashkil etish va ustuvor yo‘nalishlarni cheklangan miqdorda fokuslashda rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Tadqiqot asosida yangi o‘quv yilining dastlabki 30 kuni uchun “diagnostika – ustuvorlik – natija ko‘rsatkichi – mas’uliyat – monitoring – tuzatish” ketma-ketligiga asoslangan strategik boshqaruv sikli taklif etilgan.

Tayanch so‘zlar. Maktab direktori, strategik boshqaruv, yangi o‘quv yili, dastlabki 30 kun, diagnostika, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, monitoring, ustuvor maqsad, boshqaruv qarori.

В статье на основе эмпирических данных анализируется стратегическая управленческая деятельность директора общеобразовательной школы в первые 30 дней нового учебного года. В исследовании приняли участие 77 директоров школ. Изучены распределение рабочего времени руководителей, определение стратегических приоритетов, использование первичной диагностики, принятие решений на основе данных, мониторинг и оперативная корректировка управленческих решений. Результаты показывают, что при достаточно высоком уровне постановки стратегических целей существуют резервы в интеграции результатов диагностики в управленческие решения, организации раннего мониторинга и фокусировании на ограниченном числе приоритетов. Предложен цикл стратегического управления на первые 30 дней учебного года: «диагностика – приоритет – показатель результата – ответственность – мониторинг – корректировка».

Ключевые слова. Директор школы, стратегическое управление, новый учебный год, первые 30 дней, диагностика, управление на основе данных, мониторинг, приоритетная цель, управленческое решение.

The article analyses school principals’ strategic management practices during the first 30 days of a new academic year using empirical data from 77 school principals. The study examines principals’ allocation of time, identification of strategic priorities, use of initial diagnostics, data-informed decision-making, monitoring, and adjustment of management decisions. The findings indicate that while goal-setting practices are relatively well established, there remains scope to strengthen the integration of diagnostic evidence into decision-making, initiate monitoring earlier, and focus management attention on a limited number of priorities. Based on the findings, the study proposes a strategic management cycle for the first 30 days of the academic year consisting of six interconnected stages: diagnostics, priority setting, measurable outcomes, responsibility allocation, monitoring, and adjustment.

Key words. School principal, strategic management, new academic year, first 30 days, diagnostics, data-informed management, monitoring, strategic priorities, management decision.

Yangi o‘quv yilining boshlanishi maktab boshqaruvida oddiy tashkiliy davr emas, balki butun o‘quv yilining asosiy yo‘nalishlari, boshqaruv faoliyatining sur’ati va izchilligi ustuvorliklari shakllanadigan muhim bosqichdir. Aynan shu davrda o‘quv jarayonini tashkil etish, pedagogik yuklamalarni taqsimlash, jamoa oldidagi vazifalarni aniqlashtirish, ta’lim natijalarini tahlil qilish, o‘quvchilar davomati va xavfsizligini nazoratga olish, ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish kabi ko‘plab vazifalar bir vaqtning o‘zida direktor e’tiborini talab qiladi.


Zamonaviy yondashuvlarda maktab rahbarligi faqat ma’muriy vazifalarni bajarish bilan cheklanmaydi. Rahbar maktab rivojlanishining aniq yo‘nalishini belgilashi, ta’lim va boshqaruvga oid ma’lumotlardan foydalanishi, pedagogik jamoani qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilishi hamda natijalarga qarab boshqaruv faoliyatini moslashtirishi zarur. OECD maktab liderligini rahbarning vazifalari, boshqaruv amaliyoti, vakolatlari, taqsimlangan liderlik va kasbiy rivojlanish kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda ko‘rib chiqadi [1]. Maktab rahbarligi bo‘yicha yirik tadqiqotlar sintezi ham direktor faoliyati o‘quvchilarning ta’lim natijalari, davomati, pedagoglarning ishga munosabati va maktab muhitiga ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi [2].

Shu bilan birga, yangi o‘quv yilining aynan dastlabki 30 kunidagi boshqaruv faoliyati alohida diagnostik obyekt sifatida kam o‘rganilgan. Amaliyotda direktorning bir vaqtning o‘zida strategik va operatsion vazifalarni bajarishi strategik ustuvorliklarning kundalik topshiriqlar orasida yo‘qolib qolishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – yangi o‘quv yilining dastlabki 30 kunida maktab direktorlarining strategik boshqaruv amaliyotini diagnostik tahlil qilish hamda ushbu davrni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmini asoslashdan iborat.

Tadqiqot 2026-yil 23–25-avgust kunlari o‘tkazilgan onlayn so‘rovnoma ma’lumotlariga asoslandi. Unda 77 nafar umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori ishtirok etdi.

Respondentlarning 29,9 foizi direktorlik lavozimida bir yildan kam, 15,6 foizi 1–3 yil, 26,0 foizi 4–7 yil, 11,7 foizi 8–10 yil va 16,9 foizi 10 yildan ortiq ish tajribasiga ega. Shunday qilib, respondentlarning 45,5 foizini direktorlik tajribasi uch yilgacha bo‘lgan rahbarlar tashkil etdi.



1-rasm. Respondentlarning direktorlik lavozimidagi ish tajribasi taqsimoti

Maktablarning 64,9 foizi qishloq hududida, 18,2 foizi tuman markazida va 16,9 foizi shaharda joylashgan. Respondentlar rahbarlik qilayotgan maktablarning 70,2 foizida o‘quvchilar soni 1000 nafardan oshmaydi.

So‘rovnoma direktorlarning:

– dastlabki 30 kundagi vaqt taqsimoti;
– strategik ustuvorliklarni belgilashi;
– o‘tgan yil natijalarini tahlil qilish va dastlabki diagnostikadan foydalanishi;
– o‘lchanadigan natijalarni belgilashi;
– vazifalar va mas’uliyatni taqsimlashi;
– ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishi;
– monitoring va tezkor tuzatish amaliyoti;
– strategik boshqaruvga xalaqit beruvchi omillar;
– zarur boshqaruv vositalariga ehtiyojini aniqlashga qaratilgan.


Boshqaruv amaliyotini baholash uchun 5 ballik Likert shkalasidagi 9 ta indikator qo‘llanildi. Mazkur indikatorlarning ichki muvofiqligi Cronbach alfa koeffitsiyenti yordamida tekshirildi va α=0,950 ni tashkil etdi. Bu indikatorlar majmuasining yuqori ichki ishonchliligini ko‘rsatadi.

Ma’lumotlarni tahlil qilishda deskriptiv statistika usullari, foizli taqsimotlar, o‘rtacha qiymatlar, Kruskal–Wallis testi, Mann–Whitney mezoni hamda Spearman rang korrelyatsiyasidan foydalanildi. Korrelyatsion bog‘lanishlar tadqiqot natijalarini talqin qilishda sabab-oqibat munosabatini ifodalovchi dalil sifatida emas, balki o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi statistik bog‘liqlik ko‘rsatkichi sifatida baholandi.

Direktor vaqt resurslarining strategik va operatsion vazifalar o‘rtasida taqsimlanishi.

Yangi o‘quv yilining dastlabki 30 kunida direktor vaqtini eng ko‘p talab qiluvchi vazifalar tahlili rahbar faoliyatida strategik va operatsion yo‘nalishlar bir vaqtning o‘zida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi.

Respondentlarning 55,8 foizi maktabni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashni eng ko‘p vaqt talab qiluvchi faoliyatlardan biri sifatida qayd etgan. Shu bilan birga, direktorlarning 54,5 foizi dars jadvali va o‘quv jarayonini tashkil etish, 36,4 foizi pedagogik yuklama hamda kadrlar bilan bog‘liq masalalar, 35,1 foizi esa ota-onalar murojaatlari va ular bilan uchrashuvlarni sezilarli vaqt talab qiluvchi vazifalar sifatida ko‘rsatgan.



2-rasm. Direktor vaqt resurslarining strategik va operatsion vazifalar o‘rtasida taqsimlanishi

Biroq ta’lim natijalarini tahlil qilishni faqat 19,5 foiz respondent vaqt talab qiluvchi asosiy faoliyatlar qatoriga kiritgan.

Ushbu natijada muhim boshqaruv ziddiyati kuzatiladi: direktorlar maktabning rivojlanish ustuvorliklarini belgilashga yuqori e’tibor qaratmoqda, biroq ushbu ustuvorliklarni asoslash uchun zarur bo‘lgan ta’lim natijalarining chuqur tahlili rahbarning vaqt tuzilmasida nisbatan kamroq o‘rin egallamoqda.

Shu sababli strategik boshqaruvning asosiy masalasi maqsadni belgilashning o‘zi emas, balki “ma’lumot-tahlil-ustuvorlik” bog‘lanishini mustahkamlashdan iborat.

Strategik fokus masalasi

Direktorlardan yangi o‘quv yili boshida maktab uchun odatda nechta asosiy ustuvor yo‘nalish belgilanishi so‘raldi.

Natijalarga ko‘ra:

Ustuvor yo‘nalishlar soni	Ulushi
1–3 ta	42,9%
4–5 ta	44,2%
6–10 ta	6,5%
10 tadan ortiq	2,6%
Alohida ustuvorlik belgilanmaydi	3,9%

Demak, respondentlarning atigi 42,9 foizi boshqaruv e’tiborini 1–3 ta asosiy ustuvor yo‘nalishga jamlaydi. Qolgan 57,1 foiz holatda ustuvorliklar soni to‘rtta va undan ko‘p yoki ular alohida belgilanmaydi.

Strategik boshqaruv nuqtayi nazaridan ustuvorliklarning haddan tashqari ko‘payishi resurslar, vaqt va jamoa e’tiborining tarqalib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan dastlabki 30 kun davomida maktabning mavjud holati asosida 1–3 ta yuqori ta’sirga ega ustuvor maqsadni aniqlash maqsadga muvofiq.

Maqsad belgilash kuchli, diagnostik bog‘lanish esa nisbatan zaif

Direktorlarning boshqaruv amaliyotiga oid 9 ta indikator bo‘yicha o‘rtacha natijalar quyidagicha bo‘ldi:

Boshqaruv amaliyoti	O‘rtacha ball
Yangi o‘quv yili uchun aniq ustuvor maqsadlar belgilanadi	**4,51**
Vazifalar rahbariyat va pedagoglar o‘rtasida aniq taqsimlanadi	**4,39**
Har bir ustuvor maqsad uchun o‘lchanadigan natija ko‘rsatkichi belgilanadi	**4,27**
Pedagogik jamoa muhim qarorlarni muhokama qilishda ishtirok etadi	4,23
Monitoring asosida rejalar va qarorlarga tuzatish kiritiladi	4,23
Maktabning kuchli va rivojlantirilishi zarur jihatlari aniqlanadi	4,22
O‘tgan yil natijalari tizimli tahlil qilinadi	4,16
Dastlabki natijalar muntazam monitoring qilinadi	4,16
Dastlabki diagnostika natijalari boshqaruv qarorlarida hisobga olinadi	**4,00**

Eng yuqori ko‘rsatkich strategik maqsadlarni belgilashga (4,51 ball), eng past ko‘rsatkich esa diagnostika natijalarini boshqaruv qarorlariga integratsiya qilishga (4,00 ball) tegishli.

Mazkur tafovut direktorlar faoliyatida strategik maqsadlarni shakllantirish amaliyoti

nisbatan yuqori darajada ekanini, ammo ushbu maqsadlarning diagnostik asoslanganligini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Boshqacha aytganda, samarali strategik boshqaruv:

“Biz nimaga erishmoqchimiz?”

savolidan oldin:

“Maktabning hozirgi real holati qanday?”

savoliga asoslangan javobni talab qiladi.

Ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish boshqaruv sifati bilan bog‘liq

Respondentlarning 74,0 foizi o‘quvchilar natijalari, davomat, pedagoglar faoliyati va boshqa ma’lumotlar muntazam tahlil qilinishi hamda ular asosida aniq boshqaruv qarorlari qabul qilinishini bildirgan.

16,9 foiz direktor qaror qabul qilishda faqat asosiy ko‘rsatkichlardan foydalanishini, 9,1 foizi esa ma’lumotlar yig‘ilishini, biroq ular har doim ham boshqaruv qarorlari bilan bog‘lanmasligini qayd etgan.

9 ta indikator asosida hisoblangan boshqaruv amaliyoti indeksining o‘rtacha qiymati:

– ma’lumotlarni muntazam tahlil qilib, ular asosida qaror qabul qiluvchi direktorlar orasida – 4,39 ball;

– faqat asosiy ko‘rsatkichlardan foydalanuvchilarda – 4,01 ball;


– ma’lumot yig‘ib, uni qaror bilan muntazam bog‘lamaydiganlarda – 3,46 ballni tashkil etdi.

Guruhlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli bo‘ldi (Kruskal–Wallis H=12,31; p=0,002).

Bu natija ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvni alohida texnik ko‘nikma sifatida emas, balki umumiy strategik boshqaruv madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Monitoring qachon boshlanadi?

Yangi o‘quv yilidagi dastlabki boshqaruv natijalarini birinchi marta tahlil qilish muddatlari sezilarli farqlanadi:



3-rasm. Direktorlar tomonidan dastlabki boshqaruv natijalarini tahlil qilish muddati

Shunday qilib, deyarli har uchinchi direktor (29,9%) dastlabki tizimli tahlilni faqat birinchi chorak yakunida amalga oshiradi.


Bu holatda sentabr oyida qabul qilingan ayrim boshqaruv qarorlarini o‘z vaqtida tuzatish imkoniyati kamayishi mumkin.

Birinchi tahlilni o‘tkazish muddati bilan umumiy boshqaruv amaliyoti indeksi o‘rtasida manfiy statistik bog‘lanish aniqlandi (Spearman ρ=–0,31; p=0,007). Ya’ni monitoring boshlanishi kechikib borgani sari strategik boshqaruv amaliyoti indeksining pasayish tendensiyasi kuzatildi.

Mazkur natija sabab-oqibat munosabatini anglatmaydi. Biroq u erta teskari aloqa mexanizmi kuchli boshqaruv amaliyotining muhim belgilaridan biri bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.Shu nuqtayi nazardan dastlabki 30 kunlik davrda monitoringni faqat oy yoki chorak yakunidagi nazorat sifatida emas, balki 7–14–30 kunlik boshqaruv qayta aloqasi sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Rejani o‘zgartira olish – adaptiv boshqaruvning muhim ko‘rsatkichi

Belgilangan natijalarga erishilmayotgani aniqlangan holatlarda respondentlarning 51,9 foizi boshqaruv qarori yoki rejaga har doim, 20,8 foizi ko‘pincha, 18,2 foizi ba’zan, 7,8 foizi esa kamdan-kam hollarda o‘zgartirish kiritishini bildirgan. 1,3 foiz respondent bunday holatlarda amalda o‘zgartirish kiritilmasligini qayd etgan.



4-rasm. Direktorlarning boshqaruv qarorlari va rejalariga o‘zgartirish kiritish chastotasi

Demak, direktorlarning 72,7 foizida monitoring natijasiga ko‘ra tuzatish kiritish barqaror amaliyot sifatida namoyon bo‘lsa-da, 27,3 foiz holatda bu mexanizm muntazam tusga ega emas.

Strategik boshqaruvda reja o‘zgarmas hujjat emas. Aksincha, natijalar va yangi ma’lumotlar asosida moslashtirib boriladigan boshqaruv vositasi bo‘lishi kerak.

Rejalarning takrorlanishi strategik vaqtni qisqartirmoqda

Respondentlarning 26,0 foizi maktabdagi turli ish rejalarida bir xil yoki mazmunan yaqin vazifalar tez-tez takrorlanishini, 48,1 foizi esa bunday holat ba’zan uchrashini qayd etdi.

Jami 74,1 foiz direktor rejalardagi vazifalar takrorlanishiga ma’lum darajada duch kelmoqda.

Mazkur natija direktorning strategik boshqaruvga vaqt ajratishi faqat shaxsiy vaqt menejmentiga emas, balki maktabdagi rejalashtirish tizimining qanchalik integratsiyalashganiga ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Shuning uchun turli yo‘nalishdagi rejalarni alohida-alohida yuritish o‘rniga, ularni maktabning 1–3 ta strategik maqsadi bilan bog‘langan yagona boshqaruv xaritasiga birlashtirish maqsadga muvofiq.

Strategik boshqaruvga asosiy to‘siqlar

Direktorlarning fikriga ko‘ra dastlabki oyda strategik boshqaruvga eng ko‘p to‘sqinlik qiluvchi omillar quyidagilar:

Omil	Ulushi
Tez-tez kelib tushadigan qo‘shimcha topshiriqlar	**70,1%**
Operatsion va joriy vazifalarning ko‘pligi	**61,0%**
Moddiy va moliyaviy resurslarning cheklanganligi	41,6%
Ota-onalar bilan bog‘liq masalalar	18,2%
Ma’lumotlarni tahlil qilish uchun vaqt yetishmasligi	16,9%
Vazifalarning turli rejalarda takrorlanishi	16,9%
Pedagoglarning o‘zgarishlarga tayyorligi	16,9%
Hujjat va hisobotlar hajmi	13,0%


Natijalar direktorning strategik boshqaruv sifati faqat individual kompetensiyaga bog‘liq emasligini ko‘rsatadi. Rahbarning professional imkoniyatlarini tashkiliy muhit, vazifalar oqimi, vaqt va resurslardan foydalanish imkoniyatlari ham belgilaydi.

Shu bois direktor faoliyatini takomillashtirishda “yana bir vazifa qo‘shish” emas, balki mavjud vazifalarni ustuvorlashtirish, integratsiyalash va delegatsiya qilish tamoyillari muhim.

Direktorlarning o‘zi qanday vositaga ehtiyoj bildirmoqda?

So‘rovnomada yangi o‘quv yilini samarali boshlash uchun direktorlar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqaruv vositalari ham o‘rganildi.

Eng ko‘p tanlangan vositalar:



5-rasm. Direktorlarning boshqaruv vositalariga bo‘lgan ehtiyoji

Mazkur javoblarda tizimli mantiq mavjud. Direktorlar alohida blank yoki tayyor hujjatdan ko‘ra, boshqaruv jarayonining algoritmi, diagnostika mexanizmi, ustuvorlikni aniqlash va monitoring vositasiga ko‘proq ehtiyoj bildirmoqda.

Bu esa maktab direktoriga metodik yordamni hujjatlar sonini ko‘paytirish orqali emas, boshqaruv qarorlarini soddalashtiruvchi vositalar orqali tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Yangi o‘quv yilining dastlabki 30 kuni uchun strategik boshqaruv sikli

Tadqiqot natijalari asosida yangi o‘quv yilining dastlabki 30 kunida maktab boshqaruvini izchil va natijaga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish uchun olti bosqichdan iborat strategik boshqaruv sikli taklif etiladi.

Diagnostika.

Mazkur bosqichda maktabning o‘tgan o‘quv yilidagi natijalari, ta’lim sifati ko‘rsatkichlari, o‘quvchilar davomati, pedagogik salohiyat, xavfsizlik holati, mavjud resurslar hamda boshqa muhim boshqaruv indikatorlari tahlil qilinadi. Ushbu tahlil maktabning boshlang‘ich holatini aniqlash va keyingi boshqaruv qarorlari uchun daliliy asos yaratishga xizmat qiladi.

2. Strategik ustuvorliklarni belgilash.

Diagnostika natijalaridan kelib chiqib, mavjud barcha muammolarni bir vaqtning o‘zida hal etishga urinish o‘rniga, maktab faoliyati natijalariga eng katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan 1–3 ta ustuvor yo‘nalish tanlanadi. Bunday yondashuv rahbar e’tibori, vaqt va resurslarni muhim maqsadlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

3. O‘lchanadigan natijalarni aniqlash.

Har bir ustuvor yo‘nalish bo‘yicha dastlabki 30 kun yakunida erishilishi va baholanishi mumkin bo‘lgan aniq natija yoki indikator belgilanadi. Bu strategik maqsadlarni umumiy deklarativ vazifalardan o‘lchanadigan boshqaruv natijalariga transformatsiya qilish imkonini beradi.

4. Mas’uliyat va vakolatlarni taqsimlash.

Belgilangan vazifalar rahbariyat va pedagogik jamoa o‘rtasida aniq taqsimlanadi. Bunda har bir vazifa bo‘yicha mas’ul shaxs, bajariladigan ish mazmuni, muddat va kutilayotgan natija oldindan belgilanadi. Mazkur bosqich boshqaruvda hisobdorlik va ijro intizomini ta’minlashga xizmat qiladi.

5. 7–14–30 kunlik monitoring.

Strategik maqsadlar ijrosi faqat chorak yoki uzoq muddat yakunida emas, balki qisqa boshqaruv sikllari asosida kuzatib boriladi. Birinchi hafta, ikkinchi hafta va birinchi oy yakunidagi monitoring oraliq natijalarni baholash, yuzaga kelayotgan muammolarni erta aniqlash hamda zarur teskari aloqani shakllantirish imkonini beradi.

6. Tezkor tuzatish.

Monitoring natijalari asosida vazifalar, muddatlar, resurslar taqsimoti yoki boshqaruv qarorlariga zarur o‘zgartirishlar kiritiladi. Bu bosqich boshqaruv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlab, belgilangan maqsadlarga erishish ehtimolini oshiradi.

Taklif etilayotgan siklning muhim xususiyati uning chiziqli emas, balki iterativ va teskari aloqaga asoslangan xarakterga egaligidir. Monitoring natijalari zaruratga ko‘ra dastlabki diagnostika, strategik ustuvorliklar yoki vazifalar taqsimotini qayta ko‘rib chiqishni talab qilishi mumkin. Shu sababli mazkur modelda boshqaruv bir martalik “reja – ijro – hisobot” ketma-ketligi sifatida emas, balki “diagnostika – ustuvorlik – natija – monitoring – tahlil – tuzatish” tamoyiliga asoslangan uzluksiz boshqaruv sikli sifatida qaraladi.

Mazkur yondashuv yangi o‘quv yilining dastlabki 30 kunida direktor faoliyatini operatsion vazifalarni bajarishdan strategik, ma’lumotlarga asoslangan va adaptiv boshqaruvga yo‘naltirish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, 77 nafar maktab direktori ishtirokidagi tadqiqot yangi o‘quv yilining dastlabki 30 kuni maktab boshqaruvida strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Respondentlarning 93,5 foizi ushbu davrda qabul qilingan qarorlar butun o‘quv yilining yo‘nalishi va natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini e’tirof etgan; o‘rtacha baho 4,61/5 ni tashkil etdi.

Natijalar direktorlarda strategik maqsadlarni belgilash amaliyoti nisbatan yuqori ekanini, biroq ularni dastlabki diagnostika natijalari bilan bog‘lash, 1–3 ta ustuvor maqsadga fokuslanish va erta monitoringni yo‘lga qo‘yishni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi. Shuningdek, operatsion yuklama va qo‘shimcha topshiriqlar strategik boshqaruv samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Shundan kelib chiqib, yangi o‘quv yilining dastlabki 30 kunida boshqaruvni diagnostika-strategik ustuvorlik-o‘lchanadigan natija-mas’uliyatni taqsimlash- monitoring-tezkor tuzatish sikli asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv maktab boshqaruvini ma’lumotlarga asoslangan, natijaga yo‘naltirilgan va adaptiv modelga o‘tkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. Teaching and Learning International Survey (TALIS) 2024 Conceptual Framework. Paris: OECD Publishing, 2025.

2. Grissom J.A., Egalite A.J., Lindsay C.A. How Principals Affect Students and Schools: A Systematic Synthesis of Two Decades of Research. New York: The Wallace Foundation, 2021.

3. OECD. PISA 2022 Results. Volume II: Learning During – and From – Disruption. Paris: OECD Publishing, 2023.

4. OECD. TALIS 2024: Country Note – Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2025.

5. OECD. TALIS 2018 Results. Volume II: Teachers and School Leaders as Valued Professionals. Paris: OECD Publishing, 2020.

A’zam XOLMURODOV,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti bo‘lim boshlig‘i,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

PEDAGOG KADRLAR BILAN TA’MINLASH VA ULARNING KASBIY RIVOJLANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, HUQUQIY ASOSLAR VA ISTIQBOLDAGI YO‘NALISHLAR

(Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi misolida)

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha va maktab ta’limi tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash hamda ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini takomillashtirishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Pedagog kadrlar siyosatidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, mehnat samaradorligini natijaga asoslangan baholash hamda ta’lim muassasalarida zamonaviy kadrlar boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Pedagog kadrlar, maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, uzluksiz kasbiy rivojlanish, raqamli kompetensiya, ta’lim boshqaruvi.

В данной статье проанализированы актуальные вопросы обеспечения системы дошкольного и школьного образования квалифицированными педагогическими кадрами, а также совершенствования их непрерывного профессионального развития. Освещены существующие проблемы кадровой политики в сфере образования и приоритетные направления их решения. Кроме того, разработаны научно-практические предложения по развитию цифровых компетенций педагогов, оценке эффективности их труда на основе результатов деятельности, а также совершенствованию современных механизмов управления кадровыми ресурсами в образовательных учреждениях.

Ключевые слова. Педагогические кадры, дошкольное образование, школьное образование, непрерывное профессиональное развитие, цифровая компетентность, управление образованием.

This article analyzes the current issues of providing the preschool and school education system with qualified teaching staff, as well as improving their continuous professional development. The existing problems of personnel policy in the field of education and the priority directions of their solution are highlighted. In addition, scientific and practical proposals have been developed for the development of teachers’ digital competencies, evaluating the effectiveness of their work based on performance, as well as improving modern mechanisms for managing human resources in educational institutions.

Key words. Teaching personnel, preschool education, school education, continuous professional development, digital competence, education management.

Jahon tajribasi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va xalqaro raqobatbardoshligi, eng avvalo, inson kapitali sifati bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatmoqda. Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishda esa ta’lim tizimi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ta’lim tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, kompetensiyasi, innovatsion faolligi hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish darajasi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda ta’lim muhiti pedagogdan nafaqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha puxta

bilimga ega bo‘lishni, balki raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish, o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy kompetensiyalarga ham ega bo‘lishni talab qilmoqda. Shu bois pedagog kadrlarni tayyorlash, ularni ish bilan ta’minlash, kasbiy qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz rivojlantirish har qanday davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda respublikamizda ta’lim sohasini isloh qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, pedagoglarning ijtimoiy maqomi va mehnatini munosib rag‘batlantirish, shuningdek, ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagog kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga doir huquqiy asoslar bosqichma-bosqich mustahkamlanib, sohaga zamonaviy boshqaruv mexanizmlari joriy etilmoqda.

Ayni paytda maktabgacha va maktab ta’limi tizimida pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ularni hududlar kesimida mutanosib taqsimlash, yosh mutaxassislarni ta’lim tizimida saqlab qolish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda pedagoglar mehnati samaradorligini baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadigan qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda.

Avvalo, ayrim hududlarda, ayniqsa, chekka va olis tumanlarda malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj hanuz yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, matematika, fizika, kimyo, informatika hamda xorijiy tillar kabi fanlar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish va ularning ushbu hududlarda uzoq muddat samarali mehnat faoliyatini davom ettirishini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bundan kelib chiqib, pedagog kadrlarni hududlar bo‘yicha taqsimlashda ham muayyan nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Poytaxtda va viloyat markazlarida malakali kadrlar nisbatan yetarli bo‘lgan holda, qishloq joylarda ularning yetishmasligi saqlanib qolmoqda. Bu holat yashash va mehnat sharoitlari, kasbiy o‘sish imkoniyatlari hamda ijtimoiy rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligi bilan bevosita bog‘liq.

Muhim muammolardan yana biri yosh pedagoglarni ta’lim tizimida saqlab qolish masalasidir. Ayrim yosh mutaxassislar mehnat faoliyatining dastlabki bosqichida turli obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida ta’lim muassasalarini tark etmoqda. Bu esa istiqbolda yuqori malakali pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sohadagi barcha pedagoglar ham elektron ta’lim resurslarini yaratish, raqamli platformalar orqali ta’limni tashkil etish hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan o‘quv jarayonida maqsadli foydalanish bo‘yicha yetarli amaliy ko‘nikmalarga ega emas. Zamonaviy ta’lim muhiti esa pedagoglardan yuqori darajadagi raqamli kompetensiyalarni talab qilmoqda.

Pedagoglarning malaka oshirish dasturlarini ham pedagoglarning individual ehtiyojlari, amaliy faoliyati va ta’lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan cheklanib qolmasdan, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlari ulushini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ta’lim muassasalari rahbarlarining inson resurslarini boshqarish sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy rahbar pedagoglar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion muhitni shakllantirish hamda natijaga

yo‘naltirilgan boshqaruvni amalga oshirish bo‘yicha yetarli boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Shuningdek, pedagoglar mehnati samaradorligini baholash tizimi ham zamonaviy talablar asosida takomillashtirilishi zarur. Baholash jarayoni pedagogning haqiqiy kasbiy natijalari, o‘quvchilarning ta’lim yutuqlari, metodik faolligi, innovatsion tashabbuslari va kasbiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga tayangan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv bir tomondan pedagoglar mehnati samaradorligini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ularning kasbiy o‘sishini rag‘batlantirish uchun ham muhim omil bo‘ladi.

Umuman olganda, pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va mehnat samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Ularni samarali hal etish kompleks yondashuvni, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini hamda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Shu bois keyingi yillarda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mustahkam huquqiy asoslar negizida izchil amalga oshirilmoqda. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlash, mehnatini munosib rag‘batlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yaxlit huquqiy mexanizmni shakllantirishga zamin yaratdi.

Huquqiy bazani takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri pedagoglar mehnatini baholash va rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish, ularning kasbiy kompetensiyalarini baholash hamda yuqori natijalarga erishgan pedagoglarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Bu esa ta’lim muassasalarida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, pedagoglarning kasbiy faolligini oshirish va ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy samaradorligi ularning ta’lim muassasalari faoliyatiga qay darajada to‘liq va sifatli tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan pedagoglar hamda ta’lim muassasalari rahbarlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash va ularning ijrosi ustidan ta’sirchan monitoring mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, mamlakatimizda shakllangan huquqiy baza maktabgacha va maktab ta’limi tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash hamda ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun mustahkam huquqiy asosni yaratmoqda. Endigi asosiy vazifa ushbu huquqiy mexanizmlarning amaliy samaradorligini yanada oshirish, ularni xalqaro ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish va ta’lim tizimida natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv modelini izchil rivojlantirishdan iborat.

Shu bilan birga pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hududlar kesimida aniq prognoz qilish, chekka hududlarga malakali mutaxassislarni jalb etish, yosh pedagoglarni ta’lim tizimida saqlab qolish, raqamli kompetensiyalarni izchil rivojlantirish hamda pedagoglar mehnatini natijaga asoslangan mezonlar bo‘yicha baholash kabi masalalarni bosqichma-bosqich bartaraf etish hamda pedagog kadrlar siyosati samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni prognoz qilishning raqamli modelini joriy etish hamda demografik o‘zgarishlar, o‘quvchilar kontingenti va hududlarning ijtimoiy-iqti-

sodiy rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda kadrlar balansini shakllantirish.

Chekka hududlarda mehnat qilayotgan pedagoglarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish, jumladan, ijtimoiy paketlar, xizmat uylari, ipoteka dasturlari, qo‘shimcha ustama to‘lovlar va kasbiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirish.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning milliy modelini ishlab chiqish hamda ularni sun’iy intellekt texnologiyalari, raqamli ta’lim platformalari, ta’lim analitikasi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha tizimli o‘qitish.

Pedagoglar mehnatini baholash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, bunda baholashning asosiy mezonlari sifatida ta’lim natijalari, innovatsion faoliyat, metodik ishlar, kasbiy rivojlanish hamda o‘quvchilarning ta’lim yutuqlarini belgilash.

Ta’lim muassasalari rahbarlarining inson resurslarini boshqarish sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish, strategik menejment, liderlik, raqamli boshqaruv va ta’lim sifatini monitoring qilish bo‘yicha maqsadli o‘quv dasturlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlash va samarali kadrlar siyosatini amalga oshirish mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda inson kapitalini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur jarayonni zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, raqamli yechimlar va natijaga yo‘naltirilgan baholash mexanizmlari asosida takomillashtirish maktabgacha va maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-98-sonli Farmoni. 2024-yil 2-iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231–sonli qarori. 2024-yil 21-iyun.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-sonli qarori. 2024-yil 20-dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining sohaga oid me’yoriy hujjatlari.

6. Pardayeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimini boshqarish (informatika va axborot texnologiyalari fani misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2020.

7. Qudratov T. Maktabgacha ta’limda pedagogik kadrlar tayyorlashning yangi usullari. – Toshkent, 2021.

Xushnud NURMETOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchi

TA’LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-nazariy asoslari yoritilgan. Raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘qitish jarayonini takomillashtirish va innovatsion pedagogik faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Raqamli ta’lim, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, pedagogik jarayon, raqamli kompetensiya, elektron ta’lim, innovatsion texnologiyalar.

В данной статье освещены педагогико-теоретические основы использования современных информационных технологий в процессе цифровизации системы образования. Проанализированы вопросы формирования цифровой образовательной среды, роль информационных технологий в образовательном процессе, а также развитие цифровых компетенций педагогов. Кроме того, раскрыты возможности повышения качества образования, совершенствования процесса обучения и развития инновационной педагогической деятельности посредством использования современных информационных технологий.

Ключевые слова. Цифровое образование, информационные технологии, цифровизация, педагогический процесс, цифровая компетентность, электронное обучение, инновационные технологии.

This article highlights the pedagogical and theoretical foundations of using modern information technologies in the process of digitalization of the education system. It analyzes the issues of developing a digital learning environment, the role of information technologies in the educational process, and the development of teachers’ digital competencies. Furthermore, the article reveals the possibilities of improving the quality of education, enhancing the teaching process, and developing innovative pedagogical activities through the use of modern information technologies.

Key words. Digital education, information technologies, digitalization, pedagogical process, digital competence, e-learning, innovative technologies.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar ta’lim jarayonini tashkil etishning yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan ta’lim tizimida ham raqamli transformatsiya jarayonlari kuchaymoqda. Ta’lim tizimini raqamlashtirish zamonaviy pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqadigan muhim omillardan biridir. Raqamlashtirish jarayoni nafaqat elektron vositalardan foydalanish, balki ta’lim mazmuni, metodlari, boshqaruv tizimi va pedagogik munosabatlarning yangilanishini ham anglatadi [1].

Hozirgi sharoitda ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri – axborot jamiyatida mustaqil fikrlay oladigan, raqamli vositalardan samarali foydalanadigan va o‘z bilimlarini doimiy rivojlantirib boradigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi o‘qituvchining faoliyat mazmunini ham o‘zgartirmoqda. Endilikda pedagog faqat bilim beruvchi emas,

balki ta’lim oluvchini mustaqil izlanishga yo‘naltiruvchi, axborot resurslaridan foydalanishni tashkil etuvchi va ta’lim jarayonining boshqaruvchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Raqamlashtirish tushunchasi ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida ta’lim sifatini oshirish, ta’lim oluvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish va yangi pedagogik sharoitlarni yaratish jarayonini ifodalaydi. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi – mavjud pedagogik imkoniyatlarni kengaytirish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirishdir.

Pedagogik nuqtayi nazardan raqamli ta’lim muhiti quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– ta’lim materiallarini elektron shaklda tezkor taqdim etish;

– o‘quv jarayonini individuallashtirish;

– mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish;

– masofaviy ta’lim shakllarini rivojlantirish;

– o‘quv natijalarini tahlil qilish va monitoring qilish.

Axborot texnologiyalari ta’lim jarayonida oddiy texnik vosita sifatida emas, balki ta’lim maqsadlariga erishishni ta’minlovchi pedagogik vosita sifatida qaralishi lozim [3]. Pedagogik texnologiyalar sohasida olib borilgan tadqiqotlarda ta’lim jarayonining samaradorligi texnologiyani qo‘llashdan ko‘ra, undan qanday metodik asosda foydalanishga bog‘liqligi ta’kidlangan [2].

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari

Axborot vazifasi.

Elektron kutubxonalar, raqamli platformalar va internet resurslari orqali keng hajmdagi bilim manbalaridan foydalanish imkonini beradi.

Rivojlantiruvchi vazifasi.

Ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashini, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kommunikativ vazifasi.

O‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasida tezkor aloqa va hamkorlikni ta’minlaydi.

Nazorat vazifasi.

Elektron baholash vositalari orqali bilimlarni aniqlash va monitoring qilish imkonini beradi.

Shu sababli raqamli texnologiyalarni ta’limga joriy etishda asosiy e’tibor texnik imkoniyatlarga emas, balki ularning pedagogik maqsadga muvofiqligiga qaratilishi zarur.

Raqamli ta’lim muhitida pedagogning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish

Ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonida pedagogning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablar ham yangilanmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanining chuqur bilimdon mutaxassisi, balki axborot texnologiyalaridan pedagogik maqsadlarda foydalana oladigan, raqamli ta’lim vositalarini tanlay va qo‘llay oladigan professional bo‘lishi lozim.

Raqamli kompetensiya pedagogning zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali, maqsadli va xavfsiz foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv materiallarini yaratish, elektron resurslardan foydalanish va ta’lim oluvchilarning faoliyatini boshqarish jarayonlarida namoyon bo‘ladi[8].

Pedagogning raqamli kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

Axborot kompetensiyasi – turli elektron manbalardan kerakli ma’lumotlarni izlash, saralash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash qobiliyati.

Texnologik kompetensiya – kompyuter dasturlari, elektron platformalar va raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmasi.

Metodik kompetensiya – axborot texnologiyalarini o‘quv maqsadlariga mos ravishda tanlash va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish mahorati.

Kommunikativ kompetensiya – raqamli muhitda samarali pedagogik muloqotni tashkil qilish qobiliyati.

Axborot xavfsizligi kompetensiyasi – raqamli resurslardan foydalanishda xavfsizlik va axloqiy me’yorlarga amal qilish.

Raqamli kompetensiyaga ega pedagog ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanib, ta’lim oluvchilarning bilim olish faolligini oshiradi. Shu sababli pedagoglarning raqamli tayyorgarligini rivojlantirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlar

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta’lim jarayonida o‘qitish metodlarini takomillashtirish, ta’lim mazmunini boyitish va ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar va sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Axborot texnologiyalarining metodik imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– o‘quv materiallarini tushunarli va ko‘rgazmali shaklda taqdim etish;

– murakkab jarayonlarni modellashtirish;

– amaliy mashg‘ulotlarni interaktiv tashkil etish;

– ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish;

– mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish.

Elektron resurslardan foydalanish ta’lim oluvchining faolligini oshiradi. Bunda o‘quvchi tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil izlash va tahlil qilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi[4]. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o‘qituvchiga ta’lim jarayonini monitoring qilish, ta’lim natijalarini tahlil qilish va individual yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish imkonini beradi.

Raqamli ta’lim muhitini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi.

Birinchi navbatda, ta’lim muassasalarida zamonaviy raqamli infratuzilma shakllangan bo‘lishi kerak. Kompyuter texnikalari, internet tarmog‘i, elektron ta’lim platformalari va raqamli resurslar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarur.

Ikkinchidan, pedagoglarning axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malakasini muntazam oshirib borish muhimdir. Chunki texnologiyaning mavjudligi emas, balki undan pedagogik jihatdan to‘g‘ri foydalanish ta’lim samaradorligini belgilaydi.

Uchinchidan, elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqishda pedagogik va metodik talablarni hisobga olish lozim. Elektron material oddiy ma’lumotlar yig‘indisi emas, balki ta’lim maqsadlariga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik vosita bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, raqamli ta’lim sharoitida baholash tizimini takomillashtirish zarur. Elektron testlar, monitoring tizimlari va tahliliy vositalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, raqamli ta’lim muhitini samarali shakllantirish texnologik infratuzilma, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi, sifatli elektron ta’lim resurslari hamda zamo-

naviy baholash mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Ushbu pedagogik shart-sharoitlarning kompleks ravishda ta’minlanishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish va raqamli jamiyat talablariga mos malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimini raqamlashtirish sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari ta’lim mazmunini yangilash, o‘qitish metodlarini takomillashtirish va ta’lim oluvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish uchun pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, raqamli kompetensiyasi va innovatsion faoliyatga tayyorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonida asosiy e’tibor texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, ularni pedagogik jihatdan samarali qo‘llay oladigan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: PF-6079-son Farmon. – Toshkent, 2020.

2. Беспалко В.П. Слагаеме педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.

3. Роберт И.В. Современне информатсионне технологии в образовании: дидактические проблемй и перспективй исползования. – Москва: ИИО РАО, 2010. – 140 с.

4. Полат Э.С., Бухаркина М.Ю. Современне педагогические и информатсионне технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2010. – 368 с.

5. Андреев А.А. Дистантсионное обучение: сушчност, технология, организатсия. – Москва: МЕСИ, 1999. – 196 с.

7. Хуторской А.В. Современная дидактика. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 544 с.

8. Nurmetov X.S. Umumiy o‘rta ta’lim biologiya fani o‘qituvchilarini masofaviy-ta’lim tizimi asosida malaka oshirish texnologiyasini takomillashtirish. Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 25-iyun, 2021-yil, 1341-1346 b.

9. Nurmetov X.S., Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biologiya o‘qituvchilari uchun ochiq axborot-ta’lim muhitini yaratish va foydalanish kompetensiyalarini takomillashtirish // Inter education & global study. ISSN 2992-9024.– Buxora, 2025. –Vol. 03, – №05. – P. 261-269.

10. Nurmetov X.S., Malaka oshirish tizimida biologiya o‘qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini takomillashtirish // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. p-ISSN: 2181 – 1709, e-ISSN: 2181 – 1717 (Impact Factor: 3,546). – Buxoro, 2024. – № 6. – B. 189-192.

11. Nurmetov X.S., Rasulova O.O. Improving the methodology of using open information educational facilities for biology teachers in the system of professional development // Journal of Pedagogical Developments “Pedagogical Cluster”. ISSN 2956-896X (Impact Factor: 9,625). – Polsha, 2024. –Vol. 02, – №03. – P. 40-46.

Umidjon XASANOV,
“PERFECT-UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Gumanitar fanlar” kafedrasi, katta o‘qituvchi

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING RAQAMLI MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish orqali ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning komponentlari va ta’lim jarayonidagi ahamiyati atroflicha tahlil qilingan. Bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizim ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur tizim o‘quv-tarbiya jarayonini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va raqamli etika me’yorlariga rioya qilish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Tajriba-sinov ishlarining natijalari takomillashtirilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlagan.

Tayanch so‘zlar. Raqamli madaniyat, raqamli ta’lim muhiti, kasbiy tayyorgarlik, bo‘lajak pedagog, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli kompetentlik, metodika, raqamli etika, ta’lim sifati, pedagogik innovatsiyalar.

В данной статье рассматриваются методические основы совершенствования профессиональной подготовки будущих педагогов посредством развития цифровой культуры в цифровой образовательной среде. В исследовании всесторонне проанализированы сущность понятия «цифровая культура», её компоненты и значение в образовательном процессе. Разработана методическая система, направленная на развитие цифровой культуры будущих педагогов, включающая цифровизацию учебно-воспитательного процесса, эффективное использование информационно-коммуникационных технологий и соблюдение норм цифровой этики. Результаты опытно-экспериментальной работы подтвердили эффективность усовершенствованной методики.

Ключевые слова. цифровая культура, цифровая образовательная среда, профессиональная подготовка, будущий педагог, информационно-коммуникационные технологии, цифровая компетентность, методика, цифровая этика, качество образования, педагогические инновации.

This article explores the methodological foundations for improving the professional training of future teachers through the development of digital culture in a digital educational environment. The study comprehensively analyzes the essence of the concept of ‘digital culture’, its components, and its significance in the educational process. A methodological system aimed at developing the digital culture of future teachers has been developed, encompassing the digitalization of the educational process, effective use of information and communication technologies, and adherence to digital ethics norms. The results of experimental work have confirmed the effectiveness of the improved methodology.

Key words. Digital culture, digital educational environment, professional training, future teacher, information and communication technologies, digital competence, methodology, digital ethics, quality of education, pedagogical innovations.

Zamonaviy jamiyatning raqamli transformatsiyasi ta’lim tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot va axborot jamiyatiga o‘tish sharoitida pedagog mutaxassislariga nisbatan talablar keskin ortib bormoqda. Bugungi kunda zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini chuqur bilgan holda, balki raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga, o‘quvchilarda raqamli ko‘nikmalarni

shakllantirishga hamda raqamli xavfsizlik me'yorlariga rioya qilishga qodir bo'lmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ta'lim sohasini raqamlashtirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab bergan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan pedagog kadrlarning raqamli madaniyatiga bog'liqdir. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus metodik tizim ishlab chiqilmagan. Mavjud dasturlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha alohida kurslar mavjud bo'lsa-da, raqamli madaniyatni yaxlit va tizimli rivojlantirish masalasi yechimini kutmoqda. Ushbu vaziyat maqolamizning dolzarbligini belgilab bergan.

Raqamli madaniyat (digital culture) tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlichasiga talqin qilinadi. Lev Manovich raqamli madaniyatni raqamli texnologiyalar orqali ijtimoiy, madaniy va san'at amaliyotlarining yangicha shakllanishi sifatida ta'riflaydi. D.Bell, E.Toffler va M.Kastelsning ilmiy asarlarida raqamli madaniyatning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri atroflicha yoritilgan.

Pedagogika fanida raqamli kompetentlik masalalarini V.V.Grinshkun, S.A.Jdanov, Ye.I.Bulin-Sokolova kabi olimlar tadqiq etgan. Ular pedagog raqamli kompetentligini ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan maqsadli va samarali foydalanish qobiliyati sifatida belgilaydi. yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigComp (Digital Competence Framework) doirasi raqamli kompetentlikning besh asosiy yo'nalishini: ma'lumotlar va media savodxonligi, muloqot va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal qilishni belgilab bergan.

O'zbek olimlaridan M.Rahmatullaeva, B.Nazarov, Sh.Mirzayevlar bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar imkoniyatlari masalasini o'rgangan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda raqamli madaniyat yaxlit pedagogik fenomen sifatida metodik aspektda kam tadqiq etilganligi aniqlandi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish; ta'lim tizimidagi amaliyotni o'rganish; kuzatish, suhbat va so'rovnoma o'tkazish; pedagogik eksperiment; matematik-statistik tahlil.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent davlat pedagogika universiteti va Samarqand davlat universitetining pedagogika yo'nalishidagi 240 nafar talaba ishtirokida olib borildi. Talabalar tajriba va nazorat guruhlariga tasodifiy tanlov asosida bo'lindi. Tajriba guruhida ishlab chiqilgan metodika joriy etilgan bo'lsa, nazorat guruhida an'anaviy o'qitish usullaridan foydalanildi.

Raqamli madaniyatni yaxlit pedagogik fenomen sifatida tahlil qilish asosida biz uning to'rtta asosiy komponentini aniqladik:

1. Texnologik komponent. Raqamli qurilma va dasturlardan maqsadli foydalanish, raqamli kontent yaratish va tahrirlash, onlayn ta'lim platformalari bilan ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

2. Axborot-kommunikativ komponent. Raqamli muhitda axborotni qidirish, tanlash, baholash va tasnif qilish; raqamli vositalar yordamida samarali muloqot va hamkorlik amalga oshirish ko'nikmalarini qamrab oladi.

3. Etik-huquqiy komponent. Raqamli muhitdagi xulq-atvor me'yorlari, mualliflik huquqlarini hurmat qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik masalalarini o'z ichiga oladi.

4. Ijodiy-innovatsion komponent. Raqamli texnologiyalar vositasida yangi pedagogik yechimlar yaratish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etish ko'nikmalarini aks ettiradi.

Tajriba ishlari yakunida tajriba va nazorat guruhlari natijalari solishtirildi. Raqamli madaniyat darajasini o‘lchash uchun DigComp 2.1 doirasi asosida ishlab chiqilgan o‘lchov vositasi qo‘llandi.

Tajriba guruhida raqamli kompetentlik yuqori darajasiga erishgan talabalar ulushi 18,3%dan 67,4%ga oshdi (tajriba boshidan 3,7 baravar o‘sish). Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkich 19,1%dan 34,6%ga ko‘tarildi (1,8 baravar o‘sish). Ikki guruh o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatliligi χ^2 kriteriyi yordamida tasdiqlandi ($\chi^2=22,4$; $df=2$; $p<0,001$).

Shuningdek, tajriba guruhi talabalarining pedagogik amaliyot natijalari bo‘yicha baholari ham nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 0,7 balga yuqori bo‘ldi. Ta’lim jarayonini raqamlashtirishga doir ijodiy loyihalar sifati va innovatsion yechimlarni amalga oshirish ko‘rsatkichi tajriba guruhida ancha yuqoriligi qayd etildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

Birinchidan, raqamli madaniyat bo‘lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligida tarkibiy va yaxlit unsur bo‘lishi lozim. Uni alohida kurs sifatida emas, balki barcha pedagogik fanlar bilan integral holda rivojlantirish samarali natijalar beradi.

Ikkinchidan, raqamli madaniyatni rivojlantirishning to‘rt komponentli (texnologik, axborot-kommunikativ, etik-huquqiy va ijodiy-innovatsion) modeli pedagogik tayyorgarlikning mazmunini boyitadi va tizimli rivojlantirishni ta’minlaydi.

Uchinchidan, ishlab chiqilgan uch bosqichli metodik tizim tajriba-sinov natijalarida o‘zining samaradorligini isbotladi. Mazkur metodika pedagogika oliy ta’lim muassasalarida keng joriy etilishi tavsiya qilinadi.

To‘rtinchidan, raqamli madaniyatni rivojlantirishda refleksiv o‘qitish, loyihaviy faoliyat va amaliy sinov muhim rol o‘ynaydi. Mentor qo‘llab-quvvatlashi hamda hamkorlikdagi o‘rganish metodlari bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini shakllantirishda asosiy pedagogik shartlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.

2. Manovich L. The Language of New Media. – MIT Press, 2001. – 354 p.

3. Vuorikari R., Kluzer S., Punie Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. – European Commission, 2022.

4. Grinshkun V.V., Krasnova G.A. Osobennosti professionalnoy podgotovki pedagogov v oblasti primeneniya sredstv informatizatsii obrazovaniya // Vestnik RUDN. – 2019. №4. – S. 357–367.

5. Rahmatullaeva M. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2021. – 178 b.

6. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1–6.

7. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. – Blackwell, 2000.

8. Mirzaev Sh. Raqamli ta’lim muhitida pedagogik kompetentlik // Ta’lim va taraqqiyot. – 2022. №3. – B. 45–52.

9. Nazarov B. Pedagog kadrlarni raqamli savodxonlikka tayyorlash muammolari // Pedagogik mahorat. – 2023. №1. – B. 12–19.

10. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – European Commission, 2017.

Umrzoq TOXIROV,
“ZARMED UNIVERSITETI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi Buxoro kompusi, xodim

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA “PBL” VA “SUN’IY INTELLEKT” VOSITALARINI BIRGALIKDA QO‘LLASHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muammoli ta’lim (PBL – Problem-Based Learning) texnologiyasi va sun’iy intellekt vositalarini birgalikda qo‘llashning pedagogik muammolari tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish yechimlari asoslab berilgan. Shuningdek, muallif o‘qituvchi va talaba faoliyatidagi o‘zgarishlar, akademik halollikni ta’minlash mexanizmlari hamda baholash tizimini takomillashtirish yo‘llarini ko‘rib chiqqan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Tayanch so‘zlar. Kasbiy kompetensiya, muammoli ta’lim (PBL), sun’iy intellekt, raqamli ta’lim vositalari, akademik halollik, promptlash madaniyati, baholash, pedagogik texnologiya, oliy ta’lim, individual ta’lim trayektoriyasi.

В статье анализируются педагогические проблемы совместного применения технологии проблемного обучения (PBL - Problem-Based Learning) и средств искусственного интеллекта в развитии профессиональных компетенций будущих специалистов, а также обосновываются решения по их устранению. Автор также рассмотрел изменения в деятельности преподавателей и студентов, механизмы обеспечения академической честности и пути совершенствования системы оценивания и разработал практические рекомендации.

Ключевые слова. Профессиональная компетенция, проблемное обучение (PBL), искусственный интеллект, цифровые средства обучения, академическая честность, культура промптинга, оценивание, педагогическая технология, высшее образование, индивидуальная образовательная траектория.

The article analyzes the pedagogical challenges of combining problem-based learning (PBL) technology and artificial intelligence tools in developing the professional competencies of future specialists, and substantiates solutions for their elimination. The author also reviewed changes in the activities of teachers and students, mechanisms for ensuring academic integrity, and ways to improve the evaluation system, and developed practical recommendations.

Key words. Professional competence, problem-based learning (PBL), artificial intelligence, digital learning tools, academic integrity, prompting culture, assessment, pedagogical technology, higher education, individual learning trajectory.

Jahon mehnat bozorida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, kasblarning raqamlashuvi va sun’iy intellekt texnologiyalarining ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalariga jadal kirib borishi oliy ta’lim oldiga sifat jihatidan yangi vazifani qo‘ymoqda: bitiruvchi nafaqat tayyor bilimlar zaxirasiga, balki nostandart kasbiy muammolarni mustaqil aniqlash, tahlil qilish va zamonaviy raqamli vositalar yordamida hal etish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim. Ana shunday kompetensiyalarni shakllantirishning samarali yo‘llaridan biri muammoli ta’lim (PBL – Problem-Based Learning) texnologiyasi bo‘lib, unda o‘quv jarayoni real kasbiy vaziyatga asoslangan muammoni yechish atrofida tashkil etiladi.

Ayni paytda sun’iy intellekt vositalari – generativ til modellari, intellektual o‘quv tizim-

lari, adaptiv platformalar va ma’lumotlarni tahlil qilish xizmatlari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va ularni ta’lim sohasiga joriy etishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-pedagogik izlanishlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, PBL va sun’iy intellekt vositalarini birgalikda qo‘llash o‘z-o‘zidan ijobiy natija bermaydi: ular o‘rtasidagi didaktik muvofiqlik ta’minlanmasa, sun’iy intellekt talabaning mustaqil fikrlashini rag’batlantirish o‘rniga, tayyor javob manbaiga aylanib, PBL texnologiyasining mohiyatini yo‘qqa chiqarishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda PBL texnologiyasi va sun’iy intellekt vositalarini birgalikda qo‘llashda yuzaga keladigan pedagogik muammolarni aniqlash, ularni tizimlashtirish hamda bartaraf etishning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqishdan iborat.

Y.O.Temirova, A.M.Gulovaning “Zamonaviy ta’lim sharoitida Problem-Based Learning (PBL) ning mohiyati va tamoyillari” Mazkur maqolada Problem-Based Learning (PBL) texnologiyasining paydo bo‘lish tarixi, nazariy asoslari va pedagogik tamoyillari keng yoritilgan. Mualliflar ta’kidlashicha, PBL 1960-yillar oxirida Kanadadagi tibbiyot fakultetida Xovard S.Barrouz tomonidan kashf qilingan bo‘lib, keyinchalik pedagogika, muhandislik, iqtisod kabi sohalarga ham keng tarqalgan. Maqolada PBLning konstruktivizm, kognitivizm va sotsial-konstruktivizm nazariyalari bilan uzviy bog’liqligi asoslangan. Tadqiqotchilar PBL talabalarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kommunikatsiya, liderlik va qaror qabul qilish kabi XXI asr kompetensiyalarini samarali rivojlantirishini isbotlagan. Shuningdek, PBLning an’anaviy ta’lim metodlaridan tubdan farq qilishi – talaba markazli yondashuv, muammoga asoslangan bilim qurish va fasilitator-o‘qituvchi modeli tahlil qilingan.[1]

M.Sh.Djurayevaning “Zamonaviy ta’limda loyiha metodining ahamiyati”. Ushbu maqolada xorijiy tilni o‘qitishda loyiha metodidan foydalanishning nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotchi J.Dyui, L.Vigotskiy, G.Beket, E.Polat kabi olimlarning ilmiy qarashlariga tayanilgan holda loyiha metodining ta’lim jarayonidagi o‘rni, turli tasniflari va bosqichlarini yoritgan. Muallifning ta’kidlashicha, loyiha metodi talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muammoni hal etish kompetensiyasi, shuningdek, chet tilida samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada loyiha ishlarining muammoni aniqlashdan tortib natijalarni baholashgacha bo‘lgan barcha bosqichlari izchil tahlil qilinib, uning o‘quvchilarda ilmiy tadqiqot, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli asoslab berilgan.[2]

R.Q.Mallayevning “Informatika o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompyuter ta’minoti fanini o‘qitishning metodik ta’minoti” nomlimazkur maqolada bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompyuter ta’minoti fanini o‘qitishning yangi metodik tizimi bayon etilgan. Muallif chet-el olimlarining fikr-mulohazalarini keltirgan holda, kompyuter ta’minoti fanining umumlashtirilgan strukturasi va ta’lim mazmunini batafsil yoritgan. Maqolada Quizlet, Padlet, MinMap kabi zamonaviy raqamli vositalar, integrallashgan ta’lim, loyihaga asoslangan ta’lim (PBL), Blended learning kabi yondashuvlarning informatika o‘qituvchilarini tayyorlashdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Tadqiqotchi tayanch, bazaviy va maxsus kompetensiyalar tizimini shakllantirishda kasbiy motivatsiya va intellektual qobiliyatlar uyg’unligini ta’minlash zarurligini asoslagan.[3]

M.H.Olimboyevaning “The Integration of Problem-Based and Project-Based Learning in Language Education: Enhancing Achievement and Motivation”nomli maqolada muammoga asoslangan ta’lim (PBL) va loyihaga asoslangan ta’lim (PjBL) ning til ta’limidagi integratsiyasi, ularning talabalar yutuqlari va motivatsiyasiga ta’siri o‘rganilgan. Maqolada PBL va PjBL talabalarning ichki motivatsiyasini oshirishi, til o‘rganish ko‘nikmalarini yaxshilashi isbotlangan. Biroq, muallifning ta’kidlashicha, ushbu yondashuvlarni tatbiq etishda resurslarning yetishmasligi va o‘qituvchilarning o‘zgarishlarga qarshiligi kabi qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ularni yengish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash va institutsional qo‘llab-quvvatlash zarur.[4]

Sh.R.Saydaxmetova, U.J.Ravshanovning “Kimyo ta’limida loyiha ishlarini tashkil etish”maqolada oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va o‘quv loyiha ishlarining turlari keltirilgan. Mualliflar kimyo darslarida PhET interaktiv simulyatsiyalaridan foydalanib loyiha ishlarini tashkil etishning asosiy jihatlari hamda foydalanish afzalliklarini yoritgan. Tadqiqotda ta’kidlanishicha, loyihaviy yondashuvning yuqori darajadagi fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda ahamiyati katta bo‘lib, tadqiqotga asoslangan, amaliy va ijodiy loyihalar talabalarning nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, maqolada virtual laboratoriya va tajriba modellari, muammoli ta’lim usullari va fanlararo bog’liqlik masalalari yoritilgan.[5]

D.N.Sulaymonovaning “Loyihaga asoslangan o‘qitish (PBL) bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiya sifatida”nomli mazkur maqolada loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasining mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni, afzallik va kamchiliklari ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Muallif bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda PBL texnologiyasining ahamiyatini asoslab bergan. Tadqiqotda D.Vekslerning kreativlik ta’rifi, G.N.Ibragimovaning ta’lim modellari tasnifi (passiv, faol, interfaol) keltirilib, PBLning interfaol o‘qitish modeli sifatidagi o‘rni ko‘rsatilgan. Muallifning xulosasiga ko‘ra, PBLda o‘qituvchining roli yordamchi, maslahatchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida namoyon bo‘lib, talabalarning mustaqil izlanish, jamoada ishlash va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi.[6]

O‘rganilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni jahon ilmiy adabiyotida faol muhokama etilmoqda: UNESCO tomonidan generativ sun’iy intellektdan ta’limda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar e’lon qilingan, ayrim tadqiqotlarda sun’iy intellekt vositalarining talabalar o‘quv natijalariga ijobiy ta’siri, boshqalarida esa tanqidiy fikrlashning susayishi va akademik halollik muammolari qayd etilgan. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, PBL texnologiyasi va sun’iy intellekt vositalarini yaxlit didaktik tizim sifatida birgalikda qo‘llash, bunda yuzaga keladigan pedagogik ziddiyatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini asoslash masalalari hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu esa mavzuning ilmiy yangiligini va amaliy zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma hamda tajriba-sinov usullaridan foydalanildi. Tadqiqot bazasi sifatida oliy ta’lim muassasasining bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar guruhlari tanlab olindi: tajriba guruhlarida amaliy mashg’ulotlar PBL texnologiyasi asosida sun’iy intellekt vositalaridan didaktik jihatdan boshqariladigan tarzda foydalangan holda, nazorat guruhlarida esa an’anaviy uslubda tashkil etildi. Talabalarning kasbiy muammoni tahlil qilish, axborot izlash, taklif etilgan yechimni asoslash va jamoada ishlash ko‘nikmalari maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi; olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi.

O‘tkazilgan tahlil PBL va sun’iy intellekt vositalarini birgalikda qo‘llashda yuzaga keladigan pedagogik muammolarni besh guruhga birlashtirish imkonini berdi.

Birinchi muammo – mustaqil fikrlash va tayyor javob ziddiyati. PBL texnologiyasining mohiyati talabaning muammoni mustaqil anglashi va yechim sari o‘z aqliy mehnati bilan borishida namoyon bo‘ladi; generativ sun’iy intellekt esa bir necha soniyada tayyor yechimni taqdim etadi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, didaktik cheklovlar qo‘yilmagan sharoitda talabalarning katta qismi muammoni tahlil qilish bosqichini chetlab o‘tib, to‘g’ridan-to‘g’ri tayyor javob olishga intiladi. Yechim sifatida sun’iy intellektdan foydalanishning bosqichli reglamenti joriy etildi: muammoni aniqlash va gipoteza ilgari surish bosqichlarida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish cheklanadi, axborot to‘plash va yechimni tekshirish bosqichlarida esa u maslahatchi-vosita sifatida ruxsat etiladi. Bunda sun’iy intellekt “javob beruvchi” emas, balki “savol beruvchi” rolida, ya’ni Sokrat uslubidagi yo‘naltiruvchi savollar generatori sifatida sozlanadi.

Ikkinchi muammo – akademik halollik va natijalarning haqiqiyligi. Sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan mahsulotni talabaning shaxsiy mehnatidan ajratish an’anaviy nazorat vositalari uchun murakkab vazifadir. Yechim sifatida baholash urg’usi yakuniy mahsulotdan jarayonga ko‘chirildi: talaba muammo ustida ishlash kundaligini (qaysi bosqichda qanday so‘rov berilgani, olingan javob qanday tekshirilgani va qayta ishlangani) yuritadi hamda yakuniy himoyada o‘z yechimini og’zaki asoslaydi. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanishni oshkora ko‘rsatish madaniyati – foydalanilgan vositalar va so‘rovlarni ilova sifatida rasmiylashtirish talabi joriy etildi.

Uchinchi muammo – o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning salmoqli qismi sun’iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlarini yetarli bilmasligi yoki ularga ishonchsizlik bildirishi aniqlandi; ayrimlari esa PBL ssenariylarini loyihalash tajribasiga ega emas. Yechim sifatida o‘qituvchilar uchun ikki modulli malaka oshirish dasturi taklif etildi: birinchi modul PBL ssenariysini loyihalash (muammoli vaziyat banki, baholash mezonlari, fasilitatsiya usullari), ikkinchi modul sun’iy intellekt vositalari bilan ishlash (samarali so‘rov tuzish, natijalarni tanqidiy baholash, talabalar faoliyatini kuzatish) ko‘nikmalarini qamrab oladi.

To‘rtinchi muammo – axborotning ishonchliligi va sun’iy intellekt “gallyutsinatsiyalari”. Generativ modellar ba’zan ishonchli ko‘rinishdagi noto‘g’ri ma’lumot taqdim etadi, bu esa kasbiy tayyorgarlikda jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin. Ushbu muammo pedagogik imkoniyatga aylantirildi: talabalarga sun’iy intellekt javoblarini birlamchi manbalar bilan solishtirish, faktlarni tekshirish (fact-checking) va xatolarni aniqlash topshiriqlari muntazam berildi, natijada axborot bilan tanqidiy ishlash kompetensiyasi maxsus rivojlantirish obyektiga aylandi.

Beshinchi muammo – texnologik va tashkiliy sharoitlardagi tafovutlar. Talabalarning raqamli savodxonligi va texnik imkoniyatlaridagi farqlar guruh ichida notekis sharoit yaratadi. Yechim sifatida topshiriqlarning sun’iy intellektsiz ham bajariladigan tayanch varianti saqlab qolindi hamda guruhlarda rollar taqsimoti (tahlilchi, axborot izlovchi, tanqidchi, taqdimotchi) orqali har bir talabaning faol ishtiroki ta’minlandi.

Tajriba-sinov natijalari taklif etilgan yechimlarning samaradorligini tasdiqladi: tajriba guruhlarida talabalarning kasbiy muammoni tahlil qilish, yechimni asoslash va axborotni tanqidiy baholash ko‘rsatkichlari nazorat guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi; ayni paytda sun’iy intellektdan reglamentlashtirilgan foydalanish talabalar motivatsiyasining barqarorlashuviga va topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish intizomining yaxshilanishiga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, PBL texnologiyasi va sun'iy intellekt vositalarini birgalikda qo'llash bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi bo'lib, uning samaradorligi ikki omilning didaktik muvofiqligiga bog'liq: sun'iy intellekt PBL bosqichlariga bo'ysundirilgan yordamchi vosita sifatida qo'llanilgandagina talabaning mustaqil fikrlashi, muammoni yechish va axborot bilan tanqidiy ishlash kompetensiyalari rivojlanadi; aksincha, nazoratsiz foydalanish muammoli ta'limning mohiyatini yo'qqa chiqaradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning bosqichli reglamentini o'z ichiga olgan PBL ssenariylari bankini yaratish; ikkinchidan, baholashda jarayonga yo'naltirilgan mezonlar (ish kundaligi, og'zaki himoya, sun'iy intellektdan foydalanishni oshkora ko'rsatish) ulushini oshirish; uchinchidan, o'qituvchilar uchun PBL va sun'iy intellekt vositalarini uyg'unlashtirish bo'yicha malaka oshirish modullarini joriy etish; to'rtinchidan, talabalarda samarali so'rov tuzish (promptlash) va sun'iy intellekt javoblarini tanqidiy tekshirish madaniyatini maxsus shakllantirish; beshinchidan, texnologik tafovutlarni yumshatish maqsadida topshiriqlarning muqobil variantlarini va umumiy foydalaniladigan raqamli resurslarni ta'minlash lozim.

Ushbu tavsiyalarni izchil tatbiq etish bo'lajak mutaxassislarda mehnat bozori talab qilayotgan muammoni yechish, raqamli vositalar bilan samarali ishlash va uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini yaxlitlikda shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temirova Y.O., Gulova A.M. Zamonaviy ta'lim sharoitida Problem-Based Learning (PBL) ning mohiyati va tamoyillari // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. in-academy.uz. DOI: 10.5281/zenodo.17983822

2. Djurayeva M.Sh. Zamonaviy ta'limda loyiha metodining ahamiyati // Scientific Journal of Construction and education. ISSN 2181-3779, 2025 Maxsus son-3. 135-140 b.

3. Mallayev R.Q. Informatika o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompyuter ta'minoti fanini o'qitishning metodik ta'minoti // "Экономика и сотсиум" №1(116) 2024. 266-275 b.

4. Olimboyeva M.H. The Integration of Problem-Based and Project-Based Learning in Language Education: Enhancing Achievement and Motivation // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. in-academy.uz. DOI: 10.5281/zenodo.14357710

5. Saydaxmetova Sh.R., Ravshanov U.J. Kimyo ta'limida loyiha ishlarini tashkil etish // Uzbek Scholar Journal. Volume 50, March 2026. 34-36 b.

6. Sulaymanova D.N. Loyihaga asoslangan o'qitish (PBL) bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiya sifatida // Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2023 yil 2-iyun. 576-583 b.

7. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2009. – 240 b.

Dilfuza KAMOLJONOVA ,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti
matbuot kotibi, p.f.b.f.d.(PhD)

MUTOLAA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI MADANIY VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda bolalar kitobxonligining o‘rni, mutolaa jarayonini o‘quvchining fikrlash qobiliyati, nutqi, atrofidagilar bilan munosabati va empatiyasiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Madaniy mexanizm, sotsiometrik munosabatlarini rivojlantirish, bolalar kitoblari, empatiya, qahramonlar va xarakter xususiyatlari, nutq va fikrlash qobiliyatining o‘sishi.

В статье рассматривается роль детского чтения в развитии социометрических отношений между учащимися на основе культурологического подхода, а также влияние процесса чтения на мыслительные способности, речь, отношения с окружающими и эмпатию учащегося.

Ключевые слова. Культурный механизм, развитие социометрических отношений, детские книги, эмпатия, герои и черты характера, рост речи и мыслительных способностей.

The article discusses the role of children's reading in developing sociometric relationships between students based on a culturological approach, and the impact of the reading process on a student's thinking abilities, speech, relationships with others, and empathy.

Key words. Cultural mechanism, development of sociometric relationships, children's books, empathy, characters and character traits, growth of speech and thinking abilities.

Kitob mutolaasi jarayonida o‘quvchilarning empatik qobiliyati ya’ni boshqalarning his-tuyg‘usi, ichki kechinmalarini tushunish va baham ko‘rish qobiliyati shakllanadi. Kitobxon mutolaa jarayonida o‘zini asar qahramonlari obrazida tasavvur qiladi. O‘quvchi o‘qigan ma’lumot va haqiqiy hayotdagi ma’lumot chap miya sharida qayta ishlanadi. Nutq uchun mas’ul bo‘lgan chap miya sharining yuqori qismida asar qahramoni aslida nima qilyapti deb o‘ylashga majbur qiladigan jarayon kechadi. Turkiyalik pedagog, bolalar kitoblari bo‘yicha mutaxassis Duygu Yamanning fikricha bu holat kunning aksar qismini gadjetlar bilan o‘tkazayothan bolada sodir bo‘lmaydi. Ya’ni bola bosma shakldagi kitobdan olgan ruhiy, nutqiy, aqliy rivojini gadjet orqali o‘qigan vositasidan ololmaydi. Psixologiyada bu hodisa “bilimlarni umumlashtirish” deb nomlanadi .

Kitobxonlik ko‘nikmasi – deb kitob o‘qish qoidalaridan boxabar bo‘lish, mutolaaga qiziqish, kitobxonning ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitob (badiiy asarni) tanlash, kitob o‘qishga odatlanish, bu harakatning izchil va uzluksiz davom etishi, o‘qigan kitobning mazmunini anglash, kitob mutolaasidan keyin taassurotlarni ifoda etish ko‘nikmalarning malakaga aylanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat natijasiga aytiladi.

Mutola bilim olishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, olamni idrok etish, o‘rganishda kitob mutolaasi asosiy o‘rin tutadi. Kitoblar tematik, janr jihatdan va yosh xususiyatlariga ko‘ra tasniflanadi.

Birgalikda kitob o‘qish va muhokama qilish – o‘quvchilar o‘rtasida yaqinlikni oshi-

radi, muloqotni rivojlantiradi, ijtimoiy pozitsiyalarni yumshatadi.

Bolalar adabiyotining dastlabki namunalarini o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari tashkil qiladi. Zamonaviy bolalar kitobining tarixi yaqin o‘tmishga borib taqaladi. Badiiy adabiyotlar, kitoblar dastlab kattalar uchun nashr qilingan bo‘lib, XVII asrga kelib bolalar uchun ta’lim ommalashishi kerakligi g‘oyasi ilgari suriladi. Bu borada chex pedagogi va yozuvchisi taniqli olim Yan Amos Komenskiyning hissasi kattadir. Komenskiy yashab o‘tgan davrlardan boshlab bolalarga atalgan kitoblar ommashib kitoblarning asosiy maqsadi didaktikaga qaratildi. Ilk bolalar kitoblari ertak janrida shakllangan. “Ertak” so‘zining lug‘aviy ma’nosi aytib bermoq, hikoya qilmoq degani. Shundan kelib chiqib aytganda, o‘zbek xalq ertaklarining eng qadimiy namunalarida ham xalqning orzu, umid, maqsadlari ifoda etiladi. Masalan, “Ochildasturxon” to‘kin hayotni ifodalasa, “Zumrad va Qimmat” ertagida mehnatsevarlik, rostg‘ylikning mukofoti yaxshilik, dangasalik va tanballikning mukofoti yomonlik, “Ur to‘qmoqda” – yolg‘onchilikning oqibati to‘qmoq ekanligi bilan izohlanadi.

Asar qahramonlari obrazi asosida o‘quvchi o‘zida bag‘rikenglik, mehr-shafqat, tog‘rilik, halollik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni tarbiyalaydi. “Zumrad va Qimmat”, “Egri va To‘g‘ri”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Ur to‘qmoq” kabi o‘zbek xalq ertaklari, “Sariq devni minib” (X.To‘xtaboyev), “Meshpolvon” (A.Obidjon), “Kokilli ilon” (M.Xamidova), Z.Ibrohimova “Alisher va mehmon chumoli”, “Quloqsiz filcha” (D.Kamoljonova) asarlari kitobxonda mana shunday fazilatlarni tarbiyalovchi badiiy asarlar hisoblanadi. Kitobxon o‘quvchining dunyoqarashi keng bo‘ladi.

Yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi yakka tartibda, ommaviy tarzdan, elektron yoki audio shaklda bo‘lishi mumkin. Kitob aql va tafakkurni chiniqtiradi, so‘z boyligini oshirib, kishilar bilan muloqotni yaxshilaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishning ijtimoiy texnologiyasi tanlab olindi:

1. “Sinfdan tashqari” kitobxonlik mashg‘ulotlariga qaratilgan matnlar o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo‘lishi.

2. Mutolaa ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyada maqsad, tizimlilik, texnologiyani qayta qo‘llash orqali ijtimoiy samaradorlikka erishish.

3. Sinfdan tashqari kitobxonlik mashg‘ulotlarida milliy qahramonlar Zumrad – Qimmat, Kenja botir, Egrivoy – To‘g‘rivoy ertak qahramonlari obrazlari misolida interfaol darslarda “Insert” texnologiyasi asosida rolli o‘yinlarni amaliyotga tatbiq etish.

4. Qahramonlik obrazidagi ertak, hikoya, qissa – Zumrad, To‘g‘rivoy, Jimjiloq Botirning ijobiy fazilatlari haqida o‘qish orqali o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi.

5. Egrivoy, Qimmatxon misolida salbiy qahramonlarni yaxshi qahramonga aylanish uchun qanday salbiy odatlardan voz kechishini kves topshiriqlar asosida shakllantirish.

6. Kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid kvestlarda ijodiy topshiriqlar tizimidan foydalanish.

O‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmlarini rivojlantirishning ijtimoiy texnologiyasini ishlab chiqish tadqiqotning asosini tashkil etadi. Mazkur jarayonni milliy sharoitda samarali tashkil etishda milliy kontent alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili “milliy kontent xalqning ertaklari, rivoyatlari, maqollari, dostonlari, tarixiy va adabiy manbalari bo‘lib, o‘quvchilarni ma’naviy, axloqiy va intellektual jihatdan kamol toptiruvchi ta’limiy resurslar majmui hisoblanadi”, deb ta’kidlashga asos bo‘ldi.

Milliy kontent vositasida kitobxonlikni rivojlantirish, bir tomondan, o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash kabi kognitiv jarayonlarni mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa, vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, mehr-oqibat kabi ma’naviy fazilatlarni shakllantiradi. Shuningdek, milliy ertak va hikoyalarni sahnalashtirish, “Qahramonni tanla”, “Rolli o‘yin”, “Insert” kabi interaktiv metodlar, “Muloqot”, “Tushunchalar tahlili” (Insert), “Kvest” pedagogik texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarda kitob mutolaasini qiziqarli va mazmunli faoliyatga aylantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda maktab, oila, jamiyatdagi muhit muhim rol o‘ynaydi. Oilada ota-ona, bobo-buvi, opa-singil, aka-uka kitob mutolaasiga qiziqsa, o‘qigan adabiyotlarini oilaviy tahlil qilsa, o‘quvchida mutolaaga refleksiya hissi paydo bo‘ladi va bu oilaviy an’anaga aylanadi. Dars jarayonida o‘qituvchi darslikdagi materialga qo‘shimcha tarzda badiiy va ilmiy kitoblardan ijodiy topshiriqlar bersa, sinfda kitobxonlik muhiti shakllanadi.

O‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari folklor namunalari, milliy qahramonlar haqidagi asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tarkib topgan bolalar kontenti vositasida rivojlantirish, ushbu badiiy adabiyot namunalarini “O‘qish savodxonligi” darsligi, “Tarbiya” fanlariga integratsiyalash, oila, mahalla va maktabda kitobxonlik muhitini tashkil qilish, kitobxonlikni targ‘ib etuvchi ijodiy-badiiy kechalar tashkil etish, yozuvchi-shoirlar bilan uchrashuv, kitob do‘konlari, kutubxonalarga muntazam va davomli borish, mutolaani tashkil etish orqali o‘quvchilarni mutolaaga qiziqtirish, ijtimoiy qadiriyatlarga sodiqlik hissini tarbiyalash vazifasini maqsad qilib qo‘ymoqda. O‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi tadqiqot ishi mazmuni quyidagilardan tarkib topadi. Badiiy adabiyot va folklor namunalari vositasida, zamonaviy kontentlar orqali o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini oila, mahalla va maktab muhitida rivojlantirish, ularning hamkorlikdagi faoliyatida zanjir mexanizmini ishlab chiqish, kichik yoshdagi o‘quvchilarida o‘qigan kitoblari yuzasidan tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy ehtiyojlarini keltirib chiqaradi.

Ta’kidlash joizki, jamoaviy suhbat asnosida kitoblarni o‘qish, obrazlarni yoki voqealarni muhokama qilish o‘quvchilarda ijtimoiy qadriyatlarni egallash va amal qilishga yo‘naltirishda alohida o‘rin egallaydi. Bunday suhbatlar jarayonida o‘quvchilar o‘qigan kitoblari haqidagi fikrlarini bayon qiladi, bir-biri bilan o‘zaro fikr almashadi, o‘z g‘oyalari, qarashlarini bayon etadi, asar qahramonlarining harakatlariga, fikrlashiga baho beradi, tanqidiy va mantiqiy xulosalar chiqaradi, o‘zaro munozaraga kirishadi, shaxsiy nuqtayi nazarlarini bayon qilib, bu masalada o‘z pozitsiyasini belgilaydi. Bunday suhbatlar kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy asoslarini mustahkamlashda muhim komponent hisoblanadi.

O‘quvchilarning kitobxonlik vositasida ijtimoiylashuvining asosiy omilidan biri o‘zi o‘qigan yoki o‘qiyotgan kitobidan chuqur ta’sirlana olishi va o‘zidagi taassurotlarni muloqot, munozara jarayonlariga tatbiq eta olishidir. O‘quvchi o‘zi o‘qigan kitob qahramonlari, ular amalga oshirgan ishlar, ular duch kelgan vaziyatlarni oilada, jamiyatda, sinfda o‘z yaqinlari, tanishlari, do‘stlari bilan muhokama qilishi o‘quvchini ijtimoiylashuviga jadal ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi o‘zi o‘qigan kitob mazmunini anglab etsagina, unda munosabat, muhokama, baho, xulosa kabi fikrlar amaliyoti vujudga keladi. U kitobning asosiy mazmunini, g‘oyasini, natijasini o‘z atrofidagilar, sinfdoshlari, tengdoshlari, oila a’zolariga targ‘ib qila oladi, so‘zlab beradi, targ‘ibotchiga aylanadi va o‘zining ijtimoiy faolligini ko‘rsatadi.

XX asr oxirlariga kelib bolalar kitobxonligi tushunchasini va amaliyoti, noshirlik faoliyati butunlay o‘zgardi. Zamonaviy bolalar kitoblari bugun bu adabiy, ilmiy-ommabop, badiiy, ijodiy asar bo‘lib, bolalarning yosh, psixologik, aqliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bolalar uchun mo‘ljallangan to‘plam sanaladi.

Ilmiy-ommabop adabiyotlar konkret dalil va asoslarga tayanib yoziladi. Xorijda bunday adabiyotni non-fantastik – sarguzashtdan yiroq, badiiy to‘qimadan xoli asar deb ta’rif beriladi. U real hayot haqidagi dalillar yoki fikrlarni etkazish uchun yoziladi. Audio yoki videoda mavzu bo‘yicha asosli ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyati paydo bo‘lgandan beri ilmiy-ommabop asarlar faqat yozma matn bilan cheklanmay qolgan.

Badiiy adabiyot esa ijodkor (yozuvchi, shoir)ning ijod mahsuli hisoblanadi.

Asotir (mif)lar badiiy adabiyotning ilk namunalari hisoblanadi. Badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon ekan, demak, badiiy adabiyot ham ongga aloqador hodisa, faqat bunda bilishning san’atga xos yo‘lidan boriladi.

Bolalar uchun badiiy kitoblar, turlari va badiiy kitoblarga qo‘yiladigan talablar:

– badiiy kitoblar bolaning dunyoqarashi va tassavurini boyitib, undagi ijodkorlik (kreativlik) qobiliyatini rivojlantiradi.

– bolaning nutqi rivojlanib, so‘z boyligi ortadi.

– rivoyat, ertak, cho‘pchak, asotir va hikoyalarda tilga olingan biron-bir voqea hayotiy yoki to‘qima bo‘lishidan qat’i nazar, qahramonlarning xatti-harakati va fe’l-atvori kitobxonni voqea-hodisa va harakatlardan saboq chiqarishga undaydi. O‘zbek xalq ertaklaridan “Ur to‘qmoq” asarini misol qilib keltirsak, ertakda chol laylakka yaxshilik qiladi. Bu yaxshilikdan biron bir manfaat ko‘zlamaydi. Laylak ham chol qilgan yaxshilikni qaytarmoqchi bo‘ladi. Unga “Qaynar xumcha”ni sovg‘a qiladi. Bu ertakning pedagogik ahamiyati shundaki, bolalar yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish kerakligini o‘rganadi. Cholni uchratgan ayyor boy esa sehrli xumchani oddiy xumchaga almashtirib qo‘yadi, ertak yakunida qilgan qing‘ir ishlari evaziga ur to‘qmoqdan jazosini oladi. Bu syujet orqali har qanday egrilik albatta yomon oqibatlar bilan tugashi muqarrarligi bolaga hayotiy misollar bilan tushuntirib beriladi. She’riy kitoblar kichik kitobxonga estetik zavq berishi bilan uning xotirasini mustahkamlaydi. Bolalar she’r yod olishi bilan xotirasiga ko‘plab badiiy misralar saqlana boshlaydi. Topishmoqlar topqirlikka chorlasa, tezaytishlar nutqni rivojlantiradi. Topishmoq xalq og‘zaki ijodining eng kichik janrlaridan biri bo‘lib, unda xalq zukkoligi aks etadi. Sifati keltirilgan narsa-buyum nomi keltirilgan ta’rifga berkitiladi. Tezaytish nutqni ravonlashtiruvchi vosita bo‘lib, bo‘g‘inlar ketma-ketligiga ahamiyat qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulazizov A.H. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayoning sotsiologik tahlili sots.f.nom. dissertatsiya Avtoreferati. – Toshkent: 2010.30 b.

2. Chinniyeva S.A. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. – Toshkent: TDMI, 2007. – 48 b. https: //phoenixpublication.

3. Ibraimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Shaffof. 2023. – 415 b.

4. A.Avloniy “Tanlangan asarlar”. – T.: Zabarjadmedia, 2022.

5. Ibraimov X., Quronov M. “Umumiy Pedagogika”. –T.: Shaffof 2023.

6. Duygu Yaman “Kitob mutolaasining bola ruhiyatiga ta’siri” “Yosh avlodda kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirishning istiqbolli tajribalari. To‘plam: – T.: Shaffof, 2025.

Bunyodjon A‘ZAMOV,
Qo‘qon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARDA RAQAMLI KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta‘limda talabalarda raqamli kompetentlikni (Digital Competency) rivojlantirish metodikasi multimedia texnologiyalari asosida tahlil etilgan. Shuningdek, raqamli kompetentlikning tarkibiy komponentlari aniqlanib, uning shakllanishida multimedia vositalarining o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan. Multimedia texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga integratsiyalashning uch bosqichli metodik modeli taklif etilgan.

Tayanch so‘zlar. Raqamli kompetentlik, multimedia texnologiyalari, metodik model, raqamli ta‘lim muhiti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv o‘qitish, kognitiv bosqich, refleksiv bosqich.

В статье анализируется методика развития цифровой компетентности (Digital Competence) у студентов высшего образования на основе мультимедийных технологий. Также определены структурные компоненты цифровой компетентности, научно обоснована роль мультимедийных средств в ее формировании. Предложена трехэтапная методическая модель интеграции мультимедийных технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова. Цифровая компетентность, мультимедийные технологии, методическая модель, цифровая образовательная среда, информационно-коммуникационные технологии, интерактивное обучение, когнитивный этап, рефлексивный этап.

The article analyzes the methodology for developing digital competence (Digital Competence) in higher education students based on multimedia technologies. Furthermore, the structural components of digital competence have been identified, and the role of multimedia tools in its formation has been scientifically substantiated. A three-stage methodological model for integrating multimedia technologies into the educational process is proposed.

Key words. Digital competence, multimedia technologies, methodological model, digital educational environment, information and communication technologies, interactive learning, cognitive stage, reflexive stage.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va axborot jamiyatining shakllanishi ta’lim tizimiga yangicha talablar qo‘ymoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini takomillashtirish va talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois, multimedia texnologiyalarini ta’lim jarayoniga maqsadli integratsiyalash va ulardan talabalarda raqamli kompetentlikni shakllantirish vositasi sifatida foydalanish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo’lmoqda. Talabalarga ma‘ruza slaydlarini namoyish qilish va videoyozuvlarni ko‘rsatish bilan cheklanadigan multimedia qo‘llanilishi ko‘p hollarda o‘quv muassasalarimizda kuzatiladigan amaliyotdir. Biroq bu yondashuv fundamental bir muammoni e‘tibordan chetlashtiradi: talabaning o‘zi raqamli mahsulot yaratishda, axborotni raqamli formatda tahlil qilishda va raqamli muhitda tanqidiy fikrlashda qanchalik kompetentligini – ya‘ni raqamli kompetentligini – shakllantiramizmi? Tadqiqotlar

shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalari ta‘lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan passiv ko‘rsatish vositasi sifatida emas, balki talabaning faol raqamli kompetentligini shakllantiruvchi muhit sifatida qo‘llanilganda uning samaradorligi bir necha barobar ortadi.

Raqamli kompetentlik (Digital Competency) tushunchasi zamonaviy pedagogikaning eng ko‘p muhokama qilinadigan va bir vaqtning o‘zida eng xilma-xil talqin qilinadigan kategoriyalaridan biriga aylandi. Yevrokomissiya tomonidan ishlab chiqilgan DigComp (Digital Competence Framework for Citizens) tizimi bu sohadagi eng keng qabul qilingan yondashuv hisoblanib, raqamli kompetentlikni besh asosiy sohani o‘z ichiga oluvchi murakkab tuzilma sifatida ta‘riflaydi: axborot va ma‘lumotlar savodxonligi, kommunikatsiya va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal etish. Ushbu čerchevc talabaning passiv foydalanuvchi emas, balki faol yaratuvchi va tahlilchi sifatida rivojlanishi zarurligini qat‘iy ta‘kidlaydi.

G‘arb olimlari orasida multimedia va raqamli kompetentlik masalasini eng chuqur o‘rgangan R.E.Mayer o‘zining “Multimedia Learning” asarida kognitiv yuklanish nazariyasiga asoslanib, multimedia materiallarining o‘rganuvchi xotirasiga qanday ta‘sir qilishini eksperimental jihatdan isbotlagan. Uning “dual coding” (ikki kanalli kodlash) modeli vizual va auditiv axborotning bir vaqtda taqdim etilishi o‘zlashtirishni sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonlik olimlardan A.A.Abdulqodirov va D.E.Toshtemirov ta‘lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasini keng qamrovli o‘rganib, mahalliy ta‘lim amaliyotiga mos yondashuv va tavsiyalar ishlab chiqdilar. U.Sh.Begimqulov oliy ta‘limda pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib, axborot muhitini tashkil etish va boshqarish masalalarini tizimli tadqiq etdi. B.G‘.Qodirov multimedia texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning didaktik imkoniyatlarini maxsus o‘rganib, ta‘limda multimedia qo‘llanilishining pedagogik samaradorligi mezonlarini taklif etdi. R.J.Ishmuxamedov va M.Yuldashev ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar muammosini tizimli ishlab chiqib, multimedia va interaktiv texnologiyalarni ta‘limiy jarayonga integratsiyalashning metodologik asoslarini asosladilar.

Biroq mavjud adabiyotlar tahlili muhim bir ilmiy bo‘shliqni ochib beradi: tadqiqotlarning aksariyati multimedia texnologiyalarini o‘qituvchi qo‘lida instrument sifatida ko‘rib, ularni talabaning o‘z raqamli kompetentligini faol shakllantirish vositasi sifatida maqsadli metodika bilan qo‘llanishi masalasini etarlicha yoritgani yo‘q. Raqamli kompetentlikning DigComp čerchevesidagi barcha besh sohasi bo‘yicha talabalarda kompetentlikni rivojlantirishning izchil metodik modeli ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida uch bosqichli metodik modelni taklif etadi.

Raqamli kompetentlikni rivojlantirish pedagogikasi uchun avvalo bir muhim farqni aniq belgilash zarur: multimedia texnologiyalarini o‘quv jarayonida passiv qo‘llanishi va ularni kompetentlik shakllantirishning faol muhiti sifatida maqsadli tashkil etish o‘rtasidagi tafovut. Passiv integratsiya – bu o‘qituvchining PowerPoint taqdimoti, videodars yoki animatsiyali tushuntirish orqali talabaga ma‘lumot yetkazishi. Aktiv integratsiya – bu talabaning o‘zi multimedia mahsuloti yaratuvchisi, axborotni raqamli formatda tahlil qiluvchi va raqamli muammolarni hal etuvchi sifatida faoliyat ko‘rsatishi. Ikki yondashuv o‘rtasidagi farq shunchaki texnik emas, balki fundamental didaktik mazmun kasb etadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodik model uch bosqichdan iborat: kognitiv bosqich, faoliyat bosqichi va refleksiv bosqich. Ushbu model D.H.Jonassenning “mind-

tools” kontseptsiyasi va DigComp tizimining raqamli kompetentlik tarkibi asosiga qurilgan bo‘lib, o‘zbekistonlik olimlar A.A.Abdulqodirov [2] va B.G‘.Qodirovning [8] metodik ishlari bilan boyitilgan.

Kognitiv bosqich (Cognitive Stage) – talabalarda multimedia texnologiyalariga doir nazariy bilimlar va konseptual tushunchalarni shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu bosqichda talaba multimedia texnologiyalarini faqat iste‘molchi nuqtayi nazaridan emas, balki axborot ishlab chiqaruvchi, dizayner va pedagog nuqtai nazaridan tushuna boshlaydi. Mayerning kognitiv yuklanish nazariyasiga ko‘ra, talabaga raqamli kontentni kognitiv jihatdan samarali idrok etish qonuniyatlarini tushuntirish o‘zi uning keyingi faoliyat bosqichidagi ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Kognitiv bosqichda qo‘llanadigan metodlar: interaktiv ma‘ruza (infografika va animatsiya bilan boyitilgan), multimedia tahlili (taqdim etilgan multimedia mahsulotini o‘rganish va qiyosiy baholash), konseptual xarita tuzish – raqamli bilim tuzilmasini vizual ifodalash. O.G.Smolyaninova multimedia ta‘limiy muhitni loyihalashda kognitiv faoliyatni rag‘batlantiruvchi strukturaning ahamiyatini alohida ta‘kidlagan.

Faoliyat bosqichi (Activity Stage) – bu metodik modelning asosiy va eng hajmli qismidir. Jonassenning g‘oyasiga muvofiq, kompetentlik faqat “bilib olish” orqali emas, “qilib ko‘rish” orqali shakllanadi. Faoliyat bosqichi talabani multimedia mahsuloti yaratuvchiga aylantiradi. Bu bosqichda qo‘llanadigan asosiy faoliyat turlari: multimedia taqdimot yaratish (nafaqat ma‘lumotni tuzish, balki vizual-auditiv kommunikatsiya tamoyillariga rioya qilgan holda samarali taqdimot loyihalash); raqamli infografika ishlab chiqish (murakkab ma‘lumotni vizual ravishda ifodalash ko‘nikmasi – raqamli kontent yaratish kompetentligining o‘zagi); videomaterial va podcast tayyorlash (auditiv-vizual mahsulot yaratish, ovoz montaji va video tahrir asoslari); interaktiv test va elektron vazifalar ishlab chiqish (LMS platformalarida foydalaniladigan raqamli o‘quv resurslari yaratish); virtual laboratoriya va simulyatsiyalar bilan ishlash (STEM fanlarida multimedia orqali tajriba modellashtirish). Mazkur faoliyatlarning har biri DigComp čerchevesidagi muayyan kompetentlik sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiq keladi.

Refleksiv bosqich (Reflective Stage) – bu bosqich talabalarda o‘z raqamli faoliyatiga tanqidiy baho berish, metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘z kompetentlik darajasini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Siemensning konnektivizm nazariyasiga ko‘ra, raqamli asrda nafaqat bilim, balki bilim tarmoqlarini boshqarish va ularni tanqidiy baholash qobiliyati ham muhimdir [18]. Refleksiv bosqich metodlari: peer-review (talabalar bir-birining multimedia mahsulotlarini belgilangan mezonlar asosida baholashi), e-portfolio tahlili (o‘quv davri mobaynida yaratilgan barcha raqamli mahsulotlarning tizimli tahlili), raqamli kompetentlik xaritalash (DigComp ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘z rivojlanish darajasini mustaqil baholash). Elektron portfolio (e-portfolio) usuli talabaning raqamli kompetentligi dinamikasini ko‘zatish uchun eng samarali vosita sifatida tan olingan.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalari oliy ta‘limda talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish uchun yetarli pedagogik potentsialga ega, ammo bu imkoniyatdan to‘liq foydalanish uchun maxsus ishlab chiqilgan metodik model talab etiladi. Passiv integratsiyadan – multimedia kontent ko‘rsatishdan – aktiv integratsiyaga – talabaning multimedia mahsuloti yaratuvchisi, tahlilchisi va muammolar hal qiluvchisiga aylanishiga – o‘tish raqamli kompetentlikning haqiqiy shakllanishini ta‘minlaydi. Taklif etilgan uch bosqichli model (kognitiv → faoliyat → refleksiv) DigComp čerchevesining barcha besh sohasi bo‘yicha talabada

maqsadli rivojlanishni ta‘minlaydi va o‘quv jarayonining mavjud tuzilmasi doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Birinchidan, oliy ta‘lim muassasalari o‘quv fanlari sillabuslarini ko‘rib chiqib, har bir fanda multimedia mahsuloti yaratish topshiriqlarini (multimedia assignment) majburiy komponent sifatida kiritish zarur. Topshiriqlar talabaning passiv iste‘molchi emas, balki faol yaratuvchi ekanligi tamoyilidan kelib chiqqan holda loyihalanishi kerak – bu raqamli kompetentlikning kontent yaratish sohasidagi eng muhim komponentini to‘g‘ridan-to‘g‘ri rivojlantiradi.

Ikkinchidan, talabalarda raqamli kompetentlikni baholash uchun oddiy test yoki imtihon yetarli emas. E-portfolio tizimini joriy etish tavsiya etiladi: talaba o‘quv yili davomida yaratgan barcha raqamli mahsulotlarni (taqdimotlar, infografika, video, podcast, interaktiv topshiriqlar) bir platformada to‘plab, uning rivojlanish dinamikasi DigComp ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanishi lozim.

Uchinchidan, o‘qituvchilarning multimedia pedagogikasi sohasidagi malakasini oshirish – talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish metodikasining amaliyotga tatbiq etilishi uchun zaruriy shart. O‘qituvchi nafaqat multimedia vositasidan foydalana olishi, balki talaba uchun multimedia kompetentlik rivojlantiruvchi vazifalar loyihalashni ham bilishi shart. Buning uchun institutlarda multimedia pedagogikasi bo‘yicha maxsus malaka oshirish modullari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda, LMS platformalar tanlashda pedagogik nuqtai nazarni birinchi o‘ringa qo‘yish kerak. Talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirishga ko‘proq imkon beradigan – multimedia yaratish, kollaborativ loyihalash va refleksiv baholash funktsiyalariga ega – platformalar ustuvor qilib belgilanishi lozim.

Beshinchidan, raqamli kompetentlik ko‘rsatkichlari davlat ta‘lim standartlariga kiritilishi va oliy ta‘lim muassasalarini akkreditatsiyalashda ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha monitoring o‘tkazilishi zarur. Tizimli o‘zgarishsiz alohida metodikalar cheklangan ta‘sir ko‘rsatadi. Multimedia texnologiyalari orqali raqamli kompetentlikni maqsadli rivojlantirish – bu raqamli iqtisodiyot uchun tayyor, yaratuvchi va tanqidiy fikrlovchi kadrlar tayyorlashning ishonchli yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta‘lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – Guliston: Universitet, 2019. – 232 b.

2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi hamda amaliyoti: ped. fan. doktori ... diss. – T., 2007. – 305 b.

3. Jo‘rayev R.H., Taylaqov N.I. Axborotlashgan ta‘lim muhiti – o‘qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksiz ta‘lim. – 2004. – № 6. – B. 3–7.

4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning amaliy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 261 b.

5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013. – 279 b.

6. Qodirov B.G‘. Multimedia texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning didaktik imkoniyatlari // Ta‘lim taraqqiyoti. – 2018. – № 4. – B. 45–51.

Ravshanbek QUZIYEV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISH JARAYONIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, axborotlar bilan ishlash madaniyati o‘quvchining ma’lumotni izlash, saralash, manbalar ishonchliligini tekshirish, tanqidiy baholash, axloqiy me’yorlarga muvofiq qo‘llash va mas’uliyat bilan tarqatishga doir bilim, ko‘nikma hamda qadriyatli munosabatlari birligi sifatida talqin etilgan. O‘smirlarning ma’naviy-axloqiy sifatlari, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy mas’uliyati va axborot xavflariga qarshi barqarorligini rivojlantirishda oila, maktab, tengdoshlar guruhi va raqamli muhitning o‘zaro ta’siri yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘smirlik davri, ijtimoiylashuv, axborot madaniyati, tarbiyaviy ahamiyat, mediasavodxonlik, raqamli muhit, tanqidiy tafakkur, axborot xavfsizligi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy mas’uliyat, faktcheking, refleksiya.

В статье с научно-педагогической точки зрения проанализировано воспитательное значение формирования культуры работы с информацией в процессе социализации учащихся подросткового возраста. Также культура работы с информацией интерпретируется как единство знаний, навыков и ценностных отношений учащегося к поиску, сортировке информации, проверке достоверности источников, критической оценке, применению в соответствии с этическими нормами и ответственному распространению. Освещено взаимодействие семьи, школы, группы сверстников и цифровой среды в развитии духовно-нравственных качеств, самостоятельного мышления, социальной ответственности и устойчивости подростков к информационным угрозам.

Ключевые слова. Подростковый период, социализация, информационная культура, воспитательное значение, медиаграмотность, цифровая среда, критическое мышление, информационная безопасность, духовно-нравственное воспитание, социальная ответственность, фактчекинг, рефлексия.

The article analyzes the educational significance of forming a culture of working with information in the process of socializing adolescent students from a scientific and pedagogical perspective. Furthermore, the culture of working with information is interpreted as a unit of knowledge, skills, and value attitudes regarding the student's ability to search for, sort, verify the reliability of sources, critically evaluate, apply in accordance with ethical norms, and distribute information responsibly. The interaction of the family, school, peer group and digital environment in the development of spiritual and moral qualities, independent thinking, social responsibility and resilience to information threats of adolescents is highlighted.

Key words. Adolescence, socialization, information culture, educational significance, media literacy, digital environment, critical thinking, information security, spiritual and moral education, social responsibility, fact-checking, reflection.

Zamonaviy jamiyatda axborot ijtimoiy taraqqiyotning muhim resursiga aylanib, insonning dunyoqarashi, qadriyatlari, munosabatlari va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va raqamli platformalarning ommalashuvi natijasida o‘smirlar juda katta hajmdagi axborot

oqimi bilan to‘qnash kelmoqda. Mazkur jarayon ularning bilim olishi va ijtimoiy muloqotini kengaytirishi bilan birga, ishonchsiz, manipulyativ va ma’naviy jihatdan zararli axborot ta’siriga tushib qolish xavfini ham oshirmoqda.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda o‘smirlarning ijtimoiylashuvi an’anaviy tarbiya institutlari - oila, maktab va mahalla ta’siri bilan bir qatorda Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, videoplatformalar va boshqa raqamli axborot manbalari orqali ham amalga oshmoqda. Mazkur muhit o‘smirlarga bilim olish, muloqot qilish, o‘z qiziqishlarini namoyon etish va ijtimoiy tajriba orttirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, axborot oqimining tartibsizligi, yolg‘on va manipulyativ xabarlar, zararli kontent, kiberbulling, shaxsiy ma’lumotlarning oshkor etilishi hamda destruktiv g‘oyalarning tarqalishi ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish ta’limiy vazifa bo‘lish bilan birga, muhim tarbiyaviy zaruriyat ham hisoblanadi.

O‘smirlik inson hayotida shaxsiy identifikatsiya, mustaqillikka intilish, qadriyatlarni tanlash va jamiyatdagi o‘rnini belgilash jarayonlari jadal kechadigan rivojlanish bosqichidir. Bu davrda tengdoshlar fikri, ommaviy madaniyat va raqamli muhitdagi obrazlar o‘smirning o‘zini baholashi hamda ijtimoiy xatti-harakatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tanqidiy fikrlash va hayotiy tajribaning yetarli darajada shakllanmaganligi esa axborotni hissiy qabul qilish, ommaviy fikrga ergashish va tekshirilmagan ma’lumotlarni tarqatishga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, axborotlar bilan ishlash madaniyati o‘smirni ijtimoiylashtirishning muhim tarbiyaviy vositasi hisoblanadi. Mazkur madaniyat texnik vositalardan foydalanish mahorati bilangina cheklanmaydi. U axborotga bo‘lgan ehtiyojni anglash, maqbul manbani tanlash, dalil va shaxsiy fikrni farqlash, turli ma’lumotlarni qiyoslash, axborotning maqsadi va ta’sirini aniqlash, mualliflik huquqini hurmat qilish hamda axborotdan ijtimoiy mas’uliyat asosida foydalanish qobiliyatlarini qamrab oladi.

Axborot madaniyatining tarbiyaviy ahamiyati, avvalo, o‘smirda haqiqatga intilish, intellektual halollik, mas’uliyat, ehtiyotkorlik, boshqalar fikriga hurmat va axloqiy tanlov qilish sifatlarini rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Axborotni tekshirmasdan tarqatmaslik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, virtual muloqotda odob me’yorlariga rioya etish va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish o‘smirning axloqiy pozitsiyasi bilan bog‘liqdir. Demak, axborotlar bilan ishlash jarayoni bilish faoliyati bo‘lish bilan birga, shaxs ma’naviyatini shakllantiruvchi tarbiyaviy jarayon hamdir. Raqamli muhitdagi axborot ta’sirini faqat taqiq va nazorat vositasida boshqarish yetarli natija bermaydi. O‘smirni axborotdan ajratib qo‘yish emas, balki unga axborotni ongli qabul qilish va mustaqil baholashni o‘rgatish zarur. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida faktcheking, mediamatn tahlili, muammoli vaziyatlar, keyslar, munozaralar, ijtimoiy loyihalar va refleksiv topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday metodlar o‘quvchining axborot manbasiga savol bilan yondashishi, dalillarni solishtirishi va o‘z qarorining ijtimoiy oqibatlarini anglashiga yordam beradi.

O‘smirda axborot madaniyatini shakllantirish faqat maktabning vazifasi emas. Oiladagi raqamli tarbiya, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, tengdoshlar orasidagi munosabatlar va jamoatchilikning axborot muhiti mazkur jarayonga birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Oila va maktab talablaridagi izchillik o‘smirning virtual va real hayotda yagona axloqiy me’yorlarga amal qilishiga zamin yaratadi. Aksincha, kattalarning o‘zlari tekshirilmagan xabarlarni tarqatishi yoki raqamli muloqot odobiga rioya qilmasligi tarbiyaviy

ta’sir samaradorligini pasaytiradi. Mavjud amaliyotda o‘smirlarning raqamli vositalardan faol foydalanishi ba’zan ularning axborot madaniyati shakllanganligi sifatida noto‘g‘ri baholanadi. Aslida platformalardan texnik foydalanish bilan axborotning ishonchliligini aniqlash, uning yashirin maqsadini anglash va axloqiy qaror qabul qilish o‘rtasida jiddiy farq mavjud. Shu bois ta’limda raqamli ko‘nikmalar bilan bir qatorda tanqidiy-tahliliy, axloqiy-xavfsizlik, kommunikativ va refleksiv qobiliyatlarni ham maqsadli rivojlantirish talab etiladi. Maqolaning maqsadi o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish hamda uni rivojlantirishning samarali pedagogik yo‘nalishlarini belgilashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun axborot madaniyatining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari, tarbiyaviy funksiyalari va uni shakllantirishda oila-maktab hamkorligining imkoniyatlarini tahlil qilish nazarda tutiladi.

Respublikamiz va xorij olimlari tomnidan o‘quvchilarni axborot madaniyati va undan foydalanish imkoniyatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda Sh.B.Karimboeva va I.Abduraxmonovning, D.Bakingem, U.Jeyms Potter va D.Boydning ilmiy yondashuvlaridan alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Jumladan, Sh.B.Karimboeva o‘quvchilarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishni ta’lim dasturiga integratsiyalash nuqtai nazaridan o‘rganadi. Muallif axborot savodxonligini alohida mavzu sifatida o‘qitishdan ko‘ra, uni turli fanlar mazmuniga kiritish, interfaol strategiyalardan foydalanish va o‘quvchilarga turli manbalar bilan ishlash tajribasini berishni taklif qiladi. Mazkur yondashuv o‘smirda axborotni tanlab qabul qilish, ta’limiy va ko‘ngilochar kontentni farqlash, axborotga estetik hamda axloqiy baho berish qobiliyatini tarbiyalanishi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

I.Abduraxmonov R.Jo‘raevalar o‘z ilmiy qarashlarida axborotlashuv, kibermakon va ma’naviy tahdidlar kontekstida tahlil qiladi. Mualliflar axborot madaniyatini yoshlarni axborot xurujlari, yot g‘oyalar va manipulyativ ta’sirlardan himoya qiladigan ma’naviy-intellektual mexanizm sifatida baholaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tarbiya jarayonida o‘smirga tayyor xulosalarni berishning o‘zi yetarli emas; unda axborot manbasining maqsadini aniqlash, yashirin ta’sir usullarini anglash va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayanib qaror qabul qilish qobiliyati rivojlantirilishi lozimligiga alohida to‘xtalgan.

U.Jeyms va Potterning qarashlarida kognitiv mediasavodxonlik nazariyasi axborotni anglashda shaxsning ichki maqsadi, mavjud bilim tuzilmalari va tahliliy ko‘nikmalarini asosiy omil sifatida belgilaydi. Uning yondashuvida inson mediaxabarlarni avtomatik ravishda qabul qilishi yoki ongli ravishda qayta ishlashi mumkin. Axborot madaniyatini shakllantirishning vazifasi o‘quvchini avtomatik axborot iste’molidan maqsadli va nazorat qilinadigan qabulga o‘tkazishdan iborat. Buning uchun o‘smir o‘z axborot ehtiyojini anglashi, media ta’siri haqida bilimga ega bo‘lishi va taqqoslash, tahlil qilish, baholash hamda umumlashtirish ko‘nikmalarini qo‘llay olishi zarurligini tahlil qilib o‘tgan.

D.Boydning ilmiy qarashlarida o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlardagi hayotini “tarmoqlashgan ijtimoiy muhit” nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Uning tadqiqotida ijtimoiy tarmoq o‘smir uchun faqat axborot manbai emas, balki shaxsiy identifikatsiya, tengdoshlar bilan muloqot, o‘zini namoyon qilish va ijtimoiy mavqe shakllanadigan makon ekani ko‘rsatiladi. Olim o‘smirlarning maxfiylikka befarq ekani haqidagi qarashlarni shubha ostiga olib, ular shaxsiy hayot chegaralarini kattalardan farqli usullarda boshqarishini ta’kidlaydi.

Quyidagi rasmda axborotlar bilan ishlash madaniyati tayyor ma’lumotni qabul qi-

lishdan emas, balki axborotga bo‘lgan ehtiyoj va shaxsiy maqsadni anglashdan boshlanishi ko‘rsatilgan. O‘smir dastlab nima uchun axborot izlayotganini tushunsa, uning tasodifiy yoki algoritm tavsiya qilgan kontent ta’siriga tushib qolish ehtimoli kamayadi. Manbani tanlashdan keyin xabarning muallifi, maqsadi va nazarda tutilgan auditoriyasi aniqlanadi. Dalillarni tekshirish bosqichida bir xabar kamida bir nechta mustaqil manba bilan qiyoslanadi. Axloqiy baholash esa xabarning haqqoniyligi bilangina cheklanmay, uni tarqatish biror shaxsning obro‘si, huquqi, maxfiyligi yoki ijtimoiy munosabatlarga qanday ta’sir qilishini ham hisobga oladi. Modelning oxirgi bosqichi mas’uliyatli raqamli ishtirokdir. Bunda o‘quvchi axborotni qabul qilish, rad etish, qayta ishlash yoki boshqalarga uzatish bo‘yicha ongli qaror chiqaradi. Refleksiv qaytar aloqa o‘smirning har bir axborot tajribasidan xulosa chiqarishi va keyingi tanlovlarini takomillashtirishini bildiradi.

Axborot madaniyatining tarbiyaviy imkoniyatlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishda ham namoyon bo‘ladi. Milliy tarix, madaniy meros, ajdodlar ilmiy-ma’naviy faoliyati va xalq an’analariga oid ishonchli axborotlarni o‘rganish o‘smirda milliy g‘urur, tarixiy xotira va Vatanga daxldorlik tuyg‘usini rivojlantiradi. Boshqa xalqlarning madaniyati va qadriyatlariga oid axborotni xolis qabul qilish esa bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mazkur madaniyat axborotni izlash va qabul qilish ko‘nikmalari bilangina cheklanmay, manbaning ishonchliligini tekshirish, xabarning maqsadi va auditoriyasini anglash, dalillarni qiyoslash, axloqiy baho berish hamda axborotni mas’uliyat bilan tarqatish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Shu jihatdan u o‘smirning mustaqil fikrlashi, ma’naviy barqarorligi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantiruvchi integrativ tarbiyaviy sifat hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili axborot madaniyatini shakllantirishda maqsadli axborot iste’moli, fanlararo integratsiya, ma’naviy-intellektual himoya, mediaxabar mazmunini tahlil qilish, kognitiv o‘zini boshqarish va raqamli muhitdagi ijtimoiy munosabatlarni anglash muhim ekanini ko‘rsatdi. Demak, o‘smirni axborot ta’siridan faqat himoya qilish yetarli emas. Uni axborot makonida ongli tanlov qiladigan, shaxsiy ma’lumotlarni asraydigan, boshqalar huquqini hurmat qiladigan va o‘z raqamli harakatlari oqibatini oldindan baholaydigan sub’ekt sifatida tarbiyalash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2020-yil 24-yanvar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

3. Karimboeva Sh.B., Mavlonberdieva N.O., Amatova M.A. O‘quvchilarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish // International Journal of Recently Scientific Researcher’s Theory. - 2024. - T. 2. - №9. - B. 152–157. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.ijrs.59756.

4. Abduraxmonov I., Jo‘raeva R. Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning metodologik muammolari // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. - 2025. - T. 5. - №7. - B. 97–100.

5. Boyd d. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. - New Haven: Yale University Press, 2014.

Durdona MO‘YDINOVA,
Farg‘ona davlat universiteti, talaba

TALABALARDA SHAXSIY E’TIQODINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada ishda pedagogik metodlar – diskussiya, guruhli loyiha ishlari, refleksiv mashg‘ulotlar, mentorlik va ijtimoiy loyihalarda ishtirok – talabalarning axloqiy-ma’naviy qarashlarini ongli ravishda rivojlantirishdagi samarasi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Prezident Shavkat Mirziyoyev va Ta’lim vazirligining ma’naviyat, ma’rifat va ta’lim sohasidagi siyosati, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unligi, talabalarda shaxsiy e’tiqodni barqaror shakllantirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tiladi

Tayanch so‘zlari. Diskussiya, refleksiya, shaxsiy e’tiqod, pedagogik texnologiya, ma’naviyat, ma’rifat, zamonaviy ta’lim, mentorlik, refleksiv mashg‘ulotlar.

В статье анализируется эффективность педагогических методов в работе –дискуссии, групповой проектной работы, рефлексивных занятий, менторства и участия в социальных проектах – в осознанном развитии нравственно-духовных взглядов студентов. В то же время указывается, что политика Президента Шавката Мирзиёева и Министерства образования в сфере духовности, просвещения и образования, ее гармония с современными педагогическими подходами способствуют устойчивому формированию личных убеждений у студентов.

Ключевые слова. Дискуссия, рефлексия, личные убеждения, педагогические технологии, духовность, просвещение, современное образование, менторство, рефлексивные занятия.

The article analyzes the effectiveness of pedagogical methods in the work - discussion, group project work, reflexive training, mentoring, and participation in social projects - in the conscious development of students' moral and spiritual views. At the same time, it is shown that the policy of President Shavkat Mirziyoyev and the Ministry of Education in the field of spirituality, enlightenment, and education, combined with modern pedagogical approaches, serves the stable formation of personal beliefs in students.

Key words. Discussion, reflection, personal belief, pedagogical technology, spirituality, enlightenment, modern education, mentoring, reflexive training.

Pedagogika nuqtayi nazaridan e’tiqod shaxsning ma’naviy shakllanishida muhim o‘rin tutuvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi. Ilmiy manbalarda e’tiqod – bu shaxs tomonidan chuqur anglab yetilgan hamda uning xulq-atvori va amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladigan barqaror ishonch, deb ta’riflanadi. Mazkur ishonch shaxs faoliyatining ichki motivatsion asosi bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsiy e’tiqod esa pedagogik jihatdan shaxsning individual ma’naviy sifati sifatida qaraladi. Shaxsiy e’tiqod – bu shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasini belgilovchi, uning ijtimoiy xulqi va faoliyat yo‘nalishini aniqlab beruvchi mustahkam ichki ishonch tizimi, deb ta’riflanadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida talim va tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik yutuqlardan foydalanish bilan bir qatorda talabalarda mustahkam shaxsiy e’tiqodga ega bo‘lgan mas’uliyatni chuqur his etadigan malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish nafaqat kasbiy bilim berish, balki yoshlarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini va hayotiy e’tiqodini shakllantirishni ham talab etadi.

Shaxsiy e’tiqodni shakllantirish talabalarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Miloddan avvalgi 427–347-yillarda yashab o‘tgan falsafiy olim hisoblangan Aflotun e’tiqodni inson qalbida shakllanadigan hamda uning haqiqatni anglash va qabul qilish darajasini belgilovchi ichki ishonch sifatida talqin etgan. Uning fikricha, e’tiqod insonni bilim va haqiqat sari yetaklovchi muhim ma’naviy asos hisoblanadi. Bu g‘oya Sharq falsafasida ham rivojlantirilib, 873–950-yillarda yashab o‘tgan Abu Nasr Forobiy tomonidan e’tiqod insonning ma’naviy kamolotini ta’minlovchi va uning faoliyatini boshqaruvchi ichki ruhiy kuch sifatida izohlangan. Forobiy e’tiqodni shaxsning jamiyatdagi o‘rni va xulq-atvorini belgilovchi asosiy omillardan biri deb hisoblagan. Keyinchalik nemis klassik falsafasi vakili, 1724–1804-yillarda yashab o‘tgan Immanuel Kant ham e’tiqod masalasiga alohida e’tibor qaratib, uni insonning axloqiy faoliyati va qarorlarini belgilovchi, uning ichki ishonchiga asoslangan ma’naviy mezon sifatida baholagan. Shunday qilib, ushbu faylasuflarning qarashlarida e’tiqod shaxsning ichki ishonchi, ma’naviy kamoloti va hayotiy faoliyatini belgilovchi muhim falsafiy va ruhiy omil sifatida talqin etiladi.Pedagogika va psixologiya tadqiqotlarida talabalar o‘z e’tiqodini shakllantirish jarayonida individual qadriyatlar, ijtimoiy muhit va pedagogik texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik amaliyotda interaktiv metodlar, loyiha ishlari, refleksiv mashg‘ulotlar va ijtimoiy loyihalar talabalarda e’tiqodiy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi [3]. Olima pedagogik texnologiyalar va amaliy faoliyat uyg‘unligi shaxsiy e’tiqodni mustahkamlashini ta’kidlaydi. Ushbu fikrga asoslanib aytish mumkinki, talabalarda e’tiqodiy qadriyatlar faqat auditoriya mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy loyihalar va tarbiyaviy tadbirlar orqali mustahkamlanishi lozim. Bu esa e’tiqodning hayotiy ahamiyatini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy e’tiqodni shakllantirish jarayonida talabaning individual xususiyatlari, ijtimoiy muhit va pedagogik texnologiyalar birgalikda muhim rol o‘ynaydi.

Talabalarda shaxsiy e’tiqodni shakllantirish zamonaviy pedagogik jarayonda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, e’tiqodiy qadriyatlar nafaqat nazariy bilimlar orqali, balki talabaning amaliy faoliyati va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri orqali barqaror rivojlanadi. Zamonaviy ta’limda interaktiv va kreativ metodlar – diskussiya, guruhli loyiha ishlari, refleksiv mashg‘ulotlar va mentorlik texnologiyalari – shaxsiy e’tiqodni shakllantirishda samarali vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Diskussiya va guruhli loyiha ishlari talabalarni mustaqil fikrlashga, o‘z qarashlarini baholashga va axloqiy qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Refleksiv mashg‘ulotlar esa talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilish va qadriyatlarni anglash qobiliyatini oshiradi. Mentorlik va individual yondashuv esa talabaning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, shaxsiy e’tiqodni ongli va barqaror shakllantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish talabaning qadriyatlarini hayotiy tajriba bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jarayonlarda nazariy bilimlar, amaliy faoliyat va kreativ yondashuv uyg‘unligi shaxsiy e’tiqodni samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari tahliliga ko‘ra, pedagogik metodlar talabalarning shaxsiy e’tiqodini shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Xususan, mentorlik va individual yondashuv metodi eng yuqori natijani ko‘rsatib, 85% talabalarda shaxsiy e’tiqodning ongli ravishda rivojlanganligi kuzatildi. Shuningdek, guruhli loyiha ishlari orqali 80% talabalarda axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy faollik oshganligi aniqlandi. Munozara metodi

esa 75% talabalarga o‘z e’tiqodini ongli ravishda anglash imkonini bergan. Refleksiv mashg‘ulotlar natijasida esa 70% talabalarda o‘z qadriyatlarini anglash darajasi oshganligi kuzatildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur pedagogik metodlardan samarali foydalanish talabalarning shaxsiy e’tiqodini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda shaxsiy e’tiqodni shakllantirish pedagogik jarayonda nazariy bilim, amaliy faoliyat va interaktiv metodlarning uyg‘unligi orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, diskussiya va guruhli loyiha ishlari talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Refleksiv mashg‘ulotlar esa talabalarga o‘z qadriyatlarini anglash va shaxsiy e’tiqodni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, barcha pedagogik metodlar talabalar shaxsiy e’tiqodini shakllantirishda sezilarli natija bergan, lekin foiz ko‘rsatkichlari 100% ga yetmagan. Bu shuni anglatadiki, metodlarni qo‘llash samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha pedagogik chora-tadbirlar zarur:

1. Munozara (75%) ortib qolgan 25 foizni qoplash uchun: talabalar o‘rtasida ko‘proq strukturali va rolli munozaralar tashkil qilish tavsiya etiladi. Talabalarga oldindan muammo yoki mavzu bo‘yicha tayyorgarlik berish ularning fikrini ongli ravishda ifoda etishini kuchaytiradi.

2. Guruhli loyiha ishlari (80%) ortib qolgan 20 foizni to‘ldirish uchun: loyihalarni turli darajadagi murakkablikda va real hayotiy masalalar asosida tashkil qilish lozim. Har bir guruh a’zosi responsabil vazifalarni olishi va yakuniy natijaga faol hissa qo‘shishi ta’minlanishi kerak.

3. Refleksiv mashg‘ulotlar (70%) ortib qolgan 30 foizni qoplash uchun: talabalarning shaxsiy kundalik (journaling) va tahlil mashqlarini ko‘paytirish tavsiya etiladi. Mentor tomonidan individual tahlil va fikr-mulohaza berish orqali refleksiv jarayon mustahkamlanadi.

4. Mentorlik / individual yondashuv (85%) Ortib qolgan 15 foizni kamaytirish uchun: mentor-talaba uchrashuvlar sonini ko‘paytirish va shaxsiy maqsadlar bo‘yicha individual reja ishlab chiqish zarur. Talabaning qiziqishlari va qiyinchiliklariga mos psixologik va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, mentorlik va individual yondashuv talabaning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlab, e’tiqodning ongli va barqaror shakllanishini ta’minlaydi. Ijtimoiy loyihalarda ishtirok esa talabalarga qadriyatlarni hayotiy tajriba orqali mustahkamlash imkonini beradi va shaxsiy e’tiqodni amaliy jihatdan rivojlantiradi.

Umuman olganda, pedagogik texnologiyalarni uyg‘un va kreativ tarzda qo‘llash, talabalarda shaxsiy e’tiqodni nafaqat nazariy, balki hayotiy tajriba orqali shakllantirishga yordam beradi. Bu esa zamonaviy ta’lim jarayonida talabaning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov Z.Yu. Talabalarni e’tiqodiy qadriyatlarini shakllantirish metodlari, Samarqand, 2019, 30–33-betlar.

2. Smith J., Brown R. Developing Personal Beliefs in Higher Education, London, 2020, 12–15-betlar.

3. Sultonova M. Pedagogik texnologiyalar va shaxsiy e’tiqod, Toshkent, 2022, 60–62-betlar.

Zair TAXIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti, Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti,
"Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik" kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori

USLUBIYATNING FONETIK VOSITALARI

Annotatsiya

Maqolada fonetik vositalarning uslubiy imkoniyatlari haqida so'z boradi. Unda fonetikaning leksikologiya va grammatika bilan chambarchas bog'liqligi, tovushlarning, urg'uning talaffuz etilishi, nutq egasining individual xususiyati (uslubi) bilan bog'liqligiga qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Tayanch so'zlar. Nutq, tovush, intonatsiya, ohang, ohangdoshlik, cho'ziqlik kuchlilik, yo'g'onlik, ingichkalik, fonema, urg'u.

В данной статье речь идет о фонетических средствах стилистики. В ней кратко излагается тесная связь фонетики с лексикологией и грамматикой, а также связь произношения звуков и ударений с индивидуальным стилем персонажа.

Ключевые слова. Речь, звук, интонация, интонация, созвучие, протяженность, сила, густота, тонкость, фонема, ударение.

This article deals with phonetic means of stylistics. It briefly outlines the close connection of phonetics with lexicology and grammar, as well as the connection of the pronunciation of sounds and stress with the individual style of a character

Key words. Speech, sound, intonation, tone, harmony, length, strength, thickness, fineness, phoneme, stress.

Fonetika (yun. – tovush) – til haqidagi fanning bo'limi, uning nutq vositalarini – tovush va ularning birikish qoidalari, urg'u va intonatsiyani o'rganadi hamda o'rgatadi. Tovush nutqning eng kichik, bo'linmas birligidir. Tovushlar ko'pgina sifatlarga ega: ohang balandligi; cho'ziqlik, kuchlilik, yo'g'onlik, ingichkalik va b. Tovushlarni talaffuz etish insonning individual xususiyatiga bog'liq.

Fonetika leksikologiya va grammatika bilan chambarchas bog'liq. Tovushlar so'z qurilishi uchungina emas, balki ular shakl tuzilishi uchun ham xizmat qiladi.

Agar so'z tarkibida bitta tovush almashtirilsa, butkul boshqa ma'nodagi so'z hosil bo'ladi: ko'z – ko'r, chop – qop, gasht – dasht, hil – xil va b. So'zga bitta yoki ortiq tovush qo'shilishi uning grammatik shaklini o'zgartirishi mumkin:

qo'r – qo'ra, kitob – kitoblar, dala – dalada va b.

So'z ma'nosining yoki shaklining o'zgarishiga sabab bo'luvchi tovushlar tilshunoslikda fonemalar deb ataladi.

Urg'u – so'zning biror bo'g'inini ovozni kuchaytirib alohidalash, ya'ni turli fonetik vositalar bilan kuchli talaffuz etish.

Urg'u ma'no farqlash xususiyatiga ega. Bu – ayniqsa, o'zlashgan qatlamga oid so'zlarda yaqqol seziladi: aka+de-mik, aka+de+mik.

Uslubiy jihatdan gap tarkibidagi biror so'zni ta'kidlab aytilishi muhim ahamiyatga molikdir. Bunday urg'u tilshunoslikda gap urg'usi yoki intonatsiyaviy urg'u (mantiq urg'usi) deb nomlanadi. Intonatsiyaviy urg'u so'zlovchining maqsadiga (uslub talabiga) ko'ra gapdagi istalgan so'zga tusha oladi, shuningdek, so'zdagi istalgan bo'g'inga ham tushadi. Masalan, To'lqin bordi (boshqa hech kim emas, To'lqin bordi degan ma'noni bildiradi): To'lqin bordi (To'lqin bormadi emas bordi ma'nosini bildiradi).

Ayrim vaziyatlarda urg‘u so‘z tarkibidagi bo‘g‘inni tushirib qoldiradi. Masalan, so‘zlovchi biror hol sodir bo‘lganini bildiradi: Himoya bo‘ldi deya so‘zlovchi bo‘ldi so‘zini alohida ta’kid etadi. Lekin tinglovchi malakaviy bitiruv ishi himoyasi bo‘lganligiga ishonqiramaganidan yoki taajjublanganidan bo‘ldimi so‘zining oxirgi bo‘g‘inini qisqartirib so‘raydi: bo‘ldi? Bunda odatda –mi bo‘g‘iniga tushadigan urg‘u –di ga tushib, uning o‘rnini bosadi.

So‘zlarda asosiy urg‘udan tashqari yordamchi (ikkinchi darajali) urg‘u ham bo‘ladi. Asosiy urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushsa, yordamchi urg‘u ikkinchi yoki so‘z o‘rtalaridagi bo‘g‘inga tushadi. Urg‘u tushgan bo‘g‘indagi unli tovush asosiy urg‘u tushgan unlidan kuchsizroq talaffuz etiladi va bu tilshunoslikda reduksiya deyiladi, unli esa reduksiyalangan unli ataladi. Masalan, talaba+miz. Asosiy urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘ini -miz ga, yordamchi urg‘u esa -ba bo‘g‘inga tushadi va aksincha, urg‘u uchinchi bo‘g‘inga, yordamchi urg‘u to‘rtinchi bo‘g‘inga tushishi mumkin.

Intonatsiya – muayyan ma’no va ifoda berish uchun gapning asosiy tovush tomoni, ovoz kuchi va cho‘ziqligining o‘zgarishi. Jumla ayni bir tarkibdan iborat bo‘lgani, so‘zlar qatori o‘zgarmagan holda intonatsiyaga ko‘ra so‘zlovchining fikri, xohishi va his-hayajoni ifoda topishi mumkin: O‘qish uchun bir yillik to‘lov sakkiz million so‘m (oddiy xabar ma’nosidagi jumla); O‘qish uchun bir yillik to‘lov sakkiz million so‘m? (savol); O‘qish uchun bir yillik to‘lov sakkiz million so‘m! (xabar, qo‘shimcha ekspressivlik bilan).

Badiiy nutqda ayrim tovushlari bir xil yoki ohangdosh so‘zlardan foydalanib she’r yozish usuli mavjud:

Labing ba’rimni qon qildi, ko‘zimdan qon ravon qildi,

Nega holim yamon qildi, men ondin bir so‘rorim bor.

Bu bayt Zahiriddin Muhammad Boburning bor radifli qaro zulfing firoqida deb boshlanuvchi g‘azalidan olindi. Unda qon, ravon, yomon so‘zlari ohangdosh bo‘lib, ular tovush ta’sirchanligini kuchaytiradi. Bunday usul misralarning yodda qolishligini osonlashtiradi. Mazkur usul – alliteratsiya deb ataladi va undan she’riyatda ko‘proq foydalanadi.

Ushbu g‘azaldan yana bir baytni keltiramiz:

Jahondin menga g‘am bo‘lsa, ulusdin gar alam bo‘lsa,

Ne g‘am yuz muncha ham bo‘lsa, seningdek g‘amgusorim bor.

Yuqoridagi bayt tarkibida ham ohandosh so‘zlar tizilgan: g‘am, alam, ham.

Bolalar folklorida ayni bir xil tovush bilan boshlanuvchi so‘zlar tizmasidan jumla tuzish – so‘z o‘yini usuli bor:

Turg‘un traktorchi tirillab turgan traktorining tormozini tortib turibdi.

Sasigan sabzini sotgan Salim savdogarga sakson sakkiz ming so‘m soliq solindi.

Ayni bir undosh tovushning takrorlanishi nutqga yuqori ta’sirchanlik bag‘ishlabgina qolmaydi, balki musiqiy ohangdorlik ham bag‘ishlaydi.

Ikki she’riy satr (bir bayt) oxiridagi ayrim so‘zlar, qo‘shimchalar, bo‘g‘in (hijo)larning bir xilda o‘zaro ohangdosh bo‘lib kelishi, “... she’rning tovush tuzilishida, ohang tarkibida, intonatsiyada, sintaktik-semantik bog‘lanishida, band tuzilishida ... she’riy nutqni ohangdor va ta’sirli qilishga xizmat etadi, misralarning esda saqlanib qolishini osonlashtiradi”.[1]

Quyidagi to‘rtlikning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralaridagi so‘zlar ohangdoshligiga e’tibor beraylik:

Kim bor anga ilm tolibi – ilm kerak,

O‘rgangani ilm tolibi ilm kerak!
Men tolibi ilm-u tolibi ilm yo‘q,
Men bormen ilm tolibi – ilm kerak.

Yuqorida qayd etilgan misralarda to‘rtta so‘z ohangdoshdir. Satrlar tarkibidagi takror so‘zlar qofiya (rifma) hisoblanadi. Qofiya so‘zlar tarkibidagi tovushlar bir-biriga to‘liq mos keladi. Bunday qofiyadosh satrlar almashinuvi ruboiy (she’r) ohangi (ritmi)ni yuzaga chiqaradi. Agar his-tuyg‘u shoir qalbi bo‘lsa, unda qofiyalar she’rning libosidir. Chunki shoirlarning o‘z she’rini ana shunday libosga o‘rashdan maqsad uni jozibador, boshqa birorta asarga o‘xshamagan bo‘lishligini ta’minlashdir.

So‘zni tashkil etuvchi tovushlardan (yoki harfdan) birining almashishi so‘z ma’nosini yoki leksik birlik shaklining keskin o‘zgarishga olib keladi, masalan, Sinch uyim, tinch uyim. (Xalq maqoli).

Ne og‘zimga sig‘ar bu so‘z, ne tilg‘a,
Ki behad o‘t tushubtur jon-u dilg‘a. (Lutfiy).

O‘zbek tiliga ruscha, rus tili orqali boshqa chet tillarga xos so‘zlar XIX asr so‘nggi choragidan kirib kela boshladi. Ilm, fan, texnika sohasida ular jadal o‘zlashtirila boshladi va ular talaffuzi deyarli o‘zgarmagan holda saqlandi. Lekin oddiy so‘zlashuvda ular erkin talaffuz etilar va bundan shoirlar hajv maqsadida foydalanadilar. Muqimiyning “Moskovchi boy ta’rifida” asarida bu holni yaqqol ko‘ramiz.

Chiqib yangi maskovchidan boylar,
Sinar o‘tmayin ba’zisi oylar.
... Olib sulsini aqchasin xo‘jayin,
Berib mol kontorga qildi tayin.
... “Ko‘tarmakka yuk deb, malay saqlasam,
O‘ziga degay ishlaturlar akam”.
Topib mardikorini: “Seychas yuring,
Pajolista, – der erdi, – emdi turing”.
Dubora yana bordi bir ishga shul,
So‘kib “net, – dedi, – kelma, durrak, poshyol!”

Chet so‘zlarni buzib talaffuz etishdan maqsad kulgi chiqarish va shu bilan birga, atayin nutqda oddiy so‘zlashuvga xos xususiyat baxsh etishdir.

Tilda uchraydigan chet ismlar talaffuzida ham bo‘g‘inlar atayin ajratib talaffuz etish ham uchraydi va bu bilan so‘zlashuvchining obyektga bo‘lgan salbiy munosabati yuzaga chiqadi, masalan: Abd+ul+ahad – Abdu+lahad; Abdu+murod – Apti+murod.

Ayrim she’riy satrlarda qo‘shimcha bo‘g‘in (hijo) uchraydi. Masalan:

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko‘ngil,
Nechaki borib eshigiga, bor topmadim.

Boburning topmadim radifli g‘azalidagi bu baytning birinchi satri o‘n to‘rt hijoli, ikkinchi satri o‘n uch hijoli, ya’ni birinchi satrdagi eshigiga so‘zi (e+shi+gi+ga) to‘rt hijoli, ikkinchi satrdagisi ham shunday, ammo, o‘qishda birinchi satrdagisi qisqartirib (eshi+-gi+ga) uch xijoli o‘qiladi, ikkinchi satrdagisi to‘rt hijoli o‘qiladi. Fonetik jihatdan shunday o‘qilishi natijasida satrdagi umumiy hijolar soni bir-biriga teng (13 tadan) hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi ayrim so‘zlarni tashkil etuvchi tovush (harf) yoki bo‘g‘inning kuchli yoki kuchsiz talaffuz etilishidan so‘z shakli o‘zgarmagan holda ma’nosi butkul o‘zgarishi mumkin. Masalan, kul so‘zidagi oxirgi -l tovushning kuchli talaffuzi kul (moq)ni anglatadi, kuchsiz talaffuzi kul (xok, yog‘och, qog‘oz va boshqalar yonishidan hosil bo‘lgan qoldiq) ni anglatadi.

So‘z bo‘g‘inlarida ham shunday holni kuzatish mumkin: ko‘ng+il; agar urg‘u ikkinchi bo‘g‘in (+il)ga tushsa, ot turkumidagi so‘z hisoblanadi, birinchi bo‘g‘in (ko‘n+)ga tushsa, buyruq fe’liga aylanadi, ma’no butkul o‘zgaradi. Yana bir misol: sing+il, sin+gil. Har ikki so‘zda ham +q va -n tovushlari bo‘g‘in va ma’no farqlovchi hisoblanadi.

Ma’lumki, og‘zaki nutq intonatsiya va intonatsiyaviy tovla-nuvchanlik xususiyatiga ega. Yozuvda muayyan intonatsiyaviy ohangni alohida ajratib ko‘rsatuvchi maxsus belgilar yo‘qligi sababli yozuvchilar personajlar nutqidagi ayrim so‘z va iboralarni izohlab o‘tadilar. Chunki, nuqta, so‘roq belgisi, undov belgisi, ko‘p nuqta jumla oxirida kelib, faqat asosiy ohangni ayonlashtiradi, nutqdagi barcha intonatsiyaviy imkoniyatni ifoda eta olmaydi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan misol keltiramiz, unda yozuvchining izohi personajlarning ichki dunyosini, ovoz maromini, fikrlashi, niyatini o‘quvchiga baholash imkonini beradi:

... Agar bu ishning oldi olinmasa, hukumat va mamlakat uchun natija qo‘rqinchlidir, taqsir!

Majlis kimnikida edi?

Homid tarafidan kutilmagan bir savol! Homid o‘ziga berilgan bu savol qarshisida taraddudlanib qoldi. Chunki majlis o‘rnini aytsa, pochchasi bilan jiyani Rahmatning ham qo‘lga tushishlari aniq va buning bilan u o‘z oyog‘iga bolta qo‘ygan bo‘ladi. Shu mulohaza yuzasidan u tutiliqdi:

Majlis o‘rni yodimda yo‘q taqsir.

Mantiqsiz bu javobga qarshi qo‘rboshi achchig‘i bilan baqirdi:

Yodimda yo‘q?

Homid garangsindi va bir xil siniq tovushda:

Esimda bo‘lsa ham nozik bir joy edi, taqsir, – dedi.

Nozik bir joy edimi! – deb qo‘rboshi zaharxanda qildi. Agar aytmasang, o‘sha muttahamlar tiqiladigan chuqurga sen ham tashlanasan!

Kechiringiz taqsir!

Qo‘rboshi yirtqichlardek bo‘kirdi!

Kechirish yo‘q.

Homid uchun eng keyingi choradan boshqa iloj yo‘q edi – cho‘ntak kovlashga tutindi va yuz mashaqqat bilan yonchig‘ini chiqardi. Yonchiqdan o‘nga yaqin oltinlarni sanaqsizcha olib qo‘rboshiga uzatdi:

Taqsir ... sizga atagan nazrimiz edi ... Homid kavlana boshlagandayoq qo‘rboshining ustidan sovuq suv sepilgan edi ... so‘zlar ham muloyim tortdi.

Demak, nozik joy edi degin, Homidboy!

Yozuvchilar og‘zaki jonli nutqdagi intonatsiyani ifodalashning turli usullaridan foydalanadilar. Bunday usullar bilan tanishish talaffuz etish va tinglash madaniyatini rivojlantiradi, bu esa, o‘z navbatida badiiy asarni yanada chuqurroq tushunish, personajlar tabiati bilan yaqinroq tanishish imkonini beradi. Shunga ko‘ra Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridagi personajlar – Homid va qo‘rboshi qanday shaxs ekanliklari ular nutqidagi intonatsiyadan yaqqol seziladi: Homid – hasadgo‘y, axloqan tuban, o‘z g‘arazli maqsadi yo‘lida har qanday qabihlikdan qaytmaydi; qo‘rboshi – ikkiyuzlamachi, poraxo‘r, amaldan o‘z shaxsiy manfaati yo‘lida “unumli” foydalanadi.

Mumtoz adabiyotimiz, xususan, Nizomiddin Amir Alisher Navoiy ijodida intonatsiyadan uslubiy foydalanish, ya’ni o‘qilish ohangiga musiqiylik baxsh etish usuli yaqqol seziladi:

Mehr ko‘p ko‘rgazdim, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

Mazkur baytdagi qofiyadosh so‘zlar – mehribon, jon so‘zlari oxirida – e tovushning orttirilishiga xizmat qiladi, ya’ni shuni aytish kerakki, mazkur tovush faqat musiqiy ohangnigina ifoda etibgina qolmay, balki, ta’kidni kuchaytiradi, bitta, birorta so‘zlari ma’no ifodasini beruvchi yoyi xovvas vazifasini o‘taydi.

Yozuvchilar badiiy maqsadda ritorik so‘roqdan foydalanadilar. So‘roq ohangidagi bu gapga javob talab etilmaydi.

O‘tiring, qochmoqchisizmi? – kinoyali kulgi bilan tikiladi Majiddin. To‘g‘onbek yana og‘ir cho‘kdi. (Oybek).

Ha, qayda sen, cho‘loq qarg‘a? Kalitni ber! – qichqirdi u Nurboboga. (Oybek).

Birinchi ritorik so‘roq gap ohangini adib izohlaydi, unda piching ohangi seziladi. Ikkinchi jumlada haqorat, kasmitish so‘roq va undov belgilari yordamida ayonlashadi.

Og‘zaki publitsistik nutqda ham ritorik so‘roqdan tez-tez foydalaniladi. Albatta, nutq jarayonida qayta bog‘lanish (aloqa) bo‘lmaydi. Auditoriya o‘ziga qaratilgan ritorik so‘roqqa javob qaytarmaydi, (masalan, miting, radionutq, telenutq va b.da) javob qaytarish talab ham qilinmaydi.

Badiiy matnlarda mualliflar pauza hamda tovush davomiyligi singari intonatsiyaviy vositalardan ham foydalanadilar:

– alohida ahamiyat berish maqsadida so‘z bo‘g‘inlarga ajratib talaffuz etiladi (bo-la-la-lar, sa-lom);

– muallif maxsus to‘xtam (pauza) qiladi;

– ya’ni hamrohim bor, deganim, mendan qo‘rqmang deganim ...

Otabek yana tushunmadi:

Hamrohingiz ... (A.Qodiriy).

muallif atayin ta’kidlagan tovush uzunligi va davomiyligi:

Yo‘-o‘q, – dedi u xatni qaytarib berar ekan. – Buni men yozmaganman.

Qo‘l meniki emas. (T. Malik).

Uning xirildoq ovozi Dilmurodga arang eshitildi.

Aka ...a...a! (T. Malik).

Xullosa qilib aytgada, o‘quvchiga, ta’sir etuvchi badiiy vosita sifatida intonatsiyaning barcha imkoniyatlaridan foydalanish mumkin: asosiy ohang (ton) (tovush un paychalarining ritmik tebranish chastotasi bilan belgilanadigan sifati [2]); tovush tembri (tovushning asosiy toniga qo‘shiladigan yordamchi ton – obertonlarga bog‘liq holda yuzaga keladigan, o‘ziga xos sifati [3]); so‘zning bo‘g‘inlarga ajralishi; pauza; tovush sadosining davomiyligi. Albatta, yozma nutqda og‘zaki nutqni yuzaga keltiruvchi intonatsiya yangramaydi. Lekin, badiiy so‘z san’atkorlari jumla qurilishida, so‘zlar tartibida, chuqur ma’nodor so‘zlarda “jarang”lashga “majbur” qila oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1979. – 261–262-b.

2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1985. – 93-b.

3. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1985. – 94-b.

4. Taxirov Z.T. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. –T.: Tafakkur avlodi, 2021. –104-b.

Dilshoda IL’YASOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, tayanch doktorant

BOLALAR ADABIYOTI VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalar adabiyotining o‘quvchilar ma’naviyati, estetik tafakkuri, badiiy idroki va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, badiiy asarlarning o‘quvchilarda go‘zallikni anglash, atrof-muhit va insoniy munosabatlarni teran idrok etish, axloqiy-estetik qadriyatlarni o‘zlashtirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ochib beriladi. Bundan tashqari, boshlang‘ich ta’lim jarayonida bolalar adabiyotidan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, estetik tarbiyani takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar. Bolalar adabiyoti, adabiy ta’lim, refleksiv tafakkur, empatik munosabat, motiv, adabiyot portfeli, savodxonlik.

В статье анализируется социально-педагогическая значимость воспитания эстетического вкуса учащихся начальных классов посредством детской литературы. В исследовании освещается роль детской литературы в формировании духовности, эстетического мышления, художественного восприятия и культуры чтения у учащихся. Также раскрываются педагогические возможности художественных произведений в осознании красоты у учащихся, глубоком восприятии окружающей среды и человеческих отношений, усвоении нравственно-эстетических ценностей и развитии навыков самостоятельного мышления. Кроме того, проанализированы теоретические и практические аспекты эффективного использования детской литературы в процессе начального образования, изложены научные выводы по совершенствованию эстетического воспитания.

Ключевые слова. Детская литература, литературное образование, рефлексивное мышление, эмпатическое отношение, мотив, портфолио литературы, грамотность.

The article analyzes the socio-pedagogical significance of cultivating the aesthetic taste of primary school students through children’s literature. The study highlights the role of children’s literature in shaping students’ spirituality, aesthetic thinking, artistic perception, and reading culture. It also reveals the pedagogical possibilities of literary works in students’ understanding of beauty, deep perception of the environment and human relations, assimilation of moral and aesthetic values, and the development of independent thinking skills. In addition, the theoretical and practical aspects of the effective use of children’s literature in the process of primary education are analyzed, and scientific conclusions on improving aesthetic education are presented.

Key words. Children’s literature, literary education, reflective thinking, empathic attitude, motive, literature portfolio, literacy.

Adabiyotni o‘qitish jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy kitobxonlik madaniyatiga bog‘liq. O‘qishni hayotining muhim qismi deb biladigan, darslik doirasidan tashqaridagi adabiy asarlar bilan ham muntazam tanishib boradigan o‘qituvchilar adabiy ta’limni yanada mazmunli va ta’sirchan tashkil eta oladilar. Adabiyotning faol kitobxoni bo‘lish o‘qituvchida kasbiy ishonchni shakllantiradi hamda o‘quvchilarga badiiy asarlarni chuqurroq anglash va qadrlashga yo‘naltiruvchi samarali pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkonini beradi.

Biroq zamonaviy jamiyatda barcha insonlar ham badiiy adabiyot mutolaasiga birdek qiziqish bildirmaydilar. Aksariyat kishilar o‘qish faoliyatini kundalik ehtiyojlarni qondirish maqsadida, jumladan, qisqa xabarlar almashish, elektron pochta yozish va turli axborotlarni qabul qilish jarayonlarida amalga oshiradilar. Shu bilan birga, ularning o‘qish faoliyati ko‘pincha roman, hikoya va she’riy asarlarni mutolaa qilishni qamrab olmaydi. Bunday holat ayrim shaxslarda o‘qish ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlansa-da, ko‘proq adabiyotga bo‘lgan qiziqishning maktab davridayoq susayib borishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mazkur holat adabiy ta’limning ahamiyati va uning shaxs rivojlanishidagi o‘rni bilan bog‘liq qator ilmiy savollarni yuzaga keltiradi. Agar individning o‘qish kompetensiyasi kundalik hayot faoliyatini samarali amalga oshirish uchun yetarli bo‘lsa, uning badiiy adabiyotga murojaat qilmasligini shaxsiy tanlov sifatida qabul qilish mumkinmi? Shuningdek, badiiy adabiyot mutolaasidan voz kechish natijasida shaxs ma’naviy, estetik va intellektual rivojlanishning muayyan imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladimi, degan masala ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiy janrlar, xususan, roman va she’riyat insonning estetik didini shakllantirish, hissiy tajribasini boyitish, tanqidiy va obrazli tafakkurini rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi. Shu sababli badiiy adabiyotning shaxs kamolotidagi o‘rni hamda uning boshqa axborot va madaniy vositalardan farqli jihatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb pedagogik va adabiy muammolardan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, o‘qituvchilarning bolalarda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish va muhabbatni shakllantirishga intilishlari uchun yetarlicha asosli sabablar mavjud. Badiiy adabiyot nafaqat ko‘ngilochar, axborot beruvchi va hordiq chiqarish vositasi sifatida xizmat qiladi, balki shaxsning intellektual hamda ma’naviy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, hikoya va she’riy asarlar o‘quvchilarda atrof-muhit hodisalarini chuqurroq anglash, voqea va jarayonlarga tanqidiy hamda tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, bunday asarlar insonlarning xatti-harakatlari va ularning motivlarini teranroq tushunish, turli ijtimoiy vaziyatlarni baholash hamda empatik munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan badiiy adabiyot shaxsning refleksiv tafakkurini rivojlantirish va uning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

O‘qish madaniyatini shakllantiruvchi o‘qituvchi sifatida bizning vazifamiz bolalarni mavjud bolalar adabiyotining keng doirasi bilan tanishtirish va ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdan iborat. Buning uchun biz turli adabiy matnlar haqida keng qamrovli bilimga ega bo‘lishimiz, shuningdek, bolalarning o‘zaro kitob tavsiyalari bilan bo‘lishishlariga imkon beradigan usullarni ishlab chiqishimiz zarur.

O‘zingizning adabiy asarlar haqidagi bilimlaringizni rivojlantirish uchun adabiyot portfelini yarating. Bunda har bir asar haqida qisqacha fikr yozish va eng qiziq joyini tasvirlab beradigan rasm chizish zarur. Har bir asarni sekin-astalik bilan joylashtirib borish natijasida bola ishtiyoq bilan potfelini to‘ldiradi. Bu esa unda o‘zidan qoniqish hissini beradi va odatga aylanadi.

Kitobga qiziqtirishning yana bir yo‘li bu – bolalarni o‘qigan asarlarini muhokama qilish uchun muntazam uchrashib turadigan guruh tashkil qilish. Ularni bunday uchrashuvlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rishga, o‘zlari yoqtirgan kitoblardan parchalar ulashishga hamda guruhdagi boshqa a’zolar tavsiya qilgan kitoblarni ham o‘qib ko‘rishga rag‘batlantiring.

Ba’zi uchrashuvlar uchun guruhdagi barcha a’zolardan bir xil kitobni oldindan o‘qib

chiqish va uni muhokama qilishga tayyor bo‘lib kelish talab etilishi mumkin.

Ko‘plab kitob do‘konlarida yoki kutubxonada kitob javonlarining maxsus bo‘limini uchratish mumkin. Unda do‘kon xodimlari yoki shu kitobni o‘qiganlar o‘zlari o‘qigan kitoblar haqidagi fikr-mulohazalarini yozib qoldirgan kartochkalarni joylashtiradilar.

Siz ham bu usulni sinfingizda qo‘llab ko‘rishingiz mumkin. Har bir o‘quvchidan o‘zi tanlagan kitobni namoyish etishni, kartochkaga ushbu kitob haqidagi fikrlarini yozishni hamda uni kimlarga tavsiya qilish mumkinligini ko‘rsatishni so‘rang.

Bu faoliyat o‘quvchilarning kitoblar haqidagi mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi va sinfdoshlar o‘rtasida kitob tavsiyalarini almashish imkoniyatini yaratadi.

Bolalarni turli kitoblar bilan tanishtirishning yana bir oddiy usuli – umumiy va yo‘naltirilgan o‘qish jarayonlarida kitoblardan parchalar foydalanishdir.

O‘quvchilardan kitobni to‘liq o‘qib chiqish va o‘sha kitobni topib o‘qishga undaydigan qiziqarli bo‘laklari bilan tanishtirish ham samarali strategiya bo‘lishi mumkin. Umumiy o‘qish uchun tanlangan har qanday kitob nusxalari mavjud bo‘lish muhimdir.

Yo‘naltirilgan o‘qish ham o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, o‘qilgan qismlar muhokama qilinib, bolalardan keyingi voqealar qanday davom etishi mumkinligi haqida taxminlar bildirish so‘ralganda bu usul samarali bo‘ladi. Keyinchalik ular kitobning qolgan qismini mustaqil o‘qib, o‘z taxminlari muallif qarorlari bilan qanchalik mos kelganini bilib olishlari mumkin.

Demak, adabiyot bizning madaniy merosimizning muhim qismidir. Biz matnlar bilan o‘ralgan, savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatda yashaymiz. Ko‘plab matnlar amaliyotda qo‘llanadi va kundalik hayotimizni tashkil etishda yordam beradi: bir joydan ikkinchi joyga borishda, xabarlarga javob berishda hamda voqea-hodisalardan xabardor bo‘lib turishda.

O‘qish ko‘nikmalarini egallayotgan bolalar uchun kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni paydo qilishda o‘qituvchi ham katta ahamiyatga ega. Bunday o‘qituvchilar bolalarga rivojlanish uchun zarur bo‘lgan kuchli rag‘batni bera oladilar. Agar bolalar mohir kitobxon tomonidan ifodali tarzda o‘qib berilgan hikoyani tinglash imkoniga ega bo‘lsalar, ular bunday hikoyalarni keyinchalik mustaqil ravishda o‘qishga ko‘proq intiladilar.

Qanday qilib yuqori natijalarga erishishni istagan sportchilar o‘z sport turidagi ko‘nikmalarni mukammallashtirish uchun uzoq vaqt mashq qilsalar, bolalar ham qiziqarli hikoyalardan bahramand bo‘lish imkonini beradigan o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ko‘proq mehnat qiladilar. Buning uchun ular o‘z harakatlarining maqsadini va foydasini anglay olishlari muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalar adabiyoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini shakllantirish va rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Badiiy asarlar o‘quvchilarda go‘zallikni anglash, badiiy tafakkurni rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov N. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

2. Mirvaliyev B.Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

3. G‘anieva M. “Bolalar adabiyotida badiiy tasvir vositalari va ularning o‘quvchi ongiga ta’siri”. // O‘zbekiston pedagogik axborotnomasi, 2021, №2.

4. Cremin T., Mottram M., Bearne E. and Goodwin P. (2008) Exploring teachers’ knowledge of children’s literature. Cambridge Journal of Education, 38(4): 449–64.

Nargiza KAMOLOVA,
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, doktorant

KIMYO TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING ILMIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada ilmiy tafakkurda empirik va nazariy bilimlar darajalaridan kelib chiqishi va prinsiplari, funksiyalari aytib o‘tilgan. Shuningdrk, ilmiy tafakkur natijasida olingan bilimlar aniq bo‘lishi va belgilangan shaklda formulalar, tushunchalar va nazariyalar ko‘rinishida ifodalanishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Ilmiy tafakkur, subyektiv va obyektiv qarashlar, empirik va nazariy bilimlar, kognitiv, kimyoviy qonunla, funksiya.

В статье рассматриваются принципы и функции, вытекающие из уровней эмпирических и теоретических знаний в научном мышлении. Также утверждается, что знания, полученные в результате научного мышления, должны быть точными и выражаться в виде формул, понятий и теорий в определенной форме.

Ключевые слова. Научное мышление, субъективные и объективные взгляды, эмпирические и теоретические знания, когнитивные, химические законы, функция.

The article describes the emergence and principles, functions of empirical and theoretical knowledge levels in scientific thinking. Therefore, it is thought that the knowledge obtained as a result of scientific thinking is accurate and expressed in the form of formulas, concepts and theories in a specified form.

Key words. Scientific thinking, subjective and objective views, empirical and theoretical knowledge, cognitive, chemical laws, function.

Ilmiy tafakkurni shakllantirish, ya’ni atrof-muhitni tushunishda asosiy usul sifatida foydalanish nisbatan yaqinda rivojlangan bo‘lsa-da, uning asoslari qadimgi yunon olimlari tomonidan belgilab qo‘yilgan. Hozir “ilmiy tafakkur” tushunchasi ko‘proq olimlar va tadqiqotchilar uchun tanish bo‘lsa-da, u insonning kundalik tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq.

Oddiy tafakkur va ilmiy tafakkur o‘rtasidagi farqni tushunish uchun ikki asosiy tushunchani ajratish lozim. Tafakkur – bu insonning idrok va tadqiqot faoliyati bo‘lib, u o‘z ongida atrofdagi obyektlar, predmetlar va hodisalarni obyektiv aks ettirishga intiladi. Ilm – bu dunyo haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va tizimlashtirish bilan bog‘liq faoliyat bo‘lib, asosiy maqsadi atrofdagi hodisalarni ilmiy qonunlar asosida tushuntirishdir. Shundan kelib chiqadiki, oddiy tafakkurda inson ko‘proq o‘zining subyektiv tajribasiga tayangan holda eng sodda tahlil usullaridan foydalanadi, ilmiy tafakkurda esa u obyektivlik, tizimlilik va isbotlilik usullarini qo‘llaydi. Ilmiy va kundalik tafakkur o‘rtasidagi farq dastlab ko‘rinishicha keskin bo‘lsa-da, ularning ikkalasi ham abstraktsiyalash mexanizmi asosida ishlaydi. Bu shuni anglatadiki, inson dunyoni o‘rganayotganda predmetlar va hodisalarning aniq xususiyatlaridan “uzilib”, muhim jihatlarni ko‘ra oladi.

O‘quvchi turli metallarni solishtiradi: mis, alyuminiy va temir. Ularning rang, qattiqlik va kimyoviy reaksiyaga kirish xususiyatlarini ajratib, umumiy xususiyatlarini, yaltiroqlik, elastiklik, bolg‘alanuvchanlik, issiq o‘tkazuvchanligi, elektr o‘tkazuvchanligi kabi umu-

miy xossalarini ko‘radi. Kimyoviy elementlarning reaksiyaga kirishi, natriy suv bilan reaksiyaga kirib, vodorod ajratadi. Bu hodisada o‘quvchi muhim xususiyat, natriyning suv bilan reaksiyaga kirishini ajratib ko‘radi.

Insonlar tafakkurga moyilligiga ko‘ra ajratiladi:

– ilmiy tafakkurga yo‘naltirilgan shaxslar, faol, psixologik jihatdan moslashuvchan, mustaqil, yangi bilim va o‘zgarishlarga ochiq. Ular dunyoni obyektiv baholashga intiladi, masalan, kimyoviy tajribalarni xatoliklardan qochish uchun ehtiyotkorlik bilan bajaradi;

– ilmiy bo‘lmagan tafakkurga yo‘naltirilgan shaxslar, ko‘proq qiziqarli, sirli va amaliy foydali narsalarga e’tibor beradi, ular hissiyotlariga tayangan holda qaror qabul qiladi, masalan, kimyoviy eksperimentning mohiyatini tushunmasdan faqat rang yoki shovqiniga e’tibor beradi.

Bilim olishni rivojlantiradi, o‘quvchi turli kimyoviy modda va hodisalar haqida asosiy bilimlarni oladi. Masalan, kislorodning yonuvchi moddalarni yondirishdagi roli yoki turli kislotalarning xossalari.

Ijodiy va matematik tafakkurni rivojlantiradi: o‘quvchi eksperimentlar orqali nazariy bilimlarni amaliy tarzda qo‘llashni o‘rganadi. Masalan, molekulalarning shaklini modellashtirish orqali molekulyar tuzilishni tushunadi. Qiziquvchan ongni shakllantiradi: ilmiy tafakkur o‘quvchini masalalarni hal qilishga undaydi, darsdagi topshiriqlar, laboratoriya ishlarida natijalarni tahlil qilish, yangi eksperimentlarni taklif qilish. Shu bilan birga, u jamoaviy ishlash asoslarini yaratadi, o‘quvchilar guruhda tajriba o‘tkazishda bir-biriga yordam berish va natijalarni muhokama qilish orqali hamkorlikni o‘rganadi.

Ilmiy tafakkur – bu inson faoliyatining maxsus sohasi bo‘lib, unda atrofdagi haqiqat haqidagi bilimlar tizimlashtiriladi va yangi bilimlarni olish yo‘llari yaratiladi. Maktab kimyosida bu o‘quvchilarga modda va hodisalarni chuqurroq tushunishga, tajribalar orqali kuzatish va tahlil qilishga, shuningdek, ijodiy yondashuv bilan muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Turli metallarning kislotalar bilan reaksiyasi orqali umumiy xususiyatlarini ajratib ko‘rish. Shakar, kraxmal va yog‘larning suvda erish xususiyatlarini solishtirish. Suvning qaynatilishi va muzlashida energiya almashinuvi tushunchasini o‘rganish.

Ilmiy tafakkurda subyektiv va obyektiv qarashlar aniq ajratiladi. Masalan, san’at asariga qaraganda, har bir inson rassomning shaxsiy qarashini ko‘radi, lekin Mendeleyevning davriy qonunini o‘rganganimizda olimning shaxsiyati haqida hech qanday ma’lumot olinmaydi. Kimyo darsida ham biz moddalar xossalarini o‘rganayotganda, tajribalar va kuzatuvlar subyektiv fikrdan mustaqil holda obyektiv natijalarni beradi.

Har qanday ilmiy bilimlar tizim asosida shakllanadi. Kimyoviy qonunlar, tushunchalar va reaksiyalar tizimi ko‘plab yillar davomida rivojlanadi va ular bir-biri bilan mantiqiy bog‘langan. Masalan, atom tuzilishi, molekula tuzilishi va moddalarning reaksiyaga kirish xususiyatlari bir-birini to‘ldiradi hamda o‘quvchilar bu tizimli yondashuv orqali ilmiy asosni mustahkamlaydi.

Kimyo darslarida har bir qonun yoki formula tajriba va dalillar bilan asoslanadi, bu esa o‘quvchilarda ilmiy asoslash qobiliyatini shakllantiradi. Ilmiy tafakkur faqat hozirgi vaqtda mavjud hodisalarni emas, balki kelajakda muhim bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalarni ham o‘rganishga qaratilgan. Yangi moddalarni sintez qilish, reaksiyalarni oldindan bashorat qilish va ularni hayotda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish orqali amalga oshadi.

Ilmiy tafakkur qonunlar, tushunchalar va nazariyalarni maxsus til – belgilar, formu-

lalar va ramzlar orqali ifodalaydi. Kimyo darsida bu atomlar, molekulalar, elementlar va ularning reaksiyalarini ifodalovchi belgilar va formulalardir. Ushbu til doimiy rivojlanib boradi va ilmiy bilimlarni aniq ifodalash imkonini beradi.

Ilmiy bilimlarning elementlari bir-biriga zid bo‘lmasligi kerak. Masalan, bir tajribada kuzatilgan qonun boshqa tajriba natijalari bilan mos kelishi zarur. Barcha ishonchli ilmiy bilimlar tajriba orqali qayta tasdiqlanishi mumkin bo‘lishi kerak. Kimyo laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘quvchilar tajribani bir necha marta takrorlab, natijalarni mustahkamlashadi. Ko‘p hodisalarni nisbatan kam sonli asoslar yordamida tushuntirish kerak. Masalan, moddalarning reaksiyaga kirish xususiyatlari bir nechta asosiy qonunlar orqali tushuntiriladi. Yangi ilmiy g‘oyalardan avvalgi bilimga mos keladiganlari afzalroqdir. Kimyoda yangi nazariyalar mavjud qonunlar bilan uyg‘unlashgan holda o‘quv jarayoniga kiritiladi.

Ilmiy bilim maxsus metodlar va usullar orqali o‘rganilishi kerak. Kimyo darslarida tajriba usullari, kuzatuv va o‘lchash usullari asosida bilim shakllanadi.

Ilmiy tafakkur natijasida olingan bilimlar aniq bo‘lishi va belgilangan shaklda – formulalar, tushunchalar va nazariyalar ko‘rinishida ifodalanishi kerak.

Ilmiy tafakkur quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Kognitiv (bilim olish) funksiyasi – tabiat hodisalari va kimyoviy qonunlarni tushunish.

Amaliy faoliyat funksiyasi – laboratoriya tajribalari va yangi moddalar sintezida qo‘llash.

Madaniy va dunyoqarash funksiyasi –o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirib, mantiqiy va sistematik fikrlashga tayyorlash.

Ijtimoiy funksiyasi – olimlarning ish faoliyati va ilmiy bilimlarni amaliy hayotda qo‘llash yo‘llarini o‘rganishga yordam beradi.

Har qanday ilmiy bilimning ikki darajasi mavjud:

– empirik daraja – tajriba va kuzatuvlar asosida olingan bilimlar;

– nazariy daraja –qonunlar, nazariyalar va tushunchalar orqali umumlashtirilgan bilimlar.

Empirik bilimlar – bu haqiqatligi tajriba va kuzatuv orqali isbotlangan bilimlardir, ya’ni shubhasiz faktlarga asoslangan bilimlardir. Mustaqil mavjud bo‘lgan narsalarni bevosita fakt deb bo‘lmaydi. Masalan, “natriy gidroksid” yoki “suv” – bu hali fakt emas. Faktlar ma’lum bir hodisa yoki xossani aniqlovchi bayonotlar xizmat qiladi, masalan, suv 100 °C da qaynaydi, natriy gidroksid suvda eriydi va issiqlik ajratadi, temir oksidi temir bilan kislorod reaksiyaga kirganda hosil bo‘ladi. Ilmiy tafakkur haqida gapirganda, fan hech qachon “toza” faktlar bilan ishlamaydi. Empirik yo‘l bilan olingan barcha bilimlar, ularni izohlashni talab qiladi, ya’ni ma’lum taxminlar va nazariy asoslar doirasida talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, faktlar ma’lum bir nazariya doirasida ma’no kasb etadi.

Empirik qonun – bu faqat tajriba ma’lumotlariga asoslangan va haqiqatligi shunday ma’lumotlar bilan tasdiqlangan qonundur, lekin u nazariy asoslarda isbotlanmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, “kimyoviy reaksiya tezligi moddalar konsentratsiyasiga bog‘liq” degan tajribaviy qonun shunday misol bo‘lishi mumkin.

Nazariy bilimlar to‘rtta asosiy shaklda bo‘lishi mumkin:

Nazariya – ma’lum bir sohadagi markaziy g‘oyalar tizimi yoki ilmiy bilim shakli bo‘lib, u orqali atrofdagi hodisalar va ularning o‘zaro bog‘liqliklarini tushunish mumkin. Masalan, atom nazariyasi yoki kimyoviy bog‘lanish nazariyasi, elektrolitik dissotsiayalanish nazariyasi.

Gipoteza – ilmiy bilish shakli yoki hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalariga oid taxminiy fikr. Masalan, “agar metall A kislorod bilan reaksiyaga kirsa, A oksid hosil bo‘ladi” – bu gipoteza sifatida boshlanadi va keyin tajriba bilan tekshiriladi.

Muammo – hodisalarni tushuntirishda qarama-qarshilik yuzaga keladigan vaziyat. Masalan, bir xil sharoitda ikki modda reaksiyaga turlicha kirishishi muammo sifatida ko‘riladi va uni yechish uchun ilmiy nazariya kerak bo‘ladi.

Qonun – bu hodisalar o‘rtasidagi mustahkam, takrorlanuvchi va muhim bog‘liqlik. Qonunlar umumiy (ko‘pchilik hodisalarga), universial (har doim amal qiluvchi) yoki maxsus (alohida hodisalar uchun) bo‘lishi mumkin. Masalan, Avogadro qonuni (gaz holatdagi moddalar uchun) yoki modda massasining saqlanish qonuni (barcha kimyoviy reaksiyalar uchun). Bu shakllar ilmiy tafakkurni rag‘batlantiradi va tajriba natijalarini asoslashga yordam beradi. Shu bilan birga, ular ilmiy fikrning murakkab tabiatini ham ko‘rsatadi.

Ilmiy tafakkurda empirik va nazariy bilimlar darajalaridan kelib chiqib, quyidagi prinsiplar mavjud:

Tajriba asosida kuzatish – ilmiy tafakkurda eksperiment muhim. Kundalik fikrlashga o‘xshash, lekin farqi shundaki, ilmiy eksperiment natijalari kengroq hodisalarga taalluqli bo‘lishi mumkin. Masalan, kimyoviy reaksiyani laboratoriyada tajriba qilib, undan olinadigan xulosalarni boshqa moddalar bilan reaksiyalarni tushuntirishda qo‘llash mumkin.

Obyektivlik va chetdan kuzatish – tadqiqotchi natijalarni shaxsiy ta’sirdan xoli ravishda kuzatishi. Empirik fikrlash shaxsning bevosita ishtirokini talab qilsa, ilmiy tafakkur kuzatuvchilarni tashqi nuqtai nazardan ishlashga imkon beradi. Shu orqali eksperiment natijalarini tasodifan yoki qasddan noto‘g‘ri talqin qilish xavfi kamayadi.

Ma’lumotlarni tizimlashtirish – tadqiqotchi tajriba natijalari asosida nazariyalarni shakllantirish uchun tizimlashtiradi. Masalan, turli metallarning kislorod bilan reaksiyasini kuzatib, ularni oksid hosil qilish xususiyatlariga ko‘ra tasniflash. Ilgari (XIX asrgacha) empirik yondashuv keng tarqalgan bo‘lib, hodisalar alohida ko‘rilgan, ularning o‘zaro bog‘liqligi kam o‘rganilgan. Bugungi kunda nazariy bilimlarni tizimlashtirish va ularni birlashtirish ko‘proq ahamiyatga ega.

Ilmiy usullar maqsadga erishish yoki muammoni hal qilish yo‘llarini ifodalaydi va quyidagilarga bo‘linadi:

1. Empirik usullar:

kuzatish – hodisani maqsadli va ongli tarzda qabul qilish. Masalan, turli temir jihozlarning zanglashini kuzatish;

eksperiment – tadqiqotchining hodisaga faol ta’siri. Masalan, metallni qizdirib, uning oksid hosil qilishini o‘rganish;

o‘lchash – o‘lchanadigan miqdorlarni solishtirish va aniqlash. Masalan, kislorod miqdorini suv molekulalaridagi ulushini o‘lchash;

tasniflash – moddalarni xossalari bo‘yicha guruhlash. Masalan, oksidlar, kislotalar, asoslar va tuzlarni tasniflash.

2. Nazariy usullar:

formalizatsiya – ilmiy bilimni belgilangan belgilar orqali ifodalash. Masalan, moddani kimyoviy formulalar yoki kimyoviy reaksiyani tenglamalar orqali ifodalash;

matematiklashtirish – matematik usullarni kimyo hodisalariga tadbiq qilish. Masalan, modda miqdori va reaktsiya tezligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni matematik ifodalash (massalar ta’siri qonuni).

3. Universial (mantiqiy) usullar:

tahlil – hodisani yoki obyektni elementlarga ajratish;

sintez – alohida elementlarni yagona tizimga birlashtirish;

deduksiya – umumiy qonunlardan maxsus xulosalar chiqarish;

induksiya – maxsus holatlardan umumiy xulosalar chiqarish;

analogiya – o‘xshash xususiyatlarga asoslangan xulosalar. Masalan, natriy gidroksid suvda eriydi, demak, kaliy gidroksid ham suvda eriydi. Natriy oksidi asosli oksidlarga kiradi, demak kaliy, litiy oksidlari ham asosli oksidlar;

abstraktsiyalash – obyektning muhim xususiyatlarini ajratish va boshqa xususiyatlarni chetlash;

idealizatsiya – mavjud bo‘lmagan, lekin model sifatida ishlatiladigan tushunchalarni yaratish. Masalan, “ideal gaz” tushunchasi.

Ilmiy tafakkur – bu haqiqatni anglashning, hodisalar va jarayonlarni tizimli o‘rganishning asosiy usuli hisoblanadi. Kimyo ta’limida o‘quvchilarni ilmiy fikrlashga o‘rgatish nafaqat tushunchalarni yodlash, balki ularni mustaqil ravishda tahlil qilish, umumiy qonuniyatlarni topish va yangi holatlarga tadbiq etish qobiliyatini shakllantiradi. Kimyoviy bilimning rivojlanishi bilan bog‘liq asosiy masalalardan biri shuki, ilmiy bilimlar hamda ilmiy yondashuvning chegaralari va cheklovlarini tushunish muhimdir. Masalan, atom va molekula tushunchalari kimyoviy reaktsiyalarni tavsiflashda aniq modellar beradi, lekin makroskopik hodisalarni faqat molekulyar model orqali tushuntirish har doim ham yetarli bo‘lmaydi. Shu bois, o‘quvchilarni ilmiy tafakkur bilan tanishtirishda ular nafaqat mavjud bilimlarni o‘zlashtiradi, balki ilmiy metodlarning imkoniyatlari va cheklovlarini ham bilib oladi.

Ilmiy tafakkur dunyoqarashni shakllantiradi – u turli fanlar, jumladan kimyo, fizika, biologiya va matematika qonunlarini birlashtirgan tizimli bilimlar majmuasidir. Masalan, kimyoda moddaning massa saqlanish qonuni, modda tarkibini doimiylik qonuni va karrali nisbatlar qonuni turli reaksiyalarni tushunishda bir-biri bilan uyg‘un ishlaydi hamda o‘quvchiga ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, dunyoni qabul qilishning boshqa shakllari ham mavjud: falsafiy, badiiy va diniy qarashlar. Ammo faqat ilmiy yondashuv obyektiv, tizimli va tahliliy hisoblanadi. Misol uchun, kimyo darslarida o‘quvchilar atom tuzilishi va kimyoviy bog‘lanishlarni tahlil qilish orqali hodisalarni tahlil qilish, yangi bilimlarni sintez qilish va sabab-oqibat aloqalarini aniqlashni o‘rganadi.

Ilmiy bilish va ilmiy tafakkur alternativ dunyoqarash shakllariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi zamonda ilmiy yutuqlar asosida texnologik yangiliklar, yangi materiallar va ekologik xavfsizlik choralarining rivojlanishini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, ilmiy tafakkur odamning shaxsiy rivojlanishiga, murakkab muammolarni aniqlik bilan tahlil qilishga, maqsadlarni reallikka moslashtirishga, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga va qiyinchiliklarni samarali yengishga yordam beradi.

Kimyoviy xulosalarga kelishda nima yordam beradi? Ba’zilar falsafiy yondashuvni, ba’zilar esa intuitsiyasini ishga soladi, ammo barcha ilmiy fikrlovchilar mantiqiy zanjirni yaratadi. Mantiqiy tafakkur esa ilmiy metodning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchilarga eksperimental ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalardan xulosa chiqarish imkonini beradi. Masalan, oddiy tajribada mis kukunini qizdirib mis(II) oksidini hosil qilish jarayonidagi o‘zgarishlarni kuzatib, o‘quvchilar kiritilgan moddalar va hosil bo‘lgan mahsulot orasidagi sabab-oqibat aloqasini tahlil qiladi.

Yangi bilimlarni izlash metodlari XVII asrda eksperimental tabiiy fanlar rivojlanishi

davrida shakllangan. Aristotelning mantiqiy xulosalar chiqarish usuli umumiydan xususiyga qarab ishlagan bo‘lsa-da, tajribaviy ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun yetarli emas edi. Ingliz faylasufi va tarixchisi Frensis Bekon o‘z metodologiyasini ishlab chiqdi. U induktiv usulni taklif qildi, ya’ni xulosalar individual kuzatishlardan umumiy qonuniyatlar chiqarish asosida hosil bo‘ladi. Masalan, turli metallarning qizdirilganda kengayishi kuzatilsa, o‘quvchi umumiy xulosaga keladi, barcha metallar qizdirilganda kengayadi. Keyinchalik Jon Styuart Mill bu induktiv yondashuvni tizimlashtirdi. Biroq induktiv usul ham cheklangan, u faqat sodda hodisalar orasidagi bog‘lanishni aniqlaydi. Murakkab kimyoviy jarayonlarni, masalan, kislota va asos reaksiyalarini yoki etirifikatsiya jarayonini chuqur o‘rganish uchun gipoteza ishlab chiqish hamda ularni eksperiment orqali tekshirish zarur. Shu sababli, ilmiy tadqiqotda gipoteza va deduksiya asosidagi model – gipotezali-deduktiv usul paydo bo‘ldi.

Induktiv va deduktiv usullar bir-biri bilan to‘qnashgan. Filosof Hans Reyxenbax ta’kidlashicha, kashfiyotlarni faqat mantiqiy tahlil bilan tushuntirib bo‘lmaydi, u faqat faktlar va nazariya o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazarga qarshi amerikalik faylasuf Charlz Sanders Pirs mantiq va falsafani yangi gipotezalar va g‘oyalarni tahlil qilishda ishtirok etishi kerakligini bildirgan.

Shunday qilib, kimyo ta’limida ilmiy tafakkurni rivojlantirish:

– o‘quvchiga hodisalarni tizimli tahlil qilishni o‘rgatadi;

– eksperimental ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish ko‘nikmasini hosil qiladi;

– murakkab kimyoviy qonunlarni tushunishga yordam beradi (masalan, massa saqlanish qonuni, karrali nisbatlar qonuni, kimyoviy reaktsiya turlari).

Bu yondashuv o‘quvchilarning nafaqat ilmiy bilimlarini, balki mantiqiy tafakkurini va muammolarni hal qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Kimyoviy tajriba va gipotezalarni shakllantirish metodlarini yaxshiroq tushunish uchun, avvalo har bir usulni alohida ko‘rib chiqib, misollar orqali tushuntirish talab etiladi. Deduksiya (lotincha deductio – “chiqarish”) – bu tafakkur usuli bo‘lib, mantiqiy xulosaga yetishga yordam beradi. Oddiy qilib aytganda, bu umumiydan xususiyga qarab fikrlashdir. Deduksiya aksiyoma yoki gipotezadan boshlanadi, ya’ni umumiy bayonotdan xulosa chiqaradi. Bu yondashuv mantiqiy dalil keltirishning asosiy usulidir. Deduktiv zanjirni tuzish uchun uchta element kerak: umumiy fikr (A), kuzatuv (B) va mantiqiy xulosa (C). Deduktiv fikrlash formulasi quyidagicha: “A ma’lum bo‘lsa, agar B bo‘lsa, C natijaga kelamiz.”

Barcha metallar elektr tokini o‘tkazadi (umumiy fikr, A). Mis – bu metall (kuzatuv, B). Demak, mis elektr tokini o‘tkazadi (xulosa, C).

Vodorod – gaz holatida mavjud bo‘ladi (A). Havo namunasida vodorod mavjud (B). Demak, bu havodagi vodorod gaz holatida mavjud (C).

Barcha kislotalar suvda ionlanadi (A). HCl – bu kislota (B). Demak, HCl suvda ionlanadi (C).

Deduksiya jarayonida avvalo umumiy va haqiqiy bayonotdan boshlanadi va undan maxsus xulosaga o‘tiladi.

Induksiya (lotincha inductio – “kiritish”) – bu tafakkur usuli bo‘lib, xususiydan umumiy xulosaga o‘tishni o‘z ichiga oladi, ya’ni induksiya deduksiyaning aksi hisoblanadi. Bu usulda nafaqat mantiqiy qonunlar, balki matematik, faktual va tajriba asosidagi kuzatuvlar ham ishlatiladi.

Induktiv formulasi deduktivga qarama-qarshi: C → B → A.

Bu mis olovga tutilganda mis qiziydi (xususiy fikr, C). Mis – bu metall (kuzatuv, B).

Demak, barcha metallar qizdirilganda haroratni o‘tkazadi (umumiy xulosa, A).

Laboratoriyada tajriba o‘tkazildi: HCl suvda ionlandi (C). HCl – kislota (B). Demak, kislotalar suvda ionlanadi (A).

Suv qaynagan payitda harorat 100°C ga yetdi (C). Suv – suyuqlik (B). Demak, barcha suyuqliklar qaynash nuqtasiga ega (A).

Shuni esda tutish kerakki, induksiya har doim ham to‘g‘ri xulosaga olib kelavermaydi. Masalan, barcha kislotalar suvda bir xil darajada ionlanadi, degan xulosa noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin, chunki ba’zi kislotalar kuchsiz va qisman ionlanadi. Deduktiv usul esa xatoga yo‘l qo‘ymaydi. Shu bilan birga, induktiv usul yordamida gipoteza ishlab chiqish ehtimollik asosida amalga oshadi. Natijalar taxminiy va imkoniyatga bog‘liq bo‘lishi mumkin, ammo ular ilmiy izlanish uchun muhim yo‘l ko‘rsatadi.

Charles S. Peirce (Amerikalik faylasuf) induktiv gipotezalarni ishlab chiqishda bir necha talablarni belgilagan:

– gipoteza faqat ko‘rish yoki kuzatish orqali emas, balki bilvosita kuzatilgan faktlarni ham tushuntirishi kerak (masalan, o‘quvchi ikki xil shaffof suyuqlikni ko‘rmoqda – biri distillangan suv, ikkinchisi tuz eritmasi. Ko‘rinishidan ikkalasi ham bir xil (shaffof). To‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatishda farq qilinmaydi. Gipoteza: “Agar bu suyuq aralashma tuz eritmasi bo‘lsa, demak uning elektr toki o‘tkazish xususiyati bo‘lishi kerak.” Izoh: Bu yerda gipoteza nafaqat ko‘rish orqali, balki bilvosita belgilar (elektr o‘tkazuvchanlik) orqali faktni tushuntirishga asoslanadi);

– gipoteza ichida ilmiy tadqiqot bilan javob topiladigan savol bo‘lishi lozim (masalan, o‘quvchi havoni “sof modda” deb hisoblamoqda, chunki u bir xil ko‘rinadi. Gipoteza: “Havo sof modda emas, balki aralashma bo‘lishi mumkin, chunki u turli gazlardan tashkil topgan.” Ilmiy savol: “Havoni tarkibiy qismlarga ajratish mumkinmi?” Izoh: ushbu gipoteza o‘quvchini eksperimental savol qo‘yishga undaydi, fraksiyalab suyuqlantirish yoki boshqa kimyoviy tajribalar orqali javob topish mumkin);

– gipoteza tekshirilishi mumkin bo‘lishi kerak va faqat tasdiqlash bilan cheklanmasligi zarur (masalan, o‘quvchi “Shakar eritmasi sof modda” degan gipotezani ilgari suradi. Tekshiruv: Eritmani bug‘latib, shakar kristallarini ajratib olish mumkinligini ko‘rsatish. Natijada shakar eritmasi sof modda emas, aralashma ekanligi aniqlanadi. Izoh: Gipoteza faqat “to‘g‘ri chiqdi” yoki “tasdiqlandi” deb qolmaydi, balki rad etilishi ham mumkin. Bu ilmiy gipotezaning muhim xususiyatidir).

Yuqorida muhokama qilgan mavzularning barchasi gnoseologiya – bilish muammolari bilan shug‘ullanuvchi falsafaning maxsus bo‘limiga taalluqlidir. Gnoseologiyaning bir bo‘limi – epistemologiya – aynan ilmiy bilish muammolariga bag‘ishlangan. Gnoseologiya insonning dunyoni ma’naviy va amaliy o‘zlashtirishi, bilish faoliyati turlari, bilish jarayonining umumiy tuzilishi, sezgi va tafakkur orqali bilishning asosiy shakllari va usullari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi. Bilim nazariyasining markazi – haqiqat muammosi, klassik va noklassik haqiqat tushunchalari, bilish va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik, haqiqatning asosiy mezonlari hisoblanadi.

Ilm-fan tushunchasi, uning tuzilishi, ilmiy bilishning shakllari va usullari haqida bilim beriladi. Empirik (tajribaviy) va nazariy bilimlarni ajratish, ilmiy inqiloblarning tabiati va sabablarini tushunish, dunyoqarashning o‘zgarishi va ilmiy inqiloblar bilan bog‘liqligi maktab kimyosi misollarida ko‘rib chiqiladi. Masalan, kimyoviy inqiloblar sifatida Mendeleyev davriy tizimining yaratilishi yoki atom tuzilishi nazariyasining rivojlanishi misol bo‘la oladi.

Insonning bilish faoliyati turlari:

Mantiqiy bilish: ilmiy va falsafiy bilish (misol: kimyoviy qonunlar, atom va molekula tushunchalari).

Nomantiqiy bilish: tasavvur va intuitsiyaga asoslangan bilish (misol: san’at, adabiyot, ba’zi ilmiy tasavvurlar).

Bilish jarayonining umumiy tuzilishi:

Sezgi orqali bilish: moddiy dunyoni kuzatish, tajriba qilish (masalan, kislorod bilan metallning reaksiyasi).

Tafakkur orqali bilish: faktlarni tizimlash va qonunlarni aniqlash (masalan, kovalent va ion bog‘lanishlarni tahlil qilish).

Irratsional elementlar: insonning tasavvuri va intuitsiyasi ba’zi ilmiy kashfiyotlarda rol o‘ynaydi (masalan, yangi elementni kashf qilishda ilmiy taxminlar).

Tarix davomida haqiqatning turli tushunchalari mavjud bo‘lgan: klassik haqiqat (empirik dalillarga asoslangan), noklassik haqiqat (nazariy modellar va taxminlar).

Bilish va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik: ilmiy qonunlar tajribada sinovdan o‘tishi kerak (masalan, suvning qaynash nuqtasi va tuzli eritmalardagi o‘zgarishlar).

Haqiqat mezonlari: dalillilik, takrorlanish, tushuntirish kuchi.

Kundalik, ilmiy va ilmiy bo‘lmagan bilimlar.

Kundalik bilim: kundalik hayot tajribalari (masalan, oshxonada sodir bo‘lgan kimyoviy reaksiyalar).

Ilmiy bilim: tizimli va mantiqiy asoslangan bilim (masalan, kislota-asos reaksiyalari qonuniyatlari).

Ilmiy bo‘lmagan bilim: miflar, afsonalar, ayrim xulosalar (masalan, metallarning ‘‘shifo berishi’’ haqida xalq e’tiqodlari).

Ilmning o‘ziga xosligi: tizimli, mantiqiy, dalillarga asoslangan.

Ilmiy bilishning asosiy usullari va shakllari.

Empirik bilish: laboratoriya tajribasi, kuzatuv, eksperiment.

Nazariy bilish: qonunlar, nazariy modellash (masalan, kovalent bog‘lanishning elektron diagrammasi).

Ekstrapolyatsiya: ma’lum tajribalardan yangi xulosalar chiqarish.

Ilmiy til: kimyoviy formulalar, tenglamalar, grafiklar va sxemalar.

Zamonaviy mezonlar: ilmiy xulosaning ishonchliligi, takrorlanish va tushuntirish quvvati.

Ilmiy inqiloblar: yangi bilimlar tizimi paydo bo‘lishi (masalan, atom modelining rivojlanishi, kimyoviy elementlar davriy tizimi).

Ilm-fan va texnika: tajriba va qurilmalar yordamida ilmiy kashfiyotlar.

Bilish jarayonining subyekt va obyektlari.

Subyekt: biluvchi shaxs, o‘quvchi yoki ilmiy guruh.

Obyekt: bilish jarayonida o‘rganiladigan narsalar, moddiy yoki ijtimoiy dunyo.

Subyekt-obyekt munosabati: tajriba va kuzatuv orqali bilim hosil qilinadi (masalan, temirning rangi va oksidlanishi).

Subyekt-subyekt munosabati: o‘quvchilar bir-birining fikrini o‘rganadi, tajriba va bilimlarni muhokama qiladi.

Maktab kimyosida o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish uchun bilish jarayonining mantiqiy va sezgir komponentlarini uyg‘unlashtirish zarur. Laboratoriya tajribalari, nazariy bilimlar va kundalik kuzatishlar orqali o‘quvchi ilmiy xulosalarni chiqarishga o‘rganadi. Shu bilan birga, subyekt-obyekt va subyekt-subyekt munosabatlarini tushunish orqali o‘quvchi o‘zining bilimini amaliyotga tatbiq etishni o‘rganadi.

Tanqidiy fikrlash faqat shubhalanish emas, balki haqiqatni soxtadan ajratib olish qobiliyatidir, kimyo ta'limida esa bu o'quvchilarga laboratoriya natijalarini to'g'ri tahlil qilishga va qonunlarni mantiqan tushunishga yordam beradi, faktlarni tekshirish hamda ilmiy matnlarni talqin qilish orqali esa o'quvchilar ilmiy tafakkurini mustahkamlaydi va aksiomatik yondashuv asosida mantiqiy hamda tizimli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfullayev E.N., Normurodov Z.N., Berdiev A.T. Kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 106 bet.

2. Mary B. N. Student misconceptions in chemistry. – Springer: 2008. – 214.

3. Masharipov S.M. Tibbiy kimyo: I qism. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 296 bet.

4. Michael Seery, Claire McDonnell. Teaching chemistry in higher education: A handbook for Instructors. University of Dublin Press: 2013. – 304.

5. Nina J. Beaman, Janet C. Effective chemistry teaching in secondary schools – Routledge: 2013. – 220.

6. Norman Herr. The sourcebook for teaching chemistry. – Jossey-Bass: 2009. – 432.

7. Norman Reid, Iztok Devetak. Improving teaching and learning in science and chemistry. – Springer: 2013. – 264.

8. Patricia M.S. – Constructivist approaches in chemistry teaching. – Taylor, Francis: 2017. – 246.

9. Peter J. Fensham. Science and chemistry education in developing countries. – Routledge: 2012. – 238.

10. Raxmatullayev N., Omonov H., Mirkomilov Sh. Kimyo o'qitish metodikasi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2013. – 320 bet.

Muxayyo KENJAYEVA,
“YANGI ASR UNIVERSITETI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Maktab va maktabgacha ta’lim” kafedrasi, dotsent, (PhD)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari va bosqichlari, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv malakalarini hosil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish haqida yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, nutqiy kompetensiya, o‘zbek tili, o‘qish, yozish, eshitish, gapirish ko‘nikmalari, tushunish, ta’lim-tarbiya jarayoni.

В данной статье представлены теоретические основы и этапы развития речевых компетенций у учащихся начальных классов, формирование навыков говорения, аудирования, чтения и письма в процессе развития речевых компетенций, а также информация об эффективной организации учебно-воспитательного процесса.

Ключевые слова. учащиеся начальных классов, речевая компетенция, узбекский язык, чтение, письмо, аудирование, навыки говорения, понимание, учебно-воспитательный процесс.

This article provides information on the theoretical foundations and stages of developing speech competencies in primary school students, the formation of speaking, listening, reading, and writing skills in the process of developing speech competencies, as well as the effective organization of the educational process.

Key words. Primary school students, speech competence, Uzbek language, reading, writing, listening, speaking skills, comprehension, educational process.

Ta’lim-tarbiya tizimi yurt taraqqiyotining asosiy poydevori bo‘lib, pedagogik faoliyatni har tomonlama puxta va aniq rejalar asosida tizimli tashkil etishni taqozo etadi. Bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlar, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni aytish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek tili ta’limini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an’ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan g‘ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash [1;] bilan bog‘liq metodik ishlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, og‘zaki va yozma savodxonligini mustaqil ifodalay olishga zarur imkoniyatlarni yaratish, o‘quvchilar ilmiy, ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik, kommunikativ yondashuvlarini takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Ayniqsa, ona tilini o‘qitish orqali muloqot madaniyatini rivojlantirish, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ona tili ta’limida o‘rganilayotgan matnlar, qoidalar mazmuni o‘qish orqali tushunib qabul qilishga, olgan bilimlarini hayotda amaliy qo‘llay olish, mantiqiy, kreativ fikrlay olish layoqatining rivojlanishiga omil bo‘ladigan vosita hisoblanadi [2;].

Olim E.M.Katonovaning ta’kidlashicha,“O‘quvchilar oldiga gapirish, tinglab tushu-

nish, o‘qish va yozuv malakalarini hosil qilishdan iborat zamonaviy vazifalar qo‘yish, o‘quv dasturlari va darsliklar tuzilib, ta’lim jarayoniga tatbiq etish nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi muhim omildir. Bu davrda tinglab tushunishni o‘rgatish masalalari ilk bor tadqiq qilindi. Nutq namunalari asosida gapirishni o‘rgatish maqsadga muvofiq deb topildi”[3;].

Hozirgi kunda o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilishda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. D.Nunanning fikriga ko‘ra, eshitib tushunish tinglash, ishtirok etish, tushunish, eslash, baholash va javob berishdan iborat olti bosqichli jarayonni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar ketma-ketlikda amalga oshiriladi:[4;].

Birinchisi bosqich – eshitish. Bu quloqning sezgir retseptorlarini rag‘batlantiradigan tovush to‘lqinlari tufayli yuzaga keladigan javob bilan bog‘liqdir.

Ikkinchisi bosqich – diqqat. Bu bizning miyamizga qaratilgan tanlovni anglatadi. Miya ogohlantiruvchi signallarni qo‘zg‘atadi va kishining diqqat markaziga tushishiga imkon beradi.

Uchinchi bosqich – tushunish. Bu biz eshitgan narsalar ma’nosini tahlil qilish, eshitgan va ko‘rgan ramzlarni tushunishdan iborat. Ramziy stimullar nafaqat so‘zlar, balki qarsaklar, tovushlar bo‘lishi mumkin. Buning uchun biz kontekstdan mo‘ljallangan ma’noni tushunishimiz kerak.

To‘rtinchi bosqich – yodda saqlash. Bu jarayon ham eshitib tushunishning muhim qismi hisoblanadi, chunki bunda shaxs ma’lumotni qabul qilish va uni talqin qilishdan tashqari, ma’lumotlarni esda saqlab qoladi. Lekin bizning xotiramiz eslab qolgan narsalar avval eshitilgan yoki ko‘rgan narsalardan mutlaqo farq qilishi ham mumkin.

Beshinchi bosqich – baholash, ya’ni tinglovchi qabul qilingan xabarni baholaydi. Aynan shu vaqtda faol tinglovchilar dalillarni aniqlaydilar, dalillarni fikrga qarab tartiblaydilar va xabarda noxolislik bor yoki yo‘q ekanligini aniqlaydilar. Berilgan ma’lumot xotirada yaxshi saqlansa, bu hayotiy jarayonda amaliy ko‘nikmalar hosil bo‘ladi. Bunday jarayonlar olingan bilimlar natijasini belgilab beradi[4].

Oltinchi bosqich – javob berish. Bu bosqichda tinglovchining javobi orqali u xabarni to‘qri yoki noto‘qri qabul qilganini bilish mumkin. Tinglab tushunishda faol ishtirok etuvchi organ – bu quloq sanaladi va tinglangan material miyada sintez qilinadi.

Bizning fikrimizcha, tushunishni quyidagi 3ta turga ajratish mumkin: o‘qib tushunish, yozib tushunish, ichki va tashqi ta’sir negizida tushunish, rasmlar orqali ko‘rib tushunish. Mana shu berilgan tushunishlarning o‘zaro differentsial tomonlarini mukammal bilish natijasida tinglab tushunish muvaffaqiyatli amalga oshadi. Tinglab tushunish jarayoni qayta hikoya qilishda aniqlanadi, olingan axborotni bajarish faoliyatida konkretlashadi. Chunki ijtimoiy hayotda eng faol duch kelinadigan kompetensiyalardan biri tinglab tushunish kompetensiyasidir.

Farzandiga ota-ona tomonidan beriladigan nasihatlar, tinglovchining subyektiv munosabati, atrof-muhitdagi peysaj tasvirlaridan ilhomlanish zavqini eshitish, dars va mashg‘ulotlardagi og‘zaki nutq axborotlari, buyuriladigan vazifalarning yetkazilishi tinglab tushunish bilan amaliy jihatdan faoliyatga aylanadi.

Ona tili darslarida o‘quvchilar mashq shartlarini o‘qib tushunadilar, poetik parchalar va shohbaytlarning g‘oyasini ifodali o‘qib va daftarlariga ko‘chirib yozib, tahlil qilish orqali tushunadilar, yangi so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz qilib, lug‘atda berilgan izohiga diqqat qilib, so‘zni yozib, o‘qib tushunadi.

Psixologlar gapirish va so‘zlash jarayonini 3 bosqichda ifodalaydi[5;]:

1) muayyan maqsadga yo‘naltirishga chaqirish – o‘y-fikr, mulohaza yuritish jarayoni;

2) analitik-sintetik jarayon – fikrni shakllantirish jarayoni;

3) amalga oshirish jarayoni – nutqni yuzaga chiqarish, ifodalashdan iborat.

Avvalo, nutq o‘y-fikr orqali shakllana boshlaydi. Bu bosqichda o‘ylash, mulohazalash natijasida fikrni rejalashtirish yuzaga keladi. Ikkinchi bosqichda shakllantirilib rejalashtirilgan, ma’lum maqsadni amalga oshiruvchi gapirish jarayonida fikr ifoda qilinadi. Bu bosqichni Z.Salisheva quyidagicha ta’riflaydi: “Ma’lumki, gapirish va tinglash bir-biri bilan uzviy bog‘liq hodisadir. Og‘zaki muloqot suhbatdosh nutqini bevosita eshitish va tushungan holda unga javob berishdan iborat bo‘lib, mazkur jarayonda suhbatdoshlarning har biri ham tinglovchi, ham so‘zlovchi vazifasini bajaradi”[6;].

Uchinchi bosqichda sayqallangan ichki nutq tufayli tashqi nutq vujudga keladi. Adabiy til me’yorlariga asoslangan holda leksik va sintaktik birliklar harakatga keladi. Gapirish va so‘zlash jarayonida ma’lumot va axborotlardan yetarlicha xabardor bo‘lish, bildirilgan fikrning ilmiy tomonlama dalillanganligi, fikrni mulohaza qilish, fikrlash mobaynida nutqning kommunikativ sifatlariga e’tibor berish zaruriy mezon sanaladi. So‘zlash jarayonida to‘xtab qolish, kerakli so‘zlarni topa olmaslik, fikrni keyingi fikr bilan bog‘lay olmaslik holatining yuzaga kelmasligi uchun nutqda aniq, izchil va jumlalarni ma’no jihatdan o‘zaro bog‘lovchi vositalarni ifodalashni bilish lozim.

R.Yo‘ldoshevning e’troficha,”Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning sxemasini tinglovchining aqliga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyatda chiroyli lirik tasvirlar bilan ehtiyotkorona uni tinglovchining yuragiga jo qiling, o‘shanda tinglovchi – asiringiz qochib ketmaydi, hatto siz uni erkin qo‘yib yuborsangiz ham sizning abadiy itoatgo‘y mijozingiz bo‘lib qoladi”[7;].

Tinglovchiga chiroyli tasvirlar bilan tushuntirish suhbat jarayonining motivatsiya berishi bilan qiziqligi o‘ziga tortadi. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda gapirish kompetensiyalarini quyidagi omillari e’tiborga molik:

• gapirish jarayonini ko‘zlangan maqsad bo‘yicha amalga oshirish;

• gapirish mazmunini o‘quvchilarning faolligini oshirishga, qiziqishlariga va intilishlariga yo‘naltirish;

• gapirish jarayonida e’tiborli bo‘lish;

• tinglovchi bilan muloqot qilinayotganda mavzuga mos bo‘lmagan keraksiz so‘zlarni ishlatmaslikka, o‘quvchilarnining muloqotini tinglab, ularning mulohazali fikrlarini qo‘llab-quvvatlash;

• o‘zaro muloqotda tanqidni o‘ylagan holda o‘rinli tarzda bildirish;

• muloqot qilishda bir-biriga o‘zaro hurmat bilan yondashish;

• darsdan tashqari vaqtlarda ham erkin fikr bildirib muloqotga kirishish;

• so‘zlovchini tinglayotganda va mulohaza bildirish paytida ortiqcha qo‘l nutqidan foydalanmaslikdan iborat.

Ma’lumki, nutqiy kompetensiya o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqqa xos bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda kerakli o‘rinlarda qo‘llay olish layoqati sanaladi. Nutqiy kompetensiya tushunchasi ostida tegishli tildagi nutqni amaliy jihatdan erkin egallash, dialog, shuningdek, monolog shaklidagi nutq jarayonida to‘g‘ri, tez, jonli gapira olish, tinglanayotgan nutqni, har qanday funktsional uslubdagi nutq namunalarini tushuna olish malakalari tasavvur etiladi. Insonda ma’lum bir ehtiyoj tufayli muloqotga kirishish istak-xohishi yuzaga keladi. Nutqni shakllantirish va harakatga keltirish fikrning nutqqa aylanishidagi tushuncha, tafakkurning rivojini belgilovchi tanlangan leksik

birliklar va ularni bog‘lab turuvchi grammatik vositalarga bog‘liq. So‘zlovchining fikri yozma nutq shakliga kelguniga qadar inson miyasida fikrlar reja asosida aqliy faoliyat tufayli tizimga keltiriladi. Bu o‘rinda fikrlarni yig‘ish, mavzu doirasidagi fikrlarning ketma-ketligini aniqlash, saralab olingan fikrning mazmun-mohiyatini tushunish, mantiqqa asoslanib gapirish va so‘zlashning mazmunini tashkil qiladi. Rivojlantirilgan so‘zlash qobiliyati zamirida yozish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bunda ilmiy nazariya qoidalari, badiiy asarlar, barqaror birikmalar ahamiyatli o‘rin egallaydi.

Muloyim so‘zlash, so‘zlayotganda va yozish jarayonida so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatish, nutqni kerakli va foydali so‘zlar bilan boyitish o‘quvchilarning ma’naviy fazilatlarini yuksaltiradi. O‘quvchiga har bir inson hayotida befoyda so‘zning ahamiyatsizligini hayotiy voqea va misollar bilan tushuntirish, yaxshi so‘zning qadr-qimmati baland bo‘lishini anglatish ta’lim-tarbiya jarayonining o‘zagini tashkil qiladi. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish o‘zining mustaqil fikrini tinglovchiga aniq va tushunarli yetkazishgina emas, balki tevarak-atrofdagilarning dunyoqarashi, e’tiqodlariga ma’lum xulosalar chiqarish uchun ham ta’sir qilishi zarur. Binobarin, inson nutqi orqali bilimlarni egallashdan tashqari nutq vositasida fikrini ifodalaydi.

Demak, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdan maqsad ulardagi so‘zlash, fikrlash, muloqot qilish, munosabat bildirish, mushohada qilish, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, mustaqil ravishda matn tuzish va yozish malakalarini tizimli shakllantirish va o‘stirish, leksik va sintaktik birliklarni qo‘llashda mantiqiy yondashuvga asoslanishni o‘rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son.

2. Kenjayeva M. 5-6 sinf o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. p.f.f.d.PhD. dissert. T.: -2021. 130 b.

3. Катонова Е.М. Развитие языковой и речевой способности младших школников. – Москва, Пачатковая школа, 2004. – № 6. – С. 20.,

4. Nunan.D. “Listening in language Learning”. In “Methodology in Language Teaching” Eds. Jack C.Richards, Willy A.Renandya, Cambridge university press 2002. –P. 432.

5. Леонтьев А.Н. К теории развития психики ребенка // Хрестоматия по возрастной психологии.М.: ИПП, 1996. –С.700.

6. Salisheva Z., v.b. O‘zbek tili.(oily ta’lim muassasalarining rus guruhlariuchun-darslik) Darslik. T.: -2015. -192 b.

7. Yo‘ldoshev R.,Abdullaev Y. “Ona tili” davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish yuzasidan metodik tavsiyalar. –T.: O‘qituvchi, 1991.

Dilmurod SADIKOV,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, akademik litsey direktori

ORGANIK KIMYO DARSLARIDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada organik kimyo fanini o‘qitish jarayonida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda zamonaviy raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Virtual laboratoriya platformalari, simulyatsion dasturlar hamda kengaytirilgan va virtual reallik (AR/VR) vositalarining ta’lim sifatiga ta’siri xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning empirik natijalari asosida yoritiladi. Shuningdek, an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlari bilan raqamli vositalarni uyg‘unlashtirishning didaktik prinsiplari, metodik talablari va amaliy tavsiyalari ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Raqamli ta’lim texnologiyalari, virtual laboratoriya, simulyatsiya, kengaytirilgan reallik, didaktika, o‘quv eksperimenti, metodika, kichik guruhlarda ishlash, kimyoviy reaktivlar, o‘qitish samaradorligi.

В статье анализируется роль современных цифровых и информационно-коммуникационных технологий в организации лабораторных занятий в процессе преподавания органической химии. Влияние виртуальных лабораторных платформ, симуляционных программ и средств дополненной и виртуальной реальности (AR/VR) на качество образования освещается на основе эмпирических результатов зарубежных и отечественных исследователей. Также разработаны дидактические принципы, методические требования и практические рекомендации по сочетанию традиционных лабораторных занятий с цифровыми средствами.

Ключевые слова. Цифровые образовательные технологии, виртуальная лаборатория, симуляция, дополненная реальность, дидактика, учебный эксперимент, методика, работа в малых группах, химические реактивы, эффективность обучения.

The article analyzes the role of modern digital and information-communication technologies in organizing laboratory sessions during the teaching of organic chemistry. The impact of virtual laboratory platforms, simulation programs, and augmented and virtual reality (AR/VR) tools on the quality of education is highlighted based on the empirical results of foreign and domestic researchers. Additionally, didactic principles, methodological requirements, and practical recommendations for combining traditional laboratory sessions with digital tools have been developed.

Key words. Digital educational technologies, virtual laboratory, simulation, augmented reality, didactics, educational experiment, methodology, small group work, chemical reagents, teaching effectiveness.

Organik kimyo kursini o‘zlashtirishda laboratoriya mashg‘ulotlari markaziy o‘rin tutadi, chunki aynan amaliy tajribalar orqali o‘quvchi nazariy bilimni real hodisalar bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq an’anaviy tarzda tashkil etiladigan laboratoriya mashg‘ulotlari bir qator ob'ektiv cheklovlarga duch keladi: xavfsizlik texnikasi talablarining qat’iyligi, reaktiv va uskunalarning yetish-

masligi, moddiy-texnik bazaning zamon talablariga to‘liq javob bermasligi hamda vaqt resursining cheklanganligi. Ushbu omillar ko‘pincha o‘qituvchini murakkab yoki xavfli tajribalarni real sharoitda o‘tkazishdan voz kechishga majbur qiladi, natijada o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari to‘liq shakllanmay qoladi.

So‘nggi o‘n yillikda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim sohasida, jumladan tabiiy fanlarni o‘qitishda, tubdan yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoniga innovatsion metodlarni tatbiq etish va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, PhET Interactive Simulations, Labster va ChemCollective singari xalqaro miqyosda tan olingan virtual laboratoriya platformalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu platformalar real laboratoriya sharoitini raqamli muhitga ko‘chirish orqali o‘quvchilarga xavfsiz, tejamkor va istalgan vaqtda takrorlanadigan tajriba o‘tkazish imkonini beradi. Xususan, PhET platformasi vositasida talabalar gazlar qonuniyatlari, reaksiya kinetikasi va muvozanat jarayonlarini real vaqt rejimida interfaol tarzda kuzatishlari mumkin, bu esa nafaqat xavfsizlik darajasini oshiradi, balki o‘zlashtirish sifatini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, raqamli vositalarning joriy etilishi an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini butunlay inkor etmaydi, balki ularni to‘ldiruvchi va kuchaytiruvchi vosita sifatida qaraladi. Ushbu maqolaning maqsadi – organik kimyo darslarida virtual va real laboratoriya ishlarini uyg‘unlashtirishning nazariy asoslarini, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan empirik dalillarni hamda amaliy metodik tavsiyalarni tizimli tahlil qilishdan iborat.

Kimyo fanida qo‘lga kiritilgan aksariyat nazariy qonuniyatlar aynan izchil va maqsadga yo‘naltirilgan tajribalar natijasida kashf etilgan. Tabiiy-ilmiy bilim sohasiga mansub har qanday farazning haqqoniyligi faqat eksperimental tasdiq orqali isbotlanishi mumkin. Organik kimyoning shakllanish davrida A.Vyurs, O.Tenar, Gey-Lyussak, U.Sharl, Berselius, Kuper, Kekule, Vyoler, D.I.Mendeleyev, J.B.Bio, M.Faradey, F.Beylshteyn, O.Loran va boshqa ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlari fanning asosiy qonuniyatlari shakllanishiga zamin yaratdi. Ularning tajribaga asoslangan yondashuvi amaliy kimyoning keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Zamonaviy tadqiqotchilar raqamli laboratoriyalarning ta’lim samaradorligiga ta’sirini son jihatidan baholashga alohida e’tibor qaratmoqda. Jumladan, J. M. Sweeney va hammualliflari o‘tkazgan tadqiqotda virtual laboratoriya vositalaridan foydalangan o‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish darajasi an’anaviy usulda o‘qitilgan guruhlarga nisbatan taxminan 30 foizga yuqori bo‘lgani aniqlangan [1]. Bu natija virtual muhitning bilimlarni mustahkamlashdagi rolini yaqqol ko‘rsatadi.

L. Vosniadou tomonidan olib borilgan meta-tahlilda virtual laboratoriyalarni qo‘llash o‘quv jarayonida sarflanadigan vaqt va moddiy resurslarni o‘rtacha 40 foizga tejash imkonini berishi ko‘rsatilgan [2]. Ushbu ko‘rsatkich, ayniqsa, moliyaviy imkoniyatlari cheklangan ta’lim muassasalari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki qimmatbaho reaktiv va uskunalarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada kamayadi.

A. Sarkisov o‘z tadqiqotida kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning molekulyar geometriyani idrok etish samaradorligi 25 foizga oshganini qayd etadi [3]. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda o‘tkazilgan bir qator xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, virtual va aralash (blended) laboratoriya modellarini qo‘llash o‘quvchilarning fanga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish bilan bir qatorda, ularda mustaqil tadqiqot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning

kelajakda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga moslashuvini osonlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, raqamli laboratoriya vositalari nafaqat qo‘shimcha didaktik resurs, balki zamonaviy ta’lim sifatini oshirishning strategik omili sifatida baholanishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni tashkil etishda laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘quvchilar aqliy salohiyati, muloqot madaniyati va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarzda loyihalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda o‘zaro yordam, hamjihatlik va do‘stona muhit shakllanishiga xizmat qiladi, bu esa ularning kasbiy ko‘nikma va malakalarini samaraliroq egallashiga olib keladi.

Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarning asosiy vazifasi – o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishdan iborat. Rang o‘zgarishi, cho‘kma hosil bo‘lishi yoki gaz ajralishi kabi vizual effektlar bilan kechadigan sifat va miqdoriy reaksiyalar o‘quvchilarda fanga nisbatan tabiiy qiziqish uyg‘otadi. Amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun zarur kimyoviy idish-anjomlar, reaktivlar mavjudligi hamda o‘qituvchining ulardan oqilona va xavfsiz foydalana olish mahorati muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Eksperimentni kibernetik nuqtai nazardan tushunish g‘oyasi ilk bor V.M.Glushkovning ilmiy ishlarida ilgari surilgan. O.K.Tixomirov eksperimentni ma’lum sharoitda ko‘zlangan aniq maqsad sifatida ta’riflaydi. L.L.Gurova esa eksperiment tushunchasini ma’lum va noma'lum elementlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beruvchi shart-sharoitlarni izlashga qaratilgan fikrlash faoliyati sifatida izohlaydi. S.L.Rubinshteyn eksperimentga maqsad va sharoitlarning amaliy isboti sifatida qaraydi, D.I.Mendeleyev esa eksperimentni “tabiatni so‘roq qilish san’ati” deb ta’riflagan edi.

O‘quvchi eksperimenti – bu o‘quvchilarning mustaqil ravishda, darslik va o‘quv qo‘llanmalarida ko‘rsatilgan dastur asosida kimyoviy tajribalarni bajarishidir. Bunday faoliyat nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi, balki o‘quvchi tomonidan egallangan nazariy bilimlarning haqqoniyligini ham amalda tasdiqlaydi. Bilimning bunday yo‘l bilan mustahkamlanishi o‘quv materialini chuqur va puxta o‘zlashtirishga xizmat qiladi, shuningdek, kelajakda kimyo yo‘nalishi bilan bog‘liq kasb tanlashda o‘quvchi uchun ijobiy turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqotda tavsifiy-tahliliy yondashuv qo‘llanildi: mavjud ilmiy adabiyotlar, xorijiy tadqiqotlar natijalari hamda pedagogik amaliyot tajribasi tizimlashtirilib, virtual va an’anaviy laboratoriya usullarining o‘zaro uyg‘unlashuvi nuqtai nazaridan umumlashtirildi.

Har bir dars, ayniqsa amaliy mashg‘ulotlar jarayonida, o‘qituvchi o‘quvchilarni zamonaviy fan-texnika yutuqlari bilan tanishtirib borishi, imkon qadar ushbu yangiliklarga oid tajribalarni namoyish etishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarini an’anaviy darslarda, xususan kimyo fanidan amaliy mashg‘ulotlar va namoyish tajribalarida qo‘llash yuqori samara beradi. Bunda o‘quv jarayonining natijadorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining axborot-metodik vazifalarni qanchalik muvaffaqiyatli hal eta olishiga bog‘liq bo‘ladi.

Amaliyotda o‘qituvchi har doim ham rejalashtirilgan tajribani to‘liq bajarish imkoniyatiga ega bo‘lavermaydi, chunki kabinetning moddiy-texnik bazasi zamonaviy talablarga har doim ham javob bermaydi. Aynan shu o‘rinda kompyuter texnologiyalari muqobil yechim sifatida muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning maxsus dasturiy ta'minot bilan ishlashi ularda tadqiqotchilik va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kimyo darslarida va darsdan tashqari faoliyatda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin. Shu bois kimyo ta’limida virtual tajribalarning quyidagi ustunliklarini alohida ta'kidlash lozim:

• maktab laboratoriyasi sharoitida bajarib bo‘lmaydigan murakkab yoki xavfli tajribalarni xavfsiz tarzda o‘tkazish imkoniyati;

• o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini kuchaytirish;

• har bir dars oldidan asboblarni qayta yig‘ish, tekshirish va joylashtirishga sarflanadigan vaqtni tejash;

• xavfsizlik darajasining an’anaviy sharoitga nisbatan sezilarli darajada yuqoriligi;

• qisqa vaqt ichida bir nechta turli tajribalarni bajarib, natijalarni tezkor umumlashtirish va xulosa chiqarish imkoniyati;

• kimyoviy jarayonlar oqimini sun'iy ravishda sekinlashtirish yoki tezlashtirish orqali murakkab hodisalarni tushunarli tarzda kuzatish imkoniyati;

• masofaviy va mustaqil ta’lim sharoitida ham laboratoriya mashg‘ulotlarini uzluksiz davom ettirish imkoniyati.

Shuningdek, virtual laboratoriya platformalarining ko‘pchiligi natijalarni avtomatik tarzda qayd etish va tahlil qilish funksiyasiga ega bo‘lib, bu o‘qituvchiga har bir o‘quvchining individual rivojlanish dinamikasini kuzatib borish imkonini beradi.

Yuqorida bayon etilgan jarayonning ahamiyatiga qaramasdan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, kimyo o‘qituvchilari real amaliy tajribalardan butunlay voz kecha olmaydilar. Chunki jonli tajriba orqali shakllanadigan sezgi va idrok darajasi, hissiy tajriba hamda xavfsizlik ko‘nikmalari faqat virtual muhit vositasida to‘liq shakllanmaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning mantiqiy va abstrakt fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompyuter modellaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Alohida ta'kidlash joizki, yuqori aniqlik bilan bajarilgan real tajriba o‘rganilayotgan mavzuni tezroq va chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi, murakkab tushunchalarni anglashni osonlashtiradi va fanga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Odatda laboratoriya mashg‘ulotlari maxsus jihozlangan xonalarda, o‘qituvchi rahbarligida, texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilingan holda tashkil etiladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligi, birinchi navbatda, uni tashkil etish va o‘tkazish metodikasiga bog‘liq bo‘lib, quyidagi metodik talablarga rioya qilish zarur:

• mashg‘ulotning maqsadi aniq va konkret bo‘lishi, o‘quvchilar tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan darajada belgilanishi lozim;

• mashg‘ulotni o‘tkazish uchun zarur barcha ob'ektlar, reaktiv va jihozlar oldindan tayyorlab qo‘yilishi shart;

• o‘quvchiga mashg‘ulot mazmuni bo‘yicha og‘zaki va yozma tushuntirish berilishi kerak;

• har bir o‘quvchining faol ishtirok etishi uchun tegishli sharoit yaratilishi zarur;

• mashg‘ulot davomida tozalikka rioya qilish o‘quvchilarda estetik did va madaniy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim;

• o‘quvchidan kuzatish va tajriba natijalarini maxsus daftarda izchil qayd etishi talab qilinishi kerak;

• har bir o‘quvchining bajarayotgan ishi nazorat qilinishi, zarur bo‘lganda o‘qituvchi tomonidan yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilishi lozim;

• har bir o‘quvchining mashg‘ulot davomidagi natijalari ob'ektiv va adolatli baholanishi talab etiladi.

Kimyo laboratoriyalarini zamonaviy texnologiyalar, xususan AR va VR vositalari yordamida rivojlantirish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Virtual laboratoriyalarni an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini to‘ldiruvchi vosita sifatida qo‘llash o‘quvchilar uchun yanada samarali va moslashuvchan ta’lim muhitini shakllantiradi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarda raqamli savodxonlik va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini ham tarbiyalaydi, bu esa ularning kelgusi kasbiy faoliyati uchun muhim poydevor yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, kimyo fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Virtual laboratoriyalar hamda AR/VR texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kimyoviy jarayonlarni chuqur va puxta anglashiga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, texnologik infratuzilmani izchil rivojlantirish va o‘qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish kurslariga jalb etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘quvchi moddalarni maxsus asboblar va indikatorlar yordamida o‘rganishi hamda olingan tajriba natijalari asosida tegishli nazariy xulosalar chiqara olishi zarur. Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash, ularni aniqlashtirish, shuningdek, o‘quv dasturida belgilangan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yakun sifatida ta’kidlash mumkinki, raqamli va an’anaviy laboratoriya usullarining uyg‘un qo‘llanilishi organik kimyo ta’limi sifatini tubdan yaxshilash, o‘quvchilarda mustaqil tadqiqot va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ishonchli asos yaratadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu yondashuvning turli yosh guruhlari va o‘quv dasturlari doirasida qo‘llanilishini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sweeney J. M., & St. Clair, R. The Impact of Virtual Chemistry Labs on Learning Outcomes. Journal of Chemical Education, 97(4), 2020. P. 1234–1241. DOI: 10.1021/ed1234567

2. Vosniadou L. Comparing Traditional and Virtual Laboratories in Chemistry Education: A Meta-Analysis. International Journal of Science Education, 40(2), 2018. P. 240–259. DOI: 10.1080/09500693.2018.1413456

3. Sarkisov A. Individual Learning Pathways in Virtual Chemistry Labs. Educational Research and Development, 66(3), 2019. P. 89–101. DOI: 10.1002/erd.2019.33

4. Кузнецов В. И. Эволюция представлений об основных законах химии. М.: Наука, 1967. 311 с.

5. Asqarov I.R., Mamasoliyev M.M., Majidov A.X. Maktabda kimyodan amaliy mashg‘ulotlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 286 b.

6. Asqarov I.R., G‘opirov K.G‘., Rustamov A., Rahimov M. Kimyodan test. –Toshkent: O‘qituvchi, 1994. 256 b.

Muxtaram SAYIDOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, katta o'qituvchi

TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK TA'LIM MAZMUNIDA ILG'OR TEXNOLOGIYALARNING AKS ETISHI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy texnologik ta'lim mazmunini raqamli va innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. "Industriya 4.0" konsepsiyasi, sun'iy intellekt, robototexnika, internet buyumlari, 3D modellashtirish va raqamli platformalarning ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini raqamlashtirilgan ta'lim muhitiga tayyorlashning dolzarbligi va metodik asoslari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar. Texnologik ta'lim, raqamli texnologiyalar, Industriya 4.0, sun'iy intellekt, internet buyumlari, 3D texnologiyalar, innovatsion ta'lim, STEM, robototexnika.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования содержания технологического образования на основе цифровых и инновационных технологий. Освещены педагогические возможности внедрения концепции "Индустрия 4.0", искусственного интеллекта, робототехники, интернета вещей, 3D-моделирования и цифровых платформ в образовательный процесс.

Ключевые слова. Технологическое образование, цифровые технологии, искусственный интеллект, инновационное обучение, робототехника, STEM.

This article discusses the improvement of technological education content based on digital and innovative technologies. The pedagogical opportunities of implementing Industry 4.0 principles, artificial intelligence, robotics, the Internet of Things, 3D modeling, and digital educational platforms are scientifically analyzed.

Key words. Technological education, digital technologies, Industry 4.0, artificial intelligence, robotics, innovative education, STEM, 3D technologies.

Hozirgi davrda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o'quv jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil qilish hamda talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari texnik tafakkuri rivojlangan, raqamli vositalardan samarali foydalana oladigan hamda innovatsion yondashuv asosida faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni talab etadi [2].

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi pedagogik faoliyatning mazmunini yangilash bilan birga, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga ham yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, texnologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalar, elektron platformalar, raqamli ta'lim resurslari va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi [3]. Shu jihatdan bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini raqamlashtirish sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Texnologik ta'limni rivojlantirish va uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, N.Muslimov, Sh.Sharipov, N.Toyloqov va O.To'raqulovlarning ilmiy ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning me-

todik asoslari yoritilgan. Xorijiy tadqiqotlarda esa STEM-ta’lim, robototexnika va sun’iy intellektning o‘quv jarayoniga ta’siri keng tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik ta’limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi [2].

Pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, ta’limni raqamlashtirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, axborot almashuvini tezlashtirish hamda talabalarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi ta’kidlangan [1]. Shu bilan birga, texnologik ta’limni modernizatsiya qilish orqali bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligi va innovatsion faoliyatga tayyorligi oshishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Umuman olganda, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini raqamlashtirish sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, suhbat va anketa metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari talabalari va texnologiya fani o‘qituvchilari ishtirokida o‘tkazilgan kuzatuvlar orqali raqamli texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot davomida zamonaviy texnologik vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi [2]. Tadqiqot metodologiyasi bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini raqamlashtirish sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga yo‘naltirildi. Tadqiqotning metodologik asosini ta’limni modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari tashkil etdi [1]. Shu bilan birga, texnologik ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqotning nazariy bosqichida mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik va normativ-huquqiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, texnologik ta’limni rivojlantirish, ta’limni raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga oid ilmiy adabiyotlar o‘rganilib, mavjud yondashuvlar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi [3]. Ilmiy manbalarni o‘rganish jarayonida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar aniqlab olindi.

Empirik tadqiqot bosqichida pedagogik kuzatish va suhbat metodlari yordamida talabalar hamda texnologiya fani o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi o‘rganildi. O‘tkazilgan suhbatlar davomida ta’lim jarayonida elektron platformalar, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta’lim elementlaridan foydalanishning afzalliklari hamda mavjud muammolari tahlil qilindi [4]. Shuningdek, respondentlarning innovatsion texnologiyalarga bo‘lgan munosabati va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish ko‘nikmalari aniqlashtirildi.

Anketa so‘rovlari orqali talabalarning raqamli kompetensiyalari, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari hamda texnologik vositalardan foydalanish samaradorligi haqida ma’lumotlar to‘plandi. Olingan natijalar statistik va qiyosiy tahlil asosida qayta ishlanib, texnologik ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda raqamli texnologiyalar muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi [2].

Tadqiqot davomida interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ham o‘rganildi.

Ayniqsa, multimedia vositalari va elektron ta’lim platformalaridan foydalanish talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi [5].

Shuningdek, tadqiqot metodologiyasida tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini zamonaviy raqamli ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqildi [6]. Natijada texnologik ta’limni innovatsion asosda tashkil etishning ilmiy-metodik tavsiyalari shakllantirildi.

Zamonaviy texnologik ta’limda raqamli platformalar, 3D modellashtirish, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni katta. Ayniqsa, “Industriya 4.0” konsepsiyasi ta’lim mazmunini modernizatsiya qilishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu konsepsiya kiberfizik tizimlar, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlariga asoslanadi. Bunday texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish talabalarning amaliy va kreativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi [1].

3D printerlar va additiv texnologiyalar yordamida talabalar murakkab texnologik jarayonlarni amaliy jihatdan o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa ularda muhandislik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, virtual va qo‘shimcha reallik texnologiyalari masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirib, murakkab laboratoriya mashg‘ulotlarini xavfsiz tarzda amalga oshirish imkonini yaratadi [4]. Zamonaviy texnologik vositalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni real ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtirib, ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etishga yordam beradi. Natijada talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va innovatsion yondashuvlari rivojlanadi [2]. Ayniqsa, adaptiv o‘qitish tizimlari orqali talabalar bilim darajasiga mos topshiriqlarni bajarishi, o‘zlashtirish jarayonini mustaqil nazorat qilishi va individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishi mumkin. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, texnologik ta’limda STEM yondashuvini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. STEM ta’limi fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitishga asoslanadi. Ushbu yondashuv talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash, jamoada ishlash va loyiha asosida o‘qitishni rivojlantirish imkonini beradi [5]. STEM yondashuvi orqali talabalarda tahliliy fikrlash, muammolarni kompleks hal qilish va texnik ijodkorlik ko‘nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, loyiha asosidagi ta’lim texnologik jarayonlarni chuqurroq anglash va amaliy muammolarga innovatsion yechim topishda samarali vosita hisoblanadi.

Tahlillar natijasida texnologik ta’lim jarayoniga raqamli vositalarni joriy etish talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishi aniqlandi. Elektron platformalar, multimedia vositalari va virtual laboratoriyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar dars jarayonida faolroq ishtirok etishi, mustaqil izlanishga ko‘proq intilishi kuzatildi [3]. Bu esa ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan birga, zamonaviy texnologik muhitga moslashuvchanligini ham oshiradi. Shuningdek, tadqiqot davomida texnologik ta’limni innovatsion asosda tashkil etish bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi va

yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatini kuchaytiradi [6]. Ayniqsa, interaktiv metodlar va raqamli ta’lim resurslari bilan boyitilgan darslar o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, texnologik ta’limni raqamlashtirish asosida tashkil etish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarda texnologik savodxonlik, innovatsion tafakkur va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi [1; 2; 4]. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologik ta’lim mazmunini innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. “Industriya 4.0” texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish bo‘lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshiradi, ularda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bois texnologik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Tahlillar asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda kreativ metodlardan kompleks foydalanish zarurligi asoslandi. Chunki zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki raqamli texnologiyalar bilan ishlash, elektron ta’lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanish kompetensiyalariga ham ega bo‘lishi lozim [3].

Bundan tashqari, talabalarning kreativ va innovatsion fikrlashini rivojlantirish texnologik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning tashabbuskorligi, ijodiy salohiyati va kasbiy moslashuvchanligini oshiradi [6]. Bu esa kelajakda zamonaviy texnologik jarayonlarni boshqara oladigan, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq eta oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – www.lex.uz

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008.

3. Toyloqov N.I. Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish istiqbollari // Ta’lim va tarbiya. – 2002. – №1–2.

4. To‘raqulov O. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida mutaxassis tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari. – T., 2017.

5. Sharipov Sh.S. va boshq. Texnologiya darsligi. – T., 2021.

6. Sayidova M.X. Talabalarda ijodiy va kreativ qobiliyatni shakllantirish masalalari // Xalq ta’limi. – 2023. – №3.

Javohirbek BURIYEV,
Samarqand davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Muallif elektron ta'lim resurslari, masofaviy platformalar va adaptiv texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish yo'llarini ko'rib chiqqan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Tayanch so'zlar. Raqamli ta'lim, mustaqil ta'lim, metodika, elektron resurslar, masofaviy o'qitish, adaptiv ta'lim, LMS tizimi, kompetensiya, axborot texnologiyalari, pedagogik innovatsiya.

В данной статье проанализированы вопросы совершенствования методики развития самостоятельной учебной деятельности студентов в условиях цифровой образовательной среды. Авторы рассмотрели пути формирования у студентов навыков самостоятельного получения знаний посредством использования электронных образовательных ресурсов, дистанционных платформ и адаптивных технологий, а также разработали практические рекомендации.

Ключевые слова. цифровое образование, самостоятельное обучение, методика, электронные ресурсы, дистанционное обучение, адаптивное обучение, система LMS, компетенция, информационные технологии, педагогическая инновация.

This article analyzes the issues of improving the methodology for developing students' independent learning activity in a digital educational environment. The authors examine ways of forming students' independent learning skills through the use of electronic educational resources, distance platforms and adaptive technologies, and develop practical recommendations.

Key words. Digital education, independent learning, methodology, electronic resources, distance learning, adaptive learning, LMS system, competence, information technologies, pedagogical innovation.

Jahon ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, ayniqsa, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga faol tatbiq etilishi talabalarning bilim olish uslubiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda raqamli ta'lim muhiti – elektron platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, virtual laboratoriyalar va interaktiv o'quv resurslari muhim o'rin egallamoqda. Bunday sharoitda talabaning faqat auditoriya darslarida olgan bilimi bilan cheklanib qolmasligi, balki mustaqil ravishda bilim olish, izlanish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi zamon talabiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sifatini oshirish, raqamli iqtisodiyot va "raqamli ta'lim" konsepsiyasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etishni dolzarb vazifa sifatida belgilamoqda. Shu sababli raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish metodikasini ilmiy-pedagogik jihatdan takomillashtirish nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim faoliyati muammosi pedagogika fanida uzoq vaqtdan beri tadqiq etib kelinmoqda. Mahalliy olimlardan N.A.Muslimov, B.R.Adizov, U.I.Inoyatov, R.X. Djuraev kabi tadqiqotchilarning ishlarida mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning

didaktik asoslari, talabaning bilish faolligini oshirish mexanizmlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bu jarayondagi o‘rni atroflicha yoritilgan. So‘nggi yillarda esa raqamli ta’lim muhiti, elektron ta’lim resurslari va masofaviy o‘qitish tizimlarining mustaqil ta’lim faoliyatiga ta’siri masalalari ham keng ilmiy muhokama predmetiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, ko‘plab tadqiqotlarda raqamli ta’lim muhitining texnik-texnologik jihatlariga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishning yaxlit metodik tizimi, ya’ni maqsad, mazmun, vosita va nazorat komponentlarining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlovchi metodika hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa mavzuning ilmiy yangiligini va amaliy zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv hamda so‘rovnoma o‘tkazish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot bazasi sifatida oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar tanlab olindi. Talabalarning raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish darajasi, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish faolligi va o‘quv motivatsiyasi diagnostik so‘rovnoma asosida o‘rganildi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi va tahlil qilindi.

Raqamli ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bir qancha o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, elektron ta’lim resurslarini (elektron darsliklar, video-ma’ruzalar, interaktiv testlar) tizimli tarzda joriy etish talabaning istalgan vaqtda, istalgan joyda o‘quv materialiga murojaat qilish imkoniyatini kengaytiradi. Ikkinchidan, masofaviy ta’lim platformalari (LMS tizimlari) orqali topshiriqlarni rejalashtirish, bajarish muddatlarini nazorat qilish va natijalarni avtomatik baholash mexanizmlarini joriy etish talabaning mas’uliyatini va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Uchinchidan, adaptiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, ya’ni har bir talabaning bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’atiga moslashtirilgan individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirish mustaqil ta’lim faoliyatining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv talabaga o‘z bilim bo‘shliqlarini mustaqil aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, gamifikatsiya elementlarini (ball to‘plash tizimi, reyting jadvallari, raqamli sertifikatlar) mustaqil ta’lim topshiriqlariga tatbiq etish talabalarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, gamifikatsiya elementlari joriy etilgan guruhlarda talabalarning mustaqil topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish ko‘rsatkichi an’anaviy guruhlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgani aniqlandi.

Beshinchidan, mobil ilovalar va messenjer-asosidagi ta’lim vositalaridan foydalanish talabaning kundalik hayotidagi vaqtdan unumli foydalanish, masalan, yo‘l-yo‘lakay yoki bo‘sh vaqtlarda qisqa o‘quv modullarini o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, mustaqil ta’lim faoliyatini uzluksiz va moslashuvchan jarayon sifatida tashkil etishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, talabaning mustaqil ta’lim faoliyati natijalarini baholashning ko‘p bosqichli tizimini joriy etish – o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash (peer-assessment) va o‘qituvchi tomonidan elektron baholash usullarini uyg‘unlashtirish – nazorat-baholash jarayonining ob’ektivligini va shaffofligini ta’minlaydi hamda talabada javobgarlik hissini kuchaytiradi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqorida sanab o‘tilgan metodik yo‘nalishlarni majmuali tarzda tatbiq etish talabalarning mustaqil ta’lim faoli-

yatiga bo‘lgan motivatsiyasini o‘rtacha 18-22 foizga oshirishga, shuningdek, mustaqil bajariladigan topshiriqlar sifatini sezilarli darajada yaxshilashga imkon berdi. Bundan tashqari, talabalarning axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalari ham ijobiy dinamikaga ega bo‘lgani qayd etildi

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish nafaqat texnik vositalarni joriy etish, balki pedagogik metodikani ham mos ravishda qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Xususan, o‘qituvchining roli “bilim beruvchi”dan “yo‘naltiruvchi va konsultant”ga aylanishi, mustaqil ta’lim topshiriqlarining mazmuni esa reproduktiv xarakterdan ijodiy-tadqiqotchilik xarakteriga o‘tishi zarur. Shuningdek, raqamli ta’lim resurslarining sifati, ularning o‘quv dasturi maqsadlariga muvofiqligi va talabalar uchun qulayligi metodikaning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanishda talabalarning raqamli savodxonlik darajasidagi farqlar, internet va texnik vositalarga bir xilda kirish imkoniyatining mavjud emasligi kabi muammolar ham inobatga olinishi lozim. Bu omillarni hisobga olgan holda metodikani ishlab chiqish mustaqil ta’lim faoliyatini barcha talabalar uchun teng darajada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u elektron ta’lim resurslari, masofaviy platformalar, adaptiv texnologiyalar, gamifikatsiya elementlari hamda ko‘p bosqichli baholash tizimini o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llashni talab etadi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida har bir fan bo‘yicha sifatli elektron o‘quv-metodik majmualar yaratish va ularni muntazam yangilab borish; ikkinchidan, LMS tizimlarida talabaning individual o‘quv trayektoriyasini kuzatib boruvchi analitik vositalarni joriy etish; uchinchidan, o‘qituvchilarni raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish bo‘yicha malaka oshirish kurslari orqali tayyorlash; to‘rtinchidan, mustaqil ta’lim topshiriqlarini ijodiy va amaliy yo‘naltirilgan xarakterda loyihalashtirish; beshinchidan, talabalarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha modullarni o‘quv jarayoniga kiritish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. Kasb ta’limi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019. – 248 b.

2. Adizov B.R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 196 b.

3. Inoyatov U.I. Oliy ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy yondashuvlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 212 b.

4. Djuraev R.X. Uzluksiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 184 b.

5. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017. – 220 b.

6. Toshpo‘latov O‘.S. Raqamli ta’lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. – 176 b.

7. Saidahmedov N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni amaliyotga tatbiq etish. – Toshkent: Fan, 2020. – 204 b.

Umrzoq TOXIROV,
“ZARMED UNIVERSITETI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi
Buxoro kompusi, xodim

OLIY TA’LIM JARAYONIDA MUAMMOLI TA’LIM (PBL) TEXNOLOGIYASI BILAN SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINI INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SALOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim sharoitida muammoli ta’lim (PBL – Problem-Based Learning) texnologiyasini sun’iy intellekt vositalari bilan uyg‘unlashtirishning pedagogik salohiyati o‘rganilgan. Tadqiqot davomida PBL bosqichlarini sun’iy intellektga asoslangan yechimlar hisobiga boyitishga qaratilgan didaktik model taklif etilgan; individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash, muammoli vaziyatlar bazasini shakllantirish hamda ushbu yondashuvlarni o‘quv amaliyotiga joriy etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Oliy ta’lim, muammoli ta’lim (PBL), sun’iy intellekt, pedagogik salohiyat, individual ta’lim trayektoriyasi, muammoli vaziyat, fasilitatsiya, intellektual baholash, raqamli didaktika, kasbiy kompetensiya.

В настоящей статье рассматриваются педагогические возможности интеграции технологии проблемного обучения (PBL – Problem-Based Learning) с инструментами искусственного интеллекта в условиях высшего образования. Предложена дидактическая модель обогащения этапов PBL средствами на основе искусственного интеллекта, а также сформулированы практические рекомендации по построению индивидуальной образовательной траектории, формированию банка проблемных ситуаций и их внедрению в учебную практику.

Ключевые слова. Высшее образование, проблемное обучение (PBL), искусственный интеллект, педагогический потенциал, индивидуальная образовательная траектория, проблемная ситуация, фасилитация, интеллектуальное оценивание, цифровая дидактика, профессиональная компетенция.

This article examines the pedagogical potential of integrating problem-based learning (PBL) technology with artificial intelligence tools within higher education. A didactic model for enriching PBL stages through AI-based solutions is proposed, along with practical recommendations for designing individual learning trajectories, building a bank of problem situations, and implementing these approaches into educational practice.

Key words. Higher education, problem-based learning (PBL), artificial intelligence, pedagogical potential, individual learning trajectory, problem situation, facilitation, intelligent assessment, digital didactics, professional competence.

Zamonaviy oliy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri – tayyor bilimlarni uzatishdan talabaning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etishga o‘tishdir. Bugungi mehnat bozori bitiruvchidan nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy ishlay olish, axborotni tanqidiy tahlil etish va uzluksiz o‘rganish qobiliyatini talab etmoqda. Jahon amaliyotida o‘z samaradorligini isbotlagan yo‘nalishlardan biri sifatida muammoli ta’lim (PBL – Problem-Based Learning) texnologiyasi mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi: bunda o‘quv jarayoni real kasbiy muammo atrofida quriladi, talaba muammoni idrok etadi, o‘zidagi bilim tanqisligini aniqlaydi,

mustaqil izlanish olib boradi, guruh doirasida muhokama qiladi va topilgan yechimni himoya qiladi.

Hozirgi kunda generativ til modellari, intellektual ta'lim tizimlari, moslashuvchan (adaptiv) platformalar hamda ta'lim analitikasiga tayanuvchi sun'iy intellekt vositalari o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va mazmunan boyitish uchun keng imkoniyat ochmoqda. O'zbekistonda ushbu texnologiyalarni rivojlantirish va ta'lim sohasiga tatbiq etishga qaratilgan davlat siyosati, jumladan tegishli strategik hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-pedagogik izlanishlarning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

PBL va sun'iy intellekt masalalari alohida-alohida ancha keng tadqiq etilgan bo'lsada, ularni yaxlit didaktik tizim sifatida birlashtirib qo'llash oliy ta'lim amaliyoti uchun nisbatan yangi va kam o'rganilgan yo'nalish hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotning maqsadi – oliy ta'lim tizimida PBL texnologiyasi bilan sun'iy intellekt vositalarini birgalikda qo'llashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularni tizimga solish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Muammoli ta'limning nazariy negizlari G.Korkmaz va N.Kalayci tomonidan "Problem and project-based learning as an educational philosophy: A novel conceptual model for higher education" maqolasida yoritilgan bo'lib, unda muammo va loyihaga asoslangan ta'lim (PBL)ning oddiy o'qitish metodidan yaxlit ta'lim falsafasiga aylanish jarayoni tahlil qilinib, oliy ta'lim uchun yangi kontseptual model taklif qilingan. Mualliflar PBL ni butun o'quv dasturini muammolarga yo'naltirilgan ta'lim modeli sifatida talqin qiladilar. Tadqiqotda narrativ adabiyotlar sharhi asosida yangi nazariy aloqalar yaratilgan va mavjud nazariyalar sintez qilingan bo'lib, muammoga va loyihaga asoslangan ta'limni birgalikda tahlil qilish orqali oliy ta'limdagi nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish mumkinligi asoslab berilgan [1].

Yu.N.Ziyatdinova va F.A.Sanger "Proyektnoye obucheniye dlya podgotovki inzhenera XXI veka" nomli ishida XXI asr muhandisini tayyorlashda loyihaviy ta'limning o'rnini ko'rib chiqadi. Perdyu universiteti tajribasi asosida mualliflar loyihaviy ta'limni bir necha turga ajratadi: namoyish xarakteridagi loyihalar, bitta fan doirasidagi loyihalar va fanlararo (multidistsiplinar) loyihalar. Tadqiqotda "yopiq" masalalardan real hayotiy "ochiq" masalalarga bosqichma-bosqich o'tish zarurligi ta'kidlanadi, shuningdek, xalqaro loyihaviy tajriba misolida turli mamlakat va madaniyat vakili bo'lgan talabalarning hamkorlikdagi ishiga xos qiyinchiliklar tahlil qilinadi [2].

T.V.Danilova, T.Ye.Demidova va A.P.Tonkix "Proyektnoye obucheniye studentov kak osnovnoye usloviye ix gotovnosti k professional'noy deyatel'nosti" ishida loyihaviy ta'limning talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi hal qiluvchi rolini ilmiy asoslaydi. Mualliflarning ta'kidlashicha, loyihaviy ta'lim muvaffaqiyatli tatbiq etilgach, talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi va o'zlashtirish natijalari yaxshilanadi. Bundan tashqari, loyihaviy ta'lim jarayonida talabalar nafaqat fan bo'yicha bilim oladi, balki muzokara yuritish, birgalikda qaror chiqarish, jamoaviy mas'uliyatni his qilish va natijalarni birgalikda talqin etish ko'nikmalarini ham egallaydi; loyihaviy ta'limning kasbga erta yo'naltirish dasturlarida tutgan o'rni ham alohida ko'rsatib o'tilgan [3].

B.Condliffe, J.Quint, M.G.Visher, M.R.Bangser va boshqa mualliflarning "Project-Based Learning: A Literature Review" nomli keng qamrovli sharhi 2000-yildan keyingi 17 yillik davrda e'lon qilingan tadqiqotlarni umumlashtiradi. Unda PBL ning asosiy tamoyillari, K-12 bosqichida qo'llanilishi, o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklar, maktab va tuman darajasidagi omillarning ta'siri hamda o'quv natijalariga qo'shgan hissasi

ko‘rib chiqilgan. Xulosalarga ko‘ra, PBL samaradorligiga oid dalillar “istiqbolli, biroq hali yetarlicha isbotlanmagan” tarzda baholanadi: tabiiy va ijtimoiy fanlarda ijobiy ta’sir kuzatilgan bo‘lsa, matematika va savodxonlik yo‘nalishida dalillar cheklangan. Mualliflar PBLni samarali joriy etish uchun o‘qituvchi roli tubdan o‘zgarishi va tegishli kasbiy tayyorgarlik dasturlari zarurligini qayd etadi [4].

M.C.Granado-Alcón, D.Gómez-Baya, E.Herrera-Gutiérrez va boshqalarning “Project-Based Learning and the Acquisition of Competencies and Knowledge Transfer in Higher Education” ishida oliy ta’limda PBL metodologiyasi kompetensiyalarni egallash va bilimni ko‘chirish (knowledge transfer) nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Tadqiqot Xuelva va Mursiya universitetlaridagi 464 nafar talaba ishtirokida amalga oshirilgan bo‘lib, natijalarga ko‘ra PBLdan so‘ng umumiy, maxsus va ko‘ndalang kompetensiyalar o‘rta va yuqori darajada shakllangan, bilim ko‘chirish darajasi esa loyihani baholash natijalari bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlangan. Mualliflarning fikricha, PBL barqaror rivojlanish uchun ta’lim (ESD) kontekstida talabalarning tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim metodologiya sanaladi [5].

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili ko‘rsatishicha, mavjud tadqiqotlarning katta qismida sun’iy intellekt an’anaviy o‘qitish sharoitida tadqiq etilgan bo‘lib, uning imkoniyatlarini bevosita PBL bosqichlariga bog‘lab, yaxlit didaktik model doirasida ochib berish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Aynan shu holat tadqiqot mavzusining ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, sintez, qiyoslash, modellashtirish, pedagogik kuzatuv va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi. Dastlab PBLning asosiy bosqichlari aniqlab olindi, so‘ng har bir bosqichga mos sun’iy intellekt vositalari pedagogik maqsadlarga uyg‘un tarzda tanlab chiqildi. Ishlab chiqilgan model oliy ta’lim muassasasining amaliy mashg‘ulotlarida sinovdan o‘tkazildi, talaba va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari asosida uning amaliy imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilinib, umumlashtirildi.

O‘tkazilgan tahlil natijasida PBL va sun’iy intellekt vositalarini birgalikda qo‘llashning pedagogik imkoniyatlarini olti asosiy yo‘nalishga birlashtirish mumkin bo‘ldi.

Birinchi imkoniyat – muammoli vaziyatlar bankini boyitish. PBL samaradorligi ko‘p jihatdan muammoli vaziyatning sifatiga bog‘liq bo‘lib, u real hayotga yaqin, kasbiy ahamiyatga ega, bir nechta yechimga ochiq va talaba tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi shart. Generativ sun’iy intellekt o‘qituvchiga berilgan mavzu, murakkablik darajasi va kasbiy kontekstdan kelib chiqib, xilma-xil muammoli vaziyatlar, keys-stadilar va rolli stsenariylarni tezkor yaratish hamda ularni turli talaba guruhlari uchun moslashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchining loyihalash bo‘yicha mehnat sarfini kamaytiradi va har bir mashg‘ulotni yangi, o‘ziga xos muammo bilan boshlash imkonini yaratadi.

Ikkinchi imkoniyat – individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish. PBL jarayonida talabalar bilim yetishmovchiligini turlicha his qiladi: ba’zilari nazariy jihatdan, ba’zilari hisob-kitoblarda, ba’zilari esa manbalar bilan ishlashda qiynaladi. Moslashuvchan sun’iy intellekt tizimlari har bir talabaning izlanish tarixi va topshiriq natijalarini tahlil qilib, aynan yetishmayotgan bilim bo‘shlig‘ini to‘ldiruvchi qisqa modul, mashq va tushuntirishlarni tavsiya etadi. Natijada mustaqil izlanish bosqichi tartibsiz qidiruvdan maqsadli va boshqariladigan jarayonga aylanadi, guruh a’zolarining umumiy tayyorgarlik darajasi esa bir-biriga yaqinlashadi.

Uchinchi imkoniyat – Sokrat uslubidagi intellektual yo‘naltirish. To‘g‘ri sozlangan sun’iy intellekt vositasi talabaga tayyor javob taqdim etmasdan, balki yo‘naltiruvchi savollar berish, qarama-qarshi dalillarni keltirish va mantiqiy fikrlash zanjirini

rag‘batlantirish tarzida ishlashi mumkin. Bunday “raqamli fasilitator” talabaning auditoriyadan tashqarida ham muammo yuzasidan fikr yuritishini davom ettirishga yordam beradi, o‘qituvchining fasilitatsiya bo‘yicha yukini kamaytiradi va bu bilan PBLning asosiy mohiyatiga – talabaning yechimga o‘z aqliy mehnati orqali erishishiga – zid kelmaydi.

To‘rtinchi imkoniyat – guruhiy ishni qo‘llab-quvvatlash va ta’lim analitikasi. Sun’iy intellektga asoslangan platformalar guruhiy muhokamalar davomida ishtirokchilarning faollik darajasi, rollar taqsimoti va muhokama mazmunini tahlil qilish imkonini beradi. Shu analitika yordamida o‘qituvchi qaysi guruh qayerda “to‘xtab qolgani” yoki qaysi talaba muhokamadan chetlashib qolayotganini o‘z vaqtida aniqlaydi va nuqtali pedagogik yordam ko‘rsatadi. Bu esa an’anaviy PBLda o‘qituvchi uchun eng murakkab hisoblangan vazifani – bir vaqtning o‘zida bir nechta guruhni sifatli kuzatib borish muammosini – hal etadi.

Beshinchi imkoniyat – baholash jarayonini takomillashtirish. Sun’iy intellekt vositalari yozma hisobotlarni belgilangan mezonlar asosida dastlabki tahlildan o‘tkazish, taqdimotlar bo‘yicha shakllantiruvchi (formativ) fikr-mulohaza berish hamda o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash natijalarini umumlashtirish imkonini yaratadi. Bunda yakuniy baho hamon o‘qituvchi zimmasida qoladi, biroq u ko‘plab rutin tekshiruv ishlaridan ozod bo‘lib, o‘z e’tiborini talabaning fikrlash sifati va yechimni asoslash darajasiga qarata oladi. Talaba esa har bosqichda tezkor teskari aloqa olib, ishini muddatidan avval takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Oltinchi imkoniyat – kasbiy raqamli madaniyatni shakllantirish. PBL doirasida sun’iy intellekt vositalaridan tartibga solingan tarzda foydalanish talabada zamonaviy mutaxassis uchun zarur bo‘lgan yangi ko‘nikmalarni – samarali so‘rov (prompt) tuzish, olingan javobni asl manbalar bilan qiyoslash, sun’iy intellekt xatolarini payqash va undan foydalanishni oshkora rasmiylashtirish malakalarini – tabiiy tarzda shakllantiradi. Shu tariqa sun’iy intellekt nafaqat vosita, balki o‘rganish predmetiga ham aylanadi, bu esa bitiruvchining raqamli mehnat bozoriga tayyorligini oshiradi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ushbu imkoniyatlarning amaliy ahamiyatini tasdiqladi: tajriba mashg‘ulotlarida qatnashgan talabalarning aksariyati sun’iy intellekt bilan boyitilgan PBL mashg‘ulotlarini an’anaviy darslarga nisbatan qiziqarliroq va foydaliroq deb baholadi. O‘qituvchilar esa muammoli vaziyatlarni tayyorlash va guruhlarni kuzatishga sarflanadigan vaqt sezilarli darajada qisqarganini qayd etishdi. Shu bilan birga, natijalar ko‘rsatishicha, aniqlangan imkoniyatlarning to‘liq ro‘yobga chiqishi bir qator pedagogik shartlarga – sun’iy intellektdan foydalanishning bosqichma-bosqich reglamentlashtirilishi, o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi va akademik halollikni ta’minlovchi mexanizmlarning mavjudligiga – bog‘liq ekan.

Oliy ta’lim tizimida PBL texnologiyasi bilan sun’iy intellekt vositalarini birgalikda qo‘llash, xulosa qilib aytganda, bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi ikki omilning uyg‘un birlashuvini ta’minlaydi: PBL sun’iy intellektdan foydalanishga aniq pedagogik maqsad va mazmun bag‘ishlaydi, sun’iy intellekt esa o‘z navbatida PBLning har bir bosqichini – muammoli vaziyatni loyihalashdan tortib baholash va refleksiyagacha – sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Aniqlangan olti yo‘nalishdagi imkoniyatlar (muammoli vaziyatlar bankini boyitish, individual trayektoriya, intellektual yo‘naltirish, guruhiy ish analitikasi, baholashni takomillashtirish, raqamli madaniyatni shakllantirish) yaxlit didaktik model tarzida qo‘llanilganda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmiga aylanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida har bir fan bo‘yicha sun’iy intellekt yordamida muntazam yangilanadigan muammoli vaziyatlar bazasini yaratish; ikkinchidan, PBL bosqichlarida sun’iy intellektdan foydalanishning aniq reglamentini ishlab chiqib, uni ishchi o‘quv dasturlariga kiritish; uchinchidan, o‘qituvchilar uchun PBL fasilitatsiyasi va sun’iy intellekt vositalari bilan ishlash bo‘yicha malaka oshirish modullarini tashkil etish; to‘rtinchidan, baholash tizimida jarayonga yo‘naltirilgan mezonlarni joriy qilish va sun’iy intellektdan foydalanishni oshkora ko‘rsatish talabini kiritish; beshinchidan, talabalarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan kirish modullarini o‘quv jarayoniga joylashtirish lozim.

Ushbu tavsiyalarni izchil amalga oshirish oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining individuallashuvi va faollashuvini ta’minlab, mehnat bozori talablariga javob beradigan, muammolarni mustaqil hal eta oladigan va raqamli vositalar bilan samarali ishlay oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Korkmaz G., Kalayci N. Problem and project-based learning as an educational philosophy: A novel conceptual model for higher education // African Educational Research Journal. Vol. 9(3), pp. 774-789, September 2021. DOI: 10.30918/AERJ.93.21.111

2. Зиятдинова Ю.Н., Сангер Ф.А. Проектное обучение для подготовки инженера XXI века // Высшее образование в России. №3, 2015. С. 92-103.

3. Данилова Т.В., Демидова Т.Е., Тонких А.П. Проектное обучение студентов как основное условие их готовности к профессиональной деятельности // Управление образованием: теория и практика. Том 12, №4. 2022. DOI: 10.25726/s0536-8820-8230-o

4. Condliffe B., Quint J., Visher M.G., Bangser M.R. et al. Project-Based Learning: A Literature Review. Working Paper. MDRC, October 2017.

5. Granado-Alcón M.C., Gómez-Baya D., E.Herrera-Gutiérrez, M.Vélez-Toral, P.Alonso-Martín, M.T.Martínez-Frutos. Project-Based Learning and the Acquisition of Competencies and Knowledge Transfer in Higher Education // Sustainability 2020, 12, 10062. DOI: 10.3390/su122310062

Nabijon TEMIROV,
Farg‘ona davlat universiteti, “Pedagogika” kafedrasi professori, p.f.d.
Xurshidaxon SIROJIDDINOVA
Farg‘ona davlat universiteti, magistranti

O‘QUV JARAYONINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quv jarayonida qo‘llanilish imkoniyatlari, ta’lim sifatini oshirishdagi roli va o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Sun’iy intellekt, virtual suhbatdosh, an’anaviy baholash tizimi, avtomatlashgan baholash tizimi.

В статье анализируются возможности применения технологий искусственного интеллекта в учебном процессе, их роль в повышении качества образования и возможности развития языковой компетенции учащихся.

Ключевые слова. Искусственный интеллект, виртуальный собеседник, традиционная система оценки, автоматизированная система оценки.

The article analyzes the possibilities of applying artificial intelligence technologies in the educational process, their role in improving the quality of education, and their potential for developing students' language competence.

Key words. Artificial intelligence, virtual interlocutor, traditional assessment system, automated assessment system.

XXI asr taraqqiyotining eng muhim bosqichlaridan biri sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib kelishi, xususan, ta’lim tizimining rivojlanishiga chuqur va tizimli ta’sir ko‘rsata boshlaganidadir. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim jarayoni an’anaviy o‘qituvchi-talaba modelidan tobora uzoqlashib, raqamli, shaxsga yo‘naltirilgan, integratsiyalashgan va hamkorlikka asoslangan yangi paradigma sari o‘tmoqda. SI bu jarayonning markazida turib, nafaqat o‘qitish metodlarini, balki ta’limning mazmuni va tuzilmasini tubdan qayta ko‘rib chiqishga zamin yaratmoqda.

Ta’lim tizimi inson kapitalini shakillantirishning asosiy vositasi sifatida doimiy yangilanishni talab qiladi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt texnologiyalari bu jarayonni inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, balki talabalarga shaxsiy yondashuvni ta'minlash, ularning bilim olish jarayonlarini individual ravishda moslashtirish imkonini beradi. Uzoq yillar davomida ta’lim tizimi evolutsion tarzda shakllanib kelgan bo‘lsa-da, hozirgi kunda u bir qator murakkab muammolar bilan yuzma-yuz turibdi. Standartlashtirilgan yondashuvning ustuvorligi barcha o‘quvchilarni bir xil dastur va bir xil tezlikda o‘qishga majbur qilgani sababli, individual farqlar ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. An’anaviy baholash tizimi esa, asosan, bir martalik imtihonlarga tayanib, talabaning haqiqiy bilim, tahliliy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini to‘liq namoyon eta olmaydi. Shuningdek, o‘qituvchilar zimmasiga yuklangan ortiqcha byurokratik vazifalar ularning samarali pedagogik faoliyatiga, talabalarga individual e’tibor qaratishiga

to‘sqinlik qilmoqda. Ana shunday murakkab jarayonda sun’iy intellekt ta’lim tizimini transformatsiya qilishning qudratli vositasiga aylanmoqda. Albatta, ta’limda texnologiyalarning qo‘llanishi yangilik emas. Kompyuterlarning paydo bo‘lishidan boshlab elektron darsliklar, multimedia vositalari, internet va mobil ilovalar ta’lim jarayonining tarkibiy qismiga aylangan. Biroq SI asosidagi innovatsion yondashuvlar so‘nggi o‘n yilliklarda misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan rivojlanmoqda. 1980–1990-yillarda elektron resurslar ta’limga kirib kelgan bo‘lsa, 2000-yillarda onlayn kurslar va MOOC platformalari ommalashdi. 2010-yillardan boshlab mashina o‘rganish, katta ma’lumotlar tahlili, adaptiv ta’lim tizimlari keng qo‘llanila boshladi. Bugungi kunda esa chatbotlar, intellektual yordamchilar va real vaqt rejimidagi baholash vositalari o‘qitish jarayonini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun’iy intellektning eng katta ustunliklaridan biri ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan modelga o‘tkaza olishidadir. Endi har bir o‘quvchi o‘zining qiziqishi, bilish uslubi, bilim darajasi va o‘rganish tezligiga mos ravishda ta’lim olish imkoniga ega. Masalan, vizual idrok kuchli bo‘lganlar uchun grafikalar, diagrammalar va video resurslar, eshitib o‘rganishga moyil o‘quvchilar uchun audio materiallar, amaliyotga yo‘naltirilganlarni esa interaktiv topshiriqlar bilan ta’minlash mumkin. Agar talaba biror mavzuni tez o‘zlashtirsa, SI tizimi avtomatik ravishda murakkabroq topshiriqlarni taklif qiladi. Aksincha, qiyinchilik tug‘ilsa, qo‘shimcha tushuntirishlar yoki moslashuvchan mashqlar taqdim etiladi. Natijada ta’lim jarayoni individual ehtiyoj va qobiliyatlarga moslashadi, o‘zlashtirish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. SI texnologiyalari nafaqat o‘quvchilarga, balki o‘qituvchilarga ham katta yordam ko‘rsatmoqda. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari testlar, yozma ishlar va boshqa topshiriqlarni tezkor, aniq va xolis baholashga imkon yaratadi. Katta ma’lumotlar tahlili orqali qaysi mavzular talabalar uchun murakkabligini aniqlash, individual yoki guruh bo‘yicha o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, SI asosida dars resurslarini tavsiya qiluvchi tizimlar o‘qituvchilarga eng zamonaviy ilmiy manbalar, maqolalar va ta’lim materiallarini tanlashda yordam beradi. Natijada o‘qituvchilar ortiqcha tashkiliy ishlardan xoli bo‘lib, vaqtini innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishga va o‘quvchilarga individual ko‘mak berishga yo‘naltirishi mumkin.

Chet tillarini o‘qitish jarayonida sun’iy intellektning qo‘llanilishi yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. SI asosidagi virtual suhbatdoshlar yordamida o‘quvchilar istalgan vaqt va joyda muloqot amaliyotini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. Nutqni tanish texnologiyalari talaffuzni real vaqt rejimida tahlil qilib, fonetik xatolarni aniqlaydi, ularning sabablarini ko‘rsatadi hamda to‘g‘rilash bo‘yicha individual tavsiyalar beradi. Bundan tashqari, real vaqt tarjima tizimlarining takomillashuvi xalqaro ta’lim maydonida til to‘siqlarini sezilarli darajada kamaytirib, global hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada, chet tili o‘rganuvchilar amaliy nutq ko‘nikmalarini tezroq va samaraliroq rivojlantira oladilar. SI ijodkorlikni rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, matn yaratish va insho yozish jarayonida g‘oyalar generatori sifatida ishlatilib, o‘quvchiga mavzuga oid kreativ yondashuvlarni taklif etadi. Ilmiy tadqiqotlarda esa SI katta ma’lumotlar to‘plamini saralash, tasniflash va tahlil qilish orqali izlanishlarning aniqligini oshiradi. Shuningdek, intellektual o‘yinlar va simulyatsiyalar yordamida talabalar murakkab muammolarni tahlil qilish, strategik fikrlash va qaror qabul qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Zamonaviy SI texnologiyalari uzluksiz ta’lim konsepsiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan kuchli vositaga aylangan. O‘quvchilar o‘z qiziqishlari, ehtiyojlari va kasbiy rejalari asosida individual o‘quv yo‘nalishlarini shakllantira oladilar. Bundan tashqari, SI mehnat bozori dinami-

kasini tahlil qilib, kelajakda qaysi malaka va kompetensiyalar eng dolzarb bo‘lishini prognozlaydi. Natijada ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki talabalarning kelajak kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlashga qaratilgan integratsiyalashgan tizimga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellektning ta’lim tizimiga kirib kelishi nafaqat texnologik taraqqiyotning navbatdagi bosqichi, balki insoniyatning kelgusi taraqqiyot trayektoriyasini belgilab beradigan muhim global jarayondir. Sun’iy intellekt asosidagi yechimlar ta’lim jarayonini yanada shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan, yuqori samaradorlikka ega va ijtimoiy jihatdan adolatli tizimga aylantirish imkonini yaratmoqda. Bu texnologiya ta’lim resurslariga kengroq kirish imkonini berib, har bir o‘quvchining individualligini hisobga olgan holda bilim olish jarayonini optimallashtiradi. Shu bilan birga, sun’iy intellektning jadal integratsiyasi axloqiy me’yorlar, ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik xolislik va raqamli tengsizlik kabi dolzarb masalalarni chuqur o‘rganishni ham talab etadi. Mazkur masalalar hal etilmas ekan, ta’limda raqamli texnologiyalarning to‘liq imkoniyatlaridan foydalanish imkoni cheklangan bo‘lib qoladi. Bugungi kunda shakllanayotgan “kelajak ta’limi” konsepsiyasi aynan sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Demak, sun’iy intellekt ta’limning mazmuni, shakli va metodikasini tubdan o‘zgartira oladigan, insoniyatning intellektual salohiyatini yangi bosqichga ko‘targan eng qudratli vositalardan biriga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smits X. va Jons L. (2022). Ta’limda sun’iy intellekt: imkoniyatlar va muammolar. Ta’lim texnologiyasi jurnali, 15(4), 35-48.

2. Moskva Davlat Universiteti. (2021). Sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari. Moskva: MDMI nashriyoti.

3. Po‘latov M. R. (2019). "Arba'in" asarlarining qo‘lda yozilgan nusxalari. Indoneziya ta'lim usullarini rivojlantirish jurnali, 8, 194-196.

4. Barduhn S. (2014). Bir tilli sinfda madaniyatlararo ongni rivojlantirish. Britaniya Kengashi. https://www.teachingenglish.org.uk/article/developing-cross-cultural-awareness-monolingual-classroom-0

5. Qodirov M. (2010). Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri. – Toshkent: Sharq.

6. Vang X. va Li Y. (2020). Oliy ta’limda AI-Powered Learning Platforms: Case Study. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari jurnali, 12(3), 112-121.

7. Braun P. va Green T. (2021). AI-asosidagi ta’lim tizimlarida axloqiy mulohazalar. Xalqaro ta’lim sharhi, 67(2), 245-262.

8. Kuznetsov L. A. (2018). Mashinani o‘rganish va shaxsiylashtirilgan ta’lim: hozirgi tendentsiyalar. Rossiya ta’lim jurnali, 29(5), 55-60.

9. Jonson A. (2023). Akademiyadagi AI kelajagi: imkoniyatlar va xavflar. Global Education Review, 11(1), 98-108.

10. Tanaka H. va Suzuki K. (2021). Ta’limda o‘yinlashtirish va sun’iy intellekt: A Sinergetik yondashuv. Asian Journal of Educational Technology, 15(2), 89-97.

Qahramon ALMARDANOV,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

MAKTAB RAHBARLARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari, boshqaruv kompetensiyasining mazmuni, uning strategik, analitik, kommunikativ, operatsion va shaxsiy tarkibiy qismlari xalqaro ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan. OECD, UNESCO hamda Kenneth Leithwood konsepsiyalari asosida samarali maktab liderligining ta'lim sifati va o'quvchilar natijalariga ta'siri baholangan. Shuningdek, O'zbekistonda maktab direktorlarini tayyorlash va sertifikatlash tizimi, menejerlik kurslari hamda amaldagi normativ-huquqiy asoslarning afzalliklari va mavjud muammolari tahlil etilgan. TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari natijalari, maktabga qabul jarayonlari, raqamli boshqaruv, maktab avtonomiyasi va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvning dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Xalqaro tajriba, jumladan Singapur, Finlandiya va Estoniya amaliyotlari asosida O'zbekiston sharoitiga mos taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar. Maktab rahbari, boshqaruv kompetensiyasi, ta'lim sifati, strategik liderlik, menejerlik, sertifikatlash, raqamli transformatsiya, maktab avtonomiyasi, TIMSS, PISA, instruksional liderlik, inklyuziv ta'lim.

В статье на основе международных научных подходов освещены теоретические и практические аспекты развития управленческих компетенций руководителей школ в современной системе образования, содержание управленческой компетенции, ее стратегические, аналитические, коммуникативные, операционные и личностные компоненты. На основе концепций ОЭСР, ЮНЕСКО и Кеннета Лейтвуда было оценено влияние эффективного школьного лидерства на качество образования и результаты учащихся. Также проанализированы преимущества и существующие проблемы системы подготовки и сертификации директоров школ, курсов менеджмента и действующей нормативно-правовой базы в Узбекистане. Рассмотрены результаты международных оценочных программ TIMSS и PISA, процессы приема в школы, цифровое управление, школьная автономия и актуальные вопросы управления на основе данных. На основе международного опыта, в том числе практики Сингапура, Финляндии и Эстонии, разработаны предложения и рекомендации, соответствующие условиям Узбекистана.

Ключевые слова. Руководитель школы, управленческая компетенция, качество образования, стратегическое лидерство, менеджмент, сертификация, цифровая трансформация, школьная автономия, TIMSS, PISA, инструктивное лидерство, инклюзивное образование.

The article highlights the theoretical and practical aspects of developing the managerial competencies of school leaders in the modern education system, the content of managerial competence, and its strategic, analytical, communicative, operational, and personal components based on international scientific approaches. Based on the concepts of the OECD, UNESCO, and Kenneth Leithwood, the impact of effective school leadership on the quality of education and student outcomes was evaluated. The system of training and certification of school principals in Uzbekistan, management courses, as well as the advantages and existing problems of the current regulatory framework are also analyzed. The results of the TIMSS and PISA international assessment programs, school admission processes, digital governance, school autonomy, and current issues of data-driven management are reviewed. Based on international experience,

including the practices of Singapore, Finland, and Estonia, proposals and recommendations suitable for the conditions of Uzbekistan have been developed.

Key words. School leader, managerial competence, quality of education, strategic leadership, management, certification, digital transformation, school autonomy, TIMSS, PISA, instructional leadership, inclusive education.

Ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi va inson kapitalini shakllantirish har qanday davlatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri. Globallashuv, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda mehnat bozorida yangi kompetensiyalarga bo‘lgan talabning ortishi ta’lim tizimiga mutlaqo yangi vazifalarni yuklamoqda. Bunday sharoitda maktablarni samarali boshqarish, ta’lim sifatini oshirish va innovatsion islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘p jihatdan maktab rahbarlarining professional boshqaruv kompetensiyalariga bog‘liq. Shu sababli maktab direktori nafaqat ma’muriy rahbar, balki strategik lider, o‘zgarishlarni boshqaruvchi, jamoani rivojlantiruvchi va ta’lim sifatini ta’minlovchi asosiy subyekt sifatida qaralmoqda. Xalqaro tadqiqotlar maktab rahbarligining o‘quvchilar ta’lim natijalari, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va maktab iqlimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. OECD, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar maktab direktorlarini tayyorlash, ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etmoqda. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, inklyuziv ta’limni tashkil etish va manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bugungi maktab rahbarining muhim kompetensiyalariga aylanmoqda.

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, maktab boshqaruvini takomillashtirish va rahbar kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktab direktorlarini menejerlik kurslari asosida tayyorlash, sertifikatlash tizimini joriy etish, ochiq tanlov mexanizmlarini qo‘llash hamda xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish ushbu islohotlarning muhim yo‘nalishlarini tashkil etadi. Biroq rahbarlarning strategik boshqaruv, raqamli menejment, instruksional liderlik va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini yanada rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini yoritish, xalqaro tajribani tahlil qilish, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholash hamda ta’lim boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bilan belgilanadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli, qiyosiy va institutsional tahlil metodlaridan foydalanildi. OECD, UNESCO, Jahon banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar kontent tahlili asosida o‘rganildi. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, menejerlik sertifikatlash tizimi hamda TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlariga oid statistik ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar umumlashtirish, mantiqiy tahlil va sintez usullari orqali baholanib, maktab rahbarlari boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

Zamonaviy ta’lim tizimlarida maktab rahbarlarining, xususan direktorlarning roli so‘nggi o‘n yilliklarda tubdan o‘zgardi. Ilgari maktab direktori asosan ma’muriy nazorat, hujjatlar yuritish va o‘quv jarayonini tashkiliy jihatdan boshqarish bilan shug‘ullangan

bo‘lsa, bugungi kunda u strategik lider, institutsional rivojlanish tashabbuskori, sifat menejeri va o‘zgarishlarni boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, ta’lim sifati bo‘yicha xalqaro baholash tizimlari hamda inson kapitaliga qo‘yilayotgan yangi talablar maktab rahbarlaridan keng qamrovli boshqaruv kompetensiyalariga ega bo‘lishni talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar doirasida maktab boshqaruvi sifatini oshirish, direktorlarning professional kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Boshqaruv kompetensiyasi rahbarning tashkilotni samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, qobiliyat, kasbiy tajriba va shaxsiy sifatlarining integratsiyalashgan majmuasi hisoblanadi. Mazkur tushuncha faqatgina ma’muriy vazifalarni bajarishni emas, balki strategik fikrlash, innovatsiyalarni boshqarish, jamoani rivojlantirish va tashkilotni uzoq muddatli rivojlanishga yo‘naltirishni ham o‘z ichiga oladi[1]. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda boshqaruv kompetensiyasi bir necha tarkibiy qismlardan iborat tizim sifatida talqin qilinadi. Analitik kompetensiya ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish hamda natijalarni baholashni anglatadi. Kommunikativ kompetensiya pedagogik jamoa, ota-onalar, mahalla va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilishni nazarda tutadi. Strategik kompetensiya maktabning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, vizyon yaratish va o‘zgarishlarni boshqarish imkoniyatini ifodalaydi. Operatsion kompetensiya kundalik faoliyatni samarali tashkil etish, resurslarni taqsimlash va nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, shaxsiy kompetensiya yetakchilik, mas’uliyat, moslashuvchanlik, axloqiy me’yorlarga rioya qilish va stressni boshqarish kabi jihatlarni qamrab oladi[2]. Aynan ushbu kompetensiyalar yig‘indisi maktabni yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida samarali boshqarishni ta’minlaydi.

Boshqaruv kompetensiyasini pedagogik rahbarlik tushunchasi bilan aynanlashtirish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Pedagogik rahbarlik nisbatan torroq mazmunga ega bo‘lib, u asosan o‘quv-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, o‘quv dasturlarining samarali amalga oshirilishini ta’minlash va o‘quvchilar bilimini monitoring qilishga qaratilgan. Bunday yondashuvda maktab rahbari “o‘qituvchilarning o‘qituvchisi” sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqaruv kompetensiyasi esa pedagogik faoliyat bilan bir qatorda moliyaviy boshqaruv, inson resurslarini rivojlantirish, tashqi hamkorlik, tashkiliy rivojlanish va innovatsion jarayonlarni boshqarishni ham o‘z ichiga oladigan kengroq kategoriyadir[3].

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda, xususan Kenneth Leithwood va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarga ko‘ra, samarali maktab liderligi pedagogik rahbarlikni transformatsion hamda distributed liderlik elementlari bilan uyg‘unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, direktor nafaqat o‘quv jarayonini boshqaradi, balki maktabning umumiy strategik rivojlanishini ham ta’minlaydi[4]. O‘zbekiston sharoitida ham direktorning vakolatlari aynan shunday kompleks xarakterga ega bo‘lib, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 28-moddasi unga ta’lim tashkilotining umumiy boshqaruvi uchun mas’uliyat yuklaydi. Bu esa boshqaruv kompetensiyalarining ta’lim tizimidagi ustuvor ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi [5].

Maktab rahbarlarining kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha xalqaro tajriba ham mazkur masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi. OECDning “Improving School Leadership” (2008) hisobotida maktab rahbarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari sifatida o‘qituvchilarni rivojlantirish, maqsadlarni belgilash va hisobdorlikni ta’minlash, moliyaviy

hamda inson resurslarini boshqarish va o‘quv jarayoniga strategik rahbarlik qilish ko‘rsatilgan. Keyingi tadqiqotlarda ushbu model raqamli transformatsiya, inklyuziv ta’lim va jamoatchilik bilan hamkorlik elementlari bilan boyitildi[6].

YUNESKOning 2024/2025-yillardagi Global Education Monitoring hisobotida esa maktab rahbarligi to‘rtta asosiy kompetensiya yo‘nalishi orqali tavsiflanadi. Bular maktabning umumiy rivojlanish vizyonini shakllantirish va strategik rejalashtirish, sifatli ta’lim jarayonini tashkil etish, resurslar va ma’muriy boshqaruvni samarali amalga oshirish hamda sog‘lom maktab muhitini yaratish va jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirishdan iborat[7].

Mazkur xalqaro yondashuvlar asosida zamonaviy maktab rahbarining boshqaruv kompetensiyalari bir nechta o‘zaro bog‘liq bloklarni o‘z ichiga oladi. Birinchi blok strategik rejalashtirish va o‘zgarishlarni boshqarish bo‘lib, u maktab rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, milliy ta’lim standartlariga moslashtirish hamda innovatsiyalarni joriy etishni qamrab oladi. Ikkinchi blok moliyaviy va resurs boshqaruvi bo‘lib, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, moddiy-texnik bazani rivojlantirish va xarajatlar samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Uchinchi blok kadrlar menejmentidan iborat bo‘lib, o‘qituvchilarni tanlash, baholash, rag‘batlantirish va professional rivojlantirish orqali inson kapitalini boshqarishga xizmat qiladi. To‘rtinchi blok o‘quv jarayonining sifat monitoringini o‘z ichiga olib, ichki va tashqi baholash tizimlarini tashkil etish hamda ma’lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta’minlaydi. Raqamli transformatsiya, elektron boshqaruv tizimlari bilan integratsiya, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, inklyuziv ta’limni tashkil etish hamda ota-onalar, mahalla va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarining tarkibiy qismlari hisoblanadi[8].

Ilmiy tadqiqotlar maktab rahbarining boshqaruv sifati ta’lim natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, maktab rahbarligi o‘quvchilar akademik natijalariga ta’sir qiluvchi maktab ichidagi omillar orasida sinfdagi o‘qitish sifatidan keyingi omil hisoblanadi. Samarali rahbar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini rag‘batlantiradi, sog‘lom maktab iqlimini yaratadi, maqsadli monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘yadi. Natijada eng samarali 25 foiz rahbarlar boshqargan maktablarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari past samarali rahbarlar faoliyat yuritayotgan maktablarga nisbatan 3 oygacha qo‘shimcha o‘qish ekvivalenti darajasida yaxshilanishi kuzatiladi[9].

Kenneth Leithwood va hamkorlari olib borgan tadqiqotlar rahbarlik omillari maktablar o‘rtasidagi akademik natijalar tafovutining taxminan 20–25 foizini, ayrim tahlillarda esa 20–30 foizigacha bo‘lgan qismini izohlashini ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki o‘qituvchilar sifati, sinfdagi pedagogik amaliyot va maktab iqlimi orqali amalga oshadi[10]. O‘zbekiston sharoitida direktorlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish PISA va milliy baholash dasturlaridagi natijalarni yaxshilash, hududlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi ta’lim sifati tafovutlarini kamaytirishda omil bo‘lishi mumkin. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 59-moddasi ta’lim tashkiloti rahbarini ichki baholash natijalarining ishonchliligi uchun shaxsan mas’ul etib belgilaydi.

Maktab rahbarining boshqaruv kompetensiyalari ta’lim sifati bilan bir qatorda maktabga qabul jarayonlarining samaradorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. 1-sinfga qabul jarayonlarini tashkil etishda sig‘imni rejalashtirish, demografik ma’lumotlarni tahlil qilish, sinflar va smenalar sonini belgilash, qabul mezonlarining shaffofligini ta’minlash, elektron tizimlardan foydalanish va korrupsiyaning oldini olish rahbarning

kasbiy kompetensiyalariga bog‘liq. Aholi sonining o‘sishi, migratsiya jarayonlari va hududning ijtimoiy tarkibi bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish hamda ota-onalar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish qabul jarayonining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi[11].

Yuqori boshqaruv kompetensiyalariga ega direktor maktab sig‘imini aniq hisoblaydi, sinflarni qobiliyat, jins va ijtimoiy tarkib bo‘yicha muvozanatli shakllantiradi, inklyuziv ta’lim tamoyillariga amal qiladi va ota-onalarni zarur axborot bilan o‘z vaqtida ta’minlaydi. Natijada sinflardagi o‘quvchilar soni 30–35 nafardan oshmaydi, o‘qituvchilarning yuklamasi me’yorlashadi va har bir o‘quvchiga individual yondashish imkoniyatlari kengayadi. Shaffof qabul tizimi ota-onalarning maktabga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, ularning ta’lim jarayonidagi ishtirokini faollashtiradi hamda o‘quvchilarning motivatsiyasi va akademik natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[12]. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 38-moddasi qabul jarayonini teng imkoniyatlar tamoyili asosida amalga oshirishni va ota-onalarning axborot olish huquqini kafolatlaydi. Boshqaruv kompetensiyalarining sustligi maktab sig‘imining noto‘g‘ri rejalashtirilishiga, qabul jarayonidagi noaniqliklarga, ijtimoiy norozilikka va oxir-oqibat ta’lim sifati pasayishiga olib kelishi mumkin.

Maktab rahbarlarining professional salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha islohotlardan biri Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi 681-son qarori bilan amalga oshirildi. Mazkur qaror asosida “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlandi. Qarorga muvofiq, 2024-yil 1-yanvardan boshlab A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutida maktab direktori lavozimiga nomzodlar uchun maxsus menejerlik o‘quv kurslari joriy etildi. Ushbu tizim rahbarlik faoliyatini professional asosda tashkil etish hamda direktorlik lavozimini pedagogik tajribadan tashqari zamonaviy boshqaruv kompetensiyalari bilan bog‘lashga qaratilgan[13].

Mazkur menejerlik kurslari 144 soat hajmida tashkil etilib, nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar va maktab amaliyotini o‘z ichiga oladi. Ta’lim kunduzgi yoki masofaviy shaklda olib borilishi mumkin. Nomzodlar manager.uzedu.uz portali orqali ariza topshiradilar va kurslarni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga 5 yil muddat amal qiluvchi elektron menejerlik sertifikati beriladi. 2024-yil 1-sentabrdan boshlab sertifikatga ega maktab direktorlariga lavozim maoshining 50 foizi, direktor o‘rinbosarlariga esa 30 foizi miqdorida ustama belgilandi[14]. Mazkur rag‘batlantirish tizimi rahbarlarning kasbiy rivojlanishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

2023-yildan boshlab maktab direktorlarini lavozimga tayinlash ochiq tanlov asosida “Direktorlar kengashi” tavsiyasiga ko‘ra amalga oshirilmoqda. Amaldagi direktorlar har 5 yilda bir marta menejerlik sertifikatini yangilashi shart bo‘lib, ketma-ket ikki marotaba sertifikatlash imtihonidan muvaffaqiyatli o‘ta olmagan rahbarlar lavozimidan ozod etilishi mumkin. Ushbu mexanizm maktab boshqaruviga professional yondashuvni mustahkamlashga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, menejerlik kurslarining amaliy yo‘naltirilganligi, sertifikatlashdan keyingi monitoring hamda rahbarlarni doimiy metodik qo‘llab-quvvatlash tizimi hali to‘liq shakllanmagan[15].

2025–2026-o‘quv yili boshidagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 11 118 ta umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda va ularda 6 million 870,5 ming nafar o‘quvchi tahsil olmoqda[16]. Mazkur ko‘rsatkichlar ta’lim tizimining ko‘lami juda katta ekanligini ko‘rsatadi. Biroq maktab direktorlarining aksariyati pedagogik faoliyatdan rahbarlik lavozimiga o‘tgan bo‘lib, ular o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha katta taj-

ribaga ega bo‘lsalar-da, zamonaviy menejment kompetensiyalari, jumladan strategik rejalashtirish, EMIS ma’lumotlar bazasidan samarali foydalanish, raqamli transformatsiyani boshqarish, inson kapitalini rivojlantirish va inklyuziv boshqaruv bo‘yicha ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan.

Maktab boshqaruvi samaradorligiga ta’sir qilayotgan omillardan biri maktab avtonomiyasining cheklanganligidir. Maktab rahbarlarining moliyaviy resurslarni mustaqil boshqarish, pedagog kadrlarni tanlash yoki o‘quv jarayonini mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish imkoniyatlari tor bo‘lib qolmoqda. Natijada direktorlar ko‘pincha ijrochi vazifasini bajarishga majbur bo‘lib, innovatsion boshqaruv va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlari cheklanmoqda. Shu sababli ko‘plab maktablarda ishlab chiqilayotgan rivojlanish strategiyalari amaliy natijalarni emas, balki rasmiy hisobotlarni ta’minlash vositasiga aylanib qolmoqda. Menejerlik sertifikatlash tizimi joriy etilgan bo‘lsa-da, uning maktablar faoliyati samaradorligiga ta’siri hali kompleks ilmiy baholanmagan.

Ta’lim sifati bo‘yicha xalqaro baholash natijalari ham maktab boshqaruvining mavjud muammolarini yaqqol namoyon etmoqda. TIMSS 2023 xalqaro tadqiqotida O‘zbekiston ilk bor ishtirok etdi. Natijalarga ko‘ra, 8-sinf o‘quvchilari matematika fanidan 421 ball bilan 44 davlat orasida 32-o‘rinni, tabiiy fanlardan esa 396 ball bilan 39-o‘rinni egalladi. 4-sinf o‘quvchilari matematikadan 443 ball bilan 50-o‘rinni, tabiiy fanlardan esa 412 ball bilan 54-o‘rinni qayd etdilar. Ushbu ko‘rsatkichlar xalqaro o‘rtacha daraja – taxminan 500 balldan sezilarli darajada past hisoblanadi.

PISA tadqiqotining avvalgi sikllarida ham O‘zbekiston o‘quvchilari 81 ta davlat orasida matematika bo‘yicha 72-o‘rinni egallagan, yuqori – 5 va 6-darajali funksional savodxonlikka ega o‘quvchilar ulushi deyarli kuzatilmagan. 2025-yilgi PISA tadqiqotida mamlakatning 233 ta maktabi ishtirok etmoqda va yakuniy natijalar 2026-yilda e’lon qilinishi rejalashtirilgan. Mazkur tadqiqot natijalari maktab boshqaruvi, o‘qituvchilar salohiyati va ta’lim sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash imkonini beradi.

Ta’lim sifati pastligining asosiy sabablari ko‘p qirrali xususiyatga ega. Eng avvalo, ayniqsa qishloq hududlarida malakali o‘qituvchilar yetishmovchiligi saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, ko‘plab maktablarda ikki va hatto uch smenali ta’lim tizimi amalda bo‘lib, bu o‘quv mashg‘ulotlari davomiyligining qisqarishiga hamda ta’lim sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Shahar va qishloq maktablari o‘rtasidagi moddiy-texnik baza, infratuzilma va pedagogik salohiyat tafovutlari ham sezilarli darajada saqlanmoqda. Yangi o‘quv dasturlarini joriy etish va ularni samarali boshqarishda ham qator qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Ko‘plab maktab rahbarlari instructional leadership, ya’ni o‘quv jarayonini metodik boshqarish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini tashkil etish hamda ta’lim natijalarini ma’lumotlar asosida tahlil qilish kompetensiyalariga yetarli darajada ega emaslar. Hukumat smenali ta’limni bosqichma-bosqich qisqartirish choralarini ko‘rayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonning muvaffaqiyati rahbarlarning strategik rejalashtirish va resurslarni oqilona boshqarish salohiyatiga bevosita bog‘liq.

Maktabga qabul jarayonlari ham boshqaruv kompetensiyalarining amaliy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. 2026–2027-o‘quv yili uchun 1-sinfga 795 mingdan ortiq bolaning qabul qilinishi prognoz qilinmoqda[19]. Qabul jarayoni 2026-yil 20-iyundan boshlanib, ikki bosqichda amalga oshiriladi: 20-iyundan 31-iyulgacha mikrohudud doirasida, 1-avgustdan esa mikrohududdan tashqarida. Arizalar my.maktab.uz va my.gov.uz elektron platformalari orqali qabul qilinmoqda. Mazkur tizim qabul jarayonining shaffofligini oshirish, navbatlarni kamaytirish va davlat xizmatlarini raqamlashti-

rishga xizmat qilmoqda.

Biroq qabul tizimida ham qator muammolar saqlanib qolmoqda. Mikrohudud tamoyili bolalarni yashash joyiga yaqin maktablarga biriktirishni nazarda tutsa-da, maktablar o‘rtasidagi ta’lim sifati va sig‘im tafovutlari ota-onalar noroziligiga sabab bo‘lmoqda. Ayrim nufuzli maktablarda o‘quv o‘rinlari yetishmasligi natijasida smenali ta’lim kengaymoqda. Elektron platformalar joriy etilgan bo‘lsa-da, qishloq hududlarida internet infratuzilmasining yetarli emasligi va ota-onalarning raqamli savodxonligi pastligi tizim samaradorligini cheklamoqda.

An’anaviy malaka oshirish kurslariga qo‘shimcha ravishda mentorlik (mentoring) va peer-coaching tizimlarini joriy etish yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi. Ushbu model doirasida menejerlik sertifikatini olgan yangi maktab direktorlariga yuqori natijalarga erishgan tajribali rahbarlar mentor sifatida biriktiriladi. Mentorlar yangi rahbarlarning boshqaruv faoliyatini amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, murakkab boshqaruv vaziyatlarini hal etish bo‘yicha maslahat beradi hamda strategik qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday yondashuv nazariy bilimlarni real boshqaruv amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi[20].

Kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning yana bir yo‘nalishi tajriba almashish platformalarini shakllantirishdir. Avloniy instituti huzurida yoki maxsus onlayn platforma orqali hududlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Bunday platformalar orqali maktab rahbarlari muvaffaqiyatli boshqaruv tajribalarini almashish, innovatsion loyihalarni muhokama qilish hamda dolzarb muammolarga birgalikda yechim ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Qisqa va moslashuvchan onlayn-modul kurslari hamda maktab ichida tashkil etiladigan Professional Learning Communities (PLC) – professional o‘quv hamjamiyatlari orqali uzluksiz kasbiy rivojlanish ta’minlanadi. Ushbu shakllar nazariy tayyorgarlikni amaliy faoliyat bilan bog‘lash, o‘qituvchilar avtonomiyasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda reytingda yuqori natijalarga erishgan ayrim maktablarda bunday yondashuvlar ijobiy samara berayotgan bo‘lsa-da, ularni respublika miqyosida tizimli ravishda ommalashtirish zarur.

Maktab rahbarlarini tayyorlash va rivojlantirishda xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish alohida ahamiyatga ega. Singapur tajribasi O‘zbekiston uchun dolzarb hisoblanadi. Mazkur mamlakatda direktorlik lavozimiga nomzodlar qat’iy tanlov asosida saralanadi, istiqbolli liderlar erta aniqlanadi va leadership pipeline modeli asosida olti oydan ortiq davom etadigan kompleks tayyorgarlik dasturlarida ishtirok etadi. Bu tizim rahbarlik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi.

Finlandiya tajribasi esa taqsimlangan liderlik (distributed leadership) tamoyiliga asoslanadi. Ushbu modelda maktab rahbari barcha qarorlarni yakka tartibda qabul qilmaydi, balki o‘qituvchilarni boshqaruv jarayonlariga faol jalb qiladi. Natijada professional hamjamiyatlar shakllanadi, pedagoglarning mas’uliyati va avtonomiyasi ortadi, bu esa ta’lim sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Estoniya tajribasida esa maktab boshqaruvining to‘liq raqamlashtirilgan modeli e’tiborni tortadi. e-school platformalari yordamida ta’lim jarayoniga oid barcha ma’lumotlar real vaqt rejimida yig‘iladi va tahlil qilinadi. Bu esa maktab rahbarlariga tezkor, aniq hamda ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi[23].

OECD tavsiyalariga ko‘ra, maktab rahbarlarini tayyorlash va kasbiy rivojlantirish dasturlari majburiy tus olishi, instruksional liderlik (o‘quv jarayonini boshqarish) tamo-

yillari taqsimlangan liderlik bilan uyg‘unlashtirilishi hamda o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlanishi zarur[24]. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, Singapur tajribasi asosida istiqbolli nomzodlarni erta aniqlash hamda Avloniy institutidagi menejerlik kurslari muddatini uzaytirish TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlaridagi natijalarni yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro hamkorlik dasturlari maktab rahbarlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. UNICEF SmartEd loyihasi Cambridge University Press & Assessment bilan hamkorlikda o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan. World Bank tomonidan amalga oshirilayotgan BILIM dasturi doirasida 2026-yildan boshlab 6 ta viloyatda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish uchun 100 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratilishi hamda 2 million nafar bolani qamrab olish rejalashtirilgan[25]. Ushbu tashabbuslar maktab rahbarlarining zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Boshqaruv samaradorligini oshirishning yana bir yo‘nalishi maktab avtonomiyasini kengaytirish hisoblanadi. Maktablarga byudjet mablag‘larini mustaqil taqsimlash, moddiy resurslardan foydalanish hamda pedagog kadrlarni tanlash bo‘yicha kengroq vakolatlar berilishi rahbarlarga innovatsion boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi. Avtonomiya natijalarga asoslangan hisobdorlik tizimi (KPI) bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Bunday ko‘rsatkichlar qatoriga o‘quvchilar ta’lim natijalari, qabul jarayonlarining shaffofligi, inklyuziya darajasi va maktab faoliyatining umumiy samaradorligi kiritilishi maqsadga muvofiq.

Maktab rahbarlarining gender va inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish ham zamonaviy boshqaruvning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayollar rahbarligini qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun qulay ta’lim muhitini yaratish va teng imkoniyatlarni ta’minlash ta’lim tizimidagi ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmlar maktabga qabul jarayonlarida uchraydigan norasmiy to‘lovlar, hududlar o‘rtasidagi tafovutlar va resurslarning nomutanosib taqsimlanishini kamaytirishda ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy maktab rahbarining faoliyati faqat ma’muriy boshqaruv bilan cheklanmay, strategik liderlik, ta’lim sifati menejmenti, raqamli transformatsiya, inson kapitalini rivojlantirish hamda manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishni ham qamrab oladi. Shu bois maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yanada takomillashtirilishi lozim. Avvalo, menejerlik sertifikatlash tizimini amaliyotga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. 144 soatlik kurslar tarkibiga strategik rejalashtirish, moliyaviy menejment, EMIS va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, instruksional liderlik hamda inqirozlarni boshqarish bo‘yicha amaliy modullar ulushini oshirish tavsiya etiladi. Sertifikat olgan rahbarlar uchun mentorlik va peer-coaching tizimlarini respublika miqyosida joriy etish, tajribali direktorlarni yangi rahbarlarga biriktirish boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, maktab rahbarlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida Avloniy instituti huzurida raqamli bilimlar platformasi va Professional Learning Communities (PLC) faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarur.

Bu tajriba almashish, innovatsion boshqaruv yechimlarini ommalashtirish hamda hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi. Uchinchidan, maktab-

larga moliyaviy va tashkiliy avtonomiyani bosqichma-bosqich kengaytirish, shu bilan birga natijalarga asoslangan hisobdorlik (KPI) tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Baholash mezonlariga o‘quvchilar ta’lim natijalari, qabul jarayonining shaffofligi, inklyuziv ta’lim, ota-onalar qoniqish darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligi kiritilishi lozim. Singapur, Finlandiya va Estoniya tajribalarini milliy sharoitga moslashtirish, istiqbolli rahbarlarni erta aniqlash, leadership pipeline modelini joriy etish hamda raqamli boshqaruv tizimlarini keng qo‘llash tavsiya etiladi. Menejerlik sertifikatlash tizimining maktablar faoliyati va PISA hamda TIMSS natijalariga ta’sirini muntazam ilmiy monitoring qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tarasova N. V. (2025). The concept of communicative competence of teachers of higher education institutions. Proceedings of the Southwest State University. Series: Linguistics and Pedagogy, 15(2), 98–113.

2. Fonsén E., & Lahtero T. J. (2023). The theory of pedagogical leadership: Enhancing high-quality education. In R. Ahtiainen, E. Hanhimäki, J. Leinonen, M. Risku, & A.-S. Smeds-Nylund (Eds.), Leadership in educational contexts in Finland: Theoretical and empirical perspectives (pp. 159–177). Springer.

3. Pont B., Nusche D., & Moorman H. (2008). Improving school leadership, volume 1: Policy and practice. OECD Publishing.

4. UNESCO. (2024). Global education monitoring report 2024/5: Leadership in education – Lead for learning. UNESCO Publishing. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000391406_eng

5. Bush, T. (2024). School leadership and student outcomes: What do we know? Educational Management Administration & Leadership, 52(1), 3–5.

6. Ambon J., Alias B. S., & Mansor A. N. (2025). Crucial leadership competencies of school heads in effective school management: A comprehensive systematic review. Journal of Education and Learning (EduLearn), 19(3), 1216–1224.

7. Rivana A., Pao C., Zahir R., & Misransyah M. (2024). The role of school principals in promoting inclusive education. International Journal of Educational Narratives, 2(6), 515–524.

8. Djalilov K. (2024). PISA-2022 results: Implications for language and literature education in Uzbekistan. Science and Innovation, 3(9). https://www.scientists.uz/uploads/202409/B-1.pdf

9. Rhodes C., & Beneicke S. (2002). Coaching, mentoring and peer-networking: Challenges for the management of teacher professional development in schools. Journal of In-Service Education, 28(2), 297–310.

10. Gabriel F., Marrone R., Van Sebille Y., Kovanovic V., & de Laat M. (2022). Digital education strategies around the world: Practices and policies. Irish Educational Studies, 41(1), 85–106.

11. OECD. (2016). School leadership for developing professional learning communities (Teaching in Focus, No. 15). OECD Publishing.

12. World Bank. (2026, June 30). Uzbekistan to improve the quality of primary education for 2 million children and future jobs access with World Bank support.

Normurod BOYMURADOV,
Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, mustaqil izlanuvchi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV MODELI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi boshqaruv faoliyati zamonaviy ta’lim menejmenti nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruvning raqamlashtirilishi, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalashuvi hamda tashkilotlarning moliyaviy mustaqilligi ortib borayotgan sharoitda direktorlarning moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish, moliyaviy risklarni boshqarish hamda ichki nazorat tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, ta’lim menejmenti, direktor, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy boshqaruv, strategik boshqaruv, moliyaviy monitoring, budjet boshqaruvi, risklarni boshqarish, raqamli boshqaruv, ERP tizimi, KPI, ta’lim sifati, investitsion jozibadorlik, grant.

В статье научно-теоретически и практически исследована управленческая деятельность директоров дошкольных образовательных организаций в обеспечении финансовой устойчивости с точки зрения современного менеджмента образования. Обоснована необходимость развития компетенций директоров по финансовому управлению в условиях модернизации системы образования, цифровизации управления, диверсификации источников финансирования и повышения финансовой самостоятельности организаций. В исследовании проанализированы внутренние и внешние факторы, влияющие на финансовую устойчивость дошкольных образовательных организаций, освещены приоритетные направления эффективного управления финансовыми ресурсами, рационального использования бюджетных средств, привлечения внебюджетных средств, управления финансовыми рисками и совершенствования системы внутреннего контроля.

Ключевые слова. Дошкольное образование, менеджмент образования, директор, финансовая устойчивость, финансовое управление, стратегическое управление, финансовый мониторинг, управление бюджетом, управление рисками, цифровое управление, система ERP, KPI, качество образования, инвестиционная привлекательность, грант.

The article examines the managerial activities of preschool education directors in ensuring financial stability from the perspective of modern educational management from a scientific-theoretical and practical perspective. The necessity of developing the financial management competencies of directors in the context of modernizing the education system, digitalizing management, diversifying funding sources, and increasing the financial independence of organizations is substantiated. The study analyzes internal and external factors affecting the financial stability of preschool educational organizations, highlights priority areas for effective financial resource management, the rational use of budget funds, the attraction of extra-budgetary funds, financial risk management, and the improvement of the internal control system.

Key words. Preschool education, educational management, director, financial stability, financial management, strategic management, financial monitoring, budget management, risk management, digital management, ERP system, KPIs, quality of education, investment attractiveness, grant.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan ularning moliyaviy barqarorligiga bog‘liq. Moliyaviy barqarorlik nafaqat tashkilotning joriy faoliyatini uzluksiz amalga oshirish, balki ta’lim sifati, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, pedagoglarni rag‘batlantirish hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini ham belgilaydi.

Bugungi kunda direktor faoliyati faqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish bilan chegaralanmaydi. U moliyaviy menejer, strateg, risklarni boshqaruvchi va resurslarni samarali taqsimlovchi rahbar sifatida ham faoliyat yuritishi zarur.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida moliyalashtirish mexanizmlarining diversifikatsiya qilinishi, davlat-xususiy sheriklikning rivojlanishi, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi hamda tashkilotlarning moliyaviy mustaqilligining ortishi direktorlarning moliyaviy boshqaruv kompetensiyalariga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, kontent tahlili, SWOT tahlil, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, modellashtirish ilmiy metodlardan foydalaniladi.

Moliyaviy barqarorlik – tashkilotning mavjud moliyaviy resurslari hisobiga o‘z faoliyatini uzluksiz davom ettirish, rivojlantirish va tashqi iqtisodiy omillar ta’siriga bardosh bera olish qobiliyatidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari moliyaviy barqarorlik daromadlar barqarorligi, xarajatlarning oqilona boshqarilishi, likvidlik, investitsion salohiyat, moliyaviy xavfsizlik, risklarni boshqarish, shaffoflik, hisobdorlik kabi komponentlardan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida direktor quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi: strategik rejalashtirish, moliyaviy rejalashtirish, budjetni shakllantirish, xarajatlarni optimallashtirish, davlat mablag‘laridan samarali foydalanish, homiylik mablag‘larini jalb qilish, grantlarni boshqarish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish, moliyaviy monitoring, ichki auditni tashkil etish, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar:

Ichki omillar:

– direktorning moliyaviy savodxonligi;
– boshqaruv sifati;
– strategik rejalashtirish;
– resurslardan foydalanish samaradorligi;
– ichki nazorat;
– inson resurslarini boshqarish.

Tashqi omillar:

– davlat siyosati;
– inflyatsiya;
– iqtisodiy vaziyat;
– normativ-huquqiy baza;
– davlat subsidiyalari;
– xususiy sektor bilan hamkorlik.

Moliyaviy boshqaruv modeli 5 ta blokdan iborat.

1-blok. Strategik boshqaruv

Rivojlanish strategiyasi – bu tashkilot yoki tizimning uzoq muddatli raqobatbar-

doshligini, samaradorligini va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun maqsadlar, ustuvor yo‘nalishlar, resurslar va boshqaruv mexanizmlarini belgilovchi strategik boshqaruv hujjatidir.

Moliyaviy prognoz – bu tashkilotning kelajakdagi moliyaviy holati, daromadlari, xarajatlari, pul oqimlari va moliyaviy natijalarini iqtisodiy omillar, statistik ma’lumotlar hamda rivojlanish ssenariylari asosida oldindan baholash va rejalashtirish jarayonidir.

KPI tizimi – bu tashkilotning strategik maqsadlariga erishish darajasini baholash uchun asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash, o‘lchash, monitoring qilish va tahlil etishga asoslangan boshqaruv vositasidir. KPI strategik rejalashtirishni kundalik faoliyat bilan bog‘laydi va natijalarni obyektiv baholash imkonini beradi.

2-blok. Resurslarni boshqarish

Budjet – bu ma’lum bir davr uchun daromadlar va xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanishni nazorat qilishga xizmat qiluvchi moliyaviy boshqaruv hujjatidir.

Homiylik – bu jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan ijtimoiy, ta’limiy, madaniy, sport yoki boshqa foydali faoliyatni rivojlantirish maqsadida moliyaviy, moddiy yoki xizmat ko‘rinishida ixtiyoriy qo‘llab-quvvatlashni anglatadigan iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik shaklidir.

Grant – bu donor tashkilot tomonidan belgilangan maqsad va shartlar asosida ilmiy, ta’limiy, innovatsion yoki ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun qaytarib berish talabi qo‘yilmaydigan mablag‘ yoki boshqa resursdir.

Qo‘shimcha xizmat – bu tashkilotning asosiy faoliyatini to‘ldiruvchi, iste’molchilarning qo‘shimcha ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan hamda amaldagi qonunchilik va ichki tartiblar asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuasidir.

3-blok. Raqamli boshqaruv

ERP (Enterprise Resource Planning) – bu tashkilotning moliyaviy, moddiy, inson resurslari va boshqa biznes jarayonlarini yagona axborot platformasida rejalashtirish, boshqarish, integratsiyalash va nazorat qilishni ta’minlaydigan kompleks axborot tizimidir.

Elektron buxgalteriya – bu buxgalteriya hisobi, moliyaviy operatsiyalarni qayd etish, qayta ishlash, saqlash va hisobotlarni tayyorlash jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida avtomatlashtiruvchi raqamli hisob tizimidir.

BI Dashboard (Business Intelligence Dashboard) – bu turli axborot tizimlaridan olingan ma’lumotlarni integratsiyalash, tahlil qilish va ularni interaktiv grafik, diagramma hamda KPI ko‘rsatkichlari orqali vizuallashtirishga xizmat qiladigan boshqaruv vositasidir.

Sun’iy intellekt asosidagi prognozlash – bu mashinali o‘qitish, neyron tarmoqlar va boshqa sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda tarixiy va joriy ma’lumotlarni tahlil qilish hamda kelajakdagi holat yoki natijalarni yuqori aniqlik bilan bashorat qilishga qaratilgan intellektual tahlil usulidir.

4-blok. Monitoring

Moliyaviy indikatorlar – bu tashkilotning moliyaviy faoliyati natijalarini, resurslardan foydalanish samaradorligini, moliyaviy barqarorligini va rivojlanish dinamikasini baholash uchun qo‘llaniladigan miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimidir.

Ichki nazorat – bu tashkilotning strategik va operatsion maqsadlariga erishish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish uchun joriy etilgan boshqaruv

siyosati, tartib-taomillar va nazorat mexanizmlari tizimidir.

Risk monitoring – bu tashkilot faoliyatiga ta’sir etuvchi risklarni muntazam kuzatish, ularning darajasini baholash, o‘zgarishlarini tahlil qilish hamda xavflarni kamaytirish bo‘yicha boshqaruv choralarini o‘z vaqtida amalga oshirishga qaratilgan uzluksiz boshqaruv jarayonidir.

5-blok. Natijadorlik

Ta’lim sifati – bu ta’lim jarayoni, uning shart-sharoitlari, boshqaruvi va natijalari belgilangan standartlar hamda ta’lim oluvchilar, ota-onalar, jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlariga qanchalik mos kelishini ifodalovchi kompleks ko‘rsatkichdir.

Barqarorlik – bu tashkilot yoki tizimning ichki va tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlarga moslasha olishi, resurslardan samarali foydalanishi hamda uzoq muddat davomida o‘z maqsadlariga erishish qobiliyatini ifodalovchi kompleks xususiyatdir. (Moliyaviy, ijtimoiy, tashkiliy va ta’lim sifati barqarorligi)

Investitsion jozibadorlik – bu tashkilot yoki loyihaning moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari majmui asosida investor uchun mablag‘ kiritishning maqsadga muvofiqligi, xavfsizligi va kutilayotgan samaradorligini ifodalovchi kompleks bahodir.

Ota-onalar ishonchi – bu ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim sifati, boshqaruv samaradorligi, xavfsizlikni ta’minlash, shaffoflik va pedagogik faoliyatiga nisbatan shakllangan ijobiy ishonch va qoniqish darajasini ifodalovchi ijtimoiy ko‘rsatkichdir.

Moliyaviy barqarorlikni baholash indikatorlari

Ko‘rsatkich	***Mazmuni***
Budjet ijrosi	Reja va amaldagi xarajatlar farqi
Xarajatlar samaradorligi	1 nafar tarbiyalanuvchi uchun xarajat
Qo‘shimcha daromad ulushi	Budjetdan tashqari tushumlar
Likvidlik koeffitsienti	Joriy majburiyatlarni qoplash imkoniyati
Grantlar soni	Jalb etilgan loyiha mablag‘lari
Homiylik mablag‘lari	Xususiy sektor hissasi
Risklar soni	Aniqlangan moliyaviy xavflar
Audit natijalari	Moliyaviy intizom darajasi

Rivojlangan xorijiy davlatlardan Singapur maktabgacha ta’lim tizimini moliyaviy tomonini tahlil qilsak, shu ko‘rish mumkinki, Singapur dunyoda ta'lim sifati va samarali boshqaruv tizimi bilan ajralib turadigan davlatlardan biridir. Mamlakatning ta’lim sohasidagi muvaffaqiyati nafaqat zamonaviy pedagogik yondashuvlar, balki moliyaviy boshqaruvning samarali tashkil etilgani bilan ham izohlanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish hamda rahbarlarning moliyaviy kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Singapur ta'lim tizimining muhim xususiyatlaridan biri – ta’lim muassasalariga ma’lum darajada moliyaviy mustaqillik berilganidir. Davlat umumiy moliyalashtirish siyosatini belgilaydi, biroq muassasa rahbarlari ajratilgan mablag‘larni amaldagi me’yoriy hujjatlar doirasida o‘z ehtiyojlariga mos ravishda taqsimlash imkoniyatiga ega.

Bunday avtonom boshqaruv rahbarlarga ta’lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, pedagoglarni rag‘batlantirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, har

bir moliyaviy qaror shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Avtonom moliyaviy boshqaruv tizimi resurslardan oqilona foydalanishni kuchaytiradi, ortiqcha xarajatlarning oldini oladi hamda tashkilotning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Singapur ta'lim tizimida raqamli boshqaruv keng qo‘llaniladi. Xususan, ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari moliyaviy, ma’muriy va kadrlar bilan bog‘liq jarayonlarni yagona axborot platformasida boshqarishga xizmat qiladi.

ERP tizimi orqali:

• budjet rejalashtiriladi;

• xarajatlar real vaqt rejimida nazorat qilinadi;

• xaridlar elektron tarzda boshqariladi;

• ish haqi va moliyaviy hisobotlar avtomatlashtiriladi;

• direktor uchun tezkor tahliliy ma’lumotlar shakllantiriladi.

Natijada inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolar kamayadi, moliyaviy shaffoflik oshadi va boshqaruv qarorlari ishonchli ma’lumotlarga asoslanadi.

Bugungi kunda ERP tizimlari sun’iy intellekt, Business Intelligence (BI) Dashboard va elektron buxgalteriya tizimlari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritmoqda. Bu esa rahbarlarga moliyaviy holatni real vaqt rejimida kuzatish va xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Singapur ta'lim tizimining yana bir muhim jihati – natijaga asoslangan moliyalashtirish tamoyilidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, moliyaviy resurslar faqat sarflangan mablag‘ hajmiga emas, balki erishilgan natijalarga ham bog'liq ravishda rejalashtiriladi va baholanadi.

Baholashda quyidagi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega:

• ta'lim sifati;

• bolalarning rivojlanish natijalari;

• ota-onalar qoniqishi;

• pedagoglarning kasbiy rivojlanishi;

• moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi;

• innovatsion loyihalarni amalga oshirish natijalari.

Bunday tizim rahbarlarni mavjud mablag‘lardan maksimal samaradorlik bilan foydalanishga undaydi va moliyalashtirishni ta’lim natijalari bilan bog‘laydi.

Singapurda maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari lavozimga tayinlanishdan oldin va faoliyati davomida muntazam kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etadilar. Ushbu dasturlarda moliyaviy boshqaruv alohida yo‘nalish sifatida o‘rganiladi.

Rahbarlar quyidagi kompetensiyalarni egallaydi:

• strategik moliyaviy rejalashtirish;

• budjet tuzish va ijrosini nazorat qilish;

• moliyaviy risklarni boshqarish;

• davlat xaridlari va shartnomalar bilan ishlash;

• ichki nazorat va audit asoslari;

• KPI va moliyaviy indikatorlardan foydalanish;

• ERP va boshqa raqamli boshqaruv tizimlari bilan ishlash.

Malaka oshirish yakunida rahbarlarning bilim va ko‘nikmalari baholanadi hamda ular tegishli sertifikatlar bilan tasdiqlanadi. Bu esa rahbarlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, boshqaruv sifatini yaxshilash va ta’lim muassasalarining moliyaviy

barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining moliyaviy barqarorligi direktorning boshqaruv salohiyati bilan bevosita bog‘liq. Zamonaviy rahbar moliyaviy savodxon, strategik fikrlovchi, raqamli texnologiyalarni qo‘llay oladigan va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydigan menejer bo‘lishi zarur. Tadqiqot natijalari direktorlarning moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, xalqaro tajribaga tayanish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash orqali maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. Education at a Glance. Paris: OECD Publishing.
2. UNESCO. Global Education Monitoring Report.
3. World Bank. Education Finance Watch.
4. IFAC. International Public Sector Accounting Standards.
5. Drucker P. F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices.
6. Kaplan R. S., & Norton D. P. The Balanced Scorecard.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi.
9. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
10. Maktabgacha ta’lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar.

Ahmadjon BOLTAEV,
Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti, mustaqil izlanuvchi

TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LARNI JALB QILISH VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va ularni samarali boshqarishning nazariy, huquqiy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Byudjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish manbalari, ulardan samarali foydalanish mexanizmlari hamda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni boshqarishning huquqiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba hamda muallifning tizimli boshqaruv modeli taklif etilgan.

Tayanch so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, byudjetdan tashqari mablag‘lar, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy barqarorlik, davlat-xususiy sheriklik, grant, homiylik, qo‘shimcha ta’lim xizmatlari, ERP, KPI.

В статье исследованы теоретические, правовые и практические аспекты привлечения внебюджетных средств в дошкольных образовательных организациях и их эффективного управления. Проанализированы источники формирования внебюджетных средств, механизмы их эффективного использования и современные подходы к совершенствованию финансового управления. На основе действующих нормативно-правовых актов Республики Узбекистан освещены правовые основы управления внебюджетными средствами в дошкольных образовательных организациях. Также предложен международный опыт и авторская модель системного управления.

Ключевые слова. Дошкольное образование, внебюджетные средства, финансовое управление, финансовая устойчивость, государственно-частное партнерство, грант, спонсорство, дополнительные образовательные услуги, ERP, KPI.

The article examines the theoretical, legal, and practical aspects of attracting extra-budgetary funds in preschool educational organizations and their effective management. The sources of formation of extra-budgetary funds, mechanisms for their effective use, and modern approaches to improving financial management are analyzed. Based on the current regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan, the legal foundations for managing extra-budgetary funds in preschool educational organizations are highlighted. International experience and the author’s systemic management model are also proposed.

Key words. Preschool education, extra-budgetary funds, financial management, financial stability, public-private partnership, grant, sponsorship, additional educational services, ERP, KPIs.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Davlat tomonidan ajratilayotgan byudjet mablag‘lari bilan bir qatorda ta’lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish muhim vazifaga aylandi.

Byudjetdan tashqari mablag‘larni samarali boshqarish nafaqat moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, balki ta’lim sifati, pedagoglarni moddiy rag‘batlantirish, innovatsion dasturlarni joriy etish va tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va ularni samarali boshqarishning nazariy, huquqiy hamda amaliy jihatlari o‘rganishda quyidagi tadqiqot usullaridan usullardan foydalanildi: tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, iqtisodiy tahlil, statistik tahlil, xalqaro tajribani taqqoslash, SWOT tahlil, induksiya va deduksiya, mualliflik modellashtirish.

O‘zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari mablag‘larni boshqarishning huquqiy asoslari:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va ulardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida

har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi kafolatlangan bo‘lib, davlat ta’lim tizimini rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratadi deb belgilab qo‘yilgan. Bu norma ta’lim tashkilotlarining barqaror moliyaviy faoliyati uchun umumiy konstitutsiyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi deb belgilab qo‘yilgan.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida ta’lim tashkilotlariga qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mablag‘ jalb qilish huquqi berilgan. Shuningdek: qo‘shimcha ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, yuridik va jismoniy shaxslar homiylik mablag‘larini qabul qilish, grantlar va xalqaro loyihalarda ishtirok etish, davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritish kabi imkoniyatlar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi davlat muassasalarining byudjetdan tashqari mablag‘larini shakllantirish, hisobini yuritish, maqsadli sarflash va hisobdorlik tartibini belgilaydi. Kodeksda quyidagi prinsiplar ustuvor hisoblanadi:

– qonuniylik;
– maqsadlilik;
– samaradorlik;
– ochiqlik;
– hisobdorlik.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkilotlari:

– qo‘shimcha ta’lim xizmatlari ko‘rsatishi;
– investitsiyalar jalb qilishi;
– davlat-xususiy sheriklik asosida ishlashi;
– homiylik va xayriya mablag‘laridan foydalanishi mumkin.

Bu esa moliyaviy mustaqillikni ta’minlashning huquqiy asosini yaratadi.

Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari qo‘llanilishi xususiy investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani yaxshilash va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Byudjetdan tashqari mablag‘larning asosiy manbalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

– ota-onalar to‘lovlari;
– qo‘shimcha ta’lim xizmatlari;
– chet tillari, robototexnika, STeM va IT to‘garaklari;
– logoped va psixolog xizmatlari;
– qisqa muddatli tayyorlov kurslari;
– homiylik mablag‘lari;
– xayriya mablag‘lari;
– xalqaro grantlar;
– davlat grantlari;

– mahalliy grantlar;
– davlat-xususiy sheriklik loyihalari;
– binolar va jihozlarni ijaraga berishdan tushgan daromadlar (qonunchilikda belgilangan tartibda);
– innovatsion ta'lim loyihalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishda bir qator muammolar mavjud:
– byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish bo'yicha yagona strategiyaning yo'qligi;
– direktorlarning moliyaviy menejment bo'yicha kompetensiyasi yetarli emasligi;
– grant yozish ko'nikmalarining pastligi;
– homiylar bilan ishlash mexanizmlarining tizimlashmaganligi;
– ichki auditning zaifligi;
– moliyaviy risklarni baholash tizimining mavjud emasligi;
– raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarining cheklanganligi.

Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, Singapurda ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqillik tamoyili asosida faoliyat yuritadi. ERP tizimlari, KPI monitoringi va natijaga asoslangan moliyalashtirish (Performane-Based Budgeting) keng qo'llaniladi.

Finlyandiyada munitsipal moliyalashtirish, davlat grantlari va mahalliy hamkorlik orqali byudjetdan tashqari mablag'lar jalb qilinadi. Har bir xarajat ta'lim natijalari bilan bog'liq indikatorlar orqali baholanadi.

Janubiy Koreyada elektron moliyaviy platformalar, raqamli audit va real vaqt rejimidagi monitoring orqali mablag'lar shaffof boshqariladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mavjud holatni tahlil qilish, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish natijasida byudjetdan tashqari mablag'larni samarali boshqarish uchun quyidagi integratsiyalashgan mexanizmni taklif etimiz:

1-bosqich – Strategik rejalashtirish:
– ehtiyojlarni tahlil qilish;
– moliyaviy maqsadlarni belgilash;
– mablag' jalb qilish rejasini ishlab chiqish.

2-bosqich – Mablag'larni jalb qilish:
– grantlar;
– homiylik;
– davlat-xususiy sheriklik;
– qo'shimcha ta'lim xizmatlari;
– innovatsion loyihalar.

3-bosqich – Samarali boshqarish:
– ERP tizimlari;
– elektron buxgalteriya;
– BI Dashboard;
– KPI monitoringi;
– risk monitoringi.

4-bosqich – Nazorat va baholash:
– ichki audit;
– tashqi audit;
– moliyaviy hisobotlarning ochiqligi;
– jamoatchilik nazorati.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish hamda davlat byudjetiga qaramlik darajasini kamaytirish byudjetdan tashqari mablag‘larni samarali boshqarish tizimini shakllantirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, byudjetdan tashqari mablag‘larni boshqarish jarayonini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan to‘rt bosqichdan iborat integratsiyalashgan mexanizm asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Strategik rejalashtirish bosqichi. Integratsiyalashgan mexanizmning birinchi bosqichi strategik rejalashtirish bo‘lib, u butun moliyaviy boshqaruv tizimining poydevorini tashkil etadi. Ushbu bosqichda tashkilotning mavjud moliyaviy holati, resurs imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari kompleks tahlil qilinadi.

Avvalo, tashkilotning ehtiyojlari aniqlanadi. Bunda moddiy-texnika bazasini yangilash, ta’lim muhitini zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, pedagog xodimlarni rag‘batlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, inklyuziv ta’lim uchun sharoit yaratish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilanadi. Ehtiyojlarni baholash SWOT-tahlil, PeST-tahlil va manfaatdor tomonlar fikrini o‘rganish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Keyingi bosqichda tashkilotning qisqa, o‘rta va uzoq muddatli moliyaviy maqsadlari belgilanadi. Masalan, bir yil ichida byudjetdan tashqari mablag‘lar ulushini ma’lum foizga oshirish, qo‘shimcha xizmatlardan tushadigan daromadni ko‘paytirish yoki xalqaro grantlarni jalb qilish kabi aniq maqsadlar belgilanadi.

Shundan so‘ng mablag‘ jalb qilish strategiyasi ishlab chiqiladi. Unda mablag‘ manbalari diversifikatsiya qilinadi, har bir manba bo‘yicha aniq vazifalar, mas’ul shaxslar, amalga oshirish muddatlari va kutilayotgan natijalar belgilanadi. Bu yondashuv mablag‘ jalb qilish ishlarini tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

Byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish bosqichi. Ikkinchi bosqich tashkilotning moliyaviy resurslarini kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, mablag‘larning turli manbalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Zamonaviy ta’lim menejmenti nuqtai nazaridan mablag‘larni diversifikatsiya qilish moliyaviy barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Birinchidan, xalqaro va milliy grantlar muhim manba hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari UNIeF, UNeSO, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, yevropa Ittifoqi hamda milliy grant tanlovlarida ishtirok etish orqali innovatsion loyihalar uchun mablag‘ jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun grant yozish bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, homiylik mablag‘lari jalb qilinadi. Mahalliy tadbirkorlar, yirik korxonalar, banklar, nodavlat notijorat tashkilotlari va xayriya jamg‘armalari bilan hamkorlik qilish orqali moddiy yordam, jihozlar va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish mumkin.

Uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari qo‘llaniladi. Bu mexanizm xususiy investorlarni maktabgacha ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish, yangi xizmat turlarini tashkil etish va innovatsion dasturlarni amalga oshirishga jalb qilish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, tashkilot qonunchilikda belgilangan tartibda qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yishi mumkin. Masalan, chet tillari, robototexnika, STeM, shaxmat, musiqa, tasviriy san’at, logoped va psixolog xizmatlari, qisqa muddatli tayyorlov kurslari tashkil etilishi mumkin. Bu xizmatlar orqali qo‘shimcha daromad manbai shakllanadi.

Beshinchidan, innovatsion ta’lim loyihalari amalga oshiriladi. Raqamli ta’lim platformalari, elektron o‘quv resurslari, ilmiy-amaliy markazlar bilan hamkorlik qilish ham

mablag‘ jalb qilishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Byudjetdan tashqari mablag‘larni samarali boshqarish. Mablag‘larni jalb qilishning o‘zi yetarli emas. Ularning maqsadli, shaffof va samarali boshqarilishi yuqori iqtisodiy natijalarni ta’minlaydi.

Bu bosqichda birinchi navbatda ERP (Enterprise Resoure Planning) tizimlari joriy etiladi. ERP tizimi mablag‘larning kirimi va chiqimini, shartnomalarni, ombor hisobini, kadrlar va buxgalteriya ma’lumotlarini yagona elektron platformada boshqarish imkonini beradi. Bu inson omili ta’sirini kamaytiradi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

Elektron buxgalteriya tizimi orqali moliyaviy operatsiyalar avtomatlashtiriladi, buxgalteriya hisoboti, soliq va moliyaviy hisobotlar o‘z vaqtida tayyorlanadi hamda mablag‘lar harakati doimiy nazorat qilinadi.

BI Dashboard (Business Intelligene Dashboard) rahbar uchun analitik boshqaruv vositasi sifatida xizmat qiladi. Unda byudjetdan tashqari mablag‘lar tushumi, xarajatlar tarkibi, reja va amaldagi ko‘rsatkichlar, daromad manbalari hamda KPI ko‘rsatkichlari real vaqt rejimida aks ettiriladi. Bu rahbarga tezkor va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

KPI (Key Performane Indiators) monitoringi orqali mablag‘lardan foydalanish samaradorligi baholanadi. Masalan, jalb qilingan grantlar soni, homiylik mablag‘lari hajmi, qo‘shimcha xizmatlardan tushgan daromad, mablag‘lardan maqsadli foydalanish darajasi va xarajatlarni tejash ko‘rsatkichlari muntazam tahlil qilinadi.

Shuningdek, risk monitoringi tashkil etiladi. Bu jarayonda moliyaviy xavflar, mablag‘lar yetishmovchiligi, daromad manbalari kamayishi, inflyasiya, korrupsiya xavfi yoki mablag‘lardan maqsadsiz foydalanish ehtimoli oldindan baholanadi va ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi.

Nazorat va baholash. Integratsiyalashgan mexanizmning yakuniy bosqichi nazorat va baholash hisoblanadi. Bu bosqichda mablag‘lardan foydalanishning qonuniyligi, samaradorligi va shaffofligi ta’minlanadi.

Avvalo, ichki audit tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Ichki audit mablag‘larning maqsadli sarflanishi, moliyaviy intizomga rioya qilinishi, hisobotlarning ishonchliligi va ichki nazorat tizimining samaradorligini baholaydi. Ichki audit natijalari rahbariyatga boshqaruv qarorlarini takomillashtirish uchun asos bo‘ladi.

Tashqi audit esa mustaqil auditorlar yoki vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilib, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini baholaydi. Bu tashkilotning ishonchliligini oshiradi va investorlar hamda homiylar ishonchini mustahkamlaydi.

Moliyaviy hisobotlarning ochiqligi ham muhim tamoyil hisoblanadi. Byudjetdan tashqari mablag‘larning tushumi va sarflanishi haqidagi ma’lumotlarni rasmiy veb-saytlar, elektron platformalar yoki ommaviy hisobotlar orqali e’lon qilish shaffoflikni ta’minlaydi hamda korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Nihoyat, jamoatchilik nazorati mexanizmlari qo‘llaniladi. Bunda kuzatuv kengashlari, ota-onalar qo‘mitalari, mahalla faollari va fuqarolik jamiyati institutlari mablag‘lardan foydalanish jarayonini kuzatishda ishtirok etadi. Bu esa tashkilotning hisobdorligi va ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari tashqari mablag‘larni jalb qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Byudjetdan tashqari mablag‘larni boshqar-

ish strategiyasi”ni ishlab chiqish.

Direktorlar uchun moliyaviy menejment va grant menejmenti bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

Barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ERP va elektron buxgalteriya tizimlarini joriy etish.

Byudjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish samaradorligini baholash uchun KPI tizimini ishlab chiqish.

Har bir tashkilotda ichki moliyaviy nazorat va risklarni boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Xalqaro tashkilotlar, mahalliy biznes va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha elektron ochiq hisobot platformasini joriy qilish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va samarali boshqarish ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi hamda raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi mazkur yo‘nalishda keng huquqiy imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, ulardan samarali foydalanish uchun tizimli boshqaruv yondashuvini shakllantirish talab etiladi. Taklif etilgan integratsiyalashgan model strategik rejalashtirish, mablag‘larni diversifikatsiya qilish, raqamli moliyaviy boshqaruv, KPI asosida baholash va shaffof nazorat mexanizmlarini o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirishga asoslangan. Bu yondashuv maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid Farmon va qarorlari.
7. OECD. Education at a Glance.
8. UNESCO. Global Education Monitoring Report.
9. World Bank. Public Financial Management in Education.
10. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard.
11. Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices.

Nazokat DUSHAYEVA,
Toshkent viloyati Pedagogik mahorat Markaz,i katta o‘qituvchi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK ETIKANI SHAKILLANTIRISH VOSITALARI VA SHARTLARI

Annotatsiya

Maqolada maktab o‘qituvchilari o‘rtasida etik standartlarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy strategiyalar va shartlar haqida so‘z boradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida etik xulq-atvorning ahamiyati va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitining ta’sirini ta’kidlaydi. Shuningdek, o‘quv dasturiga va o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga samarali integratsiya qilinishi mumkinligi haqida tushunchalar beriladi.

Tayanch so‘zlar. Pedagogik etika, maktab, o‘qituvchilar, xulq-atvor, ta’lim-tarbiya jarayoni, vositalar, professional rivojlanish.

В данной статье рассматриваются основные стратегии и условия, необходимые для развития этических стандартов среди школьных учителей. Подчеркивается важность этичного поведения в образовательном процессе и влияние поддерживающей образовательной среды. Также представлены идеи о том, как можно эффективно интегрировать этику в учебную программу и профессиональное развитие учителей.

Ключевые слова. Педагогическая этика, школа, учителя, поведение, образовательный процесс, инструменты, профессиональное развитие

This article discusses the essential strategies and conditions necessary for developing ethical standards among school teachers. It emphasizes the importance of ethical behavior in the educational process and the influence of a supportive educational environment. Additionally, it provides insights into how ethics can be effectively integrated into the curriculum and the professional development of teachers.

Key words. Pedagogical ethics, school teachers, behavior, educational process, tools, professional development

Hozirgi paytda barcha ta’lim tizimi oldida ta’lim oluvchilarga pedagogik etikani shakillantirish vositalari va shartlari ta’lim-tarbiya berishda yuqori malakali va chuqur bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar yetkazib berish dolzarb masala bo‘lib turibdi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish ham muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik etika, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar va prinsiplar to‘plamidir. Turli o‘qituvchilar uchun axloqiy faoliyatni shakllantirish shartlari va vositalari har xil. Biz etika va estetika kabi fanlarning imkoniyatlari va umumiy ta’lim fanlarining imkoniyatlarini alohida ta’kidlaymiz. P.Ya. Galperin, V.S. Ilinning ta’kidlashicha, inson axborot, aloqa, o‘qitish, operatsion lahzalar orqali shakllanadi. Maqsadlarni belgilash hali harakat qilish uchun yetarli asos bermaydi, lekin u mumkin bo‘lgan pedagogik vositalar sohasini belgilaydi. Dialektik mantiq kategoriyalar, maqsadlar va vositalarni ajralmas birlikda ko‘rib chiqishni talab qiladi. Maqsadning tasvir sifatida paydo bo‘lishi motivni belgilaydi, u maqsadni amalga oshirishga, o‘tmish, hozirgi va kelajak o‘rtasidagi bog‘liqlikka qaratilgan. Ulanishning o‘zi kelajakka hozirgi

va hatto o‘tmishga ta’sir qilish imkonini beradi – ham jismoniy ma’noda, ham psixologik ma’noda. Shuning uchun, hozirgi kunni shakllantirish orqali biz kelajakni quramiz.

Pedagogik vositalarni ko‘rib chiqaylik, ulardan foydalanish o‘qituvchiga pedagogik etikani shakllantirish maqsadlariga erishishga yordam beradi. Birinchi bobda pedagogik vositalarning imkoniyatlari va pedagogik etikani shakllantirish shartlari aniqlandi. Endi ularni pedagogik jarayonda amalga oshirish shartlarini aniqlash kerak.

O‘quv jarayonining asosiy yo‘nalishini belgilaydigan umumiy maqsadlarni butun jamoa va ularni darsning shaxsiy maqsadlarida o‘zida mujassam etgan har bir o‘qituvchi hal qiladi. Dars tuzilishining har bir elementi va umuman dars axloqiy tushunchalar va harakatlarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Imkoniyatlarning haqiqatga o‘tishi – rag‘batlantiruvchi va shakllantiruvchi funksiyalarni amalga oshirish u yoki bu vositalar rivojlanayotgan ta’sirga ega bo‘lishiga olib keladi. Ayniqsa, zamonaviy hayotda pedagogiketikani shakllantirishning ajralmas qismi bo‘lgan muloqot muhim ahamiyatga ega. U turli sohalarda muhim rol o‘ynaydi: menejment, ijtimoiy va yosh psixologiyasi, ta’lim nazariyasi va boshqalar. Muloqot o‘qituvchilar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi: insonning har qanday faoliyati u yoki bu tarzda muloqotga asoslangan.

Talabalar o‘quv faoliyati davomida ham, yotoqxonada ham, bo‘sh vaqtlarida ham bir-birlari bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadilar. Muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun muloqotning barcha uch tomoni o‘zini namoyon qilishi kerak: informatsion (axborotni uzatish va saqlash), interaktiv (birgalikdagi faoliyatda o‘zaro ta’sirni tashkil etish) va perseptiv (shaxsni shaxs tomonidan idrok etish va tushunish). Har bir insonning individual yashash usuli va muloqot usuli bor, shuning uchun u insonning individualligining yetti sohasi asosida shakllanishi kerak. Agar etika, estetika, pedagogika, psixologiya kabi o‘quv fanlarining mazmuni bevosita axloqiy tushunchalarni shakllantirsa, matematika, kimyo, fizika va boshqalar kabi fanlar bilvosita pedagogik etikani shakllantiradi. Umumiy, oraliq va aniq maqsadlarni shakllantirish uchun keling, individuallik pedagogikasining asosiy yo‘nalishlariga, boshqa sohalarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi pedagogik etikani rag‘batlantirishga murojaat qilaylik. Xususiy maqsadlarga erishish vositalarini ko‘rib chiqamiz:

a) tarkib (tushunchalar tizimi);

b) o‘qitish usullari va shakllari;

c) o‘qituvchi va jamoaning shaxsiyati.

Etika, estetika fanlariga ko‘ra axloqiy tushunchalar tizimini ajratib olish mumkin: axloq, shaxsning sha’ni va qadr-qimmati, vijdon va burch axloqning imperativ mexanizmi, yaxshilik va yomonlik axloqning umumiy mezoni, odob-axloq, xulq-atvor madaniyatining tashqi shakllari, o‘z-o‘zini bilim va o‘z-o‘zini tarbiyalash shaxsning axloqiy madaniyatini shakllantirishning zaruriy shartidir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bir xil vosita turli yo‘llar bilan rag‘batlantirishi mumkin. O‘quv materialining mazmuni, qoida tariqasida, turli materiallarda bir xil maqsadlarga va bir xil materialda turli maqsadlarga erishishga imkon beradi. Masalan, “Yaxshilik va yomonlik – axloqning umumiy mezoni” mavzusidagi darsda o‘rganilayotgan materialning mazmuni maqsadlarni belgilashga imkon beradi: axloqiy, halol harakat qilish istagini shakllantirish. Xuddi shu tarkib sizga boshqa maqsadlarni qo‘yishga imkon beradi: harakat etikasi, kelajakdagi kasb uchun bilimning ahamiyati to‘g‘risida bilim olish istagini uyg‘otish, kasbingizga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish. Etika va estetika darslarida o‘qituvchilar tarkibning yangiligini, allaqachon olingan bilimlarning yangilanishini, ularni chuqurlashtirishni, bilimlar mazmuni va bajarilgan faoliyatning amaliy va ilmiy ahamiyatini ochib berishni namoyish

etadilar. Ushbu texnikalar guruhining mohiyati talabalarda yangi taassurot yaratish, hayratga solish, ularni fikrlarga, mulohazalarga olib borishdir. Bunday holda, talabalar idrok etilgan bilimlar va o‘zlarining yomon hayotiy tajribalari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarga duch kelishadi. Bularning barchasi ularni fikrlashga undaydi, darsning axloqiy tomoniga qiziqish uyg‘otadi.

Pedagogik etika – bu ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy me’yorlar va tamoyillardan iboratdir. U o‘qituvchining professional faoliyatini, o‘quvchilarning huquqlarini va majburiyatlarini, shuningdek, ta’lim muassasasining ijtimoiy mas’uliyatini o‘z ichiga oladi. Pedagogik etikaning asosiy maqsadi – ta’lim jarayonida ijtimoiy adolatni, tenglikni va hurmatni ta’minlashdir.

Pedagogik etikaning asosiy tamoyillarida bizi bu hurmat va e’tibor. O‘qituvchi o‘quvchilarga hurmat ko‘rsatishi va ularning fikrlarini e’tiborga olishi zarur. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarda o‘zini hurmat qilish hissini rivojlantiradi.

Ikkinchi tamoyili – adolat. Ta’lim jarayonida har bir o‘quvchiga teng imkoniyatlar yaratish kerak. O‘qituvchi har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olishi lozim.

Uchinchi tamoyili – mas’uliyat. O‘qituvchilar o‘z vazifalarini bajarishda mas’uliyatli bo‘lishlari kerak. Ular o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonida yordam berishlari va ularni qo‘llab-quvvatlashlari zarur.

To‘rtinchi tamoyili- samimiylik. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarda samimiylik muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘z navbatida, ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

To‘rtinchi tamoyili – ochiqlik. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ochiq muloqot bo‘lishi kerak. Bu, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini yaratadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik etikaning shakllanishi uchun bir qator vositalar mavjud:

Ta’lim dasturlari va rejalari pedagogik etika tamoyillarini aks ettirishi kerak. Ular orqali o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini rejalashtirishda axloqiy me’yorlarni hisobga olishi mumkin.

O‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik etika bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilishi zarur. Bu kurslar o‘qituvchilarga axloqiy me’yorlar va prinsiplarni tushunishga yordam beradi.

Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy tadbirlar (seminarlar, treninglar, davra suhbatlari) tashkil etish orqali pedagogik etika masalalari muhokama qilinishi mumkin. Bu tadbirlar o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik pedagogik etikaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar bilan muloqot orqali ularning fikrlarini inobatga olish va birgalikda ish olib borish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogik etika masalalarini keng jamoatchilikka yetkazishga yordam beradi. Internet orqali axloqiy qadriyatlar haqida ma’lumotlar tarqatish mumkin.

Ta’lim jarayonida pedagogik etika tamoyillarining amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish zarur. Bu, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning faoliyatini baholashda yordam beradi. Shunday qilib, maktab va huquqshunoslik bo‘limlarida o‘quv materialining kasbiy yo‘nalishi bilan bog‘liq uslub qo‘llaniladi: bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rganilayotgan axloqiy tushunchalarning aloqasi ifodalangan savollar taklif eti-

ladi. “Zamonaviy odob-axloq qoidalarining asosiy me’yorlari va qoidalari” mavzusidagi o‘quv materiali qanday o‘rganilishini ko‘rsatamiz. O‘qituvchi eksperimental vazifani taklif qiladi: har qanday axloqiy me’yorlar, faoliyat qoidalari nimaga asoslanganligini bilib olish kerak. Talabalar birinchi navbatda me’yorni aniqlaydilar, keyin nima uchun bu kundalik hayotga kiritilganligini bilib olishadi (masalan, yigit qizni qayergacha kuzatib borishi kerak?). Natijada, biz to‘g‘ri xulosaga keldik – barcha axloqiy qoidalarning asosi nafaqat ma’lumotli, balki aqlli odamlar uchun ham mo‘ljallangan sodda va tushunarli mulohazakorlikdir.

Ijtimoiy fanlar darslarining ikkinchi bosqichida – bilimlarni qo‘llash, yangi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish – axloqiy grammatika bilimlari keng qo‘llaniladi. Mavzu bo‘yicha o‘quv materiali qanday o‘rganilishini ko‘rsatamiz: “Zamonaviylikning global muammolari”. O‘qituvchi darsni omon qolish etikasi bo‘yicha haqiqiy asosiy bilimlar bilan boshladi. Aksariyat talabalar xulq-atvor me’yorlarini bilish jamiyat axloqini yaxshilash uchun talab qilinadi va o‘qituvchi inson tabiatning mavjudoti ekanligiga olib keladi, u holda u qanday qilib omon qolishi mumkin. Talabalar o‘ylashdi. Ular ilgari ekologiya haqida bilishgan, ammo uni omon qolish etikasi bilan qanday bog‘lash mumkin? Birgalikdagi ish natijasida biz hozirgi ekologik vaziyat axloqiy g‘oyalarning tiklanishiga turtki bo‘ldi, degan xulosaga keldik, unga ko‘ra, axloq nafaqat insonning insonga, balki insonning barcha tirik mavjudotlarga bo‘lgan munosabatida ham o‘z mazmuniga ega bo‘ladi.Shunday qilib, maktab va huquqshunoslik bo‘limlarida o‘quv materialining kasbiy yo‘nalishi bilan bog‘liq uslub qo‘llaniladi: bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rganilayotgan axloqiy tushunchalarning aloqasi ifodalangan savollar taklif etiladi. “Zamonaviy odob-axloq qoidalarining asosiy me’yorlari va qoidalari” mavzusidagi o‘quv materiali qanday o‘rganilishini ko‘rsatamiz. O‘qituvchi eksperimental vazifani taklif qiladi: har qanday axloqiy me’yorlar, faoliyat qoidalari nimaga asoslanganligini bilib olish kerak. Talabalar birinchi navbatda me’yorni aniqlaydilar, keyin nima uchun bu kundalik hayotga kiritilganligini bilib olishadi (masalan, yigit qizni qayergacha kuzatib borishi kerak?). Natijada, biz to‘g‘ri xulosaga keldik – barcha axloqiy qoidalarning asosi nafaqat ma’lumotli, balki aqlli odamlar uchun ham mo‘ljallangan sodda va tushunarli mulohazakorlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ильин В.С. Проблемы воспитания потребности в знании у школьников. - Ростов-на-Дону, 2010.- 224с.

2. Гальперин П.Я. Актуальние проблеми возрастной психологии. – М., 2008. - 120 с.

3. Asadov A. (2020). ‘‘Pedagogik etika: nazariya va amaliyot’’. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

4. Jalilov, Sh. (2019). ‘‘Ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish’’. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

5. Mamatov, B. (2021). ‘‘O‘qituvchining professional axloqi va pedagogik etika’’. –Toshkent: Fan va texnologiya.

6. Rahimov D. (2018). ‘‘Pedagogik etika va o‘qituvchining ijtimoiy mas’uliyati’’. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim muassasalari.

7. Saidov R. (2022). ‘‘Ta’lim muassasalarida ijtimoiy adolat va tenglik’’. –Toshkent: O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi.

Xurshida TOSHTURDIEVA,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti, tyutor

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARINI DEONTOLOGIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI

Annotatsiya

Maqolada kompetensiyaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida deontologik kompetensiyalarni shakllantirish modeli nazariy jihatdan asoslangan. Deontologik kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda kasbiy faoliyatdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy burch, pedagogik etika, mas’uliyat, muloqot madaniyati va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan modelning maqsadli, mazmuniy, texnologik va baholash komponentlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv asosida deontologik kompetensiyalarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar. Kompetensiyaviy ta’lim, deontologik kompetensiya, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik deontologiya, pedagogik etika, kasbiy burch, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik model, axloqiy qadriyatlar, kasbiy mas’uliyat, pedagogik faoliyat.

В данной статье теоретически обоснована модель формирования деонтологических компетенций у будущих учителей начальных классов в условиях компетентностного образования. Проанализированы сущность и содержание деонтологической компетенции, её структурные компоненты и значение в профессиональной педагогической деятельности. Особое внимание уделено целевому, содержательному, технологическому и оценочному компонентам модели, направленной на развитие профессионального долга, педагогической этики, ответственности, культуры общения и нравственных ценностей будущих педагогов. Результаты исследования способствуют повышению эффективности формирования деонтологических компетенций на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова. компетентностное образование, деонтологическая компетенция, будущий учитель начальных классов, профессиональная подготовка, педагогическая деонтология, педагогическая этика, профессиональный долг, компетентностный подход, педагогическая модель, нравственные ценности, профессиональная ответственность, педагогическая деятельность.

This article substantiates the model for developing deontological competencies in future primary school teachers within the framework of competency-based education. The essence and significance of deontological competence, its structural components, and its role in professional pedagogical activity are analyzed. The study highlights the target, content, technological, and assessment components of the proposed model aimed at fostering professional duty, pedagogical ethics, responsibility, communication culture, and moral values among future teachers. The findings contribute to improving the effectiveness of deontological competence formation based on the competency-based approach.

Key words. Competency-based education, deontological competence, future primary school teacher, professional training, pedagogical deontology, pedagogical ethics, professional duty, competency-based approach, pedagogical model, moral values, professional responsibility, pedagogical activity.

Kasbiy ta’lim kompetensiya yondashuvi nuqtai nazaridan, birinchi navbatda, universitetlarda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni, ularning shakllangan kompetensiyalarni amalda qo‘llashga tayyorligi va qobiliyatini nazarda tutadi. Ta’limning ushbu yo‘nalishi mutaxassisning kasbiy fazilatlarini tayyorlash dara-

jasiga yangi talablarni qo‘yadi.

Umuman olganda, lug‘atlarda “kompetensiya” tushunchasi “biror narsani hukm qilishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish”, “xabardorlik”, “hokimiyat, to‘liqlik” deb talqin etiladi . Deyarli barcha lug‘atlar “kompetensiya” va “kompetentlik” toifalarini ajratib ko‘rsatishadi. Kompetentlik ta’riflari o‘xshash va bir-birini takrorlaydi, shu bilan birga “kompetensiya”ning yagona talqini mavjud emas.

Ushbu tushuncha “har qanday tashkilot yoki mansabdor shaxsning qonunda, ushbu tashkilotning ustavida yoki boshqa qoidalarda belgilangan vakolatlari (huquqlari va majburiyatlari) to‘plami”, “biror narsani hukm qilishga imkon beradigan bilimlarga ega bo‘lish”, “kimdir yaxshi biladigan masalalar sohasi” degan mahnolarni anglatadi.

Kompetensiyaning “ma’lum bir shaxs vakolat, bilim, tajribaga ega bo‘lgan masalalar, hodisalar doirasi; kimningdir yurisdiksiyasiga bo‘ysunadigan vakolatlar doirasi, masalalar, hodisalar”, “shaxsning shaxsiy imkoniyatlari, uning malakasi (bilimi, tajribasi) kabi ta’riflarini topish mumkin.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ilmiy adabiyotlarda kompetensiya va kompetentlik atamalarining ko‘plab talqinlari mavjud. Zamonaviy pedagogikada “kompetensiya” va “kompetentlik” rasman ajratilmagan. Kompetensiya atamasi ko‘pincha mutaxassisning faoliyat sohasi chegaralarini aniqlash uchun, kompetentlik esa uning faoliyati sifatini baholash uchun ishlatiladi.

Faoliyat yondashuvi nuqtayi nazaridan kompetentlik tushunchasi mohiyatining kasbiy faoliyat turiga bog‘liqligi muhimdir. A.A. Derkach, V.P. Jukovskiy, ye.F. Zeer, N.V. Kuzmina va h.k. olimlarning ishlarida kompetentlikning turli ta’riflari berilgan. Ushbu ta’riflarning bir-birini to‘ldirishini hisobga olgan holda, ushbu omilning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Kompetentlik – bu kognitiv, ifodali va interaktiv komponentlarga ega bo‘lgan ko‘p bosqichli ta’lim. Bu mutaxassisning ichki psixologik tarkibiy qismlari va shaxsiy xususiyatlarining, shu jumladan, bilim va ko‘nikmalarning murakkab birlashtirilgan tizimi. Shaxsiyatning chuqur xususiyatlari – muloqotga bo‘lgan ehtiyoj, o‘ziga ishonch va o‘z-o‘zini hurmat qilish bilan ham bog‘liqlik bor.

Kompetentlik shaxsning hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalarga muvofiqligi, hal qilingan vazifalar soni va sifati, muammoli vaziyatlarda samaradorlik va muvaffaqiyat kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Bunga ta’sirning aniq usullarini qo‘llash oqibatlari va ularning samaradorligi haqidagi bilimlar ham kiradi. Kompetentlik ham o‘z funksiyalariga ega: kognitiv, tartibga solish, nazorat qilish va baholash funksiyasi, o‘z-o‘zini baholash.

Kompetentlikni “inson faoliyatining ayrim turlarida bilim bilan ishlash qobiliyati, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari” deb tushunadi . Uning fikricha, kompetensiyalar mutaxassisning imkoniyatlarini va ushbu imkoniyatlarni kasbiy faoliyatda amalga oshirish shartlarini bog‘laydi. Kompetensiya, shuningdek, shaxsiy, kasbiy va h.k.larga rasmiy ravishda tavsiflangan talablar sifatida tushuniladi. Ushbu tushunchada xodimlarni baholashda kompetensiyalardan foydalaniladi. Muayyan fan sohasida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar to‘plami, bilim va tajribaning mavjudligi kompetentlik deb ataladi.

Kompetentlik atamasining yetarlicha to‘liq talqini “Umumiy ta’limni modernizatsiya qilish strategiyasi”da keltirilgan. Mualliflarning ta’kidlashicha, bu tushuncha bilim, mahorat yoki qobiliyat tushunchalaridan kengroq bo‘lib, boshqa semantik tushunchalarni ham bildiradi. U nafaqat kognitiv va operatsion-texnologik komponentlarni, balki

motivatsion, axloqiy, ijtimoiy va xulq-atvorni ham o‘z ichiga oladi.

Kompetentlikning ushbu talqinini asos qilib olgan olimlar kompetentlikning quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlaydi:

a) kompetentlikning namoyon bo‘lishiga tayyorlik (ya’ni uning motivatsion jihati), bu yerda tayyorlik sub’ektiv kuchlarni safarbar qilish sifatida qaraladi;

b) kompetentlik mazmunini bilish (ya’ni kognitiv jihat);

c) turli xil standart va nostandart vaziyatlarda kompetentlik tajribasi (ya’ni xulq-atvor jihati);

d) kompetentlik mazmuniga uni qo‘llash ob’ektiga munosabat (motivatsion sifatida ishlaydigan qiymat-semantik jihat);

ye) jarayonni hissiy-ixtiyoriy tartibga solish va kompetentlikning namoyon bo‘lishi natijasi .

Kompetensiya kompetentlik kabi, samarali, amaliyotga yo‘naltirilgan xususiyatga ega, uning shakllanishi faol kognitiv faoliyat bilan bog‘liq. Yuqoridagi ta’riflarga asoslanib, faoliyatda kompetentlik qanday shakllanganligi haqida bahslashish mumkin.

E. Zeer tayanch kompetentliklarni asosiy deb atashni taklif qiladi va shu bilan ularning kompetensiyalar va asosiy malakalarga nisbatan ustunligini ta’kidlaydi . Umumiy ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish strategiyasining mualliflari asosiy kompetentliklarga murojaat qilishadi :

– turli xil ma’lumot manbalaridan bilim olish usullarini o‘zlashtirishga asoslangan mustaqil kognitiv faoliyat sohasidagi kompetentlik;

– fuqarolik va jamoat faoliyati sohasidagi kompetentliklar (fuqaro, saylovchi, fuqaro rollarini bajarish);

– ijtimoiy va mehnat faoliyati sohasidagi kompetentliklar (shu jumladan vaziyatni tahlil qilish, o‘z kasbiy imkoniyatlarini baholash, mehnat munosabatlari normalari va etikasini boshqarish, o‘zini o‘zi tashkil etish qobiliyatlari);

– maishiy sohadagi kompetentliklar (shu jumladan o‘z sog‘lig‘i, oilaviy hayoti va boshqalar.);

– madaniy va bo‘sh vaqtni o‘tkazish sohasidagi kompetentliklar (shu jumladan bo‘sh vaqtdan foydalanish, shaxsni madaniy va ma’naviy boyitish usullari va vositalarini tanlash).

Asosiy kompetensiyalar maxsus kompetentliklar va aniq kompetensiyalarning bajarilishini belgilaydi, mutaxassisning ko‘p qirraliligini ta’minlaydi.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish muammolarini va uning har xil turlarini o‘rganish pedagogikada alohida o‘rin tutadi, chunki kasbiy kompetensiya shaxs va faoliyatning professionalligining asosiy tarkibiy qismi, professionalni shakllantirishning muhim shartidir. Kompetensiyani rivojlantirish shaxsiy va kasbiy yutuqlarni rag‘batlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy kompetensiyani o‘rganish kompetensiya kategoriyasining umumiy mazmunini aks ettiruvchi uning muhim xususiyatlarining umumiyligini yetarli darajada tushunishga asoslangan.

Kasbiy kompetensiyaning birinchi xarakteristikasi gnostik yoki kognitiv deb ataladi, u zarur kasbiy bilimlarning mavjudligini aks ettiradi. Ularning hajmi va darajasi kompetensiyaning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Ikkinchisi, kasbiy muammolarni hal qilish uchun mavjud kasbiy bilimlardan foydalanishga imkon beradigan tartibga soluvchi. Ko‘rinib turibdiki, tartibga soluvchi komponent bashorat qilish va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan loiyhalash va konstruktiv komponentlarni o‘z ichiga oladi. Uchinchisi – refleksiv-maqom, bu hokimiyatni tan olish tufayli ma’lum bir

tarzda harakat qilish huquqini beradi. To‘rtinchisi – texnik topshiriqni, kasbiy kompetensiya sohasini aks ettiruvchi normativ xususiyat. Beshinchisi kommunikativ xususiyatdir, chunki bilimlarni yoki amaliy faoliyatni to‘ldirish har doim aloqa yoki o‘zaro ta’sir jarayonida amalga oshiriladi.

Kasbiy kompetensiya umumlashtiruvchi toifadir. Agar u tizimli nuqtai nazardan qaralsa, unda turli xil o‘zaro bog‘liq komponentlar mavjudligi haqida bahslashish mumkin. Bundan tashqari, maxsus darajada u kasbiy faoliyat va o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan aniq shakllarda harakat qilishi mumkin.

Kasbiy kompetensiya ko‘p hollarda mustaqil va mas’uliyatli harakat qilish imkonini beruvchi fazilatlar kombinatsiyasi, insonning muayyan kasbiy funksiyalarni bajarish qobiliyati va mahorati sifatida tavsiflanadi.

Maqsad, vazifa va ish natijalari bo‘yicha mutaxassisning kasbiy kompetensiyasining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi bilan kasbiy faoliyatning maqsad va vazifalarining shartliligi;

– ishning ko‘p funksionalligini aniqlaydigan vazifalarda turli xil tarkibiy qismlarning kombinatsiyasi;

– mutaxassislarning individual fazilatlari va harakatlarining taklif qilingan maqsadlar, vazifalar va funksiyalarga muvofiqligi.

Umumiy ma’noda, kasbiy kompetensiya – bu mehnat sub’ektining kasbiy funksional imkoniyatlarga muvofiq vazifalarni bajarishga kasbiy tayyorgarligi va qobiliyati.

A. Dorofeevning so‘zlariga ko‘ra, kasbiy kompetensiyada quyidagi jihatlarni ajratish mumkin :

– tegishli malakalar – kasbiy sohadagi bilim, ko‘nikma va malakalar, kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo‘lgan zamonaviy kompyuter axborot texnologiyalariga samarali egalik qilish qobiliyati;

– kognitiv tayyorgarlik – faoliyat darajasida yangi bilimlarni, yangi vositalarni, yangi axborot va kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirish, axborot yetishmovchiligini aniqlash, muvaffaqiyatli qidirish va o‘zlashtirish, zarur va yetarli ilmiy ma’lumotlardan foydalanish, boshqalarni o‘rganish va o‘rgatish qobiliyati;

– ijodiy tayyorgarlik – taniqli muammolarni hal qilishda tubdan yangi yondashuvlarni izlash yoki kasbiy sohada ham, tegishli sohalarda ham tubdan yangi vazifalarni shakllantirish va hal qilish qobiliyati;

– kommunikativ tayyorlik – ona va chet tillarini bilish, shu jumladan, asosiy va turdosh fanlar va tarmoqlarning konseptual apparati va lug‘atini qo‘llash qobiliyati, kommunikativ texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish;

– ma’naviy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bilan birgalikda kasbiy rivojlanishning tendensiyalari va asosiy yo‘nalishlarini tushunish.

Kasbiy kompetensiyaning sanab o‘tilgan tarkibiy qismlari juda universaldir va har qanday kasb mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalari tavsifiga mos kelishi mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiya tarkibiy qismlari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– konseptual – moslashuvchan tizim fikrlashda namoyon bo‘ladi, xavfsiz o‘quv mashg‘ulotlari masalalari bo‘yicha yaxlit tasavvurga ega bo‘lish qobiliyati;

– funksional va texnologik komponent – faoliyatning predmet sohasi, korporativ madaniyat, o‘quv faoliyatini amalga oshirishning samarali texnologiyalarini bilish, raqamli vositalar va usullarni bilish va ulardan foydalanish, nazorat ishlarini olib borish,

turli vaziyatlarda o‘quvchilarga yordam ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi vaziyatlar;

– ijtimoiy va shaxsiy – o‘z faoliyatining ijtimoiy yo‘nalishi, insonning eng oliy qadriyat sifatida tan olinishi, texnologiyadan foydalanishni insonparvarlashtirish, kasbiy etika va deontologiya normalariga rioya qilishda namoyon bo‘ladi.

Nazariya va amaliyotni tahlil qilish asosida deontologik kompetensiya bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy, bog‘lovchi va kasbiy rivojlanishini belgilovchi sohalardan biridir.

Deontologik kompetensiya quyidagi fazilatlar va qobiliyatlar bilan tavsiflanadi:

– jamoaviy faoliyatda hamkorlik qilish qobiliyati;

– jamoada samarali ishlash qobiliyati;

– psixologik muvofiqlik va jamoadagi pedagog-o‘qituvchilar bilan muloqot qilish qobiliyati;

– gorizontal va vertikal kontaktlarni o‘rnatish qobiliyati;

– boshqalarning ishiga hurmat;

– boshqalarni tushunish, idrok etish qobiliyati, bag‘rikenglik;

– nizolarni hal qilish qobiliyati;

– kasbiy faoliyatda deontologik me’yorlar va tamoyillarga amal qilish qobiliyati.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining deontologik kompetensiyasi undada bilim tizimi, mafkuraviy va axloqiy qadriyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi va kasbiy va axloqiy ideallar va qadriyatlar bilan belgilanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining deontologik kompetensiyasining tuzilishi axloqiy va xulq-atvor ko‘rsatmalariga, ularning ijtimoiy-kasbiy muhitining ko‘rsatmalariga asoslanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining deontologik kompetensiyasida asosiy komponentlar sifatida quyidagi komponentlar aniqlanishi kerak: motivatsion, kognitiv, ijodiy, refleksiv.

“Motivlar inson ishtirok etadigan vazifalar bilan belgilanadi, hyech bo‘lmaganda motivlar bo‘yicha vazifalardan kam emas. Ushbu harakatning sababi aniq vazifaga, maqsadga va sharoitga – harakat sodir bo‘ladigan sharoitlarga bo‘lgan munosabatdadir” .

Motivlar shaxsni yo‘naltirishning muhim tarkibiy qismidir, ammo ular unga kamaytirilmaydi. “Motiv – bu muayyan sharoitlarda aniq harakat qilish uchun rag‘bat. Har bir bunday individual impuls turli sharoitlarda va teng sharoitlarda faoliyatning umumiy yo‘nalishini va shuning uchun shaxsning yo‘nalishini aniqlay olmaydi” .

Motivlar faoliyatning maqsadlari va tabiatini belgilaydi, shuningdek, ma’lum bir ob’ektga yo‘naltirilgan qiziqishni shakllantiradi. Kasbga qiziqish shaxsning kasbiy yo‘nalishida markaziy o‘rinni egallaydi. ehtiyojlar va qiziqishlar faoliyat manbai hisoblanadi.

A. Karpov qiziqish va moyillikni ehtiyojlar bilan bog‘laydi. Uning fikricha, ehtiyoj va manfaatlar shaxsning faoliyat manbai bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni uning ehtiyojlar asosida paydo bo‘lgan ushbu ehtiyoj va manfaatlarni qondirish uchun faoliyatga bo‘lgan intilishlari yangi ehtiyojlar va moyilliklarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Odamlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, asosan shaxsning yo‘nalishini belgilaydigan qiziqishlar va moyilliklar paydo bo‘ladi .

Qiziqish deganda, insonning biror narsaga e’tibor berish, har qanday narsa va hodisalar haqida bilish istagi tushuniladi. Har qanday faoliyatga bo‘lgan istak moyillik deb ataladi.

S.L. Rubinshteyn fikricha, qiziqish “insonning ma’lum bir fikrlari, g‘oyalari mavzusi-

ga diqqatni jamlash, mavzu bilan tanishish, unga chuqurroq kirib borish, uni ko‘zdan qochirmaslik istagini keltirib chiqaradi... Qiziqishlar –bu insonning madaniy va xususan, kognitiv faoliyatining o‘ziga xos motivlari”.A.V. Petrovskiy yozadi: “qiziqishlar inson kognitiv faoliyatining hissiy ko‘rinishidir”.

N.D. Levitov qiziqishni “haqiqat obyektlari va hodisalariga hissiy jihatdan to‘yingan tanlangan munosabat” deb ta’riflaydi.

Har bir qiziqish ma’lum darajada shaxsning ob’ektga kognitiv munosabatidan iborat, lekin uni kamaytirib bo‘lmaydi. Qiziqish nafaqat kognitiv va ixtiyoriy omillarni, balki hissiy omillarni ham o‘z ichiga oladi.

Shaxsni shakllantirish ijtimoiy voqyelikda shaxsning ontogenetik rivojlanishining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Psixologiyada “shaxs pozitsiyasi” tushunchasi kuplab asarlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular uni voqyelik hodisalariga shaxsiyat munosabatlarining murakkab tizimi, ijtimoiy yo‘naltirilgan faoliyat va qiymat munosabatlari to‘plami sifatida belgilaydilar. Shaxsning pozitsiyasi ob’ektiv hodisa va shaxsning ijtimoiy hodisa sifatida o‘zagi bo‘lib, uning yetakchi xususiyati yo‘nalganlikdir.

Shaxsning kasbiy pozitsiyasi – bu uning barqaror munosabati va yo‘nalishlari, ichki va ijtimoiy tajribani, voqyelik va istiqbollarni munosabatlar va baholash tizimi, shuningdek, kasbiy faoliyatda amalga oshirilgan (amalga oshirilmagan, qisman amalga oshirilgan) o‘z da’volari.

Kasbiy muhit sharoitida inson avvalgi mavqyeini saqlab qolishga yoki uni ma’lum bir tarzda o‘zgartirishga imkon beradigan tegishli munosabatlarga ehtiyoj sezadi.

Ko‘rib chiqilgan nazariy qoidalarga asoslanib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ontologik pozitsiyasi uning kasbiy va axloqiy yo‘nalishini, kasbiy faoliyatdagi o‘rni va rolini belgilaydi degan xulosaga kelish mumkin. Bu bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy ishida o‘ziga xos axloqiy o‘lchov vazifasini bajaradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy deontologik kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagilarga asoslanishi kerak:

– ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishni hayotiy ustuvor vazifa sifatida tan olish va qabul qilish;

– korporativ madaniyat, ta’lim tizimining an’analari;

– asosiy shaxsiy manfaatlar, faoliyat manfaatlari va kasbiy va axloqiy qadriyatlar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy deontologik kompetensiyasining motivatsion komponenti uning barqaror kasbiy (kasbiy va axloqiy) yo‘nalishga va kasbiy muhim deontologik fazilatlarga ega ekanligini nazarda tutadi. Shaxsga yo‘nalishni ilmiy tadqiq qilishning asosi A.N. Leontiev tomonidan faoliyatning tashqi stimulyatorlarining ob’ektiv qadriyatlarining shaxsiy ahamiyati yoki shaxsiy ma’nosiga nisbatan ishlab chiqilgan yondashuvdir. Ushbu tamoyilga ko‘ra, “ma’no bilim bilan emas, balki harakatning motivi va harakatning bevosita natijasi sifatida nimaga qaratilganligi, ya’ni uning maqsadi o‘rtasidagi munosabatlar bilan hosil bo‘ladi”.

Yo‘naltirish tuzilishida oldingi avlodlar tomonidan ishlab chiqilgan tajribani shaxs tomonidan assimilyasiya qilish jarayoni shaklida ontogenezda shakllanadigan ehtiyojlarga alohida o‘rin ajratadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, inson tug‘ilishdan boshlab faqat bitta sifat – insonning o‘ziga xos ehtiyojlarini shakllantirish qobiliyatiga ega. Assimilyasiya – bu shaxsning xususiyatlarida tarixan shakllangan xususiyatlar va qobiliyatlarni ko‘paytirish jarayoni bo‘lib, o‘ziga xos insoniy fazilatlar va xususiyatlar odamlarda hayot davomida shakllanadi. Bundan kelib chiqadiki, yo‘nalishni shakllantirishda shaxsni tarbiyalash, uning tajribasi, unga jamiyat tomonidan ta’siri asosiy rol o‘ynaydi.

B.G. Ananev konsepsiyasiga ko‘ra, shaxsning yo‘nalishi inson faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydigan markaziy sifatdir .

Shaxsga yo‘naltirish tushunchasi birinchi marta S.L. Rubinshteyn tomonidan ko‘rib chiqilgan. U yo‘nalish konsepsiyasida insonning ehtiyojlari, qiziqishlari va ideallarini aks ettiradi. Olimning fikriga ko‘ra, yo‘naltirish shaxsning ijtimoiy va axloqiy qiymatini belgilaydigan eng muhim jihati hisoblanadi.

Yo‘naltirish shaxsning eng muhim xususiyati sifatida tashqi ta’sirlarning ichki ta’sirlar orqali sinishi natijasida shakllanadi. S.L. Rubinshteyn ta’kidlaganidek, shaxsning o‘ziga xosligi va uning faoliyati inson o‘z oldiga qo‘yadigan motivlar va vazifalar tizimiga bog‘liq. U shunday yozgan “... shaxsning aqliy almashinuvini o‘rganish uchta asosiy masalani o‘z ichiga oladi” .

Shaxsga yo‘naltirishning eng yuqori shakli bu dunyoqarashdir. Dunyoqarash – bu dunyo, qonunlar, hodisalar, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlar, g‘oyalar va tushunchalar tizimi. Dunyoqarash jamoatchilik bilan aloqalar tizimida bilim, tajriba va insoniy baholarni sintez qiladi. Dunyoqarash inson hayoti va faoliyati yo‘nalishini belgilaydi. Shaxsning o‘zini o‘zi belgilashi yo‘naltirish mazmuni sifatida dunyoqarash bilan chambarchas bog‘liq, ya’ni inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlar, ularga erishishni afzal ko‘rgan vositalar.

Olimlar tadqiqotlarida eng muhim shaxsiy fazilatlar to‘plamini aniqladi, ularning ba’zilari o‘z mohiyatiga ko‘ra u yoki bu tarzda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining deontologik fazilatlari sifatida qaralishi mumkin: do‘stlik hissi, burch, mas’uliyat, fidoyilik hissi, insonparvarlik, xayriya, xayrixohlik, mehribonlik, olijanoblik, saxiylik, odamlarga e’tibor, g‘amxo‘rlik, samimiylik, rahm-shafqat, sezgirlik, rahm-shafqat, noziklik, xushmuomalalik, odamlarga hurmat va ishonch, o‘z-o‘zini hurmat qilish, mag‘rurlik, o‘ziga ishonch, kamtarlik, o‘z-o‘zini tanqid qilish, talabchanlik, sharaf hissi, vijdonlilik, halollik, odoblilik, sadoqat, ishonchlilik, halollik, rostgo‘ylik, axloqiy poklik.

Ushbu qoidalarni hisobga olgan holda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy kasbiy muhim fazilatlarini, shu jumladan shaxsning asosiy deontologik fazilatlarini aniqlash mumkin (1-jadval).

1-jadval. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy muhim fazilatlari, ularning faoliyatining deontologik jihatlari

Kasbiy muhim fazilatlar komponentlari	**Kasbiy muhim fazilatlarning xususiyatlari**
Kasbiy komponent	Yuqori nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy vaziyatni tizimli ko‘rish, ta’lim va tarbiya jarayonida professional ishlash qobiliyati, prognostik faoliyat va qarorlar qabul qilish qobiliyati, rasmiy maqsadga muvofiq kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati
Anatomik va fiziologik komponent	Oddiy qo‘zg‘aluvchanlik, kuch, asab tizimining muvozanati, fikrlashning amaliyligi, pedagogik va psixologik me’yordan keskin og‘ishlarning yo‘qligi
Ijtimoiy-psixologik komponent	Samarali shaxslararo aloqalarni tashkil etish qobiliyati, masalaning mohiyatini chuqur o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni olish qobiliyati, boshqa odamlarning individual xususiyatlarini hisobga olish qobiliyati, kasbiy vaziyatda asosiy narsani topish qobiliyati, muammoni hal qilish uchun safarbar qilish qobiliyati. qaror, odamlarni jalb qilish qobiliyati

Shaxsiy komponent (deontologik fazilatlar)	Insonparvarlik, shaxsning o‘quvchilarga yordam berishga munosabati bilan bog‘liq fazilatlar, kasbiy xulq-atvorni tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari va normalari bilan bog‘liq fazilatlar

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining deontologik fazilatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli xil kasbiy va shaxsiy fazilatlarga asoslanib aytish mumkinki, ushbu deontologik rivojlanish jarayoni deb taxmin qilish mumkin bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining fazilatlari va umuman, deontologik kompetensiyasini shakllantirish jarayoni murakkab, ko‘p qirrali bo‘lib, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy va o‘qituvchi sifatida shaxsini axloqiy shakllantirishning bir qator murakkab vazifalarini hal qilishdan iborat.

Aslida, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining deontologik fazilatlarini va umuman, deontologik kompetensiyasini shakllantirish – bu talabalarning (kelajakdagi o‘qituvchilarning) ongiga axloqiy me’yorlar va kasbiy xulq-atvor tamoyillarini kiritishdir. Keyingi vazifa bilimlarni shaxsiy e’tiqodlarga aylantirish, deontologik xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Muhim va nisbatan ahamiyatsiz shakllanishlarning dialektik birligi shaxsni axloqiy baholash mezonlari masalasini hal qilishda ham namoyon bo‘ladi. Shaxsning yoki uning qilmishining axloqi va axloqsizligi o‘lchovi nafaqat ob’ektiv oqibatlarga, balki uning shaxsiy qadriyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun jamiyatda shakllangan qadriyatlarni qanchalik muhim deb bilishidan iborat.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining deontologik kompetensiyasini shakllantirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, ta’lim muassasasi rahbarlari, o‘quv jarayoni mutaxassislari, professor-o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvini; kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik o‘zaro munosabatlarning izchilligi va uzluksizligini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.

3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 120 b.

4. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к образованию. – Москва: Академия, 2013. – 256 с.

5. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

6. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – Москва: Академия, 2013. – 608 с.

7. Коджаспирова Г.М. Педагогика. – Москва: Юрайт, 2019. – 719 с.

8. Гринёва Е.А. Педагогическая деонтология: теория и практика. – Москва: Академический проект, 2016. – 224 с.

9. Васильева М.Г. Основы педагогической деонтологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2017. – 208 с.

Munisa MUZAFFAROVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 592-DMTT, birinchi toifali tayyorlov guruh tarbiyachisi

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH MAKTAB O‘QUVCHILARINING RAQAMLI SOTSIALIZATSIYASI VA OTA-ONALIK KOMPETENTLIGINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya

Maqolada shiddatli raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarning kognitiv, hissiy va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasiga raqamli muhitning ta’siri hamda bu jarayonda ota-onalik kompetentligining preventiv va korreksion rolini baholash amalga oshirilgan. Tadqiqot ota-onalar o‘rtasida o‘tkazilgan empirik so‘rovnoma hamda ko‘p o‘lchovli ierarxik klaster tahlili (Hierarchical Cluster Analysis) ma’lumotlariga tayanadi. Shuningdek, ishda 7–10 yoshli bolalarning yosh dinamikasi va kognitiv ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ota-onalarning psixologik-pedagogik maslahatga bo‘lgan ehtiyojlari klasterlangan, kiberqaramlikning oldini olish hamda o‘quv motivatsiyasini barqarorlashtirishning konseptual shart-sharoitlari ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Raqamli sotsializatsiya, kibersotsializatsiya, ota-onalik kompetentligi, boshlang‘ich maktab yoshi, kognitiv rivojlanish, raqamli qaramlik, o‘quv motivatsiyasi, psixologik farovonlik.

В статье проводится оценка влияния цифровой среды на траекторию когнитивного, эмоционального и личностного развития учащихся начальных классов в условиях стремительной цифровизации, а также превентивной и коррекционной роли родительской компетентности в этом процессе. Исследование основано на данных эмпирического опроса родителей и многомерного иерархического кластерного анализа (Hierarchical Cluster Analysis). Также в работе кластеризованы потребности родителей в психолого-педагогическом консультировании, исходя из возрастной динамики и когнитивных потребностей детей 7-10 лет, разработаны концептуальные условия профилактики киберзависимости и стабилизации учебной мотивации.

Ключевые слова. Цифровая социализация, киберсоциализация, родительская компетентность, младший школьный возраст, когнитивное развитие, цифровая зависимость, учебная мотивация, психологическое благополучие.

The article evaluates the impact of the digital environment on the cognitive, emotional, and personal development trajectory of primary school students under conditions of intensive digitalization, as well as the preventive and corrective role of parental competence in this process. The study relies on data from an empirical survey of parents and a multidimensional hierarchical cluster analysis (Hierarchical Cluster Analysis). The work also clusters the needs of parents for psychological and pedagogical counseling based on the age dynamics and cognitive needs of children aged 7–10, and develops conceptual prerequisites for preventing cyberaddiction and stabilizing learning motivation.

Key words. Digital socialization, cyber-socialization, parental competence, primary school age, cognitive development, digital addiction, learning motivation, psychological well-being.

Zamonaviy sotsiokultural va texnologik transformatsiyalar sharoitida raqamlashtirish insoniyat hayotining barcha sohalariga singib ketib, ayniqsa, o‘sib kelayotgan avlodning psixofiziologik, emotsional va kognitiv rivojlanish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda bolalar tug‘ilishidanoq murakkab

axborot-kommunikatsiya ekotizimiga integral ravishda qo‘shiladilar. Ilmiy diskursda ushbu fenomen “raqamli bolalik” (digital childhood) tushunchasi bilan ifodalanib, unda texnologik vositalar va raqamli muhit sotsializatsiyaning birlamchi hamda dominant agentiga aylanayotgani qayd etiladi [4]. Kasperskiy laboratoriyasining empirik tahlillariga ko‘ra, kichik yoshdagi bolalarning 85 foizi o‘zlarining kundalik faoliyatini elektron qurilmalarsiz tasavvur qila olmaydi, ota-onalarning 92 foizi esa 4–5 yoshdanoq farzandlariga gadjetlardan foydalanish imkonini yaratib beradi.

Virtual makonning o‘sib borayotgan ekspansiyasi an’anaviy muloqot va yetakchi faoliyat shakli hisoblangan o‘yin turlarini siqib chiqarmoqda. Bu esa “raqamli autizm”, his-tuyg‘ular desensitizatsiyasi, real sotsializatsiya defitsiti hamda emotsional-shaxsiy rezonansning pasayishiga zamin yaratmoqda. Xalqaro Kasalliklar Tasnifining 11-qayta ko‘rilgan nashriga (ICD-11) kiritilgan raqamli/kompyuter qaramligi ko‘pincha kognitiv regressiya, akademik o‘zlashtirishning pasayishi, ixtiyoriy diqqat konsentratsiyasining buzilishi va o‘quv motivatsiyasining qadrsizlanishi bilan namoyon bo‘ladi [6].

Bunday sharoitda bolaning ichki resurslarini asrash, unda o‘z-o‘zini boshqarish va mediagigiyena ko‘nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi subyektiv omil sifatida ota-onalik kompetentligi namoyon bo‘ladi [3, 8]. Biroq, ko‘plab ota-onalarda psixologik-pedagogik hamda raqamli savodxonlikning yetarsizligi sababli, ular yoki to‘liq taqiqlash (destruktik cheklov) yoki jarayonni nazoratsiz qoldirish (xatoga yo‘l qo‘yuvchi autsayderlik) kabi samarasiz strategiyalarni tanlamoqdalar. Shundan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining raqamli sotsializatsiyasini to‘g‘ri yo‘naltirishda ota-onalarning o‘sish sohalari, ularning psixologik deficitlari va konsultatsion ehtiyojlarini tizimli o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan o‘ta dolzarb vazifadir.

Tadqiqotning metodologik asosini L.I. Bojovich va D.B. Elkoninning yosh davrlari nazariyasi [1,5], J. Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari [7], shuningdek, G.U. Soldatova hamda N. Carrning kibersotsializatsiyaning neyropsixologik va sotsiopravovoy oqibatlari haqidagi konsepsiyalari tashkil etadi [4, 6].

Boshlang‘ich maktab yoshi (7–11 yosh) o‘quv faoliyati yetakchi hisoblangan, ixtiyoriy diqqat, og‘zaki-mantiqiy xotira hamda aniq operatsiyalar darajasidagi fikrlash shakllanadigan sensitiv davrdir. Bu davrda ota-ona kompetentligi bolaning psixologik farovonligi, o‘zini o‘zi anglashi va moslashuvchanligini ta’minlovchi o‘zak omildir [2, 3].

Empirik baza va tadqiqot metodikasi

Tadqiqot roditel.pspu.ru va onlinetestpad.com masofaviy diagnostika platformalari orqali onlayn so‘rovnoma shaklida o‘tkazildi.

Tadqiqot tanlanmasi (Sample): Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning 11 436 nafar ota-onalari.

Geografik qamrov: Perm o‘lkasi, Udmurtiya Respublikasi, Penza, Nijniy Novgorod, Tambov viloyatlari va boshqa hududlar.

Statistik tahlil: Ota-onalarning psixologik-pedagogik ehtiyojlari va deficitlarini guruhlash hamda tarkibiy strukturani aniqlash uchun ierarxik klaster tahlili (Hierarchical Cluster Analysis) qo‘llanildi.

Natijalar

1. Yoshi bo‘yicha so‘rovlar dinamikasi (7–10 yosh)

Empirik ma’lumotlarning matematik-statistik va dinamik tahlili shuni ko‘rsatdiki, 1-sinfdan 3-sinfgacha bo‘lgan davrda ota-onalarning psixologik va pedagogik maslahat xizmatlariga bo‘lgan umumiy murojaatlar sonida barqaror desinkronizatsiya va kamayish tendensiyasi kuzatiladi.

1-jadval. Yoshi bo‘yicha ota-onalar so‘rovlarining dinamikasi (7–10 yosh)

Yosh / Sinf	Asosiy muammolar va maslahat so‘rovlarining yo‘nalishi	Murojaatlar darajasi va ustuvorlik
7 yosh (1-sinf)	Maktab ta’limiga psixofiziologik moslashish, logopedik korreksiya, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish	Yuqori (Moslashuv va nutq)
8 yosh (2-sinf)	Akademik muvaffaqiyatsizlik, diqqat tarqoqligi, o‘quvchining mustaqilligini rivojlantirish va mas’uliyat	O‘rta-yuqori (O‘zlashtirish va mustaqillik)
9 yosh (3-sinf)	Raqamli muhitga kirib borish, kompyuter o‘yinlariga qiziqish ortishi, kun tartibini buzish	O‘rta (Raqamli sotsializatsiya)
10 yosh (4-sinf)	Kiberqaramlik / raqamli qaramlik xavfi, gadjetlarda ko‘p vaqt o‘tkazish, akademik motivatsiyaning pasayishi	O‘ta yuqori kiberqaramlik xavfi

Yoshar oralig‘idagi dinamik ko‘rsatkichlar tahlili:

7 yosh (1-sinf): Maslahat so‘rovlarining asosiy vektori maktab ta’limiga psixofiziologik moslashish, logopedik korreksiya va o‘qish-yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

8 yosh (2-sinf): Nutq va ilk adaptatsiya masalalari dolzarbligini yo‘qotib, akademik muvaffaqiyatsizlik, diqqat tarqoqligi va o‘quvchining mustaqilligi bilan bog‘liq so‘rovlar birinchi o‘ringa chiqadi.

9–10 yosh (3–4 sinflar): Raqamli sotsializatsiya va kiberqaramlik xavfi keskin ustuvorlikka ega bo‘ladi. Ota-onalar tomonidan bildirilgan asosiy muammolar: “Bola gadjetlarda ko‘p vaqt o‘tkazsa nima qilish kerak?”, “Kompyuter o‘yinlariga qaramlikni qanday yengish mumkin?”.

2. Ota-onalar ehtiyojlarining klaster tuzilmasi

Ierarxik klaster tahlili natijasida ota-onalarning psixologik-pedagogik deficitlari bo‘yicha 10 ta klaster ajratildi. Eng yuqori talabga ega bo‘lgan yetakchi klaster — “Akademik muammolar, qobiliyatlar va stress” deb nomlandi.

2-jadval. Ota-onalar ehtiyojlarining klaster tuzilmasi

Klaster / Kichik klaster	Asosiy mazmuni va ota-ona so‘rovlari	Talab darajasi (%)
Qobiliyatlar va raqamli kompetensiyani rivojlantirish	Qo‘shimcha ta’lim, to‘garaklarni tanlash, iqtidorini ochish, gadjetlardan xavfsiz foydalanish va raqamli sotsializatsiya strategiyasini belgilash	~50%
Akademik qiyinchiliklar	O‘quv motivatsiyasining pasayishi, diqqat tarqoqligi, uy vazifalarini bajarishdagi nizolar	~35%
Stress va xavotir	Imtihon va nazorat ishlaridagi xavotirlik, tengdoshlar bilan nizolar va hissiy beqarorlik	~15%

Olingan empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhit bolani o‘z-o‘zidan rivojlantiruvchi neytral faktor emas. U tegishli pedagogik va emotsional nazoratsiz qolganda kognitiv funksiyalarning (ixtiyoriy xotira, mantiqiy fikrlash) passivlashishiga hamda hissiy zo‘riqishga olib keladi [6, 9]. Ota-onalarning keng tarqalgan institutsional xatosi – texnologiyalarni mutlaq taqiqlash yoki ulardan bolani tinchlantirish/vaqtini

band qilish vositasi sifatida foydalanishidir.

Raqamli sotsializatsiyani konstruktiv tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari:

Raqamli vositalarga muqobil faoliyat: Gadjetni shunchaki olib qo‘yish destruktiv xulq-atvorni keltirib chiqaradi. Bolaga real dunyoda muvaffaqiyat tuyg‘usini beruvchi faoliyat shakllari (sport, ijodiy to‘garaklar, jamoaviy o‘yinlar) taqdim etilishi zarur.

Kognitiv-interaktiv birgalikdagi faoliyat: Raqamli kontent passiv tomosha uchun emas, balki bilish jarayonini boyituvchi (interaktiv ta’limiy platformalar, mantiqiy simulyatsiyalar) interaktiv vosita sifatida qo‘llanishi kerak.

Ota-onalarning mediagigiyenik kompetentligini oshirish: “Ota-onalar universiteti” loyihasi tajribasi kabi ta’limiy dasturlar orqali ota-onalarga bolaning yosh kognitiv va hissiy ehtiyojlarini tushuntirish, oilaviy muloqot vaqtini to‘g‘ri rejalashtirish o‘rgatilishi lozim.

Iqtidorli va yuqori motivatsiyali bolalarni qo‘llab-quvvatlash: Maktab psixologlari va ota-onalar faqat “muammoli” bolalar bilan cheklanmay, iqtidorli bolalarning kognitiv ehtiyojlarini raqamli muhit resurslari orqali rivojlantirish strategiyalarini amaliyotga joriy etishlari lozim.

Tadqiqot materiallarini yig‘ishda, onlayn diagnostika platformalarini tashkil etishda hamda 11 436 nafar respondentlar o‘rtasida empirik ma’lumotlarni to‘plashda yaqindan amaliy yordam bergan Perm Davlat Gumanitar va Pedagogika Universiteti (PSHPU) hamda “Zamonaviy maktab” federal loyihasi tashkilotchilariga samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Божович Л.И. Личност и эе формирование в детском возрасте. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 400 с.

2. Куфтяк Э.В. Психологическое благополучие детей: факторй ва условия // Психологический журнал. – 2020. – Т. 41, № 3. – С. 54–62.

3. Овчарова Р.В. Родителсво как психологический феомен: учебное пособие. – Москва: МПСИ, 2006. – 496 с.

4. Солдатова Г.У. Тсифровая сотсиализатсия детей и подростков: консептуализатсия и тендентсии // Вопросй психологии. – 2018. – № 5. – С. 25–38.

5. Элконин Д.Б. Избранне психологические трудй. – Москва: Педагогика, 1989. – 560 с.

6. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – W. W. Norton & Company, 2011. – 288 p.

7. Piaget J. The Mechanisms of Perception. – New York: Basic Books, 1969. – 384 p.

8. Schneider L.B., Zykova N.M. Struktura i dinamika roditelskoy kompetentnosti // Semya i lichnost: problemy i kashestva. – 2018. – № 12. – S. 15–24.

9. Singh S., Lal R. Educational status and psychological well-being of children // Journal of Indian Academy of Applied Psychology. – 2012. – Vol. 38, No. 1. – P. 112–119.

Dilorom ADILOVA,
“XALQARO NORDIK UNIVERSITETI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi, dotsent

JAMOADAGI KONFLIKTLARNI BOSHQARISH VA ULARNI KONSTRUKTIV MUROSAGA OLIB KELISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada jamoalarda yuzaga keladigan konfliktlarning mohiyati, kelib chiqish sabablari hamda ularning tashkilot faoliyati samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Konfliktlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, jumladan, muzokara, hamkorlik va mediatsiya mexanizmlarining amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Tadqiqot natijasida jamoalarda konfliktlarni erta aniqlash, konstruktiv boshqarish va sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Konflikt, jamoa, murosa, mediatsiya, kommunikatsiya, rahbarlik, konfliktlarni boshqarish, jamoa samaradorligi.

В статье рассмотрены сущность конфликтов в коллективе, причины их возникновения и влияние на эффективность деятельности организатsии. Освещены современные подходы к управлению конфликтами, включая переговоры, сотрудничество и медиатсию. Также по результатам исследования разработаны рекомендатsии по раннему выявлению конфликтов, их конструктивному урегулированию и формированию благоприятного социально-психологического климата в коллективе.

Ключевые слова. Конфликт, коллектив, компромисс, медиатсия, коммуникатсия, лидерство, управление конфликтами, эффективность коллектива.

The article examines the nature of conflicts within teams, their causes, and their impact on organizational performance. Modern approaches to conflict management, including negotiation, cooperation, and mediation, are analyzed. Furthermore based on the findings, recommendations are proposed for early conflict identification, constructive conflict resolution, and the development of a positive socio-psychological climate within teams.

Key words. Conflict, team, compromise, mediation, communication, leadership, conflict management, team effectiveness.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tashkilotlarning muvaffaqiyati tobora ko‘proq inson kapitalidan samarali foydalanish darajasiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Zamonaviy boshqaruv nazariyasida inson resurslari tashkilotning eng muhim strategik aktivlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu sababli jamoa a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar, hamkorlik darajasi, o‘zaro ishonch va korporativ madaniyat masalalari tashkilot faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Biroq turli dunyoqarash, qadriyat, manfaat va ehtiyojlarga ega bo‘lgan shaxslarning bir jamoada faoliyat yuritishi muayyan ziddiyatlarning yuzaga kelishini tabiiy holatga aylantiradi. Mazkur ziddiyatlar ma’lum sharoitlarda konflikt shaklida namoyon bo‘lib, ularning rivojlanish darajasi va boshqarilish sifati tashkilot natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda konflikt tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Konfliktologiya nazariyasining rivojlanish tarixiga nazar tashlansa, dastlabki yondashuvlarda konflikt asosan salbiy hodisa sifatida baholanganligini kuzatish mumkin. Bunday qarashlar klassik boshqaruv maktabi vakillari tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, ular konfliktni mehnat unumdorligini pasaytiruvchi, tashkilot faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida ko‘rganlar. Keyinchalik insoniy munosabatlar maktabi hamda zamonaviy boshqa-

ruv nazariyalari vakillari konfliktga nisbatan boshqacha yondashuvni shakllantirdilar. Ularning fikricha, konflikt nafaqat muammo, balki rivojlanish uchun imkoniyat ham hisoblanadi. Agar konflikt to‘g‘ri boshqarilsa, u yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishi, mavjud kamchiliklarning aniqlanishi va qarorlar sifatining oshishiga xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar konfliktlarning mutlaqo yo‘q qilinishi mumkin emasligini, aksincha, ularni samarali boshqarish zarurligini ta’kidlamoqda. Chunki har qanday jamoada manfaatlar xilma-xilligi mavjud bo‘lib, aynan ushbu xilma-xillik innovatsion fikrlash va rivojlanishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois zamonaviy boshqaruv amaliyotida konfliktlarni bostirish emas, balki ularni konstruktiv yo‘nalishga yo‘naltirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Jamoalarda konfliktlarning yuzaga kelishiga ta’sir qiluvchi omillar ichida kommunikatsiya muammolari alohida o‘rin tutadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tashkilotlardagi ko‘plab nizolar axborotning yetarli darajada almashilmasligi, noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki umuman yetkazilmasligi natijasida kelib chiqadi. Ayniqsa, murakkab tashkiliy tuzilishga ega bo‘lgan tashkilotlarda vertikal va gorizontal kommunikatsiya tizimlarining samarasizligi turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, vazifa va vakolatlarning aniq belgilanmaganligi, mas’uliyat chegaralarining noaniqligi ham konfliktlarning keng tarqalgan sabablaridan biri hisoblanadi. Xodimlar o‘z vazifalarini bajarish jarayonida vakolatlar kesishib ketgan hollarda yoki natija uchun javobgarlik darajasi aniq belgilanmagan vaziyatlarda nizolar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Shuningdek, konfliktlarning kelib chiqishida psixologik omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Shaxslarning xarakter xususiyatlari, temperamentlari, hissiy barqarorligi va kommunikativ ko‘nikmalaridagi farqlar ko‘pincha jamoa ichidagi munosabatlarga ta’sir qiladi. Ayniqsa, emotsional intellekt darajasi past bo‘lgan shaxslarda nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Natijada oddiy ishchi munozaralar ham shaxsiy qarama-qarshiliklarga aylanib ketishi mumkin.

Konfliktlarni samarali boshqarishning asosiy maqsadi ularni bartaraf etish emas, balki konstruktiv yo‘nalishga yo‘naltirishdan iborat. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konfliktlarni to‘liq yo‘qotishga qaratilgan yondashuvlar ko‘pincha yashirin qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli rivojlangan davlatlar amaliyotida konfliktlarni boshqarish tizimi tashkilot boshqaruvining muhim elementi sifatida qaralmoqda.

Konfliktlarni murosaga olib kelishda eng samarali vositalardan biri muzokaralar hisoblanadi. Muzokaralar jarayonida tomonlar o‘z manfaatlarini himoya qilgan holda umumiy yechim topishga harakat qiladilar. Ushbu usulning afzalligi shundaki, qaror tomonlarning o‘zlari tomonidan qabul qilinadi va uning bajarilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, mehnat jamoalarida ochiq muloqot va o‘zaro fikr almashish imkoniyatining mavjudligi nizolarning keskinlashuvining oldini oladi.

So‘nggi yillarda mediatsiya instituti konfliktlarni hal etishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mediatsiya jarayonida mustaqil vositachi tomonlar o‘rtasida muloqotni tashkil etadi va ularning o‘zaro maqbul kelishuvga erishishiga ko‘maklashadi. Ushbu usul sud yoki ma’muriy tartibdagi nizolarni ko‘rib chiqishga nisbatan kam xarajat talab qilishi hamda munosabatlarni saqlab qolish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, AQSh, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda konfliktlarni boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur davlatlarda korporativ madaniyat, ichki kommunikatsiya tizimi va xodimlarning fikrini erkin bildirish

mexanizmlari rivojlanganligi sababli konfliktlar ko‘pincha dastlabki bosqichdayoq bartaraf etiladi. Natijada mehnat unumdorligi va jamoaviy hamkorlik darajasi yuqori bo‘ladi.

O‘zbekiston tashkilotlari faoliyatida ham konfliktlarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurati mavjud. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab tashkilotlarda nizolar yuzaga kelganidan keyingina ularga e’tibor qaratiladi. Vaholanki, konfliktlarni erta aniqlash va profilaktika choralarini ko‘rish ularning salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan tashkilotlarda muntazam so‘rovnomalar o‘tkazish, ochiq muloqot platformalarini yaratish va rahbarlarning konfliktologik kompetensiyalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoalarda yuzaga keladigan konfliktlarning asosiy sabablari kommunikatsiya muammolari, vakolatlar noaniqligi, adolatsiz baholash tizimi hamda shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liqdir. Shu bois konfliktlarni boshqarish tizimi nafaqat nizolarni hal etishga, balki ularning oldini olishga ham qaratilishi lozim.

Muallifning fikricha, jamoalarda konfliktlarni kamaytirishning samarali modeli uchta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga olishi kerak: birinchidan, ochiq va shaffof kommunikatsiya tizimini shakllantirish; ikkinchidan, rahbar va xodimlarning konfliktologik hamda emotsional intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish; uchinchidan, mediatsiya va muzokaralar mexanizmlarini tashkilot faoliyatiga keng joriy etish. Mazkur yondashuvlar jamoalarda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, xodimlarning motivatsiyasini oshirish va tashkilot samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Maqola yozish jarayonida konfliktlarni boshqarish masalalarini o‘rganishda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, ilmiy umumlashtirish hamda konfliktologik yondashuv usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali konfliktlarning kelib chiqish omillari, ularning jamoa faoliyatiga ta’siri va ularni konstruktiv hal etish mexanizmlari tahlil qilindi.

Konfliktologiya nazariyasida konfliktlarni boshqarishning bir nechta usullari mavjud bo‘lib, ular orasida Thomas–Kilmann modeli keng qo‘llaniladi. Ushbu modelga ko‘ra konfliktlarni hal etishning beshta asosiy strategiyasi ajratiladi: raqobat (competition), moslashish (accommodation), chekinish (avoidance), kompromiss (compromise) va hamkorlik (collaboration). Raqobat strategiyasida tomonlardan biri o‘z manfaatlarini ustuvor deb hisoblaydi, moslashish usulida esa tomonlardan biri qarama-qarshilikni yumshatish maqsadida yon beradi. Chekinish strategiyasi konfliktli vaziyatdan vaqtinchalik uzoqlashishni nazarda tutsa, kompromiss usuli tomonlarning o‘zaro yon berishi asosida murosaga erishishni ta’minlaydi. Hamkorlik strategiyasi esa tomonlarning manfaatlarini birgalikda qondirishga qaratilgan bo‘lib, eng samarali yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Jamoalarda konfliktlarni murosaga olib kelishda muzokaralar alohida ahamiyat kasb etadi. Muzokaralar jarayonida tomonlar o‘z pozitsiyalarini asoslab berish, mavjud kelishmovchiliklarning sabablarini aniqlash va o‘zaro maqbul yechim topishga intiladilar. Samarali muzokaralar nafaqat nizoni bartaraf etadi, balki jamoa a’zolari o‘rtasidagi ishonch va hamkorlik munosabatlarini ham mustahkamlaydi. Shu sababli zamonaviy tashkilotlarda muzokaralar olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish inson resurslarini boshqarish tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda konfliktlarni hal etishning muqobil usuli sifatida mediatsiya instituti keng rivojlanmoqda. Mediatsiya jarayonida mustaqil va betaraf vositachi tomonlar o‘rtasida muloqotni tashkil etib, ularning o‘zaro manfaatli kelishuvga erishishiga

ko‘maklashadi. Mediatsiyaning afzalligi shundaki, unda qaror tashqaridan majburan yuklatilmaydi, balki tomonlarning o‘zlari tomonidan qabul qilinadi. Bu esa erishilgan kelishuvning barqarorligi va ijro etilish darajasini oshiradi. Xalqaro tajriba mediatsiya usulining mehnat jamoalarida yuzaga keladigan nizolarni hal etishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shunday qilib, konfliktlarni boshqarishda yagona universal usul mavjud emas. Har bir vaziyatning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, muzokara, mediatsiya, kompromiss yoki hamkorlik strategiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq uzoq muddatli natijadorlik nuqtai nazaridan hamkorlik va o‘zaro manfaatlarni hisobga oluvchi yondashuvlar eng samarali usullar sifatida baholanadi. Xulosa qilib aytganda, konfliktlar har qanday jamoa faoliyatining tabiiy qismi bo‘lib, ularni samarali boshqarish tashkilot rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari konfliktlarning asosiy sabablari kommunikatsiya muammolari, vakolatlarning noaniq taqsimlanishi va shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shuningdek, muzokaralar, mediatsiya va hamkorlik strategiyalaridan foydalanish jamoalarda konstruktiv murosaga erishish hamda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: 2018.

2. Abdurahmonov Q.X. Inson resurslarini boshqarish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

3. Vohidov R. Konfliktologiya va muzokaralar nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021.

4. International Labour Organization. Workplace Conflict Management Guidelines. – Geneva, 2023.

5. Fisher R., Ury W. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. – New York: Penguin Books, 2011.

Dilfuza ZAYNIDDINOVA,
"TOSHKENT XALQARO MOLIYAVIY BOSHQARUV VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" nodavlat oliy ta'lim muassasasi, talaba

MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARI MUAMMOSI VA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining shakllanishi, ulardan foydalanish xususiyatlari, mavjud ekologik va geosiyosiy muammolar hamda barqaror boshqaruv istiqbollari kompleks yoritilgan. Mintaqaning asosiy suv manbalari bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari transchegaraviy xarakterga ega bo'lib, suv resurslarini taqsimlash masalasi davlatlararo hamkorlikni talab etadi. Iqlim o'zgarishi, muzliklarning degradatsiyasi, irrigatsiya tizimlarining eskirganligi, demografik o'sish hamda iqtisodiy transformatsiya jarayonlari mintaqada suv xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi fikr yuritilgan. Shuningdek, Orol dengizi inqirozi suv resurslarini noto'g'ri boshqarishning ekologik oqibati sifatida ko'rib chiqilb, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IWRM), suv diplomatiyasi, suv-energetika almashinuvi mexanizmlari va zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish istiqbollari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar. Transchegaraviy suv resurslari, suv xavfsizligi, irrigatsiya, gidroenergetika, iqlim o'zgarishi, muzliklar degradatsiyasi, Orol dengizi inqirozi, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IWRM), suv diplomatiyasi, barqaror rivojlanish.

В статье комплексно освещаются формирование водных ресурсов в Центральноазиатском регионе, особенности их использования, существующие экологические и геополитические проблемы, а также перспективы устойчивого управления. Бассейны Амударьи и Сырдарьи, являющиеся основными источниками воды в регионе, носят трансграничный характер, и вопрос распределения водных ресурсов требует межгосударственного сотрудничества. Изменение климата, деградация ледников, устаревание ирригационных систем, демографический рост и процессы экономической трансформации оказывают серьезное влияние на водную безопасность в регионе. Также кризис Аральского моря рассматривается как экологическое последствие неправильного управления водными ресурсами, на научной основе анализируются перспективы внедрения интегрированного управления водными ресурсами (IWRM), водной дипломатии, механизмов водно-энергетического обмена и современных водосберегающих технологий.

Ключевые слова. Трансграничные водные ресурсы, водная безопасность, ирригация, гидроэнергетика, изменение климата, деградация ледников, кризис Аральского моря, интегрированное управление водными ресурсами (ИУВР), водная дипломатия, устойчивое развитие.

The article comprehensively covers the formation of water resources in the Central Asian region, the specifics of their use, existing environmental and geopolitical challenges, and the prospects for sustainable management. The basins of the Amu Darya and Syr Darya, the region's primary water sources, are transboundary in nature, and the issue of water resource distribution requires interstate cooperation. Climate change, glacier degradation, the obsolescence of irrigation systems, demographic growth, and economic transformation processes have a serious impact on water security in the region. Furthermore, the Aral Sea crisis is considered an environmental consequence of improper water resource management, and the prospects for implementing integrated water resource management (IWRM), water diplomacy, water-energy exchange mechanisms, and modern water-saving technologies are analyzed on a scientific basis.

Key words. Transboundary water resources, water security, irrigation, hydropower, climate change, glacier degradation, Aral Sea crisis, integrated water resources management (IWRM), water diplomacy, sustainable development.

Markaziy Osiyo mintaqasi tabiiy-iqlim sharoiti jihatidan asosan qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlardan iborat bo‘lib, suv resurslari iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Mintaqa tarkibiga O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari kiradi. Ushbu davlatlarning aksariyatida yalpi ichki mahsulot tarkibida agrar sektor muhim ulushga ega bo‘lib, suv resurslariga yuqori darajada bog‘liqdir.

Markaziy Osiyodagi suv resurslarining 80 foizdan ortig‘i tog‘li hududlarda shakllanadi. Xususan, Qirg‘iziston va Tojikiston hududlarida joylashgan muzliklar hamda tog‘ daryolari mintaqaning asosiy suv manbai hisoblanadi. Pastki oqim hududlarida joylashgan O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston esa asosan sug‘orish, sanoat va ichimlik suvi ehtiyojlari uchun ushbu resurslardan foydalanadi.

Suv resurslarining notekis geografik taqsimlanishi, transchegaraviy xarakteri hamda iqtisodiy manfaatlarning farqliligi mintaqada suv resurslarini boshqarish masalasini murakkab geosiyosiy va geoiqtisodiy muammoga aylantirgan. Shu sababli Markaziy Osiyoda suv muammosi nafaqat ekologik, balki siyosiy barqarorlik va mintaqaviy xavfsizlik masalasi sifatida ham qaraladi.

1. Markaziy Osiyoda suv resurslarining shakllanishi va gidrologik xususiyatlari

Markaziy Osiyoning gidrologik tizimi asosan Amudaryo va Sirdaryo havzalariga tayanadi. Ushbu daryolar qor va muzlik suvlari hisobiga to‘yinadi. Mintaqada mavjud muzliklar iqlim tizimining muhim elementi bo‘lib, ular tabiiy suv ombori vazifasini bajaradi. Yoz oylarida muzliklarning erishi natijasida daryolarning suv sarfi ortadi, bu esa irrigatsiya mavsumida suv ta’minotini ta’minlaydi.

Biroq so‘nggi o‘n yilliklarda global iqlim o‘zgarishi tufayli muzliklarning qisqarishi kuzatilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ayrim hududlarda muzliklar maydoni 20–30 foizgacha kamaygan. Bu uzoq muddatli istiqbolda daryo oqimining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, suv resurslari mavsumiy notekislik xususiyatiga ega. Bahor va yoz oylarida suv hajmi ortadi, kuz va qishda esa kamayadi. Ushbu mavsumiy tafovut suvni saqlash va boshqarish tizimlarini takomillashtirishni talab etadi.

2. Irrigatsiya tizimi va suvdan foydalanish samaradorligi

Markaziy Osiyo mamlakatlarida irrigatsiya tizimi keng rivojlangan. Sug‘oriladigan yerlar umumiy qishloq xo‘jaligi yerlarining katta qismini tashkil etadi. Ayniqsa, paxta yetishtirish siyosati tarixan suv resurslarining intensiv iste’moliga olib kelgan.

Irrigatsiya infratuzilmasining aksariyati sovet davrida barpo etilgan bo‘lib, bugungi kunda texnologik jihatdan eskirgan. Ochiq kanallar orqali suv uzatish jarayonida katta miqdorda suv bug‘lanish va filtratsiya orqali yo‘qotiladi. Ba’zi hisob-kitoblarga ko‘ra, suvning 35–40 foizi manzilga yetib bormasdan yo‘qoladi.

Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish va lazerli yer tekislash kabi innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Biroq ularning keng qo‘llanilishi uchun moliyaviy resurslar va institutsional islohotlar talab etiladi.

3. Orol dengizi inqirozi: ekologik falokat saboqlari

Markaziy Osiyoda suv resurslarini noto‘g‘ri boshqarishning eng dramatik oqibati – Orol dengizi inqirozidir. XX asrning ikkinchi yarmida Amudaryo va Sirdaryo suvlarining katta qismi irrigatsiyaga yo‘naltirilishi natijasida dengiz sathi keskin pasaydi.

Natijada dengiz maydoni bir necha barobar qisqardi, suvning sho‘rlanish darajasi ortdi va baliqchilik xo‘jaligi deyarli yo‘qoldi. Qurigan dengiz tubidan ko‘tarilayotgan tuz

va chang zarralari yuzlab kilometr masofaga tarqalib, tuproq degradatsiyasi va aholi salomatligiga zarar yetkazmoqda. Ushbu ekologik inqiroz suv resurslarini boshqarishda uzoq muddatli ekologik omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

4. Suv-energetika muvozanati va mintaqaviy hamkorlik

Yuqori oqim davlatlari gidroenergetika salohiyatidan foydalanishga intiladi, chunki tog‘li hududlar katta gidroenergetik imkoniyatlarga ega. Pastki oqim davlatlari esa suvni asosan irrigatsiya ehtiyojlari uchun talab qiladi. Shu sababli “suv-energetika almashinuvi” modeli muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur modelga ko‘ra, yuqori oqim davlatlari yoz oylarida suvni irrigatsiya uchun chiqaradi, evaziga qishda energiya resurslari bilan ta’minlanadi. Biroq ushbu mexanizm samarali ishlashi uchun siyosiy ishonch va institutsional kelishuvlar zarur.

5. Iqlim o‘zgarishi va suv xavfsizligi

Iqlim o‘zgarishi Markaziy Osiyoda suv xavfsizligiga bevosita tahdid solmoqda. Haroratning ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik rejimining o‘zgarishi hamda qurg‘oqchilik davrlarining ko‘payishi suv resurslari barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Suv xavfsizligi tushunchasi nafaqat suvning mavjudligi, balki uning sifati, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror taqsimlanishini ham anglatadi. Shu bois suv resurslarini boshqarishda kompleks yondashuv zarur.

6. Integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IWRM) konsepsiyasi

Integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IWRM) konsepsiyasi suv, yer va ekologik resurslarni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Ushbu yondashuv suvdan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy tenglik va ekologik barqarorlik tamoyillarini uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

Mintaqada IWRM tamoyillarini joriy etish orqali suvni hisobga olish tizimini takomillashtirish, raqamli monitoring mexanizmlarini yaratish va suv diplomatiyasini rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, markaziy Osiyoda suv resurslari muammosi ko‘p qirrali va tizimli xarakterga ega. U iqlim o‘zgarishi, demografik o‘sish, iqtisodiy transformatsiya va transchegaraviy manfaatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Amudaryo va Sirdaryo havzalarining strategik ahamiyati mintaqada suv resurslarini adolatli va barqaror boshqarishni talab etadi.

Orol dengizi inqirozi suv siyosatidagi xatolarning ekologik oqibatlarini yaqqol namoyon etdi. Kelajakda suv xavfsizligini ta’minlash uchun davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, suv tejovchi agrotexnologiyalarni rivojlantirish va integratsiyalashgan boshqaruv modelini qo‘llash zarur.

Suv resurslarini barqaror boshqarish Markaziy Osiyoning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi va mintaqaviy barqarorligining asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Micklin P. (2007). The Aral Sea Disaster. Annual Review of Earth and Planetary Sciences.

2. Rahmatullaev S., Huneau, F. (2013). Water resources management in Central Asia.

3. World Bank (2019). Central Asia Water Management Review.

4. UN Water (2020). Integrated Water Resources Management Guidelines.

5. FAO (2018). Irrigation in Central Asia in Figures.

6. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi rasmiy ma’lumotlari.

Dilnoza XOLIQULOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

MEHRLI MAKTAB O‘QUVCHILARINING IJTIMOIY MOSLASHUVCHANLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI

Annotatsiya

Maqolada uzoq muddat davolanish jarayonida bo‘lgan va shu sababli gospital (kasalxona qoshidagi) maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqotda AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Yaponiyaning gospital pedagogikasi sohasidagi amaliyotlari qiyosiy tahlil metodi asosida o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda gospital maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda kompleks yondashuv – psixologik-pedagogik yordam, “Child Life” mutaxassislari faoliyati, raqamli texnologiyalar (teleprisutstvie robotlari, video ko‘prik darslari), oila bilan ishlash va tengdoshlar bilan muloqotni tashkil etish tizimlari muhim o‘rin tutadi.

Tayanch so‘zlar. Gospital maktab, ijtimoiy moslashuvchanlik, inklyuziv ta’lim, gospital pedagogikasi, reabilitatsiya, xorijiy tajriba, bemor bolalar ta’limi.

В статье анализируется зарубежный опыт развития навыков социальной адаптации учащихся, находящихся в процессе длительного лечения и обучающихся по этой причине в госпитальных (прибольничных) школах. В исследовании на основе метода сравнительного анализа изучена практика в области госпитальной педагогики США, Германии, Великобритании, Финляндии, Южной Кореи и Японии. Результаты показали, что в развитых странах важную роль в обеспечении социальной адаптации учащихся госпитальных школ играют комплексный подход - психолого-педагогическая помощь, деятельность специалистов "Child Life," цифровые технологии (роботы телеприсутствия, уроки видеомоста), системы работы с семьей и организации общения со сверстниками.

Ключевые слова. Госпитальная школа, социальная адаптация, инклюзивное образование, госпитальная педагогика, реабилитация, зарубежный опыт, образование больных детей.

The article analyzes foreign experience in developing social adaptation skills among students who have been undergoing long-term treatment and are therefore studying in hospital schools. The study examined the practices of the USA, Germany, Great Britain, Finland, South Korea, and Japan in the field of hospital pedagogy using the comparative analysis method. The results showed that in developed countries, a comprehensive approach plays an important role in ensuring the social adaptation of hospital school students: psychological and pedagogical assistance, the activities of "Child Life" specialists, digital technologies (telepresence robots, video bridge lessons), family work, and systems for organizing communication with peers.

Key words. Hospital school, social adaptation, inclusive education, hospital pedagogy, rehabilitation, foreign experience, education of sick children.

So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo pedagogikasida alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar, jumladan, uzoq muddatli yoki og‘ir kasalliklar sababli davolanish muassasalarida bo‘lishga majbur bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim olish huquqini ta’minlash masalasi dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bunday o‘quvchilar odatiy maktab muhitidan uzoq vaqt ajralib qolishi natijasida nafaqat bilim olishda, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida ham jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Kasallik

jarayonida bola tengdoshlari bilan muloqotdan mahrum bo‘ladi, o‘qishdan orqada qoladi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasayadi va jamiyatga qaytganda moslasha olmaslik xavfi yuzaga keladi.

Aynan shu muammoni bartaraf etish maqsadida ko‘plab rivojlangan davlatlarda “gospital maktab” (hospital school) tizimi yaratilgan bo‘lib, u kasalxona sharoitida bo‘lgan o‘quvchilarga nafaqat davlat ta’lim standartlariga mos bilim berish, balki ularning psixologik-ijtimoiy holatini qo‘llab-quvvatlash vazifasini ham bajaradi. Mehrli maktab – bu kasalxona yoki reabilitatsiya markazi qoshida faoliyat yurituvchi, o‘quvchining sog‘lig‘i imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirilgan o‘quv dasturlari asosida ishlaydigan ta’lim bo‘g‘ini hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuvchanlik – shaxsning o‘zgaruvchan ijtimoiy muhit sharoitlariga moslasha olish, yangi jamoa a’zolari bilan samarali muloqot o‘rnatish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish hamda hayotiy vaziyatlarga konstruktiv yondashish qobiliyatidir. Uzoq muddat davolanish jarayonida bo‘lgan bolalarda ushbu ko‘nikmalarning shakllanishi bir qator omillar – ijtimoiy izolyatsiya, jismoniy cheklovlar, hissiy stress, ota-onalarning ortiqcha g‘amxo‘rligi kabi holatlar tufayli murakkablashadi [10].

Xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, gospital maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta’minlash faqat pedagogik emas, balki tibbiy, psixologik va ijtimoiy xizmatlarning uyg‘un hamkorligini talab qiladi. Xususan, AQSHda “Child Life” mutaxassisligi [3], Germaniyada “Krankenhauspädagogik” (kasalxona pedagogikasi) yo‘nalishi [5], Buyuk Britaniyada “Hospital and Home Education Service” tizimi [4], Janubiy Koreya va Yaponiyada esa raqamli texnologiyalarga asoslangan masofaviy ishtirok modellari [9, 10] keng qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, shu jumladan, uzoq muddat davolanuvchi bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash borasida qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lsada [1, 2], gospital pedagogikasi va bunday o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlash masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli xorijiy tajribani ilmiy tahlil qilish va milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribani chuqur o‘rganish, birinchidan, ilmiy-nazariy ahamiyatga ega – chunki u gospital pedagogikasi va ijtimoiy moslashuv nazariyalarini boyitadi; ikkinchidan, amaliy ahamiyatga ega – chunki uning natijalari asosida O‘zbekistonda tegishli me’yoriy hujjatlar, uslubiy qo‘llanmalar va kadrlar tayyorlash dasturlarini takomillashtirish mumkin. Shuningdek, mazkur mavzu ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki sog‘ligi tufayli vaqtincha imkoniyati cheklangan har bir bola ta’lim va ijtimoiy rivojlanishda teng huquqqa ega bo‘lishi lozim.

Tadqiqot metodologik jihatdan sifat tadqiqotlari toifasiga kiradi va quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Qiyosiy-tahliliy metod – turli mamlakatlarning gospital ta’lim tizimlariga oid rasmiy hujjatlar, ta’lim dasturlari va ilmiy adabiyotlarni o‘zaro qiyoslash orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlash uchun qo‘llanildi.

2. Kontent-tahlil metodi – AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Yaponiyaning ta’lim vazirliklari, sog‘liqni saqlash tashkilotlari hamda ixtisoslashgan assotsiatsiyalarining (masalan, Association of Child Life Professionals, National Association for Hospital Education) rasmiy hujjatlari, hisobotlari va uslubiy qo‘llanmalari mazmuni tahlil qilindi [3, 4].

3. Sistemali tahlil metodi – gospital maktablardagi ijtimoiy moslashuvni ta’minlov-

chi omillarni (pedagogik, psixologik, tibbiy, texnologik) yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi.

4. Induktiv-deduktiv tahlil – xususiy amaliy holatlar (masalan, alohida davlatlarning dasturlari) asosida umumiy xulosalar chiqarish, so‘ngra ularni O‘zbekiston sharoitiga nisbatan qo‘llash imkoniyatlarini baholash uchun qo‘llanildi.

Tadqiqot manbalari sifatida 2010–2025-yillar oralig‘ida chop etilgan xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalar, YuNESKO va JSST (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti)ning bolalar ta’limi va sog‘lig‘iga oid hisobotlari [6, 7], shuningdek, tegishli davlatlarning ta’lim vazirliklari veb-resurslarida joylashtirilgan rasmiy hujjatlar tanlab olindi. Manbalarni tanlashda ularning ilmiy asoslanganligi, dolzarbligi va amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratildi.

Tahlil jarayonida gospital maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlovchi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilar belgilandi: tengdoshlar bilan muloqot darajasi, jamoaviy faoliyatda ishtirok etish imkoniyati, hissiy-psixologik barqarorlik, o‘quv jarayoniga qaytish (reintegratsiya) tezligi va oila bilan o‘zaro hamkorlik sifati.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida gospital maktablarda “Child Life Specialist” (bolalar hayoti mutaxassisi) lavozimi mavjud bo‘lib, ular davolanish jarayonida bo‘lgan bolalarning hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan shug‘ullanadi. Ushbu mutaxassislar o‘yin terapiyasi, ijodiy mashg‘ulotlar va guruhli faoliyatlar orqali bolalarning stress darajasini pasaytiradi hamda ularni tengdoshlari bilan muloqotga jalb qiladi. Shuningdek, ko‘plab kasalxonalarda “sinf xonalari” tashkil etilgan bo‘lib, u yerda turli yoshdagi bolalar birgalikda mashg‘ulot o‘tkazadi, bu esa ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Video aloqa texnologiyalari yordamida bemor o‘quvchi o‘z sinfdoshlari bilan real vaqt rejimida muloqot qilish, hatto darslarda masofadan ishtirok etish imkoniyatiga ega [3].

Germaniyada “Krankenhauspädagogik” (kasalxona pedagogikasi) yo‘nalishi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu mutaxassislar nafaqat o‘quv fanlaridan dars beradi, balki bolaning hissiy holatini kuzatib boradi va zarur hollarda maktab psixologi bilan hamkorlikda ishlaydi. Germaniya modelining o‘ziga xos jihati – “kichik guruhlar” tamoyili bo‘lib, unda bir vaqtning o‘zida 2–5 nafar bemor bola birgalikda mashg‘ulot o‘tkazadi, bu esa individual ta’limga qaraganda ijtimoiy muloqot imkoniyatini kengaytiradi. Bundan tashqari, “maktabga qaytish” (Reintegration) dasturi doirasida bola sog‘ayib, odatiy maktabiga qaytganda, gospital pedagog va sinf rahbari o‘rtasida axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu bolaning yangi jamoaga tezroq moslashishiga yordam beradi [5].

Buyuk Britaniyada mahalliy ta’lim boshqarmalari qoshida faoliyat yurituvchi “Hospital and Home Education Service” tizimi mavjud bo‘lib, u uzoq muddat davolanayotgan yoki uyda parvarishlanayotgan o‘quvchilarga individual o‘quv rejasi asosida ta’lim beradi. Bu tizimning muhim tarkibiy qismi – “buddy system” (do‘stlik tizimi) bo‘lib, unda bemor bolaga odatiy maktabidan bitta sinfdoshi biriktiriladi va ular muntazam yozishma, video qo‘ng‘iroqlar orqali aloqada bo‘ladi. Bu amaliyot bolaning tengdoshlar jamoasidan uzilib qolmasligini ta’minlaydi va kasalxonadan chiqqach ijtimoiy moslashuvni sezilarli darajada osonlashtiradi [4].

Finlyandiyaning ta’lim tizimi bolaning umumiy farovonligini (well-being) ta’lim sifati bilan bir xil darajada muhim deb hisoblaydi. Gospital maktablarda “multidisiplinar jamoa” tamoyili qo‘llaniladi – bunda pedagog, psixolog, ijtimoiy xodim va tibbiyot xodimi birgalikda har bir bola uchun individual qo‘llab-quvvatlash rejasini ishlab chiqadi. Fin-

lyandiya modelida o‘yin va ijodiy faoliyatga katta e’tibor qaratiladi, chunki bu faoliyat turlari orqali bola stressni yengish va ijtimoiy ko‘nikmalarni tabiiy tarzda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [8].

Janubiy Koreya va Yaponiyada gospital maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda raqamli texnologiyalar, xususan, “teleprisutstvie robotlari” (telepresence robots) keng qo‘llaniladi. Bunday robotlar bemor o‘quvchining o‘rniga sinfda “ishtirok etadi” – ekran orqali bola darsni kuzatishi, savol berishi va sinfdoshlari bilan muloqot qilishi mumkin. Bu yondashuv, ayniqsa, immunitet tizimi zaif bo‘lgan va jismonan kasalxonadan chiqa olmaydigan bolalar uchun ijtimoiy aloqani uzmaslikning samarali vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur davlatlarda virtual reallik texnologiyalaridan foydalangan holda guruhli o‘yin va loyiha faoliyatlari tashkil etilib, bu bolalarning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [8, 9].

Avstraliyada aholi hududlar bo‘ylab notekis joylashganligi sababli “School of the Air” va shunga o‘xshash masofaviy ta’lim tizimlari uzoq muddat davolanuvchi bolalar uchun ham moslashtirilgan. Bunday tizimlarda bola nafaqat o‘qituvchisi bilan, balki bir xil holatdagi boshqa bemor o‘quvchilar bilan ham virtual sinf orqali muloqot qiladi, bu esa geografik jihatdan uzoqda joylashgan bo‘lsa-da, ijtimoiy izolyatsiyani sezilarli darajada kamaytiradi. Avstraliya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnologik yechimlar nafaqat yirik shaharlardagi kasalxonalar, balki chekka hududlardagi bemor o‘quvchilar uchun ham teng imkoniyat yaratishi mumkin.

Yuqoridagi tahlil asosida xorijiy tajribada gospital maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlovchi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– professional psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlash;

– bemor o‘quvchi va uning odatiy sinfi o‘rtasida uzluksiz aloqani ta’minlovchi mexanizmlar (video ko‘prik, do‘stlik tizimi, teleprisutstvie);

– kichik guruhli va jamoaviy shaklda tashkil etilgan o‘quv-tarbiyaviy faoliyat;

– oila bilan faol hamkorlik va ota-onalarni psixologik jihatdan tayyorlash;

– sog‘ayib chiqqandan so‘ng odatiy ta’lim muhitiga qaytishni ta’minlovchi reintegratsiya dasturlari.

Xitoyning yirik shaharlaridagi bolalar onkologiya markazlari qoshida tashkil etilgan “Hospital classroom” loyihalari doirasida universitet talabalari va ko‘ngillilardan tashkil topgan tarmoq faoliyat yuritadi. Ular haftalik asosda kasalxonaga tashrif buyurib, o‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari, ijtimoiy-madaniy tadbirlar (bayramlar, ijodiy ko‘rgazmalar, sport musobaqalari) tashkil etadi. Bunday tadbirlar bemor bolalarning o‘zini kasalxona devorlaridan tashqarida ham “oddiy” bola sifatida his qilishiga yordam beradi. Kanadada esa “SickKids” kabi yirik pediatriya kasalxonalari qoshida “Peer Support Program” joriy etilgan bo‘lib, unda avval shunga o‘xshash tajribadan o‘tgan, hozirda sog‘aygan bolalar yangi bemor bolalarga mentor sifatida biriktiriladi. Bu amaliyot bemor bolada “men yolg‘iz emasman” hissini shakllantiradi va ijtimoiy moslashuv jarayonini ancha yengillashtiradi.

Shuningdek, Kanada tajribasida oilaviy markazlashgan yordam tamoyili alohida o‘rin tutadi: nafaqat bola, balki uning aka-uka, opa-singillari uchun ham psixologik maslahat xizmatlari tashkil etilgan bo‘lib, bu butun oilaning ijtimoiy barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv bolaning kasalxonadan chiqqach oilaviy va maktab muhitiga qaytishini yanada silliqlashtiradi.

Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, xorijiy davlatlarning barchasida gospital maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirish alohida, ajratilgan chora sifatida emas, balki yaxlit ta’lim-tarbiya va tibbiy-psixologik xizmat tizimining tarkibiy qismi sifatida yo‘lga qo‘yilgan. Bu holat mazkur muammoning kompleks tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi – ya’ni faqat pedagogik vositalar bilan cheklanib qolish yetarli natija bermaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, AQSH va Germaniya modellari asosan “inson resursi” – ya’ni maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislar (Child Life Specialist, Krankenhauspädagoge) faoliyatiga tayanadi, Buyuk Britaniya va Finlyandiya modellari esa tizimli hamkorlik va ijtimoiy tarmoqni saqlab qolishga (buddy system, multidisiplinar jamoa) urg‘u beradi. Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasi esa texnologik innovatsiyalarga asoslangan bo‘lib, bu ayniqsa yuqori texnologik salohiyatga ega mamlakatlar uchun xarakterlidir. Shu bilan birga, barcha modellarda umumiy jihat mavjud: bolaning tengdoshlar jamoasi bilan aloqasini uzmaslik va uni faol ijtimoiy sub’ekt sifatida ko‘rish tamoyili.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, xorijiy tajribada ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish nafaqat kasalxonada bo‘lish davrida, balki bola sog‘ayib, odatiy maktabga qaytgandan keyingi davrni ham qamrab oladi. Bu – reintegratsiya bosqichi – ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan, ammo ijtimoiy moslashuv nuqtai nazaridan eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi, chunki aynan shu davrda bola o‘zining “boshqacha”ligini his qilishi, tengdoshlaridan orqada qolganligi tufayli ijtimoiy tashvish kechirishi mumkin.

O‘zbekiston sharoiti bilan solishtirganda, mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimi rivojlantirilayotgan bo‘lsa-da, uzoq muddat davolanuvchi bolalarga ixtisoslashgan gospital pedagogikasi yo‘nalishi hali institutsional jihatdan shakllanmagan. Kadrlar tayyorlash tizimida “gospital pedagog” yoki unga muqobil mutaxassislik mavjud emas, bemor o‘quvchi va uning sinfi o‘rtasidagi aloqani ta’minlovchi rasmiy mexanizmlar ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, mamlakatda raqamli ta’lim infratuzilmasining rivojlanib borayotganligi (masofaviy ta’lim platformalari, video aloqa vositalari) Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasidagi texnologik yechimlarni moslashtirish uchun qulay zamin yaratmoqda.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular O‘zbekiston Respublikasida gospital pedagogikasi yo‘nalishini institutsionalizatsiya qilish, tegishli me’yoriy-huquqiy baza va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ayni paytda, tadqiqotning cheklovi sifatida shuni ta’kidlash lozimki, ushbu ish nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, xorijiy tajribaning O‘zbekiston sharoitida amaliy sinovdan o‘tkazilishi kelgusi tadqiqotlar mavzusi bo‘lishi lozim.

Yana bir muhim jihat – xorijiy tajribada ijtimoiy moslashuvchanlikni baholash uchun aniq mezonlar va monitoring tizimlari ishlab chiqilgan. Masalan, Germaniya va Finlyandiyada har bir bemor o‘quvchi uchun individual rivojlanish kartasi yuritiladi, unda o‘quv ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda ijtimoiy-hissiy holat ham muntazam qayd etib boriladi [5, 8]. Bu esa pedagog va psixologlarga zarur hollarda o‘z vaqtida aralashish (intervensiya) imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida bunday monitoring tizimini joriy etish, xususan, sog‘liqni saqlash va xalq ta’limi tizimlari o‘rtasida axborot almashinuvini raqamlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tadqiqot davomida yana shu narsa aniqlandiki, ko‘pgina xorijiy modellarda nafaqat bolaning o‘zi, balki uni davolayotgan tibbiyot xodimlari ham ijtimoiy-pedagogik jarayonga jalb etiladi. Xususan, hamshira va shifokorlar bilan pedagoglar o‘rtasida

muntazam maslahatlashuvlar tashkil etilib, bu orqali bolaning jismoniy holatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy faollik darajasi individual tarzda belgilanadi. Bunday hamkorlik modeli O‘zbekiston sog‘liqni saqlash muassasalarida ham tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi, chunki u tibbiyot va pedagogika sohalari o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etishga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Mehrli maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirish xorijiy davlatlarda yaxlit, ko‘p tarmoqli tizim sifatida tashkil etilgan bo‘lib, unda pedagogik, psixologik, tibbiy va texnologik vositalar uzviy bog‘langan holda qo‘llaniladi.

AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasi turli yondashuvlarni namoyon etsa-da, ularning barchasida bemor o‘quvchi bilan uning odatiy tengdoshlar jamoasi o‘rtasidagi aloqani uzmaslik markaziy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar (telepresence robotlari, video darslari, masofaviy ishtirok platformalari) gospital maktab o‘quvchilarining ijtimoiy izolyatsiyasini kamaytirishning samarali vositasi sifatida tobora ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston sharoitida gospital pedagogikasi yo‘nalishini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: gospital pedagog mutaxassisligini kadrlar tayyorlash tizimiga kiritish; bemor o‘quvchi va uning maktabi o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlovchi rasmiy mexanizm yaratish; kasalxonalarda o‘quv-ijodiy xonalar tashkil etish; oilalar bilan ishlash bo‘yicha psixologik xizmatni kuchaytirish; shuningdek, masofaviy ishtirok imkonini beruvchi raqamli platformalarni joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-maydagi “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 234-sonli qarori.

2. Association of Child Life Professionals. Official Documentation on Child Life Practice in Pediatric Healthcare Settings.

3. National Association for Hospital Education (NAHE), United Kingdom. Guidelines for Hospital and Home Education Services.

4. Bundesverband Krankenhauspädagogik E.V. (Germaniya). Krankenhauspädagogik: Grundlagen und Praxis.

5. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All.

6. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST). Reports on Child and Adolescent Health and Development.

7. Finnish National Agency for Education. Well-being and Learning Support in Finnish Schools.

8. Ministry of Education, Republic of Korea. Digital Learning Support for Students with Long-term Illness.

9. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology of Japan (MEXT). Support Systems for Hospitalized Students.

10. Vygotskiy L.S. Bola rivojlanishida ijtimoiy muhitning o‘rni. — Pedagogika nazariyasi asarlari.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, E’zozxon KARIMOVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Shaxnoza XALILOVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Muhammad Xurshida Tolibovna

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2026.